



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 2-son (120) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

- | | |
|---------------------------|--|
| S. S. G'ULOMOV | - O'zFA akademigi |
| A. SAGDULLAEV | - O'zFA akademigi |
| J. D. ELTAZAROV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| D. I. SALOHIY | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| S. A. KARIMOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| M. MUXIDDINOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| S. K. KARIMOV | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| J. Ya. YAXSHILIKOV | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| N. Sh. SHODIEV | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| A. M. JABBAROV | - psix.f.d., professor (SamDU) |
| Sh. R. BARATOV | - psix.f.d., professor (SamDU) |
| TAMIR KLEIN | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| NAZIF SHAHRANY | - Indiana universiteti professori (AQSh) |
| HIROAKI HUZIIE | - Osaka universiteti professori (Yaponiya) |
| KIM SUNGHAE | - Daeju universiteti professori (Koreya) |
| BYLAPPA MANJUNATH | - Don Bosko boshqaruva maktabi professori (Hindiston) |

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY

Eshbekova D. T.	4
Gazeta bosh maqolalari manba sifatida	
Yarmatov O. Sh.	9
Turkistonning hind fuqarolarining ijtimoiy hayoti tarixidan	
Pardayev T. R.	13
O‘zbekistonning janubiy hududlarida uy - joy qurilishidagi ahvol: o‘zgarishlar va muammolar (1950-1960 yy)	
Ergashev B.	15
Zarafshon okrugi tashkil etilishi va shaxarsozlik tarixiga oid ma’lumotlar	
Anorqulov S. M.	20
Sotsialistik shaharlar antropologiyasi (XX asrning 60-yillarigacha)	

FALSAFA / PHILOSOPHY

Nadirova Z. P., Elmuradova F. N.	25
Ilmiy ijodda intuitsiya	
Xudoyberdieva H. K.	27
Yoshlarda millatlararo munosabatlarni kuchaytirishda san’at asarlari va madaniy merosning o‘rni	
Musaeva N.	34
Imom Buxoriyning “Al-jomi’ as-sahih” asarida inson va uning ma’naviy-axloqiy barkamolligi	
Amirxo’jayev Sh. Q.	37
Oilaviy munosabatlar madaniyatini transformatsiyalashuviga ta’sir ko’rsatadigan omillar	
Sunnatov N. B.	40
Innovatsyaning tizim sifatida rivojlanishi	
Turatov Sh.	46
Yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish o‘zbekistonda barqaror va farovon hayot asosi	
Raxmonov D. A., Nazarova N. J.	49
Ijtimoiy xizmat paradigmalari va ulardan foydalanishning kasbiy ahamiyati	
Sanaqulov A.N.	54
Virtual reallikning ilmiy-falsafiy tahlili	
Ochilov J. A.	59
Sivilizatsiyalar transformatsiyasining ijtimoiy-siyosiy omillari	
Abdullaeva N. B.	63
Dizayn, dizayner va mezon	

SOTSILOGIYA / SOCIOLOGY

G’afforova M. Q.	68
Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning sotsial jihatlari tahlili	

Xudoyberdiyeva A. H. Sharq mutafikkirlarining oila mustahkamligi to'g'risidagi qarashlari 73

Xaydarova X. X. Shahar ekotizimini boshqarishning tarixiy bosqichlari (samarqand misolida sotsiologik tahlil) 77

Kodirova Sh. A. Совершенствование деятельности центров государственных услуг в формировании положительного образа власти у граждан 80

IQTISODIYOT / ECONOMICS

Ubaydullaev G'.Z. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish talablari va rivojlanish istiqbollari 88

Aynaqulov M. A., Xudoyberdiyev B. B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida 91

Ro'zibayev O. M. O'zbekiston respublikasida mehnat migratsiyasi muammolari va migratsiya asosida pul o'tkazmalari statistik tahlili 94

Arabov N. U., Usmanov I. A. Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari 98

Xamdamov E. T. AQSH va rivojlangan davlatlar monetar siyosati tajribalaridan qo'llashning nazariy va amaliy masalalari 104

Imomova N. A. O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi shakillanishining o'ziga xos xududiy xususiyatlari va muommolari 106

Шукуриллаев У., Усманов Б. Человеческий капитал как ключевой фактор инновационной экономики страны 112

O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY

Jumayev Sh.U. Talabalarga loyihalash elementlarini o'rgatish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish 118

Эрназарова Н. Х. Формирование познавательного интереса к математическому образованию студентов гуманитарных факультетов 121

Uzoqova L.P., Turdieva M.J. Maxsus fanlardan mashg'ulotlarni muammoli o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari 123

So'fiboeva G. O'qitish jarayonida integratsiyalashgan texnologiyani qo'llash 129

Vafoyeva M., Shodiyorova U. Boshlang'ich ta'lim darsliklarida maqollarning berilishi va o'qitilishi 135

Mualliflarga

UDK: 930.2:070.432(04)

GAZETA BOSH MAQOLALARI MANBA SIFATIDA

D. T. Eshbekova

*Jizzax davlat pedagogika instituti
dil.world8@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada tarixiy manba sifatida gazeta materiallarining o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilib, gazetadan olingen alohida bir janrni o'rganish tajribasini yoritishga harakat qilingan. Unda "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1920-yillarning ikkinchi yarmida e'lom qilingan tahririyat (bosh) maqolalari tahlil qilingan. Maqolada tahririyat (bosh) maqolalarining gazeta materiallari tizimidagi o'rni, ularning o'ziga xos xususiyatlari, turlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Gazeta bosh maqolalarida jamiyat va davlat hayotining turli sohalariga oid muhim masalalar, bu sohalardagi muammolar, vazifalar o'z ifodasini topganligi, shuningdek, bu masalalar yuzasidan tahlillar va talqinlar partiya va sovet hokimiyatining qarorlari, ko'rsatmalariga muvofiq tarzda ilgari surilganligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: tarixiy manba, davriy matbuot, gazeta, maqola, tahririyat (bosh) maqolalari, "Qizil O'zbekiston" gazetasi, tizimli tahlil

Передовые статьи газет в качестве источников

Аннотация. В статье анализируются редакционные (передовые) статьи газеты «Красный Узбекистан», опубликованные во второй половине 1920-х годов. Содержит информацию о роли редакционных (передовых) статей в системе газетных материалов, их особенностях и видах. Наблюдается, что в передовых статьях газеты отражены важные вопросы, связанные с различными сферами общественной и государственной жизни, проблемы и задачи в этих сферах, и что анализ и интерпретация этих вопросов были сделаны в соответствии с решениями и инструкциями партии и советской власти.

Ключевые слова: исторический источник, периодическая печать, газета, статья, редакционные (передовые) статьи, газета «Кизил Узбекистон», системный анализ

Leading articles of newspapers as sources

Abstract. The article gives an overview of the role and importance of newspaper materials as a historical source. There is attempted to illustrate the experience of studying a particular genre of newspapers. There is given the analyses of the editorial (leading) articles of the newspaper "Qizil Uzbekiston" published in the second half of the 1920s. The article contains information on the role of editorial (leading) articles in the system of newspaper materials, their features and types. It is observed that the leading articles of the newspaper reflect important issues relating to various areas of public and state life, problems and tasks in these areas. The analysis and interpretation of these issues were run in accordance with the decisions and instructions of the Party and the Soviet government.

Keywords: historical source, periodicals, newspaper, article, editorial (leading) articles, newspaper "Qizil O'zbekiston", systematic analysis.

Gazeta va jurnallar paydo bo'lishi bilan ularning jamiyat hayotiga ta'siri yuqori bo'lib kelmoqda. Shu tufayli tarixiy manbalar tizimida ham davriy matbuot muhim o'rinni egallaydi. Gazeta va jurnallar o'zida davr voqealigini u yoki bu darajada ifoda etganligi sababli yangi va eng yangi davr voqealari tadqiq etilgan ko'plab ishlarda davriy matbuot materiallariga murojaat qilingan. Ular asosiy manba sifatida boshqa manbalar bilan taqqoslash asosida ilmiy muomalaga tortilgan tadqiqot ishlari mavjud. Bu jihatdan S.B. Shadmanova [16], K.J. Rahmonov [13], V. Muhammadjonova [10] kabi bir qator tadqiqotchilarining ishlarini aytilib o'tish mumkin.

So'nggi vaqtarda davriy matbuotning alohida olingen bir janrini tadqiqot manbasi sifatida o'rgangan ilmiy ishlar yaratildi. Mutaxassislar davriy matbuotda uchraydigan matnlar xilma-xilligidan tashqari, davriy matbuot janrlarining butun bir tizimi (maqolalar, ocherklar, obzor (umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, tahlil), felyeton, xabarlar, taqriz va boshqalar) mavjudligiga e'tibor qaratishadi. Davriy matbuot uyg'un birlikka ega manba emas, o'zida manbalar majmuuni aks ettiradi[11]. Unda hujjatlari materiallar – qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, akt xarakteridagi (ish yuritishga oid) hujjatlar, shuningdek, hikoyaviy manbalar - davlat apparati, axborot agentliklari zamirida maxsus e'lom qilish uchun tayyorlangan shaxssiz axborot-yangilik hisobotlari, obzor (qisqacha umumlashtiruvchi ma'lumot), xabarlar,

e'lonlar, qaydlar, solnoma va boshqa materiallar o'z ifodasini topadi. Davriy matbuotda yozma manbalarning xilma xil turlaridan tashqari, tasviriy manbalar (fotografiya, karikatura, rasm) jamlangan.

Asosiy "manbaviy" birlik sifatida gazeta sonlarining butun nashr materiallari emas, bosh maqolalari[12, 1] yoki fotoreportajlari[7, 8] olingan xorijiy tadqiqot ishlari mavjud. Gazeta materiallariga manba sifatida bunday alohida yondashuv davriy matbuotda e'lon qilingan materiallarning xilma-xil turlarini va ularning har birining tarixiy manba sifatidagi o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi.

Gazeta materiallardan manba sifatida foydalanib, uning ma'lum bir turdag'i janrini tizimli tahlil etish orqali jamiyat hayot faoliyati jarayonidagi muayyan hodisalar, qarashlar yo'naliishini, tizimini, ularning xususiyatlarini aniqlash va bir turdag'i muntazam chiqib turgan davriy matbuot materiallarini miqdoriy va tarkibiy tahlil usullari asosida tahlil qilib, aniq faktlarga ega bo'lish, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkinligi turli ijtimoiy fanlar tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Davriy matbuot ikkita imkoniyatni taqdim etadi: birinchidan, jamiyat hayot faoliyati jarayonida muayyan siyosiy, mafkuraviy yoki idoraviy yo'naliish doirasida (tahririyat nashrlarning majmui va tartibini maqsadga yo'naltirib belgilashi tufayli) shakllangan manbalarning ko'pjihatli kompleksini tahlil etish, ikkinchidan, ochiq (e'lon qilingan) xarakterdagi axborotni egallash yo'lidan bora turib, muayyan joy, tashkilot, odamlar guruhining hayot olamiga kirish[11].

Gazeta materiallardan foydalanish uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Gazeta janrlari tuzilmasida ikkita element ajratilgan: faktik materialning o'zi va unga mualliflik sharhi. Bu ikki elementning turlicha birikuvida bir janrning ikkinchisidan farqi ko'rindi. Gazeta va jurnallar materiallarining sub'ektiv qismi, faktlar talqini, ularning sharhi ham tadqiqotchi uchun ahamiyatlari deb e'tirof etildi. Janr davriy matbuot axborotining mazmuniga, to'liqligiga va ishonchlilikiga, faktlar bayonining chuqurligiga va umumlashtirishning hissasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqilgan janrga oid tasnif bilan bog'liq holda axborot, tahliliy, badiiy-publisistik janrlarni farqlash mumkin[14]. Bu tasnifda maqolalar tahliliy janrlar turiga kiradi. Hatto voqeа va yangiliklar ro'yxatida ham yangiliklarni tanlash hamda ular bayonining ketma-ketligida sub'ektiv omil ishtirok etadi. Shu jihatdan qaraganda, maqola mazmunining faktligi masalasi undan qidirilayotgan aniq-tarixiy bilish vazifasiga ham bog'liq. Masalan, aynan davriy matbuotdan o'z davriga xos hodisalar, qarashlar, siyosiy konsepsiylar, ma'lum yo'naliishdagi ijtimoiy intilishlar, voqeliklar tizimini kuzatish va qayd etish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, unda gazeta materiallariga chuqur va atroflicha tanqidiy qarash zarurati kamroq seziladi.

Bir qator tadqiqotlarda gazetadagi asosiy manbaviy birlik sifatida tahririyat maqolalarining tanlanishi ularning maqomi, vazifasi (qoida tariqasida tahririyat maqolasida gazeta nomerining kalit mavzusi ko'tariladi) va taxminan bir xil hajmi bilan bog'liq. Masalan, N.B. Arnautovning ilmiy tadqiqotida gazeta sonlarining eng dolzarb mavzularini maksimal darajada ifodalovchi tahririyat maqolalari belgilandi. Tadqiqot uchun "Pravdaning" 1460 ta tahririyat maqolasi tanlab olingan. Olingan ma'lumotlar to'liq 1934 yil dekabrdan 1938 yil noyabrgacha bo'lgan davrda "xalq dushmani" obrazining asosiy o'zgarishlarini ifodalaydi. N.V. Razdinaning tadqiqotida "Za industrializatsiyu" gazetasining 1932 va 1937 yillar - dastlabki ikki besh yillik tugashi hamda 1940 yil uchinchi besh yillik nashrlari mazmunini xarakterlovchi, yilning anchagina taqdimotli mart va oktyabr oylaridagi barcha sonlari o'rganilgan. Birinchidan, oy - maqolalar miqdoriga ko'ra yetarlicha hajmli, har bir davr haqida qandaydir tasavvur berishga qodir vaqt bo'lagi ekani, ikkinchidan, ko'p hollarda matbuot tadqiqotchilarini jalb etgan mart va oktyabr oylarida umumlashtirilgan axborotlar hajmi nisbatan katta emas deb hisoblanishi e'tiborga olingan.

Maqola jurnalistikating asosiy janrlaridan biri bo'lib, uning asosiy xususiyati hayot voqeа, hodisalari, faktlar majmuasini chuqur tahlil va tadqiq etish, ulardan zaruriy nazariy, amaliy va publisistik xulosalar chiqarishdir. Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'naviy hayotning barcha muhim masalalari o'z ifodasini topadi. Maqola uchun eng muhim talab uning shu kun uchun zarurligi, publisistikligidir[15]. Maqola istilohi keng ma'noda gazeta, jurnal, radio, televiedenie, shuningdek, to'plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo'llanadi[17]. Maqsadli vazifasiga bog'liq holda maqolalar targ'ibot, muammoli, tanqidiy, ilmiy va boshqa turlarda bo'lishi mumkin. Partiya-sovet matbuoti amaliyotida bulardan tashqari maqolaning maxsus turlari – ko'rsatma beruvchi (bosh) maqola, ilg'or tajribani umumlashtiruvchi maqola va boshqalar paydo bo'ldi[2]. Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas'uliyatlari maqolasi bo'lib, unda ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilar ommasiga etkazish vazifasi qo'yilgan. Bunday maqola muayyan masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi, mavjud kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy yo'lini belgilab berishi lozim bo`lgan[17].

Rossiyada tahririyatning ichki va tashqi siyosatning turli masalalariga munosabatini bayon etuvchi bosh maqola janri 19 asrning 60-yillarda rivoj topdi. Bosh maqola axboriy materiallar bilan birga gazetalarning ajralmas qismiga aylandi. Bosh maqola qoida tariqasida, birinchi sahifaning ko'rinarli joyida,

doimiy belgi (ishora) bilan: masalan, joy, sana, oy, hafta kuni ko'rsatilgan holda e'lon qilingan. Yirik obro'li gazetalarda bosh maqlolar uzoq yillar davomida doimiy mualliflar tomonidan yozilgan. Bosh maqlolar gazetaning muayyan yo'nalishga tegishliligini ko'rsatgan. Shunday holatlar ma'lumki, siyosatning dolzARB masalalari bo'yicha muayyan pozitsiyani egallashga moyil bo'lмаган yirik gazetalarda bir paytning o'zida bitta sonda ayni bir muammo yuzasidan turli nuqtai nazarlar bayon etilgan bir necha bosh maqola joylashtirilgan[4]. Sovet davrida esa qayta qurishgacha, matbuot kommunistik qurilishning quroli hisoblangan paytda bosh (ko'rsatma beruvchi) va targ'ibot maqlolalariga ustunlik berilgan[3]. Sovet davri gazetalarida bosh maqola odatda birinchi sahifa chap tomonda joylangan. Bosh maqolaning mazmuni siyosiy ko'rsatma funksiyasini bajarishi lozim edi[4]. Uni yozishda bosh muharrir, tahririyat hay'ati a'zolari, partiya, davlat, jamoat arboblari jalg etilgan[18]. Tahririyat (bosh) maqlasining vazifasi nafaqat (ayni payt uchun) muhim, dolzARB bo'lGAN masalalarni qayd etish, balki yuz berayotgan voqealarni baholashda yo'nalish ko'rsatishdan ham iborat bo'lGAN[9].

Gazetadagi bosh maqolaning alohida ahamiyati shu bilan shartlanganki, u qoida tariqasida partiya va sovet organlari qarorlariga bevosita asoslangan, bu qaror va choralarini targ'ib etuvchi, ularni bajarishga yo'naltiruvchi, o'quvchilarni ularni amalga oshirishga faol chaqiruvchi maqola bo'lGAN. Partiya markaziy qo'mitasining 1922 yil 7 iyundagi mahalliy gazetalarning rejasi haqidagi xatida bosh maqolaning vazifikasi qayd etilgan. Maqola asosiga muayyan voqeа va faktlar qo'yiladi. "Bosh va ikkinchi maqola – deyiladi ushbu hujjatda, - yo'rinqoma, yo'nalish berishi, xulq-atvorning asosiy yo'nalishini qayd etishi lozim. Bosh maqola va undan keyingi yetakchi maqola suhbat, muhokama emas, balki siyosiy ko'rsatma, dasturdir"[5].

Partiya matbuotining yetakchi nashrlari bosh maqlolalarida partiyaning navbatdagi vazifalari, uning dastur va taktilari, inqilobi nazariyalar, kunning dolzARB deb hisoblangan chaqiriqlari qayd etilgan. Xususan, O'zbekistonda qishloq kambag'allari va batraklariga mo'ljallab nashr etilgan "Kambag'al dehqon" gazetasi 1925 yil - 1929 yil boshlarida partiyaga bag'ishlangan mavzularni ko'pincha yo'l-yo'riq berish xarakteridagi bosh va tahririyat maqlolari bilan taqdim qilgan. "Qishloq kommunisti va qishloq xo'jaligi" (6 aprel 1925 y.), "Har bir kommunist – partiya qayta ro'yxatiga tayyor bo'l" (22 dekabr 1925 y.), "Yacheykalar byurosiga qayta saylovlar boshlanayapti" (26 aprel 1928 y.) va boshqalar aynan shunday maqlolardan bo'lGAN[6].

"Qizil O'zbekiston" gazetasida tahririyat bosh maqlolari Toshkent okrugining birinchi firqa konferensiyasi[23], O'zbekiston ijtimoiy sho'rolar jumhuriyati Markaziy ijroqo'mining II chaqiriq III sessiyasi[42], butunittifoq kasaba uyushmalarining markaziy kengashi plenumi[45] kabi davlat va jamoat tashkilotlari, organlari yig'inlari yakuni bo'yicha ham e'lon qilingan. "Qizil O'zbekiston" gazetasida partiya markaziy gazetalari bo'lGAN "Pravda"ning, "Izvestiya"ning ko'plab maqlolari o'zbek tiliga tarjimalar shaklida nashr etilgan. Bu tarjimalar gazetaning bosh maqlolari o'rniда ham berib borilgan. Shuningdek, bosh maqola sifatida F.Xo'jaev, Y.Oxunboboev kabi davlat rahbarlarining respublika hayotining dolzARB masalalariga bag'ishlangan maqlolari e'lon qilingan. Ammo gazetada bosh maqola asosan tahririyat tomonidan yozilgan.

"Qizil O'zbekiston" gazetasining qishloq xo'jaligi, paxtachilik ishlariga bag'ishlangan bosh maqlolari ko'pincha respublika xo'jaligining asosiga aylantirilgan paxtachilik bilan bog'liq partiya ko'rsatmalarining, bu ko'rsatmalardan kelib chiqib respublika rahbariyati ishlab chiqqan chora-tadbirlarning, vazifalarning ijo uchun e'lon qilingan publisistik bayoni shaklida bo'lGAN[46, 47].

Bosh maqlolalar orqali jamiyat hayotining turli dolzARB sohalari, bu sohalardagi shu davrga xos muammolar, ularni hal etish yuzasidan belgilangan chora-tadbirlar, takliflar bilan tanishish mumkin, shu bilan birga ularda ko'tarilgan mavzular tizimida partiya yuritgan siyosatning asosiy yo'nalishlari, asosiy g'oyaviy konseptlari namoyon bo'ladi. Jumladan, gazetaning 1927-28 yillar mart oyi bosh maqlolalarida xotin-qizlarni ozod qilish, "Hujum" harakati bilan bog'liq vazifalar va bu borada yuzaga kelgan muammolar[25, 29, 40], qozilik sudlari faoliyati cheklanib, ishlar asosan sovet sudlarida ko'rileyotgani, ammo bu sohada kadrlar bilan, qonunchilikni amalga oshirish tajribasi va amaliyoti bilan bog'liq qator muammo va kamchiliklar[34], mahalliy aholi orasidan kadrlar tayyorlash va ularni tegishli ish o'rinalariga qo'yish bilan bog'liq vazifalar[44] va muammolar[39], mahsulot narxini arzonlashtirish haqidagi qarorning iqtisodiy, siyosiy ahamiyati, bu borada sanoat va savdo tashkilotlarining o'rni, vazifalari, bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar[20, 22, 30], partiya ta'sirini yanada mustahkamlash, xo'jalik, madaniy va boshqa sohalardagi ko'rsatmalarini joylarda samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida partiya quyi tashkilotlari faoliyatini jonlantirish vazifalari[19, 24], partiya maorifi ishlarining ba'zi bir yakunlari, muvaffaqiyat va kamchiliklari haqida[41], ko'klam ekin kampaniyasi bilan bog'liq vazifalar[21, 50, 53], ipakchilik sohasidagi kamchiliklar va ularni hal etish masalalari[27] ko'tarilgan va ularning yechimiga amaliy kirishishga chaqirilgan. Gazeta sahfalaridagi bosh maqlolalarda umumiy masalalar bilan birga mavsumiy ishlar, masalan, ipakchilik, qishloq xo'jaligining bahorgi ekish ishlari, kuzgi yig'im-terim, yerni

shudgorlash ishlari borasidagi ko'rsatmalar, o'tgan yilgi kamchiliklar, bu yilgi vazifalar o'z ifodasini topgan va bunday maqolalar odatda shu mavsumga yaqin sanalarda e'lon qilingan. Ularda xalq xo'jaligining muhim sohalaridagi ishlarning holati va qishloq xo'jaligi xodimlarining navbatdagi vazifalari haqida xabardor qilinadi.

Gazeta bosh maqolalarida oktyabr voqealari inqilobiy hodisa sifatida talqin etilib, tarixan qonuniyatli yuz bergenligi, partiya va sovet hokimiyyati yuritayotgan siyosat to'g'ri ekanligi, uning proletariat dohiylari belgilagan bosh yo'ldan og'ishmay, to'siq va kamchiliklarni bartaraf etib borayotganligi ta'kidlab borilgan. Ularda o'rnatilgan senzura nazorati tufayli butun tizimning kamchiliklari haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Shu tufayli barcha ko'rsatilgan muammolar alohida tasodifiy holatlar sifatida, quyi tashkilotlarning, alohida mas'ul shaxslarning, "dushman" larning ayblari sifatida ko'rsatilgan. Masalan, mansabdor shaxslar va muassasalarining fosh etilgan yirik jinoyatlari, shuningdek, qidirib topilgan "dushman"lar masalalari publisistik shaklda tahlil etilgan. O'rta Osiyo suv idoralari yo'l qo'ygan xatolar, unda pul isrofgarchiligi[26, 35], Donbas ko'mir konining shaxta rayonidagi mutaxassislarining ishlari[51] haqidagi bosh maqolalar shular jumlasidan edi. Bularidan tashqari, o'tgan yillarda erishilgan yutuqlar sarhisobi ko'rinishidagi[36], atoqli sanalar munosabati bilan, masalan, fevral inqilobining "haqiqiy" inqilobga vosita sifatidagi talqini[28, 49], ishchi-dehqon soqchilik xizmatining o'n yilligi[43], 8 mart xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirilar[48], 18 mart Parij kommunasi va MOPR – jahon inqilobchilariga yordam kuni[33, 52] targ'ib etilgan tahririyat (bosh) maqolalari ham berib borilgan. Yana sovet davlatining xalqaro maydonidagi o'rnii va rolini, o'zini o'zi himoya qila olishini, ta'minlay olishini, adolatli va tinchlikparvar siyosat tarafidori ekanligini ko'rsatish, uqtirish maqsadida tashqi siyosat masalalari ham gazeta bosh maqolalarining diqqat markazida bo'lgan. Bunda nafaqat sovet davlatining xorijiy davlatlar bilan munosabatlari[31, 32], shuningdek, turli mamlakatlarda yuz berayotgan jarayonlar[37, 38], qurolsizlanish bo'yicha konferensiyalar kabi xalqaro masalalar[54, 55] talqinini ham kuzatish mumkin.

Sovet davri matbuoti bosh maqolalari maqsad yo'nalishiga ko'ra shartli ravishda tezkor, umumsiyosiy va targ'ibot maqolalariga bo'lingan. Ularning har biri bo'lim sarlavhalarida ifodalangan o'ziga xosliklarga ega.

Tezkor bosh maqolalar ayni vaqtida eng muhim bo'lgan vazifalarga bag'ishlangan: xo'jalik, siyosiy va h.k. Ularda u yoki bu sohadagi ishning holati batatsil tahlil qilingan, kamchiliklar ochilgan, ilg'orlar tajribasi asosida bu vazifalarni yechishning yo'llari va usullari qayd etilgan. U yoki bu xo'jalik-siyosiy kampaniyasining taqdiri haqida partiya va davlat tashvishlari – bunday bosh maqolalarga xos xususiyat bo'lgan. Bu guruhga gazetada muayyan material yoki materiallarning (masalan, mavzuiy qator, maqsadli son) e'lon qilinishi bilan bog'liq holda yoziladigan bosh maqolalar kiritilgan.

Umumsiyosiy maqolalar atoqli sanalar, ichki va xalqaro hayotning taniqli voqealari bilan bog'liq holda nashr etilgan.

Targ'ibot bosh maqolalari turli aniq vaj-sabablar bo'yicha markscha-leninchcha ta'limotni, vatanparvarlik, baynalmilallik, kommunistik axloq g'oyalarini, fan va texnikadagi yangi yutuqlarni ommalashtirishga qaratilgan[5].

Shu tariqa, sovet davrida bosh maqolaga maxsus vazifalar yuklangan bo'lib, ular o'zida partiya ko'rsatmalarini ommaga, ularning ijrosi qaratilgan o'quvchilar doirasiga tushunarli shaklda yetkazishga, gazetaning siyosiy yo'llini, ayni paytning muhim masalalari bo'yicha uning fikrini ifodalashga xizmat qilgan. Bosh maqolada alohida dolzarb mavzular, vazifalar aniq va lo'nda ilgari surilib, ularning siyosiy mohiyati sovet tuzumi qarashlari talqinida ohib berilishi va asoslanishi, keltirilgan umumlashtirish, xulosha, dalillari bilan sovet davrida jamiyat oldiga qo'yilgan vazifalarni, ko'tarilgan muammo va masalalarni, jamiyat hayotidagi ular bilan bog'liq real holatlarni tadqiqotchi tomonidan tadqiq etish imkonini beradi. Gazeta materiallarning alohida janrlarini asosiy manba sifatida o'rganilishi bilan ijtimoiy fanlar sohalarida tadqiqotlar uchun masalalar doirasini birmuncha kengaydi. Bu jarayon gazeta materiallarning manba sifatida chuqur o'rganilishiga, davriy matbuotning hokimiyyat bilan o'zaro munosabatlarni, uning ta'sir auditoriyasini, davriy jihatdan uning mavzu mundarijasini, bajargan ijtimoiy, mafkuraviy vazifalarini yanada aniqlashtirishga hissa bo'lib qo'shiladi.

Adabiyotlar

1. Arnautov N. B. Obraz «vraga naroda» v sisteme sovetskoy sotsialnoy mobilizatsii: ideologo-propagandistskiy aspekt (dekabr 1934 g. - noyabr 1938 g.) Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. Tomsk. 2010.
2. Bolshaya sovetskaya ensiklopediya. 24. Kniga 1. Sobaki – struna. Tretye izdanie. M., “Sovetskaya ensiklopediya”, 1976. S. Statya. C. 462.
3. Voroshilov V.V. Jurnalistika: uchebnik. 7-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2010. S. 178.

4. Golikov A.G. Istochnikovedenie otechestvennoy istorii: ucheb. posobie dlya stud. uchrejdeniy vissh. prof. obrazovaniya. – 5-e izd., ispr. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2012. 405 s.
5. Janri sovetskoy gazeti. Uchebnoe posobie. Moskva. Izd-vo «Vissaya shkola». 1972. S.180; S.181-182.
6. Kim P.G., Dmitriev G.L., Dmitrieva S.A. Ocherki istochnikovedeniya istorii Kommunisticheskoy partii Uzbekistana. (Otv. red. V.G.Chebotareva). – Tashkent. Uzbekistan, 1986. - 155 s.
7. Krasheninnikova M.A. Otechestvennyi fotoreportaj perioda perestroyki (na primere izdaniy “Sovetskiy soyuz”, “Ogonek”, “Sovetskaya Rossiya” v 1985-1991 gg.). Avtoref. diss. ... kand. filolog. nauk. Moskva. 2017.;
8. Makarov A. N. Informatsionno-propagandistskoe soprovojdenie industrializatsii 1929-1941 gg. sredstvami sovetskogo fotoreportaja (na materialax Magnitogorska). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. ChHelyabinsk. 2013.
9. Melnik G.S., Teplyashina A.N. Osnovi tvorcheskoy deyatelnosti jurnalista. Kratkiy kurs. ... uchebnoe posobie dlya studentov 1-go kursa fakultetov jurnalistiki. Moskva. «Piter», 2009. S.136.
10. Muxammedjanova V. Periodicheskaya pechat 20-30-x godov o raskrepolenii jenshini Uzbekistana: Avtoref. diss. ... kand. ist .nauk. - Samarkand, 1994.
11. Periodicheskaya pechat: mesto v sisteme istoricheskix istochnikov. <http://www.polit.ru/research/2010/08/09/periodika.html>
12. Razdina N. V. Gazeta «Za industrializatsiyu» kak istochnik dlya izucheniya promishlennoy politiki sovetskogo gosudarstva v 1930-1940 gg. (opit kontent-analiza redakcionix statey). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. Moskva. 2016.;
13. Rahmonov K.J. ning “Buxoro axbori” va “Ozod buxoro” gazetalari - Buxoro xalq sovet respublikasi tarixini o’rganish manbasi. Tarix fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya. - Toshkent. 2008. -180 bet.
14. Rusina Yu.A. Istochnikovedenie noveyshey istorii Rossii. Ucheb.posobie. Ekaterinburg. Izd-vo Uralskogo univ. 2015. S. 169-170.
15. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. Toshkent. “Tafakkur”, 2011. 187-188 betlar.
16. Shodmonova S. B. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida (1870-1917 yillar) - Toshkent. “Yangi nashr”, 2011. -296 b.
17. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Konimex-mirzoqush. Maqola. Ad.\ Muhamadiev R., Publitsistika janrlari, T., 1965; Abduazizova N., O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi, T., 2002.
18. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 7. Marmar onaksi – Nikelin. Toshkent. O‘zbekiston sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi. 1976. Maqola. 83-bet.
19. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 1 mart № 50 (664). Qishloq yacheykalarini jonlantirayliq.
20. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 2 mart № 51 (665). Mol narxlarini arzonlashtirish kompaniyasining ahamiyati. (Ibrohim).
21. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 3 mart № 52 (666). Bahorning talabi.
22. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 4 mart № 53 (667). Foydakardlik evi bilan!
23. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 6 mart № 54 (668). Tosho‘krug‘ firqa konferensiyasining yakuni.
24. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 7 mart № 55 (669). Poydevorni mahkamlash kerak.
25. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 8 mart № 56 (670). Unutilmas ta’sir qoldirsin.
26. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 9 mart № 57 (671). Tagsiz o‘pqonlar.
27. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 10 mart № 58 (672). Zarur va shoshilish yumush.
28. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 11 mart № 59 (673). Fevralning 10 yilligi.
29. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 14 mart № 60 (674). Inqilobiy qonun bo‘yicha jazolansin. (Komiljon).
- 30 “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 15 mart № 61 (675). Harakatdan bo‘shashmayliq.
31. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 16 mart № 62 (676). Angliya-Sho‘ro munosabati.
32. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 17 mart № 63 (677). Ikki do‘stga Qora dengiz bir qadam. (Turkiya-Sho‘ro).
33. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927 yil 18 mart № 64 (678). Katta saboq.

34. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 20 mart № 65 (679). Adliyamiz sog'aysin.
35. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 21 mart № 66 (680). Serobgarchilik uchun.
36. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 22 mart № 67 (681). Muvafaqiyatlar sari. (Ivanuf).
37. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 24 mart № 68 (682). Ho'mindan bayrog'i tikildi.
38. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 27 mart № 70 (684). Yana qonxo'rlik.
39. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 28 mart № 71 (685). Harakatlarimiz bo'sh ketmasin.
40. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 30 mart № 73 (687) Yangi turmush do'stlari jamiyatni tuzaylik.
41. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1927 yil 31 mart № 74 (688). Bo'shliq qaytalanmasin.
42. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 1 mart № 51 (953) Sessiyaning muhim ishlari. (Vois Rahimiyy).
43. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 2 mart 52 (954). Qizil soqchilarimizning o'n yili ham kelgusi vazifalarimiz. (R. Rahimboboev).
44. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 4 mart № 53 (955). O'zbeklashtirish masalasi. (Markaziy ijroqo'm sessiyasi munosabati bilan). (A.Karimov).
45. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 5 mart № 54 (956). Plenum tugadi.
46. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 7 mart № 56 (958). Paxtakorlikni kuchaytiramiz. (I. Hojiboev).
47. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 9 mart № 58 (960). Ko'klam ekin kampaniyasidagi vazifalarimiz. (F. Xo'jaev).
48. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 11 mart № 59 (961) soni). Jahon sakkizini qarshilag'anda.
49. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 12 mart № 60 (962). Fevraldan o'ktabrga.
50. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 14 mart № 61 (963). Suv shirkatlaridagi bo'shliqlar ekin vaqtida tamom tugatilishi lozim. (O. S.).
51. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 15 mart № 62 (964). Beparvolarga saboq bo'lsin.
52. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 18 mart № 64 (966). Birinchi poyqadam.
53. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 20 mart № 65 (967). Eng katta javobgarlik ish.
54. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 27 mart № 70 (972). Qurolsizlanish qaqlidoqlariga qarshi bizning javobimiz.
55. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1928 yil 29 mart № 72 (974). Kavsh qaytarish.

UDK: 9 (575,1:54)

TURKISTONDAGI HIND FUQAROLARINING IJTIMOIY HAYOTI TARIXIDAN**O. Sh. Yarmatov***Samarqand davlat universiteti*yarmatov_oybek@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududida yashagan hind fuqarolarini madaniyati, urf odati va yashash tarzini o'rganishga harakat qilindi. Shuningdek, rus va Turkiston hukumatini Turkistondagi hind fuqarolariga munosabatlarini yoritishga harakat qilindi. Ishni yoritishda O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivsi va mavzuga doir manbalardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Yasaul, hind ro'honiysi, hind oqsaqoli, Bombey shahri, Turkiston geniral gubernatorligi, Iskala, Arxiv materiallari.

Из истории сациольной жизни индийских граждан в Туркестане

Аннотация. Эта статья направлена на изучение культуры, обычаяев и образа жизни индийских граждан, живущих в Центральной Азии во второй половине 19-го и начале 20-го века. Были также предприняты попытки пролить свет на отношение правительств России и Туркестана к гражданам Индии в Туркестане. Источники Центрального государственного архива Республики Узбекистан были использованы для освещения материала.

Ключевые слова: ясаул, индуистский священник, индуистский аксакал, город Бамбейи, генерал-губернатор Туркестана, Искала, архивные материалы.

The history of social life of indian citizens in Turkestan

Abstract. In the article the culture, customs, and lifestyle of Indian citizens living in Central Asia in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century are studying. Attempts were also made to shed light on the attitude of the Russian and Turkestan governments towards Indian citizens in Turkestan. The Central State Archive of the Republic of Uzbekistan and relevant sources were used to cover the case.

Keywords: Jasaul, an Indian priest, an Indian elder, the city of Bombay, Governor-General of Turkestan, archive manerials.

Tarixshunoslik-manbashunoslik ilmiy izlanishlar doirasida Turkistonda hind fuqarolari tarixini o'rganish qiziqarli ilmiy izlanish sohalardan hisoblanadi. Turkistondagi hind fuqarolari tarixiga oid ma'lumotlar etarlicha bo'lmasada, O'z RMDA fondlarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlari hujjatlaridan foydalanildi. Hindlarning Turkistonga kela boshlashi oldinroq yuz bergan bo'lsada, XIX asrga kelib hind fuqarolarining bu hududdagi soni sezilarli darajada osha boshladi. Turkiston o'lkasida yashagan hindlar bir-biridan ajratilmagan, aksincha hayot ularni bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lishga undagan. Sharqdagi musulmon shaharlarida ko'pincha savdo yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan va bitta shahar, mintaqqa yoki mamlakatlardan kelib chiqqan hindlarning barqaror birlashmasi shakllandi. Bu birlashmalar O'rta Osiyoning Rossiyaga mustamlaka bo'lishidan oldin shakllanib, O'rta Osiyo xonliklarining og'ir va o'zgaruvchan sharoitlarida o'zlarining manfaatlarini jamoaviy himoya qilish maqsadida tashkil qilingan. Musulmon hindlarning ushbu uyushmalarga kirgan yoki kirmaganligi haqida batafsil ma'lumot yuq, lekin Turkistondagi hind muhojirlari orasidagi diniy ziddiyatlar o'z vatanlariga qaraganda unchalik chuqur bo'limgan deb taxmin qilish mumkin. P.I Poschinoning ma'lumot berishicha, 1865-1866 yillarda Toshkentga kelgan Kashmir elchixonasining musulmon a'zolari Hind Karvonsaroylarida yashagan [4, S.114].

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin ham Turkistondagi hind karvonsaroylarini saqlanib qolinishi hindlar orasidagi biradorlik rishtalarining mustahkam bo'lganligini tasdiqlaydi. Ruslar Turkistonga kirib kelishidan oldin hindlarni musulmonlardan alohida qo'yish uchun maxsus ajratilgan joylarga joylashtira boshladi. Natijada Hind karvonsaroylari va kvartallari paydo bo'lgan. Karvonsaroylarning 2-3 kishi joylashadigan kichik xujralari bo'lib, turar joy va savdo sotiq joyi sifatida foydalangan. O'rta Osiyo Rossiya mustamlakasi bo'lishidan oldin hindlarning belgilanmagan joylardan boshqa joylarda yashashini ta'qiqlanishi nafaqat hindlarning yashash joylari, (Karvonsaroylari) balki hindlarning xavfsizlik va diniy urf-odatlari bilan ham bog'liq edi [12].

Rossiya O'rta Osiyonidagi egallagach xavfsizlik masalalarini qaytadan ko'rib chiqib, ayrim cheklovlar olib tashlagan, shuning uchun hindlar keyinchalik ko'proq shaxsiy uy joylarga ega bo'lishi natijasida karvonsaroylarni tark eta boshladi. O'rta Osiyo hindlarining orasida jamoaviy guruhlarning borligi hindlarning bir necha jamoalarga bo'linganligidan dalolat beradi. Jamoani "oqsoqol" deb nomlangan amaldor boshqargan. Har bir shaharning yoki qishloqning alohida oqsoqoli bo'lgan. Oqsoqollardan oldin hind jamoalarini mahalliy ma'murlar tomonidan tayinlangan amaldorlar boshqargan. Bu amaldor "Yasovul" deb nomlanib, asosan hindlarning faoliyati va sarmoyasini nazorat qilib borgan. S. Ayniuning ma'lumot berishicha vafot etgan hinduning mol mulki merosxo'rga meros tariqasida qolmay, amirning xazinasiga topshirilgan, bu masalani hal qilish bilan ham yasovul shug'iullangan [1, S.49].

Ruslar Turkistonga kirib kelgach, yasovul mansabi bekor qilinib, ularning o'rmini oqsoqollar egallay boshlagan, lekin Turkistondagi yasovul postlarining bugungi kungacha saqlanib qolganlari bor. XX asr boshlariga kelib hind mahallalarining barchasida oqsoqol mansabi joriy qilingan [8, B. 13].

Oqsaqollar obro'li hindlar tomonidan tayinlanib, rus ma'muriyati bilan kelishib ishlagan. Oqsoqollar Turkistonda yashagan boshqa hindlarga nisbatan ko'proq boylikka egalik qilgan. Masalan, Kattaqo'rg'on oqsoqoli kapitalining yillik aylanmasi boshqa hind savdogorlarining aylanmasidan qariyib 3 barobar ko'p bo'lgan. Mahalliy hind jamoalar oqsoqollarining vazifalari to'g'risida ma'lumotlar unchalik ko'p emas, lekin manbalardan oqsoqollar mahalliy hind jamoasi orasidagi har xil tortishuvlar va janjallarni hal qilishda ham faol qatnashganini bilib olishimiz mumkin. Keyinchalik hindlarga meros qoldirishdagi cheklovlar olib tashlangach, notarial vazifalarni bajarib vafot etgan hinduning merosini merosxo'rga taqsimlash bilan ham shug'ullangan. Hind jamoalarida oqsoqollardan tashqari ruhoniylar yoki iskala mansabi ham bo'lgan [15, B. 1].

Har bir jamoaning alohida ruhoniysi bulgan. Toshkent, Samarqand, Kattaqurg'on, eski Marg'ilon va Buxorodagi hind jamoalarining alohida ruhoni yoki iskalasi bo'lgan, ruhoniylarning asosiy vazifasi,

shubhasiz, diniy masala bo'lib, aksariyat hollarda oqsoqollar kabi bir qator boshqa masalalar bilan ham shug'ullangan [14, B. 9].

Turkistondagi hind jamoalari bir qator huquqiy funksiyalarga ega edi. Mulkni meros qilib olish jarayonlarida jamoa a'zolarining guvohligi asosiy rol o'yagan. Masalan, 1877 yil Toshkentda hindistonlik Jamenda vafot etganda, Turkiston ma'murlari marxumning akalari Nanuyu va Senduruga mahalliy hind jamoalari tomonidan ularning huquqlari tasdiqlangandan keyingina yordam ko'rsatgan. (Nanuyu va Senduru Buxoroda yashagan) Ba'zan Rossiya hukumati hindlarning har qanday jinoyatlari uchun qamoqqa olinganda garov evaziga ozodlikka chiqish huquqini bermagan, hindlar uchun bu huquq juda xam zarur edi. Chunki hindlarning jamoa bo'lib yashashini hisobga olsak, jamoa a'zosining qamoqda bo'lishi diniy qoidalarning buzilishi, urf-odatlarga amal qilinmay qo'yilishi va kastachilikning yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkin edi [11, B. 6-9].

Hindistonlik fuqarolarning etnografiyasiga oid ma'lumotlar ham qiziqarli hisoblanadi. 1972 yilda G. D. Dmitriev "Strani" narodi Vastoka nomli jurnalda hind fuqarolarining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshi ijtimoiy hayotiga oid qo'yidagi ma'lumotlarni yozadi: Hindlar mahalliy aholidan o'zlarining tashqi ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Ularning antropologik ko'rinishlari bilan birga kiyimlari ham farqlanadi. To'rtburchak qora bosh kiyimi, past poshnali charm poyafzal ularni mahalliy aholidan ajratib turgan. Keltirilgan yozma ma'lumotlarda hind fuqarolari tomonidan yirik inshootlar qurilmagani, hind xonadonlari o'sha davr mahalliy aholi uylaridan farq qilmaganligi yoziladi [3. s.239].

Hind fuqarolarning Turkistonda diniy marosimlar o'tkazganliklari to'g'risida yozma manbalar juda ko'plab uchraydi. Ularni kuzatib, yozib qoldirganlarning, o'tkazilgan bayramlar to'g'risidagi ma'lumotlari orasidan ayrimlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, Toshkent shahridagi karvonsaroylardan birida ibodatxona mavjud bo'lib, uning ichkarisi rangli rasmlar bilan bezatilgan va u erda Kali ilohasining but rasmi (ikona) saqlangan. Barcha "molenyalar"-ibodatxonalarda o'zlarining ruhoniylari "pirzodalar" bulgan va ular ham vatandoshlari kabi almashinib turishgan. Masalan, Baba Nachaldasov pirzada, o'z vataniga qaytayotgan Ibyaumal Xirirama o'rniغا tayinlanadi [16. B.49].

Rus tarixchisi A. Xoroshxin 1872 yilda hindlar hayotining guvohi bo'lganlarning fikrlarini yozadi. Unga ko'ra ularning har biri o'ziga tegishli bo'lgan idish va qoshiqdan foydalanishgan, ularni hattoki o'z yaqinlariga ham berishmagan. Boshqa din vakillari ularning idish-tavoqlariga teginsa, ular harom hisoblangan, hattoki ularning o'choqlaridagi bir bo'lak ko'mir olinsa ham harom hisoblangan [6]. Bunday vaziyat Hindistonda mavjud kastalar tizimining mavjudligidan shakllangan bo'lishi mumkin. Turkistondagi hindlar etnografiyasiga oid quyidagi ma'lumotlar ham qiziqarli hisoblanadi. Yozma manbalar hind fuqarolarning mahalliy aholi bilan munosabatlariga doir ma'lumotlarni ikki qismga ajratish mumkin. Birinchidan, hindlar o'zları yashayotgan xudud aholisi bilan juda yaxshi, ishonchli munosabatlar o'rnatishgan, bayram tadbirlarda ishtirok etishgan. O'zlarining urf-odatlari-har kuni ertalab ustidan suv quyib yuvinishni, rus manbalarida "omoveniya" qanday ob-havo sharoitida bo'lishdan qat'i nazar bajarishgan. XIX asrning 80 yillarda andijonlik So'fi-Ralesuning karavan-saroyida yana shunday poklanish xonasi rus bo'lgan (manbalarida "kupalnya" deb atalgan). Ikkinchidan: Turkistondagi hindlar etnografiyasini o'ziga xos sirli tomoni, ularning urf-odatlari ko'ra, o'lgan odamni yoqishgani bo'lgan. Mahalliy aholi tomonidan turlicha baholanishi munosabati bilan general – gubernatorlik amaldori ushbu marosimni kechqurun tunda mahsus politsiya nazaratida o'tkazishadi, bu jarayon mahalliy aholi tomonidan sirli hodisaligi sifatida ajralib turgan. Taniqli rus olimi E. Eversman XIX asrning 80 yillarda Buxoroda ham xuddi Hindistondagi kabi muqaddas sigirlar saqlanganligi haqida xabar beradi. Arxiv hujjatlarida Qo'qon shahar uezd sudyasi 1879 yil 25 fevral (9 mart) oyida iloha Krishnu sharafiga o'tkazilgan bayram to'g'risida, shuningdek Buxoro mirshabi Qarshida o'tkazilgan va, mutaxassislarining , takidlashicha, Lakshmi sharafiga o'tkazilgan bayramlar to'g'risida ma'lumot berishadi. Rus taddiqotchisi N.M. Likoshin Toshkentda "devali" bayramining nishonlanishi to'g'risida yozib qoldirgan [16. B.49].

Ayrim ma'lumotlarda hindlarning olovga sig'inishi haqida ham eslatib o'tilgan, chunki hindlar kulbalarga doimiy olov yoqishgan va kichik teraskaning panjarasida doimiy chiroqlar yonib turgan. O'rta Osiyodagi hindlar orasida ham jasadni yoqish holati uchragan. Ibodatxonalar qurish imkonidan maxrum bo'lgan hindlar diniy marosimlarni o'tkazishda karvonsaroylardan foydalangan. 1875 yil Toshkentga tashrif buyurgan Skaylera shunday ma'lumot bergen: karvonsaroy burchagida kichik bir xona ibodatxonaga aylantirilgan, u erda toshdan yasalgan kichik haykalchalar va ko'plab mayda buyumlar joylashtirilgan [2, S .406].

Rossiya hukumati hindlarga Turkistonda vafot etgan o'z qabiladoshlarining mol-mulkini olish masalasida har doim yordam bergen. Ushbu masala yuzasidan Rossiya va Angliya o'rtasida tegishli kelishuvning yuqligi merosning huquqiy masalasini rus hukumati tomonidan amalga oshirilishini ta'minlagan [9, B.15].

Hindlarning merosiga oid barcha holatlarda Peterburgdagi Angliya elchisi, Tashqi ishlar vazirligi va Turkiston geniral gubernatorligi xodimidan yordam so'rab, ularning vakili sifatida ish yuritgan. Buxoroda vafot etgan hindlarning merosi Buxorodagi rus elchixonasi yordamida xal etilgan [10, B. 232].

Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi O'rta Osiyodagi hindlarning faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratgan. Feodal tarqoqlikning o'rnini bosadigan, hind muxojirlarining manfaatlari tula javob beradigan, shaxsiy huquq va boyliklarning kafolati ularning mintaqadagi iqtisodiy hayotini havfsizroq qildi. Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi hindlar va boshqa musulmon bo'limganlarga qo'yilgan chekllovlar asta sekinlik bilan yuq bo'lishiga olib keldi. SHu sababdan ham hindlar ruslarning O'rta Osiyoga kelishini mammuniyat bilan kutib olgan va O'rta Osiyoning bosib olimishiga xayrioxlik ko'rsatgan. 1868 yilgi Samarqanddag'i qo'zg'olon vaqtida ularning aksariyati ruslarga xayrihoh bo'lgan. Ayrim hindlar Turkistoni ruslar istilo qilish vaqtida rus qo'shiniga bevosita yordam bergen. 1866 yil hindistonlik Matra Bay Tilliya, Rus qo'shinini 1873 yilgi Xivaga yurishida yana bir hindistonlik Nukra Bush qatnashgan [7, B. 27].

Hindistonlik muhoxirlarning ruslarga nisbatan iliq munosabati keyinchalik ham davom etgan. Ba'zan ular hind gazetalari orqali Rossiya va O'rta Osiyo halqlarining munosabatlari haqida ma'lumot tarqatishga harakat qilgan. O'rta Osiyodagi hind muxojirlari Hindiston xalqlarining keng qatlami orasida Rossiyaning obro'sini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan [13, B. 8].

Buxoro xonligida hindlar juda ko'p bo'lganligi sababli mahalliy aholi orasida tinimsiz nazorat olib borilib, ularning faoliyati va davomat miqdori ustidan nazoratni hindlarning yasavul deb nomlangan maxsus vakili amalga oshirgan. Dastlab hindlar vafot etgandan so'ng ularning mol mulklari merosxo'rلarga berilmagan, aksincha amir xazinasiga yuborilgan. Shuning uchun kasal bulgan hindlar o'zini ko'rgani kelgan qarindoshiga yashirinchacha pullarini berib yuborishga harakat qilgan. Buxoro amirligidagi hindlarning musulmon bo'limgan qismini o'z dinlariga ochiq e'tiqod qilishi cheklangan, ular ibodatxonalar qurolmagan, diniy marosimlarini tashkillashtira olmagan. Buxorodagi hindlar ham sigirga etiqod qilgan. Turkistondagi hindlarga yana bir qator chekllovlar mavjud bo'lgan. Maslan, maxsus belgilangan joylardan boshqa joylarda yurishi, shahar ichida otda yurishi, musulmon ayollarga uylanishi, mahalliy aholidan qul olishi. XIX asrning 70 yillarida Turkiston iqtisodiyotida hindlar boshqa xalqlarga nisbatan alohida mavqeyga ega bo'lgan. Ularning katta qismi sudxo'rlik bilan shug'ullangan. Turkiston general gubernatori Kaufmon hindlarning sudxurlik bilan shug'ullanishini cheklaydigan bir qator qarorlar chiqargan. Mulkdor hindlarning mavqeyimi pasaytirish maqsadida hindlar tomonidan sotib olingan er, mulklarini majburiy sotish to'g'risida qaror chiqarilgan. O'z hohishi bilan erlarini sotmagan hindlar ma'muriy tartibda majburlangan, erlarni sotib pulini hindlarga bergen. Qishloq joylardagi hindlarga tegishli erlearning ham pulini to'lab hindlardan olib quyish holatlari ham uchrab turgan. Dastlab hind sudxo'rlariga nisbatan ma'muriy chekllovlar vaqtincha bo'lgan bo'lsa, 1886 yil Rossiya davlat kengashi tomonidan ma'qullanib qonun maqomiga ega bo'ldi. Natijada hindlarning sudxo'rlik bilan shug'ullanishi qiyinlashdi [5,S.96-97].

Adabiyotlar

1. Айни С Бухара, М., 1957, Н. 3, стр.49
2. Борнс А. Путешествие в Бухару. М.,1848. ч. 2. стр.406
3. Дмитриев Г.Д. Из истории индийских колоний в Средней Азии (вторая половина XIX-начало XX в.). Страны и народы Востока. Вып. XII. Москва 1972.с.239
4. Туркистанский край в 1866 г. СПб, стр.114
5. Этнический атлас Узбекистана –Ташкент: Савместное издание "ИООФС-Узбекистан" и ЛИА "Р. Элина", 2002, стр. 96-97
6. Хорошин А. Самарқанд. Туркестанские ведомости. 1872.№44
7. [O'z RMDA. I 1-fond, 16-ruyxat, 1001-ish, v,27]
8. [O'z RMDA. I 1-fond, 31-ruyxat, 848-ish, v,13]
9. [O'z RMDA. I 2-fond, 2-ruyxat, 33-ish, v,15]
10. [O'z RMDA. I 3-fond, 2-ruyxat, 232-ish,]
11. [O'z RMDA. I 17-fond, 1-ruyxat, 385-ish, v,6-9]
12. [O'z RMDA. I 17-fond, 1-ruyxat, 13005-ish]
13. [O'z RMDA. I 19-fond, 1-ruyxat, 14127-ish, v,8]
14. [O'z RMDA. I 36-fond, 1-ruyxat, 1288-ish, v,9]
15. [O'z RMDA. I 660-fond, 1-ruyxat, 341-ish, v,1]
16. [O'z RMDA. I 2866-fond, 1-ruyxat, 10-ish, v,49]

UDK: 930.85

**O'ZBEKİSTONNING JANUBİY HUĐUDLARIDA UY - JOY QURILISHIDAGI AHVOL:
O'ZGARİSHLAR VA MUAMMOLAR (1950-1960 YY)**

T. R. Pardayev

*Termiz davlat universiteti
tursunovsafullo12@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistoning janubiy hududlarida uy-joy qurilishi borasidayuz bergan o'zgarishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda ularning sabab va oqibatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: uy – joy, qurulish, bino, xususiy mulk, davlat mulki, kooperativ, jamg'arma, taqchillik, muammo.

**Состояние жилищного строительства в южных регионах Узбекистана: изменения и проблемы
(1950-1960 г.г.)**

Аннотация. В статье приводится анализ о произошедших изменениях в области жилищного строительства на южных территориях Узбекистана в 50-ых годах прошлого века. Анализируются допущенные ошибки и недостатки, а также их причины и последствия.

Ключевые слова: жилище, строительство, здание, частная собственность, государственная собственность, кооператив, фонд, дефицит, проблема.

**The condition of house construction in Southern Parts Of Uzbekistan: alterations and problems
(1950-1960)**

Abstract. The article defines the alterations, mistakes and drawbacks, and the causes and results in the condition of house construction in southern parts of Uzbekistan in 1950-1960.

Keywords: household, construction, building, private and state property, cooperative, funds, deficiency and problems.

Urushdan keyingi yillarda Respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari ancha rivojlandi. Natijada aholining moddiy turmush sharoiti ancha yaxshilanib, ijtimoiy muammolar hal qilina boshladi. Endigi asosiy vazifa urushning butun og'irligini yelkasiga olgan xalqning turmushini farovonlashtirish, ishchilar, xizmatchilar, injener-texnik xodimlar va ularning oilalarga moddiy va maishiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash zarur edi. Ayniqsa, uy-joy qurilishi, mavjud uy-joy fondlarini ta'mirlash zarurati dolzarb vazifalaridan biri edi. Xususanb shu davrda janubiy viloyatlarining shahar aholisini uy-joy bilan ta'minlash masalasida ham anchagina ishlar amalga oshirildi.

1946-yil 30-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining VIII sessiyasida aholini uy-joy bilan ta'minlashga alohida e'tibor berildi. Uy-joy muammosini hal qilish uchun katta miqdorda mablag' ajratildi, uy-joy qurish uchun korxonalarda alohida jamg'armalar tashkil etildi. O'zbekiston hukumati uy-joy qurish uchun 1946-yilga nisbatan 1947-yilda 1,5 baravar ko'p mablag' ajratdi [1]. 1948-yilda esa urushgacha bo'lgan uch besh yillikdagi mablag'ga nisbatan uy-joy qurilishi uchun 3 marta ko'p mablag' ajratildi [2]. Bu davrda Surxondaryo viloyatining bosh shahri bo'lgan Termizda ham anchagina bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. 1949-yilda shaharda uy-joy fondlari 1937-yildagiga nisbatan 2 marta ko'paydi [3]. Shu davrda viloyatning Sho'rchi, Sherobod, Jarqo'rg'on tumanlarining markazlarida ham ancha keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Jumladan 1947-51 yillarda shahar va shahar tipidagi posyolkalardagi uy-joy foni qariyb uch baravar oshdi [4]. Bu davrda davlat korxonalarini bilan bir qatorda kooperativ tashkilotlar ham uy-joy qurilishiha ishtirot etdi. 1947-yilda Surxondaryo paxta tozalash tresti uy-joy qurilishi uchun 265000 so'm, Kitob paxta tozalash zavodiga 14 ming so'm kapital mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobiga Surxondaryo paxta tozalash zavodiga esa 116 kv metrli 2 ta uy qurilish rejalashtirildi. Biroq ajratilgan mablag'ning katta qismi o'zlashtirilmadi [5]. Bunday holatni Denov paxta tozalash zavodi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, 1948-yilda Denov paxta tozalash zavodiga uy-joy qurilishi uchun 214 ming so'm mablag' ajratildi, shuning bor-yo'g'i 47 ming so'mi o'zlashtirildi xolos [6]. Yildan-yilga aholi sonining o'sib borishi bilan birga odamlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bordi. 1957-yilda KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Minstrlar Soveti "SSSRda uy-joy qurilishini rivojlantirish to'g'risidagi qarorni qabul qildi. 1956-1985-yillar oraliq'ida Ittifoq miqyosida 3 milliard kv metrdan ziyod bo'lgan 66 millionga yaqin uy-joylar qildi [7].

O'zbekistonda ham shu davr oraliq'ida uy-joy qurilishi yildan yil ko'payib bordi. Chunonchi to'rtinchи besh yillikda (1946-1950 yy) da. 6951 ming kv metr. Beshinchи besh yillik (1951-1955 yy) da

10752 ming kv metr, Oltinchi besh yillikda 18312 ming kv metr, Yettinchi besh yillikda 15528 ming kv metr, Sakkizinchi besh yillikda 25660 ming kv metr, To'qqizinchi besh yillikda 24761 ming kv metr, O'ninchchi besh yillikda 27382 ming kv metr, O'n birinchi besh yillikda esa 27382 ming kv metr uy-joy bunyod etildi [8]. Lekin shunga qaramasdan O'zbekistonda uy-joy ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. Bu borada O'zbekiston Ittifoqda oxirgi o'rnlardan birida turardi. 1980-yildan 1986- yilgacha har bir shahar aholiga turar joy maydoni 9,6 kvadrat metrdan 11,1 kvadrat metrga oshgan bo'lsa, bu ko'rsatgich Ittifoq bo'yicha 13,1 metr kvadratdan 14,1 metr kvadratga Latviyada – 15,7 metr kvadratdan 16,7 metr kvadratga, Estoniyada esa 16,0 metr kvadratdan 17,6 metr kvadratga oshdi [9]. O'zbekistonda aholining yillik o'sishi yuqori bo'lganligi boisidan ham yildan-yilga turar joylarga bo'lgan ehtiyoj oshib bordi. Shu boisdan ham Janubiy viloyatlarning markaziy shaharlarida ko'p qavvatlari uylar bunyod etilgan butun-butun mikrorayonlar paydo bo'ldi. Ana shunday mikrorayonlardan Termiz shahridagi 4 va 5 mikrorayonlarni misol keltirish mumkin. Aholini uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishda respublika hukumati, shaxsiy o'z mablag'i hisobiga uy qurayotgan kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab bordi. Ularga yer uchastkalari va uzoq muddatli qarzlar berib borildi.

Urushdan keyingi dastlabki besh yillik mobaynida respublikada 1771 ming kvadrat metr uy davlat va kooperati tashkilotlari tomonidan 887 ming kvadrat metr uy-joy qurildi [10]. Shu davrda shahar aholisining uy-joyga bo'lgan talabi to'liq qondirilgan emas edi. Respublikada jon boshiga me'yordagi 9 kvadrat metr o'rniga 4 kvadrat metrdan uy-joy to'g'ri kelardi [11]. 1951 yilda Termiz shahrida yakka tartibda qurilgan uylarning soni 70 tadan ko'proqni tashkil etdi. 2170 kvadrat metr uy-joy binolari to'liq ta'mirdan chiqarildi. 1957 yilda O'zbekiston Minstrlar Sovetining qaroriga ko'ra Termiz shahrida 165-qurilish tresti tashkil etildi. Natijada shu yilning o'zida 5224 ming so'mlik qurilish montaj ishlarini amalga oshirdi. 1952-yilda Termiz shahrida 10 ming kvadrat metrga yaqin turar-joy binolari barpo etildi [12]. 1956-yilda Kitob konserva zavodi ishchilari uchun 1820 kvadrat metr uy-joy bunyod etildi.

Bu sohada Qarshi yog' ekstraksiya zavodida ancha xayrli ishlar amalga oshirildi, korxonanning 50 foiz ishchi xizmatchisi uy-joy bilan ta'minlandi.

1959-yildan boshlash shaxsiy uy-joylarni qurish ishlari kamaya boshladи. Sababi shu yildan boshlab Respublikaning 9 ta shahrida Jumladan, Toshkent, Sirdaryo, Farg'on, Andijon, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi shaharlarda shaxsiy uy-joy qurish taqiqlandi. 1960-yilga kelib shaxsiy uy-joylarning qurilishi keskin kamayib ketganligi sezilib qoldi. Masalan 1958-yilda Qashqadaryoda o'z mablag'i hisobiga 108 ming kvadrat metr, Surxondaryoda 43 ming kvadrat metr uy-joy qurilgan bo'lsa, 1960-yilga kelib Qashqadaryoda 98000 kvadrat metr, Surxondaryoda esa 21 ming kvadrat metr uy-joy qurildi [13]. Ishchi xizmatchilarining shaxsiy uy-joy qurish tashabbusini bu tarzda bo'g'ib qo'yilishi tufayli shaharlarda aholini uy-joy bilan ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Oqibatda uy-joylarga navbatda turuvchilar soni yildan yilga ko'payla bordi. Masalan 1963-yilda Termiz shahrida 163 nafar ishchi xizmatchi kvartira olish uchun navbatda turgan bo'lsa 1969-yilga kelib ularning soni 216 taga yetdi [14]. Qashaqdaryo viloyatida davlat va kooperativ tashkilotlar tomonidan 1958-yilda 18 ta 1959-yilda 26 ta 1960-yilda esa 28 ta uy-joy qurilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Surxondaryoda 1958-yilda 25, 1959-yilda 46, 1960-yilda esa 49 ta uy-joyni tashkil etgan holda ishchi va xizmatchilarining shaxsiy va davlat qarzları hisobiga qurgan uylari Qashqadaryoda 1958-yilda 108 tani 1959-yilda 114 tani, 1960-yilda 98 tani tashkil etdi. Surxondaryoda esa 1959-yilda 43 ta 1959-yilda 23 ta, 1960-yilda 21 ta uy joy qurildi [15]. Shahar aholisining uy-joy bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida qator qurilish tashkilotlari ham tashkil etildi. Jumladan 1963-yil fevralida 11 qurilish tresti, 1968-yilda 26 qurilish tresti, keyinroq esa Surxon sovxozi vodstroy va Surxanstroy trestlarining tashkil etilishi natijasida viloyat shaharlarida olib borilayotgan qurilish montaj ishlarining hajmi keskin ko'paydi. Agar Termizda 1960-yilda 24 ta uy-joy qurilib foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1961-yilda 6275 kvadrat metr turar-joy binosi ishga tushirilib 21 oilaga uy-joy uchun order berildi [16]. Termiz shahrida 1951-1961-yillar oraliq'ida 93,2 ming kvadrat metr uy-joy binolari qurildi [17]. Bu davrda shahar aholisining demografiyasi ham ancha o'sdi. Yangi yerlarni o'zlashtirilishi tufayli Respublikada yangi 21 ta shahar vujudga keldi. Jumladan Janubiy viloyatlardagi Gagarin, Muborak, Tallimaron kabi shaharlar asosan migrsiya tufayli vujudga kelgan [18].

Tadqiq etilayotgan davrda shaharlarni obodonlashtirish, gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ham anchagina ishlar bajarildi. 1956 yilda Shahrisabz shahrini qayta ta'mirlash bosh loyihasi tasdiqlandi. 1956-yilda esa shahar ko'chalarini asfaltlash ishlari amalga obo'lsa, 1958- yildan boshlab esa Shahrisabz shahri aholisiga ichimlik suvini quvurlar orqali yetkazib berish yo'lga qo'yildi [19]. 1959-yildan boshlab Termiz shahri gazlashtirilia boshlandi. O'sha yilning oxirigacha shahardagi 60 ta xonadonga gaz plitasi o'rnatilgan bo'lsa, 1962-yilning boshiga qadar bu ko'rsatkich 2500 tadan oshdi [20].

Sovet hukumatining ijtimoiy dasturlarga qoldiq prinsipi asosida mablag' ajratishi natijasida aholining maishiy hayotida bir qancha muammolar to'planib bordi. Jumladan, uy-joy muammosi ana

shunday muammolarning eng o'tkirlaridan biri edi. Chunki respublikada amalga oshiriladigan har bitta o'zgarishga markazning roziligi bilangina erishish mumkin edi. Bunday sharoitda aholining turmush tarzini farovonlashtirish va ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarishning imkoniyati chegaralangan edi.

Adabiyotlari

1. O'zRMDA 737-fond 3-yozuv, 90-ish, 180-varaq.
2. Правда Востока, 1948 йил, 28 май. Б-2.
3. Azimov M. Termiz tarixi. "Nasaf" 2001. 164-bet.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 137-ish, 55-56-varaqlar.
5. O'zRMDA 2099-fond 4-yozuv, 170-ish, 56-varaq.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 126-ish, 29-30-varaqlar.
7. Minulskiy K.I. va boshq. KPSSning sotsial siyosati. – Т.: O'zbekiston. 1987. 272-bet.
8. Народное хозяйство Узбекской ССР. 1985. – Т.: Ўзбекистон. 1986. 239-стр.
9. Народное хозяйство СССР в 1988.168-стр.
10. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 Статистический ежегодник. –Т.: 1966. 278-стр.
11. O'zRMDA 868-fond 12-yozuv, 16-ish, 28-varaq.
12. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 136-ish, 13-varaq.
13. Azimov M. Termiz tarixi. – Qarshi. "Nasaf". 2001.16-bet.
14. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 52-ish, 18-varaq.
15. O'zRMDA 2099-fond 4-yozuv, 171-ish, 43-varaq.
16. Qashqadaryo viloyat davlat arxiv 31-jamg'arma, 1-ro'yuxat, 362-ish, 262-varaq.
17. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 году. Статистический ежегодник. – Т., 1966 г. 72-стр.
18. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 228-ish, 360-361-varaqlar.
19. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 году. Статистический ежегодник. – Т., 1966 г. 279-стр.
20. Lenin bayrog'i gazetasi. 1961 yil, 18 dekabr soni.

UDK: 930

ZARAFSHON OKRUGI TASHKIL ETILISHI VA SHAXARSOZLIK TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR

B.Ergashev

Samarkand davlat universiteti

Annotatsiya: Yurtimiz qadim shaharlaridan biri Samarqand XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, uning taqdiri borasida imperiya ma'muralari tomonidan boshqaruviga oid turli qarashlar mavjud bo'lib ularga asos buluvchi manbalar taxlil etildi. Shahar qiyofasiga o'zgarishlar kiritildi. Maqolada Samarqand shahrining 1868-1876 yillar davomida yangi shahar qismining shakllanishiga oid arxiv manbalaridan keng foydalanildi. Keltirilgan yozma ma'lumotlarda, Zarafshon okrugi boshlig'ining Turkiston general-gubernatorligi maxkamasi bilan yozma ma'lumotlari asosiy tarixiy manba sifatida o'rGANildi. Yangi shahar qismini yaratish uchun asosiy yunalishlar, qurilish ob'ektlari, ko'chalari to'g'risidagi yozishmalar keltirildi. Shuningdek tarixchi olimlar tarixiy ma'lumotlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Zarafshon.okrug.Samarqand, mustabid tuzum, shahar, yangi qism, arxiv, manbalar.

О создании Зерафшанского округа и истории градостроительства

Аннотация: Самарканд во второй половине XIX века была завоевана Российской империей. На основе привлечения письменных источников анализируются различные подходы имперских ведомств по дальнейшей судьбе управления Самарканда. Были внесены изменения в облик города. В статье использованы архивные материалы по строительству новогородской части Самарканда в 1868-1876 годы. В основном наряду с трудами историков изучены переписка начальника Зерафшанского округа с канцелярией Туркестанского генерал-губернаторства о постройке новой части города, строительных объектах, улицах.

Ключевые слова: Зерафшанский округ, Самарканд, колониальный, строй, город, новая часть, архив, источники.

Information on the establishment of Zarafshan district and the history of urban planning

Abstract. In the second half of the 19th century Samarkand was conquered by the Russian Empire. Based on the use of written sources, various approaches of the imperial departments on the fate of the administration of Samarkand are analyzed in this article. Changes were made to the appearance of the city. The archival materials were used for the construction of the new part of Samarkand in 1868-1876 in the article. Basically, along with the works of historians, the correspondence of the head of the Zarafshan district with the office of the Turkestan general government about the construction of a new part of the city, construction objects, streets was studied.

Keywords: Zarafshan district, Samarkand, colonial, system, city, new part, archive, sources.

Turkiston o'lkasining XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi tarixi o'lkada mustabid boshqaruv tizimining o'rnatilishi bilan bog'liq davrdir. Rossiya imperiyasining o'lkamizni zabit etgach Samarqand viloyati tarixi bilan bog'liq bo'lgan voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni yozma manbalar asosida tahlil etish muxim vazifalardan hisoblanadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini zabit etish rejasini xalqaro munosabatlardagi vaziyatni hisobga olgan holda olib bordi. 1865-1866 yillarda Toshkent va Jizzax hududlariga tegishli bo'lgan yerlar istilo etilgach, 1867 yilning 14 iyulida Turkiston general-gubernatorligi Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridan iborat tarkibda tashkil etildi. Imperiya qo'shinlari 1868 yilning 30 aprelida 4019 kishilik harbiylari bilan Samarqand shahri tomon yo'l oladi.

Mustaqillik yillarda o'zbek tarixchilari olimlari bu masalaga manbalar asosida yetaricha oydinlik kiritdilar va bu jarayon yanada kengroq o'rganilmoqda. Ularning ilmiy izlanishlarida Buxoro amirligi qo'shinlari va Samarqand mudofa'chilari orasida aniq harakat rejasining mavjud bo'maganligi Rossiya imperiya qo'shinlaridagi kabi o'sha davr uchun zamonaviy qurollarning mavjudligi, ayniqsa artilleriyaning imkoniyatlari hisobiga fon Kaufman qo'shinlari Samarqandni zabit etishdi degan obekativ fikrlar bildirildi.

Rossiya imperiyasi ma'murlar zabit etilgan Samarqand viloyatining hozirgi Mirbozor (Narpay tumani) hududigacha bo'lgan yerlarni Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritishdi. Bu to'g'risidagi «Vaqtincha nizom» 1868 yilning iyun oyining boshida kuchga kirdi. Unga binoan Zarafshon okrugi ikkita Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat hududiy birlikni tashkil etdi.

Zarafshon okrugining Samarqand bo'limi 11 aholi maskanini o'z ichiga olgan rayondan, Kattaqo'rg'on bo'limi esa 16 kishloqni birlashtirgan 1 rayondan iborat edi.

Rossiya imperiyasi Harbiy va Tashqi ishlari vazirliklari ma'murlari Samarqandning zabit etilishi va Zarafshon okrugining tashkil etilishi masalasini, hozirgi davrda imperiyaning Buxoro amirligi bilan munosabatlardan kelib chiqadi deb, hisoblash mumkin. Chunki, rus harbiylari orasida Buxoro amirligini zdullik bilan egallash zarur degan qarashlari amalga oshirilmay qoldi. Bu boroda usha davr tarixchi olimlarining ayrim fikrlarini keltirish juda o'rinni bular edi. «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi» nomli monografiyaning avtori, sovet tarixchisi N.A.Xalfinning so'zicha, bu O'rta Osiyo masalasida o'ziga xos ikki xil yo'lning namoyon bo'lishi edi[1]. Rossiyaning O'rta Osiyo siyosatida paydo bo'lgan bunday ahvol, shubhasiz, 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligi bilan Buxoro xonligi o'rtasida tuzilgan sulh shartnomasining podsho hukumati tomonidan tasdiqlanishiga to'sqinlik qilib, Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosatida uzil-kesil yechilmay muammo bo'lib qolgan va bir necha yil davomida davlat mahkamalari o'rtasida bahs munozara mavzusiga aylangan «Samarqand masalasi»ning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

«Samarqand masalasi», shubhasiz, Buxoro xonligi ustidan o'rnatilgan vassallikni mustahkamlash plani bilan bog'liq bo'lib, uniig hal etilishi jarayonida imperiyaning hukmron doiralarini o'rtasida vujudga kelgan siyosiy vaziyat Rossiyaning Buxoro xonligiga nisbatan tutgan siyosatining haqiqiy mohiyatini, ayniqsa, Turkiston ma'muriyatining Samarqand vohasini qo'lda saqlab qolish bilan ko'zda tutgan maqsadini ochiq namoyish qiladi.

Rossiya imperiyasi harbiy vazirligi «Samarqand masalasi»da Turkiston ma'muriyatini qo'llab-quvvatlab, har qalay unga yordam berish uchun harakat qilsa ham, ammo Tashqi ishlar ministrligining talabiga binoan Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman nomiga Samarqand vohasini Buxoroga qaytarib berish va chegarani Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'idan o'tkazish to'g'risida ketma-ket farmoyishlar yuborishga majbur bo'ladi.

Buxoro bilan sulh shartnomasi tuzilmasdan yigirma kun avval 1868 yil 4 iyunda Rossiya harbiy vaziri D.A.Milyutin Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanga telegramma yuborib, bundan keyingi olg'a yurishni to'xtatish hamda harbiy kuchlarni Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'i – Jizzax tomon «o'z chegarasiga» qaytarishni taklif etadi[2].

Rossiya – Buxoro munosabatlari hatto Harbiy va Tashqi ishlar ministrliklari boshliqlarining imperator Aleksandr II ishtirokida o'tkazilgan maxsus kengashida muhokama etilib, unda «avvalgi

programmaga qat'iy amal qilmoq» va yangi yerlarni egallamaslikka qaror qilinadi. D.A.Milyutin majlis qarori to‘g‘risida K.P.Kaufmanga yuborgan maktubida Rossiyaning Buxoro bilan chegarasi Samarqandning sharqidan o‘tishi va bu shahar Rossiya imperiyasi qo‘l ostidagi yerlardan tashqarida qolishi kerak edi, – deb ta‘kiddaydi. Ammo u xatida, shu bilan birga, qanday yo‘l bilan bo‘lmasin Buxoro ustidan Rossiyaning siyosiy hukmronligining o‘rnatalishini ta‘minlash to‘g‘risida ishora qiladi[3].

Aleksandr II Turkiston general-gubernatorligi bilan Buxoro xonligi o‘rtasida tuzilgan sulh shartnomasini tasdiqlash muddatini orqaga surib, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarini Buxoroga qaytarib berish to‘g‘risidagi qarorni ma‘qullagandan so‘ng, D.A.Milyutin K.P.Kaufmanga 1868 yil 13 iyulda yana maxsus maktub yuborib, unda zabit etilgan rayonlarni, shu jumladan, Samarqand shahrini bo‘shatib chiqish to‘g‘risida buyruq beradi[4]. Shu yilning 2 avgustida K.P.Kaufman nomiga va 13 avgustda Boshshabning boshlig‘i F.L.Geyden nomiga Peterburgdan yuborilgan yozma farmoyishda Turkiston general gubernatoriga to‘rt yil muddat ichida to‘lash sharti bilan Buxoro ustiga qo‘yilgan kontributsiya miqdorini bir million so‘mgacha oshirish, so‘ngra ishg‘ol etilgan rayonlarpi amirga qaytarib berish taklif etiladi[5].

O‘rta Osiyoda o‘rnatalgan siyosiy mavqeidan mag‘rurlangan Turkiston general-governatori va uning atrofidagi harbiy qo‘mondonlik, markazdan uzlusiz kelayotgan farmoyishlarga ahamiyat bermay, zabit etilgan rayonlarni xonlikka qaytarib berish u yodda tursin, balki Zarafshon okrugida Rossiyaning hukmronligini saqlab qolish va mumkin qadar uning chegarasini kengaytirish uchun harakat qildilar. Shuning uchun ham Peterburg bilan olib borilgan muzokaralarda K.P.Kaufman «Samarqand masalasi»da o‘z fikrining va bu yo‘lda amalga oshirilayotgan hatti-harakatining to‘g‘riligini isbotlashga va Zarafshon vodiysining yuqori qismini qo‘ldan bermaslikka harakat qiladi. Aleksandr II Samarqandni Buxoro xonligiga qaytarib berish muddatini birmuncha orqaga cho‘zish to‘g‘risidagi K.P.Kaufman taklifini qabul qiladi va unga Buxoro xonligiga nisbatan bundan keyingi olib boriladigan siyosati to‘g‘risida o‘z mulohazalarini yozib hukumatga topshirish buyuriladi.

Ammo Turkiston ma‘muriyati tomonidan O‘rta Osiyoda amalga oshirilayotgan bunday siyosat Tashqi ishlar ministrligi va Osyo departamentida tobora bezovtalikni kuchaytirib, ularning boshliqlarini tahlikaga solib qo‘yadi. M.A.Terentev va M.I.Venyukovlarning yozishicha, tashqi ishlar ministri va davlat kansleri A.M.Gorchakovni hamda Osyo departamentining boshlig‘i N.P.Stremousovlarining Angliyani Rossiya qarshi qo‘zg‘atib qo‘yilmasa edi degan mulohaza cho‘chitmoqda edi[6]. 1868 yil avgust oyida Panjakent shahari «o‘z ixtiyori bilan bo‘ysunib»[7], u Zarafshon okrugiga qo‘shib olingach, shu yilning oktabr oyida amirning katta o‘g‘li Abdulmalik rahbarligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni bostirish uchun A.K.Abramov boshliq rus qo‘sishlarining Qarshi shahariga kirib borishi natijasida[8]. «Samarqand masalasi» bo‘yicha bir-biriga qarama-qarshi ikki xil yo‘lni o‘tkazayotgan davlat mahkamalari va ularning tarafdorlari o‘rtasida munozara kuchayib, jiddiy tus oladi. Rossiya chegarasini kengaytirish maqsadida qilingan har qanday harbiy yurishlardan norozi bo‘lgan A.M.Gorchakov va N.P.Stremousovlar Zarafshon vodiysi Buxoroga qaytarib berishni qat’iy talab qiladilar. Ularni «Osyo masalalari» bo‘yicha mutaxassis N.V.Xanikov quvvatlaydi. U Samarqanddan umuman, O‘rta Osiyoda olib borilayotgan tajovuzkorlik siyosatidan voz kechish zarurligi to‘g‘risida bayon qiladi. Uning fikricha, bunday siyosat Rossiyanı «O‘rta Osiyodagi mayda xonliklarning ichki ishlariga aralashish girdobiga yana tortib ketadi» degan fikrni bildiradi[9].

Zarafshon okrugini xonlikka qaytarib berish uchun amalda hech qanday chora ko‘rilmasa ham, har holda Rossiya imperatori N.V.Xanikovning fikriga qo‘shiladi. Natijada imperiya, tashqi ishlar vazirligi Turkiston ma‘muriyatining o‘zboshimchalik bilan olib borilgan harakatiga qarshi markaziy hokimiyatni qo‘zg‘atish va har tomonlama siquvni kuchaytirish bilan Zarafshon okrugini Buxoroga qaytarib berish uchun zo‘r berib harakat qiladi.

«Samarqand masalasiga» nisbatan Tashqi ishlar ministrligining tutgan bunday munosabati podsho samoderjaviesi mustamlakachilik siyosatining tarafdorlaridan va uning amalga oshirilishidan manfaatdor bo‘lgan rus burjuaziyasi doirasida norozilik paydo qildi. Vestnik Evropy jurnalining 1869 yil 5-sonida nashr etilgan redaksiyon maqolasida «Samarqandni qaytarib berish masalasining» muhokamaga qo‘yilishi o‘rinsiz, deb hisoblanib, qattiq tanqid qilinadi. Markaziy Osiyoda o‘z ta‘sir doiralari chegarasini belgilab olish uchun Angliya bilan Rossiya o‘rtasida tortishuv ketayotgan bir paytda bunday qat’iyatsizlikning ayniqsa xavfli ekanini ta‘kidlab, jurnal taxririyati Turkistonda «bundan keyingi qo‘lga kiritiladigan» rayonlardan voz kechish to‘g‘risida davlat tomonidan qandaydir bironta majburiyat qabul qilinishiga qarshi ogohlantirish bildiradi. Shunday qilib, rus burjuaziyasi «Samarqand masalasi»da Turkiston ma‘muriyati tomonidan amalga oshirilayotgan aktiv yo‘ning oddiy tarafdori bo‘libgina qolmay, balki matbuot orqali uni quvvatlovchi tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda edi.

Shunisi ham borki, o'sha vaqtida O'rta Osiyoda bo'lgan va bu yerdagi qulay sharoitdan ilmiy maqsadda foydalanish uchun Turkiston ma'muriyatida xizmat qilgan ba'zi bir rus sharqshunoslari, jumladan, V.V.Radlov Zarafshon okrupining tabiiy sharoiti hamda xalqining ijtimoiy va iqtisodiy hayotini nazarda tutib vodiyni ikkiga ajratmasdan butunligicha qoldirish tarafdoi sifatida «Samarqand masalasi»ga yondashgan bo'lsa-da, ammo bu masalani Samarqand vohasini xonlikka qaytarib berish yoki Buxoro vohasini ham qo'shib olib, Zarafshon vodiysini butunlay qo'lga kiritish bilan masalani uzil-kesil hal qilish kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi: «Zarafshon vodiysisidagi hozirgi vaziyat, – deb yozadi V.V.Radlov, – qanday bo'lmasin O'rta Osiyodagi mavqeimizni mustahkamlaydi deb ishonish mumkinmi? Sug'orilish jihatidan Zarafshon vodiysi ajralmas qismni tashkil etadi. Bu yerning sharoiti va boshqa tomonlarini nazarga olganda, uni butunlay egallash yoki mutlaqo tegmasdan qoldirish kerak. Uning bir qismini egallab, qolgan qismi bilan yaqin aloqada bo'lgan aholini qo'l ostimizga olmoqdamiz va zabit etilmagan qismida esa, bizga qarshi rejalarini bemalol tuzish mumkin bo'lgan makonni qoldirmoqdamiz. Biz tomonдан hech qanday nazorat ostiga olinmagan dushmanlarimiz qo'l ostimizdag'i aholini uzlusiz qo'zg'atish imkoniga ega bo'ladilar. Bu xususda musulmon ruhoniylari dindor aholi o'rtaida doimo muvaffaqiyat qozona oladilar». Rus sharqshunosi V.V.Radlov o'z asarida Zarafshon vodiysini zabit etmaslik to'g'risida yozgan bo'lsa-da, ammo u «Samarqand masalasi»ni asosan burjua sinfining vakili sifatida talqin etib, O'rta Osiyoda podsho samoderjaviesining siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun harbiy ekspansiyani davom ettirish kerak degan mulohazani olg'a suradi. Bu bilan u rus burjuaziyasining «Samarqand masalasi» to'g'risida «Vestnik Yevropy» jurnali orqali yuqorida bayon etilgan «bundan keyingi qo'lga kiritish» mumqin bo'lgan rayonlardan voz kechish kerak emas degan fikrni quvvatlaydi. Britaniya bilan munosabatlarini hisobga olgan holda olib borgan nozik siyosati natijasida Zarafon okrug alohida degan maqomga ega bo'ldi[10].

Zarafshon okrugi imperiya doirasida turli ma'muriy idoralar o'rtaida tortishuvlarga sababchi bo'ldi. Natijada faqatgina 1873 yildagina, to'g'riroq'i Xiva xonligi masalasi hal qilingandan keyin Zarafshon okrugi Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi.

Samarqandning XIX asrning oxiri XX asr boshi tarixi Turkiston general-gubernatorligining hukmronligi o'rnatilishi bilan bog'liq bo'lib, Zarafshon okrugining 1868 yildan 1886 yillar davomidagi tarixi alohida e'tiborga sazovordir.

Jahon tarixida kolonial mulklarga ega bo'lgan davlatlar tomonidan mustahkam istexkomlar va shaharlarning "yangi shaxar" qismlarini tashkil etish egallangan hududlarning ijtimoiy vaziyatini o'zgartirib yubordi. Ingliz kolonistlarining shimoliy Amerikadagi, Hindistondagi, ispan konkistadorlarining Janubiy Amerikadagi, Fransuzlarning Afrikadagi barpo etgan shaxarlari hozirda shaharsozlikning namunalari sifatida qabul qilinadi.

Samarqandning 1868 yilda Rossiya imperiyasining bosqini natijasida "yangi shahar" qismi ham tashkil etildi.

Mazkur tarixiy jarayonni yoritishda O'zbekiston madaniy markazi hisoblangan davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan xujjatlar qimmatli yozma manbalar hisoblanadi. Mavzuga oid dastlabki manba 1868 yil 10 iyunida tashkil etilgan Zarafshon okrugi maxkamasi ish yuritish xujjatlari hisoblanadi. Zarafshon okrugi vaqtinchalik boshqaruv maqomiga ega bo'lib, dastlabki xujjatlar uning tashkiliy jihatdan tuzilishiga bag'ishlangan. 1. Ular 1868 yilning iyun-iyul oylariga ta'luqli hisoblanadi. Mahkama xujjatlarida № 78 raqami bilan rasmiylashtirilgan xujjatda (1870 yil iyul-avgust) Samarqand shahrida qurilayotgan rus-tuzem maktabi va kasalxonaga oid ma'lumot berilmoqda. Bu masala doktorant T.Axmedov tomonidan yoritilmoqda(1-delo-38, 1.9)). Demak shaxarsozlik va bu jarayon bilan bog'liq masalalar 1868-1870 yillar oraliq'idagi arxiv ma'lumotlarida to'plangan. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining "№-1" (Turkiston general-gubernatorligi maxkamasi) fondi hujjatlariga murojat qilamiz. "Samarqand shahrining rus qismini qurish to'g'risidagi" ish yuritish xujjatlarida bu masalaga oid ma'lumotlar beriladi. (Bu ish yuritish xujjati 1870 yilning 27 apreldidan – 1881 yil 6 martiga qadar davom ettirilgan)[11].

1870 yil 15 aprelida okrug boshlig'i general-mayor A.K.Abramov, Turkiston general-gubernatori K.P.fon kaufmanga 1169 raqamli bildirish xati bilan murojaat qiladi. Unda Samarqand shaxri yahudiylar yashaydigan kvartal yaqinidagi uzunligi yarim tanob va eni 20 metrcha keladigan yer to'g'risida xabar berib, bu joyni qo'shni yahidiy oilasi 300 rublga sotib olmoqchi ekanligini bildiradi. Hech qanday to'siq bo'Imaganligi sababli okrug boshlig'inining roziligi bilan shahar bo'lim boshlig'i yerni sotishga ruxsat beradi. Rasmiylashtirilgan mablag' shahar mulkiga kirim qilinadi. (3-1-10 b)

Shaharsozlik ishlarini amalga oshirish uchun topograf Gryaznovskiy va A.Kunlar tadqiqot ishlari uchun maxsus mablag'lar ajratiladi. (1-ish-45-b-5).

Samarqand shahrida yangi qurilishlarga oid okrug boshlig‘i 1870 yil 4 oktabrida Turkiston general-gubernatoriga 3270 sonli xabarnomasida (xabarnomaga general-gubernatorlik maxkamasining ro‘yxatga olingan raqami beriladi) shaharning ruslar yashaydigan mahalliy aholining bog‘lari va ko‘chmas mulklarini sotib olish uchun ruxsat so‘rab murojaat qilganliklari va 1871 yil bahoridan yangi istehkom qurilishi va rus manzilgohlarini tashkil etish uchun mahalliy aholi ko‘chmas mulklarini sotib olish uchun ruxsat berishini so‘raydi. (3-b. 3-3 b) Turkiston general-gubernatori 1870 yil 6 noyabrida mahalliy aholi ko‘chmas mulklarini sotib olishga qonunda belgilab berilgan tartibda amalga oshirishga ruxsat beradi. Biroq bog‘lar va yerlar shahar tashqarisida bo‘lishi lozimligini ta‘kidlagan. (3- 4-b) Shuni aytish mumkinki bu yerlar xozirgi shahar temir yo‘li bekatlarigacha bo‘lgan joylar bo‘lishi mumkin[12].

Yer sotib olish huquqi bilan mahalliy aholi tomonidan ham takliflar tushadi. 1870 yilning 24 noyabrida okrug boshlig‘i general-gubernator nomiga 3956 sonli xabarnoma bilan murojaat qilib unda shahar qozisi Kamoliddin sobiq Samarqand begi Sherali inoqga tegishli bog‘ni 1800 rublga sotib olmoqchi ekanligi bildiradi. Taklif etilgan mablag‘ning miqdori kam emasligi biroq o‘lkada yerga egalik qilish huquqi hal qilinmaganligi sababli imperiya xazina yerlarining (bosib olingan yerlar) mahalliy axoli qo‘liga o‘tib ketishi siyosiy va iqtisodiy jihatdan maqbul emas, (3-b 7-7) deb bildiradi o‘lkadagi mustabid siyosatning mohiyatini ochib beradi.

Shaharsozlik muammolaridan biri okrug boshlig‘ining 1870 yil 12 dekabrda general-gubernator nomiga yuborilgan murojaatida Samarqand shahar istehkomini xazina mulki sifatida ko‘rsatib, ko‘chmas mulklarni rasmiylashtirishda mahalliy aholiga haq to‘lash masalasiga oydinlik kiritishni, so‘raydi. Bunda yerning kim tomonidan ya’ni xususiy mulk egalari yoki davlat tomonidan sotib olinishini aniqlab berilishini aniqlashtirishni so‘raydi. (3-5-5-ob). 1871 yil 11 iyuldagagi general-gubernatorning farmoyishi bilan Samarqand shahri rus qismining yangi rejasi tasdiqlandi, unga ko‘ra eski istehkom va esplanada rus qism chegarasiga kiritilmaydi. (3- 41-11 ob). Yangi shaxar qismining rejalashtirilgan xrajatlari okrug boshlig‘ining 1871 yil 15 dekabrdagi 4958 sonli ma’lumotiga ko‘ra general-gubernator tomonidan 1871 yil 29 dekabrdagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan. (3-b.21) Samarqandning yangi shaxar qismining umumiy maydoni 347700 kv sajen yoki 572 tanob deb belgilandi. (3-b.30) Zarafshon okrugi boshlig‘i 1872 yil 9 iyundagi 2444 sonli ma’lumotnomasi bilan yangi shahar qismini qurish uchun har bir tanob yerga 60 rubldan ja’mi 34000 rubl miqdorida mablag‘ ajratilgan. (3-b.30) Okrug mahkamasi xujjatlari 1877 yilning 5 yanvaridan 1874 yilning 25 yanvariga qadar mahalliy aholiga tegishli bo‘lgan yerlar va ko‘chmas mulklarni davlat mulki hisobidan, xususiy mablag‘lar hisobidan sotib olish haqida oid ma’lumotlar to‘plangan. (1-ish.83.b.16) Aynan shu paytda yangi shaxarning rus qabristoni tashkil etish ishlari ham amalga oshirila boshlaydi. (1-ish.84.b.33)

Samarqand shaharsozligini tashkil etishda general-gubernatorlik ma’muriyati tumanlarda soliq-yig‘inlardan ko‘proq foydalanish ya’ni okrug ichki iimkoniyatlaridan keng foydalanishni talab qiladi. Haqiqatda esa nafaqat Zarafshon okrugi balki o‘lkada ham soliq va yig‘ish, yer taqsimoti masalasi oxirigacha hal etilmay kelindi. (3-b.38-38 ob) Zarafshon okrugi boshlig‘ining 1877 yil 26 avgustdagagi 3851sonli xabarnomasida yangi shaxar qismini qurish uchun mo‘ljaldagi ajratilgan mablag‘dan bir oz ko‘proqni tashkil etishi mumkinligini bildiradi. Javoban Turkiston general-gubernatori 1871 yil sentabr va 1872 yil aprel oyidagi farmoyishi va yo‘riqnomalari bilan yangi shaxar qismi uchun barcha xarajatlarni okrug daromadlari hisobidan bajarilishni ko‘rsatgan. (3-b 51-51 ob)

Hozirda ham samarqand shaxrining o‘ziga xosligini belgilab turgan bulvar barpo etilishi to‘g‘risida ham Zarafshon okrugi boshlig‘ining 1873 yil 30 sentabrdagi 3499 raqamli general-gubernator nomiga yuborgan bildirishida mahalliy aholi va rus qismini ajratib turuvchi 60 sajenli uzunlikdagi xiyobon ko‘cha uchun ajratilgan 18000 rubl yetarli emasligi, hisoblab chiqilgan xarajatlar 44515 rublni tashkil etishi ko‘rsatilgan. (3-b.71) Keyinchalik okrug boshlig‘i 1873 yil 27 sentabrdagi 3489 raqamli bildirishida 1871-1877 yillarda Samarqandning yangi shahar qismini tashkil etish uchun okrug daromadlaridan jami 55320 rublni tashkil etganini bildiradi. Bu mablag‘larning asosiy qismi 32222 rublni yer sotib olish uchun, shahar ko‘chalarini asfaltlash uchun 15070 rubl, shahar hiyoboni dastlabki shakli uchun 1491 rubl sarflangan. (3-b.73-74) 1876 yilga kelib yangi shahar qismida jami 717 ta uy qurilgan ulardan 14-daylat idoralari, 54 tasi amaldor va ofitserlarga tegishli, 31 tasi savdogar va mayda ishlab chiqaruvchilarga va atiga mahalliy axoli vakillariga tegishli bo‘lgan 9 ta uylar bo‘lgan. (3-b.77- ob)

Samarqand yangi shaxar qismi tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yaqinda falsafa doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan iqtidorli tarixchi Olim Irisqulovning shaxar ko‘chalarini haqidagi ma’lumotlardan foydalanib mavzuga oid faktlarni keltirish o‘rinli deb, hisoblayman. Samarqand yangi shaxar ko‘chalarini okrug boshlig‘i qarorgohi hozirgi shahar hokimligi binosi o‘rnida joylashgan bo‘lib, uning yonidagi bulvar va ko‘chalar uch nurli kompozitsiya shaklida tashkil etilgan. Bu ko‘chalar: Kaufmanskaya(hozirgir Alisher Navoiy), Aleksandrovskaya (hozirgi Shoxrux) va Nikolaevskaya (hozirgi

Abduraxmon Jomiy) ko‘chalari edi. Qolgan uchta ko‘cha Urgut(hozirgi O‘zbekiston ko‘chasi), Toshkent va Kattaqurg‘on ko‘chalari yangi shahar ko‘rinishining davomi hisoblangan. Shaharni g‘arbdan Chernyaevskaya (hozirgi Mahmud Qoshg‘ariy ko‘chasi), sharqdan Aleksandrovska (hozirgi Shoxrux ko‘chasi) ko‘chalari chegaralab turgan Kaufmanskaya(hozirgir Alisher Navoiy) va Nikolaevskaya (hozirgi Abduraxmon Jomiy) ko‘chalari shahar markazidan o‘tib, ularda jamoat va savdo binolari qurilishi boshlangan [13]. (3.. b 45-46)

Yuqorida Samarqand shahrining XIX asr ikkinchi yarmidan yangi shahar qismi tarixi manbashunosligiga oid keltirilgan ma’lumotlar hozirgi Samarqand shahridagi keng ko‘lamdagi yaratuvchanlik harakatlari va yoshlarni yurtimiz, shaxar tarixi bilan tanishtirishda madaniy meromimizni asrab avaylashda tarixiy ma’lumot bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. Н.А.Халфин, Присоединение Средней Азии к России, (60-90-е годы XIX в.) М., Изд-во «Наука», 1965, стр. 283.
2. О‘zRMDA f. I-715, ro‘yxat 1, ish. 37, 121-b.
3. О‘zRMDA f. I-715, ro‘yxat 1, ish. 37, 121-b.
4. О‘zRMDA f. I-715, ro‘yxat 1, ish. 37, 122-b.
5. О‘zRMDA f. I-715, ro‘yxat 1, ish. 37, 153-b.
6. О‘zRMDA f. I-715, ro‘yxat 1, ish. 37.164-b.
7. М.А.Терентьев, История завоевания Средней Азии с картами и планами, т. 3, СПб., 1906, стр. 423; Яна каранг: М.И.Венюков, Туркестанские вопросы, «Русская мысль», 1899, № 9.
8. О‘zRMDA f. I-1, ro‘yxat 34, ish. 20, b. 26 .
9. Б.Б.Радлов. Средняя Зеравшанская долина, стр. 91.
- 10.O‘zRMDA f. I-715, ro‘yxat 1, ish. 38, 215-b., N.V.Xanikovning 12 noyabr 1868 yilda Tashqi ishlар ministri A.M.Gorchakovga yuborgan maktubi.
- 11.O‘zRMDA Fond 5 (Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasи)
- 12.O‘zRMDA. Fond – I-1 (Turkiston general-gubernatori mahkamasи). Ro‘yxat 1. Ish 266.
- 13.Irisqulov O.J. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Samarqand shaxrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar. (07.00.01.-O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha (PHD) tarix fanlari sohasida falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan. Dissertatsiya. Samarqand. 2019. 139 b

УДК 39:572:316.273

SOTSIALISTIK SHAHARLAR ANTROPOLOGIYASI (XX asrning 60-yillarigacha)

S.M.Anorqulov

O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsialistik shaharsozlikning o‘ziga xos xususiyatlari va antropologiyasi sovet davri tadqiqotchilarasi asarlari tahlili asosida yoritilgan. Davlatning sotsialistik shaharlarni barpo etishdan maqsadi, ularning aholi turmush tarzi shakllanishi hamda sotsialistik fuqaroni tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sotsialistik shahar, shahar antropologiyasi, turmush tarzi, “xrushevka”, “stalinskiy ampir”, sanoat shaharlari, sotsialistik millat, mafkura.

Антрапология социалистических городов (до 60-х годов XX века)

Аннотация. В данной статье, на основе анализа работ советских исследователей, раскрывается особенности социальной урбанизации и ее антропология. Всесторонне раскрыта цель государства по созданию социалистических городов и их роль в формировании образа жизни населения, а также их значение в воспитании социалистического гражданина.

Ключевые слова: социалистический город, городская антропология, образ жизни, «хрущевка», «сталинский ампир», промышленные города, социалистическая нация, идеология.

Anthropology of socialist cities (until the 60s of the XX century)

Abstract. This article, based on an analysis of the work of Soviet researchers, reveals the features of social urbanization and its anthropology. The goal of the state to create socialist cities and their role in shaping the lifestyle of the population, as well as their significance in the education of a socialist citizen, has been comprehensively revealed.

Keywords: socialist city, urban anthropology, lifestyle, "Khrushchev", "Stalin's empire", industrial cities, socialist nation, ideology.

Kirish

Sovet davlatida etnourbanistikaning mustaqil ilmiy yo'naliш sifatida taraqqiy etishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning turli bosqichlarda sayqallanib borganligini ko'rish mumkin. Uzoq davr mobaynida shahar, sovet etnografiya fanining predmeti sifatida o'rganilmagan. Lekin shahar fenomenini tadqiqot ob'ekti sifatida Rossiya olimlari tomonidan o'rganilishi XIX asrning o'rtalaridan boshlanib, ushu izlanishlar Rus Geografiya jamiyati a'zolari ishtirokida amalga oshirilgan. Ularning asarlarida shaharning ijtimoiy-madaniy tadqiqot ob'ekti ekanligi, shahar agglomeratsiyasining shakllanishi, tarkibiy tuzilishi, funksional-genetik tasnifi bayon etilgan [1]. Qolaversa, ular shaharlik aholining xo'jalik madaniyati hamda uning arxaik ko'rinishlarini qayd etib bordilar[2].

Sovet davri etnograflari dastlab, shaharga etnik xususiyatga ega bo'limgan tizim sifatida baho berib, uni sivilizatsiyalar unsuri, an'anaviy madaniyatga putur yetkazuvchi, ulkan qishloq aholisi massivlaridan ajralgan muhit sifatida tadqiq etishgan [3].

Asosiy qism

XX asrning 20-30- yillarda sovet davlatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda amalgal oshirilgan o'zgarishlarda shaharlarning roli katta bo'ldi. Bu mavzuni yoritgan mualliflar asarlarida [4] shahar aholisining (asosan ishchilar) turmush tarzi va urf-odatlari atroflicha tahlil etilgan hamda shahar ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o'rganilgan. Chunki, sovet mafkurasiga asoslangan tadqiqotlarda shahar aholisi turmush tarzidagi ijobiy o'zgarishlardan ular qurban jamiyatning yutuqlari qidirilgan. Mafkura yetakchilari shaharlarni kapitalistik jamiyatdagi shaharlarni qishloqlarni ezuvchi omil sifatida ta'kidlab [5], sotsialistik shaharlar ulardan farqli ravishda qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojiga ulkan hissa qo'shayotganligini qayd etdilar. Shuningdek, sotsialistik shaharsozlik inqilobgacha bo'lgan kulbalar tizimini tugatib, uning o'rnida yaxshi va quvnoq ishchi kvartallarini paydo qilganini alohida ko'rsatadilar [6].

Sovet shaharsozligida 30-40-yillarda uy-joylarning "stalinskyi ampir" usulida qurilishi keng tarqalgan [7]. Ampir (frans. *style Empire* –"imperiya usuli") [8] arxitektura namunalari dastlab, XIX asrning boshlarida Fransiyada pydo bo'lib, XX asrning birinchi yarmida sovet shaharsozligida ham bu usulda inshootlar qurila boshlandi [9]. Uning xususiyati shundan iboratki, uylar kattedj ko'rinishida bo'sh yotgan joylarga quriladi. Urbanistik jarayonlar gorizontal o'sib bordi. Yoppasiga sanoatlashtirish siyosati davrida aholining ko'plab sanoat markazlariga ko'chib kelishi, bu kabi uylarning ko'plab qurilishiga, bu esa o'z navbatida shaharning hajmini keskin kattalashib borishiga bo'ldi.

Bu voqeiliklarni yoritgan tadqiqotchilardan biri N.Grinkova, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, ayrim etnoslarga xos bo'lgan an'anaviy kiyimlarida zamonaviy, huddi shaharga xos bo'lgan belgilari ko'payib borayotganligiga e'tiborni qaratdi. Endilikda, turli etnoslar orasida, o'zlar uchun liboslarni an'anaviy usulda ishlab chiqarishdan ko'ra tayyor holda sotib olishni afzal ko'rayotgani, shahardagi fabrikalarning bunday imkoniyatlarni ko'paytirayotganini muhim jihat sifatida ta'kidlagan [10]. Aslida ham shundaymi? Balki, 20-30-yillarda aholining ayniqsa, sovet ayollarining kiyim kechaklaridagi bir xillik fabrikalarning arzon va sifatli kiyim-kechaklarning keng tarqalganligidadir. Ko'pincha ayollarning kiyim boshlaridagi imperiya davridagi jim-jimadorlikdan "oddiylik"ka o'tilganligi o'sha davrning "moda"si sifatida e'tirof etilgan. Lekin ayppardagi sovet fuqarosiga xos ushu qiyofa sizga, uning bilan birga sotsializm qura olishingiz mumkin degan "ishonch"ni ham berishi lozim edi [11].

Ma'lumki, Sovet davlati Ikkinchiji jahon urushidan keyin dunyoning eng kuchli davlatlaridan biriga aylandi. Barcha sohalarda, shu jumladan, zamonaviy shaharsozlikning taraqqiyoti ham aynan, XX asrning o'rtalaridan boshlandi deyish mumkin. Ayniqsa, Xrushevning qurilish siyosati "buyuk qurilish" davri bo'ldi. Shu davrdan sovet shaharlarida bir xillik kuchaydi. Sababi o'sha paytdan uy-joylarni barpo etishda ko'tarma kranlardan keng foydalanimlib, uning harakatlanish traektoriyasi bo'ylab qator, bir-biriga zich turar-joylar qad ko'tara boshladi. Ularning tashqi qiyofasidagi bir xillik esa uyning bo'laklangan qismlarini zavodlar tomonidan uzoq yillar davomida o'zgarishsiz ishlab chiqarishi oqibati edi. Rejjisyor Ryazanovning "Yangi yil xazili" filmida ham aynan shu bir xillikni kulgiga olgan [7].

Bu davrda zamonaviy shahar antropologiyasi tadqiq etgan ko‘pgina ishlarda ham [12] asosan, shahar aholisining an’anaviy madaniyati, kishilarning maishiy turmushidagi o‘zgarishlar, shahar madaniyatining qishloq madaniyati bilan aloqadorligini aniqlash kabi vazifalar doirasida olib borildi. A.Prusakov Moskva shahri ishchilar folklori yangi jamiyat odamining ishchanligi, yuqori jamoatchilik shuuriga egaligini ifodalashini aytib o‘tadi. Bundan tashqari Moskva shahrining tez sur’atlarda sanoat markaziga aylangani, undagi fabrika va zavod ishchilarining qahramonona mehnati go‘yoki barcha sovet mehnatkashlarining vatanparvarligini aks ettiruvchi jihat ekanligini ta’kidlaydi [13]. Sotsialistik g‘oyaning ishchilar ruhiyatiga kuchli ta’sir qilishida barpo etilayotgan yangi-yangi turar-joylarning roli katta bo‘ldi. Uy-joylarning barpo etilishidagi “sotsialistik usul” bo‘yicha, ular odatda o‘sha shaharda yetakchi korxona tomonidan barpo etilib, bundan maqsad u yerda ishlaydigan ishchilar hayotini yaxshilashga qaratilgan edi. 50-yillarning oxiridan boshlangan kamfort kvartiralarning ma’naviy ahamiyati shundan iborat bo‘ldiki, zamonaviy uylarda yashayotgan kishilar (ishchilar) korxonaga xushchaqchaq holda jo‘nab ketishi, bu uning kundalik hayotidagi eng muhim jihat bo‘lishi kerak edi [7].

O‘sha davrda sovet shaharlarini tadqiq qilgan I.V.Gurichning tadqiqotlari asosan, kichik shaharlar (*posyolkalar* – A.S.) aholisining turmush tarzini o‘rganishga qaratilgan. Muallifning ma’lumotlaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, sotsialistik jamiyatni qurish davrida yoqturlarning maishiy turmushida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Shaharcha markazlari qiyofasi, huddi shahar muhitiga xos bo‘lgan shovqin suronli ko‘chalar, zamonaviy avtotransport tizimi, poyezdlar qatnovi kabi xususiyatlarni o‘zida aks ettira boshlagan. Shaharchalar madaniy hayoti taraqqiy etib, madaniyat uylari va kinoteatrлarning tashkil etilishi buning isbotidir [14]. To‘g‘ri, shaharlar doimo madaniyat markazi bo‘lib kelgan[15]. Shuning uchun ham shahar maqomini olgan har bir makonda yuqorida aytilgani kabi madaniy maskanlarning bo‘lishi muhim. Sovet davlatida bu kabi “madaniyat o‘choqlari” nafaqat sotsialistik shaharlar, balki, yangi tashkil etilgan kolxozlarga ham kirib bordi. Ushbu ob’ektlar quvnoq sotsialistik fuqaroning turmush tarzida muhim o‘rin egalladi. O‘tkazilayotgan har qanday sovetcha bayramlar (1-may, bayramona paradlar, ximiklar kuni va boshqalar) shu muassasalarda o‘tkazilgan [16]. Undan tashqari milliy urf-odatlar va bayramlarga qarshi o‘ylab topilgan tadbirdilar (Navbahor bayrami) [17] bo‘lib, ular ham jismonan ham ma’nan sog‘lom sovet fuqarosini tarbiyalashi kerak edi.

N.Chebaksarov o‘z tadqiqotlarda, shahar muhitining kishilar moddiy madaniyatidagi ahamiyatidan tashqari, shahar kishisiga xos psixologiyaning shakllanishidagi rolini ochib berishga ham e’tibor qaratgan. Tadqiqot ob’ekti sifatida Moskva va Leningrad shaharlarini o‘rgangan olim, sotsialistik millat madaniyatini, ishchilar sinfining madaniy-maishiy turmushi haqidagi chuqr bilimlarsiz o‘rganib bo‘lmasligini qayd qilgan [18]. Haqiqatdan to‘g‘ri, chunki, bиргина kishining turmushida ro‘y beradigan o‘zgarishga bir necha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun ko‘rib o‘tiladigan bo‘lsa, 60-yillarda sotsialistik shaharlarda “xrushevka” uylari juda keng tarqaldi. Uylarning xususiyati shundan iboratki, juda tor va ko‘rimsiz. Buning sababi, o‘sha paytdagi “maishiy turmushni minimizatsiya (минимизация быта)” qilishga qaratilgan siyosat edi. Iloji boricha xonalarning fiziologik holati minimal darajaga olib kelindi. Bu haqida o‘sha paytdagi hukumat rahbari Xrushev “uy qo‘sningiz, mehmonlar yoki bayramlar uchun emas, o‘zingizning oddiy kunlaringiz uchundir”, “to‘g‘ri, liftsiz yashash qiyin, lekin uysiz yashash undan ham qiyin” degan iboralar bilan o‘z munosabatini bildirgan [19]. Sovet davri tadqiqotchilar ko‘klarga ko‘tarib maqtagan ushbu turar-joylar G‘arb tadqiqotchilar tomonidan “xrushevka” – “Xrushev” + “trushoba (xaroba)” tarzida talqin qilindi [20].

O‘zbekiston shaharlarida ham bu uslubdagi qurilgan uylarni ko‘plab uchratish mumkin. Chirchiq, Angren, Olmaliq kabi sanoat shaharlarda ayniqsa, juda keng tarqalgan. Ma’lumki, Ikkinci jahon urushidan keyin sanoatning juda tez sur’atlarda rivojlanishi, shaharlarga aholining migratsiyasini kuchaytirdi. Shuning uchun ham ta’kidlab o‘tilgan sanoat markazlarida 60-yillarda juda ko‘plab “xrushevka”lar barpo etildi. Ba’zilari kommunal uylarni eslatib yuboradi. Umumiylar turar-joy (obshejitiya) tipidagi uylarda bir kirish eshididan (seksiya) foydalanuvchi 1 xonali 2-3 ta alohida xonalar bo‘lib, umumiylar foydalanuvchi sanitart jihozlarga ega. Go‘yoki, bu bilan turli millat va madaniyat vakillarining yangicha umumiylar turmush tarziga o‘tganligi ta’kidlanadi. Bundagi o‘ziga xoslik uydagi oshxonasi (kuxnya) bir vaqtning o‘zida televizor ko‘rish, ovqatlanish, bo‘sh vaqtini o‘tkazish va boshqa ko‘plab vazifalarini bajargan [16]. Bunday sharoitda uydagi mehmondorchilik bola uxlaguncha davom etgan. Bola uxlagandan keyin mehmonlarga javob berish kerak edi [7]. Buni bir so‘z bilan sotsialistik shahar kishisiga xos turmush tarzining konstruktivistik yo‘sinda shakllanishi deyish mumkin.

XX asrning 60-yillariga kelganda, sovet etnograflari tomonidan shahar antropologiyasini o‘rganish bo‘yicha qilingan tadqiqotlarda asosiy e’tibor ishchilar turmushidagi o‘zgarishlarga qaratilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘rganilayotgan shaharlar geografiyasi sotsialistik mamlakatlar shaharlarini qamrab olish hisobiga kengaya boshladi [21]. Ularda asosan shahar jamiyatining ijtimoiy hayoti keng

yoritildi. Shu davrda ijod qilgan D.Kogan shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi munosabatlarni shahar etnografiyasi muammolari doirasida o'rgandi. U ikki muhitda yashovchi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida muhim rol o'ynovchi etnografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tahlil qilgan [22]. Pershits va Smirnovalar bir millatli va aralash nikohlar mavzusini o'rgandilar. Yu.Pershits bu borada ko'rsatkichlarni taqqoslash bo'yicha bir qator usullarni ham ishlab chiqdi [23]. Ushbu masala ham sanoat shaharlari bilan bog'liq eng muhim jihat edi. Chunki statistik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan ularda Toshkent viloyati shaharlari bo'yicha berilgan ma'lumotlarda u yerda tug'ilayotgan bolalarning sezilar qismi turli millat vakillari o'rtasidagi nikohdan tug'ilayotganligi qayd etilgan [24]. Bu holat millatlararo totuvlikning ta'minlangani, sovet millatining shakllanayotgani ekanligi ta'kidlandi. Dala tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlar uning amaliyotda qanday bo'lganligi xususida qiziqarli faktlarni taqdim etadi. Yangi tashkil etilayotgan shaharlarga ko'chib keluvchilarining ko'pchiligi o'z oilasidan ajralib, bu yerdagi sanoat korxonasida ishlash uchun keladilar. "Zavodga kelgan ishchilarining aksariyati yosh yigit-qizlar edi. Ularning ko'pchiligi shu yerda tanishdilar va ba'zilari oila qurdilar. Shuning uchun bizning shaharda aralash nikohlarni ko'plab uchratish mumkin" deydi axborotchilardan biri [16]. Ma'lumki, oiladan uzoqlashish, unda o'ziga xos bo'lgan an'analarning butunlay yo'qolmasada, bir qadar susayishiga olib keladi.

Sovet shaharshunoslaridan E.Vasilevaning tadqiqotlari o'ziga xos bo'lib, boshqa sovet tadqiqotchilaridan farqli ravishda, ishchilarining turmush tarzi va kundalik hayoti emas, balki, Qozon va Mezelinsk shaharlarini rayonlashtirish masalasiga asosiy e'tiborni qaratadi. Zamonaviy shaharsozlik asosidagi shaharning markaziy qismi, xususiy sektor hisoblangan "neftchilar posyolkasi", sobiq qishloq o'rnidagi "Eski Almetevsk" kabi hududlarga tasniflaydi [25]. Bu kabi holatlarni O'zbekistonning sanoat shaharlarida ham uchratish mumkin. Qipchoq, Niyozbek kabi qishloqlar o'rniда sanoatlashgan Chirchiq shahri barpo etilgan. 60-yillarda shahar ichida "Azotchik", "Elektrik", "Ximik", "Konstruktor" kabi nomdagi, shuningdek, 3-, 4-, 8-, 9-mikrorayonlar tashkil etildi [26]. Shaharsozlikning bu namunasi ma'lum soha vakillarining turmush tarizinigina yaxshilashni ko'zda tutganga o'xshaydi. Demak, shu nomdag'i mikrorayonda istiqomat qilayapsizmi, albatta, shahardagi "Elektroximprom", "Chirchikselmash" kabi korxonalarda fidokorona mehnat qilishi, o'zlarining sotsialistik fuqaro sifatidagi rolini mehnat qilayotgan sanoat korxonasi orqali oshirib borishlari zarur edi [27].

Xulosa qilib aytish mumkinki, sovet davrida shaharlarni tadqiq etish, unga ta'rif berish hamda uning tahlili jamiyatda ustivor bo'lgan g'oyalar va mafkuralarga asoslangan edi. Sovet davlatining asoschisi bo'lgan V.Lenin fabrikalarga, zavodlarga ega bo'lgan yirik shaharlar, savdo va sanoat posyolkalari aholisining rang-barangligini aytib, "u tasodifiy paydo bo'lmay, balki kapitalizm qonuniyatlarini asosida shakllanadi" deya ta'kidlaydi [28]. Qolaversa, u avvallari shaharlarning qishloqlarni siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ko'p sohalarda buzganligini ta'kidlab, "sotsialistik shaharlar"ning tamoman buning teskarisini qilayotganligiga ham urg'u beradi [29]. Shuning uchun bo'lsa kerak, aksariyat hollarda sovet davri olimlari shaharlarni tadqiq etayotganda, unga hos bo'lgan muhitni sovet kishilarining turmush tarzidan, qishloq aholisining shaharga xos bo'lgan kundalik hayotidan izlaydi. Ya'ni, sanoatning rivoji nafaqat shahar, balki, posyolka va qishloqlardagi aholining hayotini ham yuksaltirganligiga urg'u bergen.

Aytish mumkinki, sovet davrida shahar antropologiyasini o'rganilishiga doir tadqiqot ishlarilarda umumiylit bilan birga qator o'ziga xosliklar mavjud. Sovet jamiyatida yashovchi aholining maishiy turmushini o'rganish, sotsialistik taraqqiyotning kishilar kundalik hayotiga olib kirgan yuksalishlarni tarannum etish yondoshuvi deyarli barcha mualliflarga xosdir. Ayniqsa, o'tgan asrning 50-60- yillarigacha bo'lgan davrda buni yaqqol ko'rish mumkin. Ularda etnologik tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishi bilan juda kuchli bog'langan. Shu yo'l bilan sovet hukumati olib borayotgan "islohotlarning yutuqlari", kishilar hayotida muhim rol o'ynayotganligi ochib berilgan.

Ayniqsa, sanoat shaharlari iqtisodiy taraqqiyotning garovi bo'lishi bilan birga, yangi jamiyatning yangi kishisini tarbiyalovchi maskanga ham aylantirildi. Endilikda ushbu makonda yashayotgan kishilar o'zlarining sotsialistik fuqaro sifatidagi rolini mehnat qilayotgan sanoat korxonasi orqali oshirib bordilar. Sanoat korxona ishchilarining qishloq xo'jaligidagi faolligi otaliq (shef) tizimi vositasida kuchaytirildi. Bu bilan go'yoki, shahar va qishloq orasidagi to'siqlar bartaraf etildi. Amalda esa ishchi va dehqonlarning hamkorligi ta'minlandi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, sanoat shaharlari doimo Sovet davlati bayrog'idagi "bolg'a" vazifasini bajardi.

Adabiyotlar

- Семенов Тян-Шанский В.П. Город и деревня в Европейской России. –СПб., 1910; Крубер А.А. Антропогеография. –СПб., 1915.

2. Забелин И.Г. Домашний быт русских царей. Т.1. –М., 1862; Домашний быт русских царей. Т.2. –М., 1869.
3. Кунукова З. Полиэтничный город как объект историко-этнологического исследования. Дисс. док. ист. наук. –Москва, 2001.
4. Гревс И.М. Монументальный город и исторические экскурсии // Экскурсионное дело. 1921. №1.
5. Ленин В.И. Поли. собр. соч., т. 24, – С.220.
6. Сталин И. Вопросы Ленинизма. 11 изд. – С.457.
7. Доценко А.М. Повседневная жизнь советского города начала 1950 - первой половины 1980-х годов (на материалах г. Куйбышева и городов Куйбышевской области). Дисс... кан. ист. наук. – Самара, 2007. – С.26;36;60.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
9. Игнатова А.М. «Этнический ампир» — новый этап эволюции, стиля, архитектуры, материалов и технологии // Архитектон: известия вузов. — 2011, июнь. — Вып. 34.
- 10.Гринкова Н.П. Свадебные обряды таджиков г. Самарканда и некоторых других районов Средней Азии // СЭ, №3. –Москва: Наука, 1940. –С.115.
11. <https://fashion.drugiegoroda.ru/history/7793-moda-i-stil-sovetskogo-cheloveka-1917-1991/>
- 12.Клементьев Е.И. Национально-культурные ориентации Карельского городского населения. // СЭ, №3. –Москва: Наука, 1976. –сс. 59-97.
- 13.Прусаков А.П. Современный фольклор московских рабочих //СЭ, №3. –Москва: Ленинград, 1949. –сс.201-202.
- 14.Гурвич И.С. Социалистическое переустройство хозяйства и быта якутов бассейнов Оленека и Анабары //СЭ, №1. –Москва: Ленинград, 1950. –сс.107-123.
- 15.Анаркулов С. Замонавий шаҳар масаласига оид этнологик назариялар таҳлили. // Ўзбекистон тарихи, 2-сон. – Тошкент, 2019. 63-бет.
- 16.Дала тадқиқотлари. Чирчик шаҳри. 2019 йил, август-октябрь.
- 17.Шамсиева И.М. Наврӯзга қарши “коммунистик уруш”: тарих ҳақиқати ва сабоқлари. / Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш тарихи: 1980–1990- йиллардаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий омиллар. Илмий тўплам. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2019. 201-бет.
- 18.Чебоксаров Н.Н. Этнографическое изучение культуры и быта московских рабочи // СЭ, №3. –Москва: Ленинград, 1950. –С.107.
- 19.Хрушев Н.С. Воспоминания. Избранные фрагменты. –М, 1997. –С.394.
- 20.Воут S. Common places. Mythologies of everyday life in Russia. – London: Cambridge, 1994.
- 21.Крастыня А.К. О строительстве жилых домов колхозников в Латвийской ССР // СЭ, №3. –Москва: Ленинград, 1960. –сс.52-65.
- 22.Коган Д. Связь городского и сельского населения как одна из проблем этнографии города// СЭ, №4. –Москва, 1967. –сс.40-51.
- 23.Першиц И. О методике сопоставления показателей однонациональной и смешанной брачности// СЭ, №4. –Москва, 1967. –сс.129-137.
24. ЎзР МДА, 1619-фонд, 11-ийғма жилд, 4303-иш, 27-варок.
- 25.Васильева К. Этнодемографическая характеристика семейной структуры населения Казани в 1967 году (По материалам социологического исследован// СЭ, №5. –Москва, 1968. –С.13.
- 26.Якубов С.Г. Первенцу химии Узбекистана – Чирчикскому ПО «Электрохимпром» им. Л.А.Костандова 60 лет. –Ташкент: Шарқ, – С. 158.
- 27.Анаркулов С.М. Саноат шаҳарлари ва советча шаҳарсозлик “сирлари”. // Тафаккур, 4-сон. – Тошкент, 2019.
- 28.Ленин В.И. Поли. собр. соч., т. 24, -С.220.
- 29.Фойибназаров Б. Ривожланган социализм шароитида шаҳар билан қишлоқ ўртасидаги маданий алоқаларнинг кенгайиши. – Тошкент, 1980. 3-бет.

UDK: 1 (091)

ILMIY IJODDA INTUTSIYA

Z. P. Nadirova, F. N. Elmurodova

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali
Zoyiraxon_83@mail.ru, feruza.elmurodova.90@bk.ru*

Annotastiya. Maqolada ijod, ilmiy ijod, tafakkur, ilmiy tafakkur, intuitsiya va uning ijodda namoyon bo‘lish xususiyatlari, ratsional va irratsional ijod haqida fikrlar bayon etilgan. Xususan, Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Nikolla Tesla, D.J.Gouenning ijod jarayonidagi intuitsiya hodisasining sodir bo‘lishi haqida fikrlari o‘rganilgan.

Kalit so`zlar: bilish, ilmiy bilish, ijod, ilmiy ijod, tafakkur, ilmiy tafakkur, intuitsiya va uning ijodda namoyon bo‘lish xususiyatlari, ratsional va irratsional tafakkur.

Интуиция в научном творчестве

Аннотация. В статье представлены идеи о творчестве, научном творчестве, мышлении, научном мышлении, интуиции и ее творческие проявления, идеи о рациональном и иррациональном творчестве. Исследуются взгляды на феномен интуиции в творческом процессе Абу Наср Фараби, Абу Али Ибн Сина, Николла Тесла и Д. Ж.Гуэна.

Ключевые слова: познание, научное познание, творчество, научное творчество, мышление, научное мышление, интуиция и особенности её творческого выражения, рациональное и иррациональное мышление.

Intuition in scientific creativity

Abstract. The article presents ideas about creativity, scientific creativity, thinking, scientific thinking, intuition and its creative manifestations, ideas about rational and irrational creativity. The author examines the views on the phenomenon of intuition in the creative process, in particular, Abu Nasr Farabi, Abu Ali Ibn Sina, Nikol Tesla and D. J. Guen.

Key words: cognition, scientific knowledge, creativity, scientific creativity, thinking, scientific thinking, intuition and features of its creative manifestations, rational and irrational thinking.

Ijod, ilmiy ijod va intuitsiya bir biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar bo‘lib, qadimdan faylasuflar mazkur masalalar yuzasidan o‘z qarashlarini ilgari surganlar. Intuitsiya, intuitiv bilish, intuitiv tafakkur kabi tushunchalar insonning nafaqat hissiy va aqliy bilish qobiliyati, balki inson ruhiyatini bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab, serqirra va yaxlit bilish jarayonidir.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobi ijodga oid fikrlari o‘rin olgan, u ijodda intuitsiya ahamiyatini insondagi buniyodkorlik g‘oyalari bilan ifodalaydi. Forobi mantiqiy va intuitiv bilishni birgalikda olib ko‘radi. U intuitsiyani “Faol aql” tushunchasi bilan bog‘laydi va aqlning bu ko‘rinishini ruh, jon tushunchalar bilan izohlaydi: “Inson “ilohiy ruhiy hayot” hislatlarini ongi va ruhiyatida aks ettiradi.” Ibn Sino ham Forobi singari intuitsiyani aql va irratsional bilim bilan birgalikda olib ko‘radi va intuitsiyani metafizika bilan bog‘laydi: “Metafizika bu tabiatdan yuqori turuvchi mohiyatni o‘rganadigan ilohiy ilmdir” Ibn Sino uchun bilish bosqichlari uch shakldan iborat: a) hissiy bilish; b) mantiqiy bilish; v) nubuvvat orqali bilish; (intuitsiya) Ibn Sino nubuvvat ilmini “Illo bilan insonning muloqoti” tarzida izohlaydi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi ayrim yirik ilmiy kashfiyotlar beixtiyor, kutilmagan holatda, to‘satdan qilingani ma’lum. Elektrotexnika sohasidagi mashhur kashfiyotchi Nikolla Tesla (1856–1943) sayr qilib yurganida bir texnik muammoning echimi to‘satdan miyasiga kelib qoladi. Oqibatda bu fikr shu muhim masalaning echilishiga sabab bo‘ladi. Manbalarda Teslaning miyasiga kelgan tasvirlar esa aniq, ravshan va sezilarli bo‘lgani qayd etilgan.

Amerikalik psixolog D.J.Gouenning yozishicha, u ufqqa qarab she‘r o‘qiyotganida to‘satdan kelgan yangi fikr, ongini chaqmoqdek yoritib yuborgan, ya’ni o‘zgaruvchan tokda ishlaydigan elektr motori konstruksiysiunga yangi g‘oya sifatida namoyon bo‘lgan.

Insoniyat tarixida olimlar, konstruktor va rassomlar o‘z sohasida yangi kashfiyotlarga erishganligi bilan bog‘liq misollar ko‘plab uchraydi. Xususan, rus olimi D. I. Mendeleev ximiyaviy elementlar davriy tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kechayu uch kunduz mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga etkaza olmagan. SHundan so‘ng charchagan olim ish stoliga bosh qo‘yib uyquga ketadi va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalini ko‘radi. «D. I. Mendeleev kimyoviy davriy qonunni kashf etganida (1869) hammasi bo‘lib 63 ta kimyoviy element ma’lum edi. Uning o‘zi uchta hali noma’lum elementning

jadvaldagi o‘rni va xossalariini oldindan aytib bergan. Bu elementlar keyinchalik topilgan: galliy (1875), skandiy (1879), germaniy (1886). Fanga ma’lum bo‘lgan 92 ta elementning 29 tasi mo‘ljallash, tusmollah, bashorat asosida kashf etilgan».

Ayni paytda B. Rasselning fikrlari ham diqqatga sazovor. U ba’zan o‘zini ijodiy ishga zo‘rmazo‘raki majburlashlar hech qanday natija bermagani va o‘zida g‘oyalarning etilishini kutish zarurligini anglab etganligini ta’kidlaydi: «Men kitob ustida ishlayotganimda, uni tushimda deyarli har kuni ko‘raman. YAngi g‘oyalalar paydo bo‘ladimi yoki eskilari jonlanadimi, buni bilmadimu, ko‘p hollarda men butun boshli sahifalarni ko‘raman va uyquda ularni o‘qishim ham mumkin». Zigmund Freydning fikricha, «tush – ro‘yobga chiqishga intilayotgan orzu-armonlar tiqilib yotgan g‘ayriixtiyoriylik tomon yo‘nalgan shohona yo‘ldir».

Taniqli fiziolog hamda psixolog V. M. Bexterevning izohlashicha, bunday kutilmagan jarayonlar ro‘y berishining asosiy sababi uqlashdan oldin o‘rganilayotgan masala borasida zo‘r berib bosh qotirish, o‘ylash va butun zehn, diqqat-e’tiborning jalb etilishi, hal qilinishi zarur bo‘lgan masalaga to‘la-to‘kis yo‘nalishdan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan, murakkab, barqaror ruhiy holatning hukm surishidir. SHuningdek, mazkur ruhiy faoliyat hushyorlikdagi aqliy faoliyatdan sifat jihatdan samaraliroq bo‘lishi mumkin. Nazarimizda, ijodkor muammo ustida timilsiz mantiqiy faoliyat olib borib, aql-hushi shu muammo bilan band bo‘lgan bir sharoitda navbatdagi uyquga ketsa, uyquda intellekt o‘z o‘rnini intuitsiyaga bo‘shatib berishi oqibatida kutilmaganda muammoning echimini topadi.

Uyqu paytda miyaning ongsiz faoliyatida «sirli» oldindan ko‘rish quvvati mavjud bo‘lib, u orqali ba’zi kishilar kashfiyat va muhim voqealarning darakchisi bo‘ladi. Biroq inson ko‘p yillik bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lganidan keyin tajriba va bilim asosida kelajakning ba’zi elementlarini bashorat qilishi mumkin.

Pirs ta’biricha, inson o‘z tajribasi va harakati girdobiga shu darajada kirib ketganki, pirovardida mazkur girdob chegarasidan butunlay chiqa olmaydi. Bunda biz ongsizlikdagi tush ko‘rish holatini kuzatishimiz mumkin. Pirsning izdoshi bo‘lgan Jeymsning falsafiy ta’limotida inson ruhiy faoliyatining tabiatini tadqiq etishga urinish etakchi o‘rinlardan birini egallagan. Jeyms falsafiy muammolariga ob‘ektiv mazmundan ko‘ra sub‘ekt bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlar, bиринчи galda kishining sezgilarini bиринчи o‘ringa qo‘yadi. «Sezgilar reallikning yoki olamning ma’lum bir qismini tashkil etadi», – deb yozadi u.

Betxoven haqida so‘z ketganda, uning daholigi ilohiy intuitsiyaning namoyon bo‘lishidadir, deb aytishimiz mumkin. Betxoven kar bo‘lishga qaramay, samoviylar musiqa ohanglarini qalban his etgan, koinot garmoniyasini eshitgan va o‘z simfoniyalarini yarata olgan.

Ruhiy yo‘nalish olim va ijodkorlar faoliyatini namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. A.S. Karmin shuni nazarda tutib, haqli ravishda quyidagi ta’rifni keltiradi: «Ijod etish jarayonida ijodkorning ilmiy qobiliyatini diqqat markazga qo‘yib, uni echishga ruhiy yo‘nalish (ustanovka) katta ahamiyatga ega». Agar ijodkor uchun yangi hissiy obraz, tushunchalarni hosil qilish lozim bo‘lsa, buning natijasida avvaldan shunga o‘xshash tushuncha, hissiy obrazlarni yaratishga zamin bo‘lgan muhit va yo‘llanmani izlaydi. Ijodkor shu ko‘rsatma doirasida irratsional muammo ustida ishlaydi. Oldingi tajribadan unga ma’lum darajada xizmat qilgan evristik g‘oyalarni ishlatishga intiladi, ko‘p hollarda masalaning echimiga intuitiv tarzda yondoshadi. Masalan, Bal‘zak uchun kunduz kuni xonani qorong‘i qilib shamni yoqib qo‘yish, SHiller uchun esa oyog‘ini sovuq suvgaga solib o‘tirish ruhiy yo‘llanma vazifasini bajargan. Ruhiy ko‘rsatma ijodkorlarga ilhom keltirish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Lekin bu ko‘rsatma muammoni hal etish uchun etarli emas.

Ilmiy ijod jarayonida, umuman insonning bilish faoliyatida ruhiyatidagi barcha jihatlar, jumladan ratsional, irratsional qism va unsurlar faol ishtirot etadi. Ilmiy ijodiyotda irratsional tafakkur mantiqiy ratsionallik bilan birga o‘zining turli ko‘rinishlari: ruhiyatdagi ong osti ruhiy jarayonlar, ruhiy ko‘rsatma, intuitsiya, tush ko‘rish paytda sodir bo‘lgan irratsional tafakkur, spontan xayol qilish orqali namoyon bo‘lishi natijasida fundamental tadqiqotlardagi ilmiy yangilik, kashfiyotlar va ixtirolarning yuzaga kelishida katta rol o‘ynaydi.

Amerikalik psixolog B. Kennonning fikricha, intuitiv fikrlash har bir ijodkorda ham kuzatilavermaydi. 322 nafar olim o‘rtasida so‘rov o‘tkazilganida ularning 33 % ijod jarayonida echim intuitiv ravishda kelishini, 50% hech qachon bunday holat kuzatilmaganligini, qolgan 17% esa intuitsiya to‘g‘risida umuman hech narsa bilmasligini ma’lum qilgan. Ammo Kennon ilmiy ijod jarayonida echimning to‘satdan, intuitiv ravishda paydo bo‘lishi uchun imkon beradigan sharoitlarni hisobga olmayotganga o‘xshaydi.

Xulosa qilib aytganda, muammoning echimini izlashda ilmiy ijodda nafaqt tush, balki tasavvur, diqqat, xotira, fahm-farosatning ham o‘rni ahamiyatli. Bilish jarayoniga bog‘liq bo‘lgan tasavvur, xotira, diqqat, fahm-farosat, ong, ongsizlik, ong osti sohasi, insayt, tafakkur, ratsional tafakkur, irratsional tafakkur

va tush ko'rish kabi holatlarning uyg'unligi, yaxlitligi va birligi ilmiy ijodda intuitiv tafakkurning shakllanishiga imkon yaratadi.

Adabiyotlar

1. Ибн Сина. Дониш-намэ. Книга знания. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1957. – 200 с
2. Давронов З. Илмий ижод методологияси. Тошкент Молия институти илмий нашриёти – Б. 119.
3. Рассел Б. Интуиция и научное творчество. – М.: Наука, 1999. – С. 101.
4. Фрейд З. Психологии бессознательного. – СПб: Питер, 2002. – С. 321–322.
5. Пирс Ч. С. Учение о знаках// Пирс Ч. С. Избр.филос.произв. – М., Логос, 2000. – С. 176–233.
6. Джеймс У. Введение в философию. – М.: Республика, 2000. – С. 200–201.
7. Юнт К.Г. Сознание и бессознательное. – М.: Академический Проект, 2009. – С. 89–90.
8. Асоскова Ю.В. Интуиция. Интенсив-тренинг для развития скрытых способностей / Ю.В.Асоскова О.Н.Кинякина, О.Г.Овчинникова. – М.: Эксмо, 2006. – С. 240–241.

UDK: 1/14

YOSHLARDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI KUCHAYTIRISHDA SAN'AT ASARLARI VA MADANIY MEROSNING O'RNI

H. K. Xudoyberdieva

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Maqolada millatlararo munosabatlar rivojlanishi jarayonlarining O'zbekiston yoshlari estetik ongida namoyon bo'lish jihatlari falsafiy tadqiq etilgan. Unda fuqarolik jamiyatini barpo etishda turli millat va elat vakillarining xalqimiz madaniy merosini o'rganishdagi qarashlari san'at bilan bog'liq tarzda o'rganilgan. Yurtimizda turli millat yoshlarning madaniyat, san'at, adabiyot, ma'naviyat va mafkura sohasida bir maqsad yo'lida milliy g'oyani rivojlantirayotganliklari ifodalangan. SHuningdek, maqolada O'zbekistonda barcha millatlarning milliy qadriyatlari e'zozlanishi, madaniy meroslarini o'rganish, san'at asarlarini keng jamoatchilik asosida ilmiy tarzda rivojlashtirish masalalari falsafiy-estetik tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: millat, millatlararo munosabatlar, ma'naviyat, madaniyat, san'at, madaniy meros, yoshlar, estetik ong, mafkura, tarbiya, dunyoqarash, falsafa.

Роль произведений искусства и культурного наследия в укреплении межнациональных отношений у молодежи

Аннотация. В статье рассматриваются философские аспекты развития межэтнических отношений в эстетическом сознании молодежи Узбекистана. Он исследует взгляды различных национальностей и этнических групп при изучении культурного наследия нашего народа в построении гражданского общества. Также исследуется уважение к национальным ценностям всех народов Узбекистана, изучение их культурного наследия, научная разработка произведений искусства на широкой общественной основе.

Ключевые слова: этничность, межэтнические отношения, духовность, культура, искусство, культурное наследие, молодежь, эстетическое сознание, идеология, воспитание, мировоззрение, философия.

The role of art and cultural heritage in strengthening interethnic relations in young people

Abstract. The article explores philosophical aspects of the development of interethnic relations in the aesthetic awareness of the youth of Uzbekistan. It explores the views of various nationalities and ethnic groups in the study of the cultural heritage of our people in building civil society. It is stated in our country that young people of different nationalities are developing national ideas in the field of culture, art, literature, spirituality and ideology. The article also explores the respect for national values of all nations in Uzbekistan, the study of their cultural heritage, the scientific development of works of art on a wider public basis.

Keywords: ethnicity, interethnic relations, spirituality, culture, art, cultural heritage, youth, aesthetic consciousness, ideology, education, worldview, philosophy.

Yurtimizda yoshlarni tarbiyalash jarayoni tarixan shakllanib kelgan ajodolarimizning milliy va umuminsoniy qadriyatları negizida rivojlanib kelmoqda. Zaminimizda azaldan bir qancha millat va elat vakillari bir maqsad sari birlashib, shu yurtning kelajagi bo'lgan yoshlarni voyaga etkazishda yakdil bo'lganlar. SHu asosda O'zbekiston amalga oshirilayotgan madaniy sohadagi demokratik islohotlardan ko'zlangan maqsad har bir o'sib kelayotgan avlodning yuksak ma'naviyatga erishishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy hayotda mukammal shaxsni shakllantirish, o'tmish qadriyatlarini mujassam etgan kelajak yoshlarini tarbiyalashdir. YOshlar dunyoqarashida ijtimoiy-estetik hayotning asl mohiyatini ifodalaydigan, millatlararo munosabatlarda san'atning rolini chuqur anglab etadigan jamiyat barpo etilmoqda. SHunday millatlararo hamjihatlikni ko'zlagan ko'pmillatli O'zbekstonda yagona maqsad sari intilish, turli millat yoshlarning kelajagi o'ylash Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qarashlarida aks etgan edi. U kishi yoshlarda millatlararo munosabatlarga bo'lgan qiziqish va dunyoqarashini ta'kidlar ekanlar "bunday ezgu intilish, bunday harakatlarning negizida ayni paytda bizning millatimiz va xalqimizga mansub bo'lgan bag'rikenglik va oljanoblik fazilatlari, shu bilan birga, mustaqillik yillari davomida yurtdoshlarimiz dunyoqarashining tubdan o'zgargani, avvalo yosh avlodimizni tarbiyalash va ma'naviy yuksaltirish yo'lida qilayotgan barcha-barcha ishlарimiz o'z ifodasini topgan" [1. 161], degan edi. Biz yoshlarimizning boshqa xalq va millatlar bilan doimo do'st va inoq bo'lishi, ularning ma'naviy olamida hamjihatlik, estetik tafakkurida o'zaro hamkorlikka asoslangan insonparvarlik tuyg'ulari shakllanishi uchun doim intilamiz.

Ayni paytda O'zbekistonda milliy g'oya tamoyillari negizida fuqarolik jamiyatni shakllantirilayotgan bir davrda millatlararo munosabatlarda san'atning yuksak ma'naviyatga asoslanishini ommaga etkazish, madaniy merosimizning diniy va dunyoviy dunyoqarash bilan uyg'unligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda yoshlar ongini estetik tafakkur bilan boyitish, ijtimoiy va madaniy sohalardagi barcha islohotlarda san'atning millatlar taraqqiyotiga ta'sirini olib berish, ajodolarimizning milliy tajriba va ko'nikmalarini bugungi kun ro'yobiga aylantirish dolzarb falsafiy-estetik masalalardan biriga aylandi. Mamlakatimiz fuqarolik jamiyatining yangi bosqichini shakllantirayotgan ekan, yoshlarda hayotga, mehnat qilishga, sa'natga nisbatan yangicha millatlararo munosabatlar va yondoshuvlar shakllanmoqda. YOshlarda bunday zamonaviy yondoshuv hamda millatlararo munosabatlar tarixiy tajriba va milliy ongning taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. SHu boisdan jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarda tarixiy va milliy ongning madaniy merosga ta'sirini yaxshi anglab etish kerak. YOshlarda voqelikka zavqiy munosabatning milliy mezonlari ham mavjud bo'lib, bunda milliy mezonlarning mohiyati millatlararo munosabatlar yo'naliishiga ta'sir qiladi. Shu tarzda yoshlarning ma'naviy kamolotida, madaniyatida yoshlar ijtimoiy-estetik hayotida sodir bo'layotgan jarayonlardan kelib chiqadigan xususiyatlar shakllanadi.

O'zbekistonda Harakatlar strategiyasining barcha bo'g'lnlari yangi demokratik andozaga asoslanib, evolyusion yo'ldan ildam borishga intilmoqda. Natijada, ijtimoiy-falsafiy islohotlar bevosita ma'naviy islohotlar bilan birgalikda rivojlanmoqda. Jamiyatda yoshlar ruhiyatiga milliy qiyofani millatlarga hurmat ruhida singdirish, har bir faoliyatda yoshlardagi bunday tabiiy-estetik g'ayratning amalga oshishiga halal beradigan ayrim ijtimoiy illatlarni, masalan, korrupsiya, ta'magirlilik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik kabi salbiy illatlarga qarash kurashish keskin kuchaydi.

Jamiyatda yoshlar milliy mentalitetidan kelib chiqadigan millatlararo munosabatlarni belgilovchi san'atga muhabbat, qadriyatlarni targ'ib qilish, millatlararo hamjihatlik, insoniylikni e'zozlash, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlichkeit, poklik, ezgulikka chorlash singari fazilatlar insonni jamiyat hayotidagi o'rnini, millat ma'naviy taraqqiyotidagi rolini, millatiga bo'lgan ijodiy munosabatlar axloqiy mezonini belgilaydi. Axloqning millatlararo munosabatlar va madaniy meros tizimidagi rolini Abdulla Avloniy shunday yozgan edi: "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur" [2. 11]. Demak, axloq borasidagi fikrlar vaqt va makon bilan hamnafas tarzda doimo yangilanib, yoshlar ma'naviy olamida san'at va madaniyatning boyib borishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston huquqiy davlat sifatida har bir millatning tengligi qonun asosida kafolatlatdi. Jamiyatda millatlararo munosabatlar negizida san'at va milliy-ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi ijtimoiy taraqqiyotning belgilovchi tamoyiliga aylandi. SHuning uchun barchamiz hamjihatlikda "huquqiy bilimlarni qonunlarning mazmun-mohiyatini ta'lim maskanlari, ommaviy axborot vositalari, Internet resurslaridan, adabiyot, san'at, diniy muassasalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, samarali usullar bilan targ'ib qilishimiz zarur" [3. 84].

Jamiyatda bu islohotlar natijasida kelajakda yurtimiz qanday intellektual kuchga egaligi, yoshlarning xalqaro maydonda o'ziga xos madaniy va kasbiy saviyaga erishganligi aks etadi. Shu boisdan millatlararo munosabatlarda hamjihatlik va millatparvarlikni rivojlantirish yoshlar tarbiyasida muhim falsafiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda amalga oshirilgan ma'naviy islohotlar yoshlarning shaxs sifatida ma'naviy-estetik va axloqiy kamol topishimi, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishini ko'zda tutadi.

Mustaqillik yillarda ma’naviy sohada olib borilgan islohotlar natijasida millatlararo hamjihatlik, millatlarning tengligi, barcha xalqlarning adabiyot va san’atini hurmat qilish, sharqona odob-axloq, O’zbekiston fuqarolarining milliy mafkura asosida birlashishi namoyon bo’ldi. Jamiyatda uzoq tarixiy taraqqiyot davomida to’plangan boy ma’naviy tajriba, millatlararo munosabatlarning axloqiy madaniyatga doir nodir tamoyillari san’at asarlari orqali idrok etilishi yo’lga qo’yildi. Natijada o’zaro hamkorlikdagi millatlarning ajoyib milliy an’ana va san’at durdonalari qaytadan tiklanib, jahon sivilizatsiyasiga o’zining bezavol hissalarini qo’shgan buyuk ajodolarimiz merosini asrash-avaylashga munosabat tubdan yangilandi. O’tmish tarixiy xotira uyg’oni, yoshlarda o’z xalqi, tarixi va madaniyatidan faxrlanish va boshqa xalqlarning tili, dini, e’tiqodi va san’at asarlarini e’zozlash tuyg’usi kuchaydi.

“Biz barchamiz – deydi SH.Mirizyoev, - fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaki uchun, mamlakatimizda tinchlik -barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol etkazish uchun birdek mas’ulmiz. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o’rtasidagi do’stlik va totuvlik muhit, o’zaro hurmat va hamjihatlikni asrash va mustahkamlash maqsadida olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz lozim” [4. 37].

Bunday ijtimoiy muhitning vujudga kelishi yoshlarda millatlararo munosabatlar borasida ijobiy tasavvur va tushunchalar, yangicha estetik tafakkur madaniyati shakllanishi hamda rivojlanishiga xizmat qiladi. Yoshlardagi ushbu yangicha estetik tafakkur ma’naviy qadriyatlar mezoni sifatida shaxs ruhiyatini yaxlit, bir butun tarzda rivojlanishi uchun asos bo’ladi. SHu tariqa ma’naviylik va milliylikni birlashtiruvchi millatlararo hamjihatlik shakllanadi va rivoj topadi. Millatlararo munosabatlar negizida yoshlarning tabiatga, jamiyatga, san’atga, shaxs hamda insoniyatga bo’lgan umuminsoniy va ulug’vor axloqiy tuyg’ular bilan bog’langan munosabati yotadi. Bu kechinmalarni yoshlar estetik ongida vujudga keltiradigan va rivojlantiradigan ijtimoiy muhit, nozik estetik dunyoqarash bilan yaratiladigan san’at asarlarasi mafkuraviy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar jarayonida madaniy meroslarni, jumladan san’at asarlarini yoshlar ijodiy tafakkuriga etkazish, ularda millatlararo munosabatlarni kuchaytirish tuyg’ularini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir davlat hayoti va taqdiri bilan bog’liq bo’lgan barcha faoliyat va amallarning negizida siyosiy, axloqiy va milliy madaniyatlar mushtarakligi yotadi. Demak, inson va insoniyat hayoti bilan bog’liq biror soha, faoliyat va munosabat yo’qki, u umuminsoniy va milliy mezonlardan tashqarida bo’lmaydi. Barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-ma’naviy islohotlarimizning pirovard natijasi bugungi yosh avlodni ertangi kun uchun, mamlakatimiz istiqboliga javobgar va mas’ul qilib tarbiyalash hisoblanadi.

Yurtimizda millatlararo munosabatlarni yoshlar tarbiyasida shakllantirish jaaryoni stixiyali tarzda olib borilmasdan, balki uzlusiz va muntazam tarzda davlat va jamiyatning vazifasi bo’lishi, yuksak ma’naviyat va san’atga asoslanishi lozim. Jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar natijasi sifatida xalqimizning madaniy merosi shundan iborat bo’lishi kerakki, yoshlarimizda millatlararo hamjihatlikni shakllantirishda mustaqillik yillarda qo’lga kiritilgan yutuqlar bilan bog’liq estetik tafakkurni rivojlantirish, ularning qalbida Vatanga mehr-muhabbatni kuchaytirish va tarbiyalashimiz zarur. Bu narsa yoshlar milliy madaniyati, ma’naviy kamoloti yuksak axloqiy omillar asosida shakllanganidan darak beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan yosh avlod tarbiyasidagi millatlararo munosabatlardan ko’zlangan asosiy maqsad o’z davri va zamoni, ijtimoiy ehtiyojidan kelib chiqadigan va shunga javob beradigan, yangicha fikrlovchi, umuminsoniylikni e’zozlovchi yoshlarni tarbiyalash, ularga yuksak ma’naviyatni voyaga etkazish hisoblanadi.

Yoshlarda millatlararo hamjihatlik tuyg’usining kuchayishi, birinchidan, ijtimoiy turmushdagi o’zaro muloqotning tezlik bilan o’zgarishlari, ikkinchidan, jamiyatda ta’lim-tarbiya sohasidagi xalqaro hamkorlik borasidagi islohotlar, uchinchidan, milliy g’oya negizida yurtimizda turli millat va elatlar yoshlari dunyoqarashining bir maqsad natijasida shakllanib va rivojlanib borishidir. Bunday yoshlarning millatlararo munosabatlarda sodir bo’layotgan o’zgarishlardan maqsad ularning ijtimoiy-siyosiy hayotini, mamlakat kelajagini yangicha tushunib, amalga oshirilayotgan barcha demokratik islohotlar mohiyatini inson uchun ekanligini chuqur anglab etishdan iboratdir.

Yoshlar xalq taqdiri, Vatan kelajagiga ishonchini kuchaytirsa, mavjud madaniy merosimizni asrab-avaylashda astoydil mehnat qilsa va bu mehnat natijasi yoshlarda yangicha san’at durdonalariga e’tibor kuchayib boradi. Yoshlar fazilatlarining milliylik bilan uyg’un rivojlanib borishi unda birinchi galda ma’naviy-ma’rifiy va ruhiy jihatlar, ijtimoiy muhit, estetik faoliyat va millatlararo munosabatlarning insoniyashuvida katta ahamiyat kasb etadi. Yuksak ma’rifat asosida kamol topgan yoshlar demokratik

islohotlarni iste'molchisigina bo'lib qolmay, balki ularning jahonda turli tillarda yoyilishiga, faol yaratuvchisi va himoyachisisiga aylanib boradi.

Jamiyatimizning vazifasi yoshlarni millatlararo hamjihatlik ruhida tarbiyalab borish, barcha millatlarni oljanob his-tuyg'ular bilan kamol toptirib borish hisoblanadi. Bunday yosh avlodagi yuksak ma'naviy fazilatlar qandaydir g'ayritabiyy kuchlar yoki taqdirning in'omi emas, u ijtimoiy hayotning turli jabhalari, madaniy merosimizdagi vorislik va muayyan davr, jamiyat ta'lim-tarbiya tizimining, oila va muhitning mahsulidir. SHuning uchun ham bugungi kunda yoshlarda o'zaro hurmatni shakllantirish avvalo "makkabarda, o'quv yurtlarida, davlatga oid tarbiya maskanlarida o'quv-tarbiya ishlarining asosida yangicha dunyoviy dunyoqarashni shakllantirish yotmog'i lozim" [5. 128]. Bularning barchasi yoshlarning milliy tafakkuri va millatlararo hamjihatligining kamol topishiga, jamiyatimiz ehtiyojiga javob beradigan kadrlar bo'lib etishishiga xizmat qiladi.

Yoshlarning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at, adabiyot, madaniyat, madaniy va mafkuraviy tasavvurlar ijtimoiy tizimlarning ta'siri tufayli shakllanib va rivojlanib boradi. Natijada yoshlardagi sog'lom, estetik qiyofa, yuksak ma'naviy his-tuyg'ular, zamonaviy tafakkur va tushunchalar birligi asosida hamjihatlik tarkib topadi. Va, nihoyat, yoshlarning tafakkuri va millatparvarligi uyg'unlashib ma'naviy barkamollikni vujudga keltiradi.

Yoshlarda millatlararo munosabatlarning shakllanishida quyidagi omillar katta rol o'ynaydi: birinchidan, yosh avlod tug'ilib o'sgan ijtimoiy muhit; ikkinchidan, yoshlarga uzoq vaqt davomida ma'lum bir tizim asosida beriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining mafkuraviy va ma'naviy yo'nalishi; uchinchidan, yoshlarning intellektual va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tug'ma, ya'ni nasliy xususiyatlar. Ammo, shu narsaga e'tibor berish kerakki, yoshlarning aqliy, axloqiy, mafkuraviy va ma'naviy dunyosi hech vaqt tug'ma ravishda berilmaydi. Ijtimoiy muhit ularga yo taraqqiyot, yo tanazzul sharoitini berishi mumkin. Masalan, o'zbek xalqining asrlar davomida chegaralab kelingan intellektual-ma'naviy salohiyati mustaqillik tufayli erkin va har tomonlama rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yoshlar ma'naviyatning barcha sohalarida o'z iqtidorini, jumladan, san'at, madaniyat, adabiyot sohalarida zamonaviy dunyoqarish negizida yangicha tafakkur asosida ro'yobga chiqarib, erkin ijod qilish baxtiga muyassar bo'ldi. Ayniqsa, millatlararo munosabatlarning yuksak namunasi bo'lgan adabiyot va san'at olamida shunday ko'tarilish, shunday ma'naviy yuksalish sodir bo'ldiki, bu o'zgarishlarda inson asosiy mezon qilib olindi. Bu jarayondagi o'zgarishlar boy madaniy merosimizni qayta tiklash, yangi zamon ruhi, muhiti va odamlarning mafkuraviy ehtiyojiga mos keladigan san'at asarlari yaratilishiga olib keldi. Yoshlarini jamiyatda axloqiy qadriyatlar qonun-qoidalariga amal qilgan holda tarbiyalash, birinchi navbatda barkamol avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat singari fazilatlarni shakllantirish dolzarb jarayondir.

Yoshlarimiz millatlararo munosabatlardan sohasida qancha kengroq bilimga ega bo'lsalar, farovon hayotga ishtiyoqlari nechog'lik kuchli bo'lsa, farovonlikka shuncha samarali va ko'prok hissa qo'shgan bo'ladi. O'tmishning barcha ulug' kishilar o'zlarining san'at, she'riyat va falsafaga buyuk muhabbatlari tufayligina ana shunday yuksak martabaga erishganlar. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotni demokratlashtirish jarayoni borayotgan bir paytda yoshlar umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilsa, madaniy meros va tariximizni chuqur bilsa ozod va obod Vatan ravnaqi uchun shunchalik ko'proq xizmat qilgan bo'ladi. Yoshlar nafaqat milliy madaniyatni yaxshi bilihga asosiy e'tibor berib qolmasdan, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lish kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ham talab etiladi.

O'zbekiston yoshlarining millatlararo munosabatlardagi hamjihatligi, jamiyatda tutgan o'rni hamda ahamiyati hozirgi jahon hamjamiatining markazida turibdi. Globalashuv zamonida insonning hayotga va jamiyatning insonga bo'lgan munosabatlardan turli-tuman dialektik jarayonlar ko'zga tashlanmoqda. Bu jarayon qanchalik axloq-odob, madaniyat va san'at bilan bog'liq bo'lsa insoniyat va jamiyat uchun foydali samara beradi.

Madaniy merosimiz rivojida millatlararo munosabatlarni rivojlantirish uchun birinchi navbatda yoshlar, odamlarning ongiga singdirish kerak. Chunki madaniyati yuksak odamning jamiyat ma'naviyati taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy va axloqiy o'zgarishlar ham xalqimiz madaniy merosining oltin zarvaraqlari bo'lib qoladi. Tarixda hech narsa hech qachon millat tafakkuri va tasavvuridan o'chib ketmaydi. Shu boisdan millat tafakkurida doimo millatparvarlik tuyg'ulari barq uring turadi. Yoshlarimizni milliy g'oya asosida tarbiyalash ana shu ruhda tarix sahifalarini jonlantirish, barcha millatlarning bir maqsad sari intilishini barchamiz bilamiz. Bunday jarayon jamiyatda har qanday g'oyaviy, mafkuraviy kurashlar bo'lganda ham o'zligini saqlab qolishga harakat qiladi, shu zainda yashayotgan tarcha millat va elatlarni abadiyatga daxldor etadi.

Yuksak san'at va madaniyat assosida yoshlarni tarbiyalar ekanmiz, millatlararo hamjihatlikni barkamol avlod ongiga, ularning hayotiga singdirib borishda turli xavflardan holi bo'lib yashash tuyg'usini singdirishnigina emas, balki barcha xalqlar va mamlakatlar bilan hamjihat bo'lib yashash, yuksak madaniy taraqqiyot va madaniyatga ega bo'lish, ozod va obod Vatan barpo etishga intilish, ko'zlangan maqsadlarga erishishdan iboratdir.

Yurtimizda olib borilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlarimizning assoiy negizida maorif va ilm-fanni yuqori cho'qqiga ko'tarish, shu asosda milliy manfaatlarimizga mos keladigan madaniy merosimiz taraqqiyotini qaror toptirish, san'at va adabiyotni rivojlantirish dolzarb ijtimoiy jarayonga aylandi.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda ilm-fanni xorijiy davlatlar bilan birgalikda amalga oshirish, yoshlar ongiga singdirishda yangicha ta'lim-tarbiya tizimi vujudga kelmoqda.

Bunday dunyoqarash negizidagi ilm-fanda millatlararo munosabatlari kuchaytirilib, chora-tadbirlari ishlab chiqildi:

- respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar va talabalarning yoshiga mos ravishda adabiyot, san'at, madaniyat yo'nalishlari bo'yicha atoqli shaxslarning nomlari asosida maktablar tashkil etildi;

- maktabdagi darslarni xorijiy tillarda mukammal darajada biladigan yoshlarni tanlab olgan holda o'tilishi uchun "Prezident maktablari" tashkil etildi va bu maktablarga xorijdan etuk mutaxassislar jalb qilindi;

- milliy dasturdan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarida xorijiy davlatlarning etakchi universitetlarining filiallari va fakutetlari tashkil etildi;

- Osiyo va Evropa qit'asidagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ko'shma dasturlar asosida ta'lim yo'nalishlari yo'lga qo'yilib, ular etakchi professor-o'qituvchilari oliy ta'lim tizimiga jalb etildi;

- zamon bilan uyg'unlashgan holda yoshlarda millatlararo munosabatlarni kuchaytirish borasida aniq va izchil tizimni shakllantirish yo'lga qo'yildi;

Yurtimizda ilm-fanga berilayotgan bunday e'tiborning samarasini o'zini jamiyatda ajdodlarimizning ming yillar davomida kamol topib kelgan va o'zining qadr-qimmatini qayta tiklash, turli millat vakillarining hamjihat bo'lib yashashlariga keng imkoniyatlar yaratish, yuksak ma'naviyat namunalariga aylantirib borayotgan milliy va umuminsoniy xususiyatlarni ta'lim tizimining barcha bug'inlarida aks ettirishdir.

Jamiyatda yoshlarimizning mana shunday yutuqlari har bir shaxsning ongi va qalbiga kirib borsa "milliy madaniyatimiz sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganadi, jahon madaniyatini chuqurroq bilishga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yashashga intiladi, an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlikda ko'ra biladi. Shundagina xalqimiz milliy o'zligini kundan-kunga teran anglab, ma'naviy yuksalishga erishadi, kelajakka ravshan ko'z bilan qaraydi" [6. 24-25]. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda yoshlarga nisbatan yangicha millatlararo munosabatlarning vujudga kelganligini, davlat va jamiyat hayotida inson qadr-qimmati, hur fikrashi, erkin va ozod yashashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berilganligini ko'rsatib beradi.

Har qanday yurtda yashayotgan turli millat vakillarining milliy dunyoqarashi, ma'naviy olami va ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin ularning madaniyatlarida, ya'ni fan, ta'lim, madaniyat va san'atda bir-biriga yaqinliklar juda ko'pdir. O'zbekistonda yashayotgan turli millat yoshlari bir-birlarining qadriyatlarini hurmat qilgan holda hududda yashayotgan millatlarning "ba'zi urf-odat va an'analarini bajarmasligi mumkin, ammo ularga hurmat bilan qarab, ularning ustidan kulmasligi, mayna qilmasligi kerak" [7. 250]. Ana shundagina madaniy meros jarayonida har bir millatning o'zligini anglatadigan, boshqa millatlardan farqini ko'rsatib turadigan milliy qadriyatları mavjud bo'lib, jamiyatning boshqa bir a'zosi unga o'zining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda munosabat bildiradi, ammo millatlararo munosabatlarni yodidan chiqarmaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotda har bir millat vakili azaldan ota-bobolarining milliy-madaniy qadriyatları bo'lgan an'ana va marosimlar, adabiyot va san'at, urf-odatlar doimo qadrlanib kelishini istaydi. Madaniy merosning qonuni shundayki, "har bir millatning tili, urf-odatlari o'zları uchun juda aziz! Odam o'z tilida erkin gapiradi, o'z tilida erkin fikrlaydi. Ota-bobosidan meros urf-odatlar esa ularning muqaddas boyliklari, faxrlari, or-nomusi yoki ta'bir joiz bo'lsa, o'lmas xotiralaridir. SHuning uchun ham, o'zga bir millatning tili yoki urf-odatlarini kamsitish o'sha millatni tahqirlash bilan barobardir" [8. 33].

O'zbekistonda yashayotgan har bir millatning qon-tomiriga singib ketgan shunday millatlararo munosabatlarning namunalari borki, ular har bir insonning ijtimoiy turmush tarziga bevosita ta'sir etmay qolmaydi. Bunday ko'rinishdagi an'ana va marosimlar sirasiga kun bilan tunni tengligini bildirib turadigan milliy bayram "Navro'z" orqali ham bilishimiz mumkin. Bu bayram ham o'ziga xos xalqimizning

o‘tmishini anglatgan holda unda turli millat va elat vakillari, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zlarining madaniy meroslari sifatida namoyish qiladi.

Mana shunday madainy meros namunalari “ma’naviy-madaniy hayot, ta’lim-tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma’rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, tomoshalari va udumlari, san’at, adabiyot kabi sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xalqning, millatning o‘ziga xos etnik xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shtgan hissasi ham aslida ana shu ma’naviy-madaniy qadriyatlar bilan o‘lchanadi” [9. 119]. Bu boy meros respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mahsuli bo‘lib, unda yoshtar uchun aziz hisoblangan millatlararo munosabatlar o‘zining umuminsoniy va insonparvarligi bilan jahonda O‘zbekistonning ma’naviy olamini boyligini namoyish etishga xizmat qilmoqda.

Jamiyatimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishi uchun avvalombor, tarixan shakllanib kelgan diniy va dunyoviy bilimlarning asosini tashkil etuvchi ana’analar, milliy qadriyatlar, udum va marosimlarga alohida e’tiborni qaratishimiz darkor. Bu esa, yoshlarning jamiyatdagi ob’ektiv va sub’ektiv omillarga tayanishini taqozo etib keladi. Bu omillar hamisha shuni talab etadiki, “o‘z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo‘ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma’naviyatini chuqur his qilish darajasiga o‘sib chiqsa va o‘z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lsa, milliy munosabatlarda do’stona iqtisodiy va ma’naviy muloqotdan o‘zga niyat bo‘lmasa, ana shunda turli millatlarning ma’naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o‘sib boraveradi” [10. 116].

Madaniy meros rivojida yoshlarning milliylik bilan bog‘langan millatlararo munosabatlar tahlil qilganda, ularning tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan aloqadorlik jihatlariga e’tiborni qaratishimiz, xalq tafakkurida davr mafkurasi va milliy dunyosi qanday bo‘lganligini o‘rganishimiz, tarixiy shart-sharoitni hisobga olishimiz kerak bo‘ladi.

Madaniy meros rivojida yoshlarning millatlararo munosabatlarini shakllantirish jamiyatdagi har qanday milliy va ma’naviy madaniyatning ildizlari bo‘lgan adabiyot va san’at bilan uyg‘unlashgan holda ijtimoiy muhitda rivojlanadi. Mana shunday adabiyot va san’at har bir millatning hayotining ko‘zgusi bo‘lib, unda millat hayoti, milliy an’analar, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot barkamol avlodning shaxsiy xususiyatlarini, tabiatni va dunyoqarashlarini badiiy-milliy obrazlarda aks ettiradi. Natijada, ijtimoiy va ijodiy erkinlikni qo‘lga kiritgan san’at ahli oldida asrlar mobaynida orzu qilib kelingan xalq ma’naviyati yuksalib boradi. SHu boisdan adabiyot va san’at ahli oldida turldi millat va mamlakatlar taqdiri bilan bog‘liq, yangi zamon tarixini yaratuvchi xalqlarning estetik tafakkuri hamda madaniyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi badiiy ijodiyot namunalarini yaratish vazifasi turadi.

Keyingi yillarda tilimiz, dinimiz, madaniy merosimiz va urf-odatlarimizni mamlakatimiz va xalqimiz istiqboli uchun qanchalik zarur ijtimoiy hodisa ekanligini badiiy obrazlar orqali xalqqa etkazish va yosh avlodning ongida millatlararo munosabatlarni shakllantirish juda katta ijtimoiy-falsafiy vazifaga aylandi. Bizning xalqimiz azaldan “badiiy adabiyotga, san’atga mehr qo‘yan, u orqali umuminsoniy qadriyatlardan bahra olgan avlod hamisha eng ilg‘or, eng mukammal avlod bo‘lib kelgan. Adabiyot-inson ma’naviyatining yuksakligini, mukammalligini ta’minlovchi vositalardan biri. Uning asosiy g‘oyasi ham insonni ulug‘lash, ezgulikni, adolatni, erkin, chinakam insoniy do’stlikni, mehr-shafqatni targ‘ib etishdir”[11. 37]. Uning negizida yoshlarning har tomonlama etukligini ta’minalashga qaratilgan badiiy obrazlar va estetik madaniyatning betakror namunalarini aks etgan bo‘lib, ular o‘z navbatida xalq ommasi badiiy-milliy ongi va tafakkuridan o‘rin oladi.

O‘zbekistonda adabiyot va san’atga bo‘lgan munosabatni tadqiq etar ekanmiz, bu jarayon uzlusiz va tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida turli millat vakillarini birlashtiradi. Adabiyot va san’at yosh avlodning estetik tafakkurida millatlararo munosabatlarni shakllantirishini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov e’tirof etib, “Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo‘lishni o‘rganib olishimiz lozim. O‘zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san’at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Bu san’at turlari chet elda keng e’tirof etilgan. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshtarimizni ma’naviy tarbiyalashning assosi bo‘lmog‘i kerak”[12. 535], degan edi.

Yoshlarda millatlararo munosabatlarni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar va faoliyatlarimizda san’atimizning bugungi kundagi barcha tur va janrlarida insonparvarlik va milliylik tuyg‘ularini o‘zida ifodalashiga etishish erishish va yuksak ma’naviyatga qarshi bo‘lgan asarlar yaratilishiga yo‘l qo‘ymaslik ko‘zda tutilgan. Binobarin, xalqimizning o‘ziga xos sharqona fazilatlari, boy ma’naviyatiga monand san’at asarlarini targ‘ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, barcha san’at turlarini xalqimizning yuksak

ma’naviyati va nozik didiga zid bo‘lgan, yuzaki, noo‘rin taqlidga assoslangan hatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash dolzarb masaladir.

Mamlakatimizda har ikki yilda o‘tkazilishi an'anaga aylanib qolgan «SHarq taronalari» xalqaro festivalining uzlusiz ravishda o‘tkazilib kelishi xalqimizning bezavol san’at namunalaridan bahramand bo‘lishga, ularni asrashga va kelajak avlodga etkazib berishga qaratilgan mantiqiylikning negizidir. Bunday festivallarning ko‘plab tashkil etilishi turli millat vakillarining birlashishiga, milliy san’atlarini nafaqat O‘zbekistonga balki butun jahonga yoyilishiga katta xizmat qiladi. SHu boisdan san’at inson ongi va shuurida kechayotgan jarayonlarni ifoda etish bilan barobar yoshlarni ilhomlantirish, ijtimoiy hayot va vogelikka nisbatan zavqlanish fazilatlarini ham tarbiyalash qudratiga ega. Ayniqsa, millat va mamlakat hayotida jiddiy o‘zgarishlar bo‘layotgan, o‘zgarayotgan, millatning o‘zligini anglashi, yoshlarning milliyligini idrok etishi sodir bo‘layotgan bir davrda san’at millatlarning maqsadlari ro‘yogba chiqishida asosiy rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda yoshlarning madaniy merosimiz bilan yo‘g‘rilgan millatlararo munosabatlari umumbashariy ma’naviy madaniyatning milliy san’atimizni yanada serjilo qirralarini namoyish etishlarida katta yordam bermoqda. Bunday ijodiy hamkorlik yoshlarning intellektual saviyasini, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, rivojlantirib bormoqda.

Yoshlarning millatlararo munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadigan mafkura va estetik g‘oyalar bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyot, teatr, kino va televidenielardan tashqari shunday badiiy ijod namunalari ham borki, ular bevosita mafkuraviy yukni ko‘tarmasa ham o‘zining milliy-ma’naviy ildizlari, ahamiyati bilan turli xalqlar badiiy-ma’naviy madaniyati shakllanishida juda katta rol o‘ynaydi. Masalan, “necha asrlardan buyon dunyoni hayratga solib kelayotgan Misr ehromlari, SHahrисabzdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Bibixonim, Registon maydonidagi madrasalar majmui, Tojmahal yodgorligi, Eyfel minorasi, qanchadan-qancha san’at va madaniyat durdonalari – barchasi ana shunday buniyodkorlik namunasidir. Bunday mo‘jizalar bizning madaniy merosimizda, Xiva, Buxorodagi betakror obidalarimizda, mumtoz san’at asarlarimizda yuksak axloqiylikka assoslangan urf-odat va an‘analarimizda o‘z aksini topgan”[13. 52].

Xulosa qilib aytganda, millatlararo munosabatlarda yoshlarning tarbiyasida san’atning rolini kuchaytirish, yuksak madaniy merosni insoniyatga targ‘ib qilish dolzarb hisoblanadi. Bugungi ma’naviy hayotda katta ijtimoiy kuch hisoblangan yoshlarning millatlararo munosabatlari estetik tafakkurni zamona talablari asosida shakllantirish muhim ijtimoiy jarayondir.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. 16-jild. -Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent: O‘qituvchi. 1992.
3. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild, O‘zbekiston, 2019.
4. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. -T.: O‘zbekiston, 2-jild, 2018.
5. Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. -Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
6. Milliy g‘oya va ma’naviy taraqqiyot tamoyillari. -Toshkent: Akademiya nashriyoti, O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2005.
7. Ziyomuxammadov B. Komilikka eltuvchi kitob. -Toshkent: “Turon-iqbol” nashriyoti, 2006.
8. Nurmatova M.Q. Millatlarning millatga yaxshiligi – tafakkur olami quyoshi. // Qudratimiz – birlik va hamjihatlikda. -Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2007.
9. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. -T.: O‘zbekiston, 2007.
10. Maximudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. -Toshkent: SHarq, 2001.
11. Ortiqov N. Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. -Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
13. Milliy istiqlol g‘oyasi. -Toshkent: Akadimiya, 2005.

UDK: 1/14

**IMOM BUXORIYNING “AL-JOMI’ AS-SAHIH” ASARIDA INSON VA
UNING MA’NAVIY-AXLOQIY BARKAMOLLIGI**

N.Musaeva

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada hadislardagi insonning ma’naviy-axloqiy hayotiga va barkamolligiga oid teotsentrik hamda ijtimoiy antropologik qarashlar yoritiladi. Hadislardagi inson, uning ma’naviy-axloqiy dunyosi, barkamolligi: 1) islom dogmatikasiga va 2) inson borlig‘ining immanent xususiyatlariga muvofiq tadqiq etiladi.

“Al-Jomi’ as-sahih” asaridagi ideal inson (Muhammad Rasululloh sallallohu alayhi va sallam)ga xos fazilatlar, ularning ma’naviy-axloqiy barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyatli fazilatlarini hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonlariga proeksiya qilish mumkinligi olib beriladi.

Kalit so‘zlar: Imom Buxoriy, “Al-Jome’ as-sahih” asari, islom tafakkuri, ijtimoiy-antropologik masalalar, inson, tarixiy shaxs, Muhammad payg‘ambar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, falsafa.

**Человек и его духовно-нравственное совершенство в работе Имама Бухари
«Аль-Джоми ас-Сахих»**

Аннотация: В данной статье освещаются как теоцентрические, так и социальные антропологические взгляды на духовно-нравственную жизнь и совершенство человека в хадисах. Человек в хадисах, его духовный и нравственный мир исследуется в соответствии с исламским догматизмом и имманентными характеристиками человеческого существования. Достоинство идеального человека (Мухаммад аллайлахи ва саллам) в работе аль-Джоми ас-Сахих и их важность в формировании духовно зрелого поколения могут быть отражены в современных образовательных процессах.

Ключевые слова: имам бухари, аль-джаме ас-саих, исламская мысль, социально-антропологические проблемы, человек, историческая личность, пророк Мухаммед, духовное воспитание, философия.

Man and his spiritual and moral perfection in the work of Imam Bukhari “ Al-Jami as-Sahih”

Abstract: In the article was described both geocentric and social anthropological views on the spiritual and moral life and human perfection in hadis. The man in the hadis, his spiritual and moral world investigated in accordance with Islamic dogmatism and immanent characteristics of human existence. The dignity of the ideal person (Muhammad alayhi WA Salam) in the work of al-Jami al-Sahih and their importance in the formation of a spiritually Mature generation can be reflected in modern educational processes.

Keywords: Imam Bukhari, al-Jami as-Sahih, Islamic thought, social and anthropological problems, man, historical person, prophet Muhammad, spiritual education, philosophy.

Islomdagi teotsentrik qarashlar Qur’oni karim va hadislarga asoslanadi. Ammo bu insonning rolini kamaytirmaydi, balki uning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga ideal, namuna, model bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu idealsiz teotsentrik qarashlar mohiyatini ham faylasul G.Marsel iborasi bilan aytganda “Inson mavjudligidagi fundamental haqiqatni anglash, topish ham mumkin emas”. Faylasufning ishonchiga ko‘ra, barcha antropologik izlanishlar oxir natijada teotsentrizmga borib taqalgan. [4, 148 b.] Chunki inson, uning ruhiy olami, ekzistensial borlig‘i (G.Marselning XX asrda yuzaga kelgan “diniy ekzistensializm yo‘nalishining asoschisi deb biliшadi¹), ma’naviy izlanishlari mavjud dunyodan tashqariga chiqishga, tashqi olamni transsensual idrok etishga, anglashga olib kelgan. Inson ruhi, gnoseologik qiziqishlari, ma’naviy izlanishlari orom va chegara bilmaydi, ular mavjud borliqdan, “o‘zidan o‘zishga” (F.Nisshe) intiladi. Ha, inson qaerdadir to‘xtashini, qiziqishlari, izlanishlari, ruhiy izardirobleri bir kuni nihoyasiga yetishini biladi, lekin u mazkur say’-harakatlari aniq qachon to‘xtashini bilmaydi. Bu aslida inson uchun ham, ijtimoiy taraqqiyot uchun ham pozitiv ahamiyatga ega. Mazkur pozitiv ahamiyatni hadislar “Beshikdan qabrgacha ilm izla” degan naql bilan asoslaydi.

Bir qarashda XX asrda yashab falsafada sezilarli iz qoldirgan yahudiy olim Martin Buber (1878-1965) va farang Gabriel Marsel (1889-1973)ning hadislarga hech qanday daxli, taalluqli joyi yo‘qdek

ko'rinadi. Ammo ularning ijodi, ijtimoiy-falsafiy va antropologik merosi hadislardagi diniy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarga uyg'un, yaqin ekanini ko'rsatadi. M.Buber hadis ilmi, hadislar bilan maxsus shug'ullangan, G.Marsel esa "diniy ekzistensializm" g'oyasini isaviylikdagi antropologik merosdan keltirib chiqqargan. Qur'on karim va hadislarda Iso payg'ambar ta'limoti ko'p martalab tilga olinadi.

M.Buber va G.Marsel hadislarga bevosita murojaat qilmaydilar (har holda bizga ma'lum asarlarida bu kuzatilmaydi), lekin ular ilgari surgan antropologizm va teotsentrizmga oid fikrlarda bizga yaqin mavzular uchraydi. To'g'ri, bu Imom Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" asari yoki ulardag'i hadislar Yevropa faylasuflariga bevosita ta'sir etgan degan xulosa chiqarishga asos bo'lolmaydi. Aslida bu boshqa qiyosiy tadqiqotni talab etadigan mavzudir. Biz aytmoqchi bo'lgan fikr shundaki, hadislardagi inson va uning ma'naviy-axloqiy dunyosi borasidagi qarashlarni o'rganan ekanmiz, ularning bugungi insonga ham taalluqli ekanini unutolmaymiz. XX asrdagi falsafiy-antropologik izlanishlar esa bevosita M.Buber va G.Marsel nomlari bilan bog'liqidir. Shuning uchun bu o'rinda ular asosan G.Marselning "diniy ekzistensializm'i va falsafiy antropologik qarashlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bu bizga Imom Buxoriy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlarning hozirgi davrda, falsafiy-antropologik ta'limotlarning shakllanishida qanday o'r'in tutishi mumkinligini anglashga yordam beradi.

M.Buber falsafiy-antropologik izlanishlari markaziga tabiiy dunyoda bo'lmagan "Men"dagi dunyo ("Mir v cheloveke") muammaosini qo'ydi. U egoizmga yetaklovchi "Men"ni ham, jamoat ichidagi "Men"ni ham yetarli emas, balki haqiqiy "Men" "Men"dagi dunyoda, degan falsafiy-antropologik xulosaga keldi. Ammo uning ushbu xulosasi "Men" va Xudo konsepsiysi ichidadir. Inson uchun boshqa "Men"lar bilan ham, Xudo bilan ham aloqalar zarur, boshqa "Men"lar individlar o'rtasidagi konfrontatsiyani, Xudo bilan aloqa esa Butun bilan murosani, uyg'unlikni keltirib chiqaradi. Inson ushbu ikki ko'rinishdagi aloqalarsiz yashay olmaydi. Xudo esa Platon va Kant talqinidagi qandaydir g'oya emas, balki "ma'naviy-ruhiy reallikdir" [4, 148 b.], chunki unga insonning ma'naviy-ruhiy dunyosi muhtoj, u inson ma'naviy-ruhiy dunyosining ifodasi, in'ikosidir.

M.Buber Xudo "ma'naviy-ruhiy reallik" deganida isaviylik dogmatikasidan kelib chiqqan. Uning fikricha, "Zohidlik ham Xudoga olib bormaydi, foniylar dunyoga berilish ham. Faqat dunyo Xudoda ekanini ko'rgan inson ilohiylik borligini topadi" [4, 190 b.]. "Mavjud borliqqa bog'lanib, Xudoni topish mumkin bo'lmashligidek, o'sha borliqdan voz kechib ham Xudoni topib bo'lmaydi. Faqat butun borlig'idagi "Men"ga kelgan, ushbu "Men"da borliq mohiyatini ko'rgan izlamay bo'lmaydigan Xudoni topadi" [4, 190 b.]. Bu o'rinda teotsentrizm bilan antropotsentrizm uyg'un keladi, "Men" esa antropologik yondashuv ifodasidir, u Xudoga qarshi, egotsentrik ob'ekt (sub'ekt) emas. "Men"siz esa hech qanday ma'naviy-axloqiy imperativlar, qadriyat va fazilatlar haqida so'z yuritib bo'lmaydi. Insonning ma'naviy-axloqiy dunyosi esa "Men" va "U (Xudo)" va "Boshqa "Men"lar o'rtasidagi aloqalar ifodasidir.

G.Marsel ham inson "Men"iga e'tibor qaratadi, diniy-ekzistensial falsafaning insonning ichki, ma'naviy-ruhiy olami bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. U hatto ilmiy iste'molga "penetratsiya", ya'ni "chuqur ichki kechinma" degan kategoriyanı olib kiradi [4, 190 b.]. Ha, chuqur ichki kechinmalargina ekzistensial borliqni "Men" va "U (Xudo)" orqali anglashga, ushbu munosabatlardan mangulik, hayot, kelajak uchun zarur qadriyatlar izlashga undaydi. Bu taqdirda "U (Xudo)"ning borligi yoki yo'qligi emas, balki insonning ma'naviy-ruhiy izlanishlariga ekzistensial mohiyat beruvchi izlagnishlari muhim ahamiyatga ega. Agar shunday izlanishlar ro'y bermasa, ya'ni inson "Men"i bilan "U (Xudo)" o'rtasidagi aloqalaridan o'zi uchun dolzarb bo'lgan ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega javoblar topilmasa, uning umrini besamar topishi shubhasizdir. Shunday pessimistik xulosaga kelmasligi uchun ham insondag'i ma'naviy-axloqiy barkamollikka undovchi, hatto zamon va makonda cheklangan, nisbatan noaniq, irratsional izlanishlarni qo'llab-quvvatlash lozim.

Islom dogmatikasidagi bosh teotsentrik g'oya Allohning borligiga va yakkaligiga, Muhammad payg'ambar Uning Rasuli ekaniga ishonch, e'tiqod keltirish tashkil etadi. Ushbu g'oya ma'naviy-axloqiy hayotda, ya'ni ezzulik va yovuzlik, mehr va qahr, adolat va adolatsizlik, halol va harom, iymon va iymonsizlik, savob va gunoh, hayo va hayosizlik, sabr va sabrsizlik, ixtiyor va majburlash kabi hollarda qanday namoyon bo'ladi yoki ular o'rtasidagi ziddiyatlarni, antagonizmni qanday hal qiladi? Umuman islom dogmatikasidagi beshta rukn, shartning inson ma'naviy-axloqiy dunyosidagi o'rni, imperativ xususiyatlari nimalardan iborat? Mazkur savollar tadqiqotchilar diqqatini ko'pdan beri jalb qilib keladi, bu borada, turli fikrlar bildirgan diniy-falsafiy, sotsioantropologik va sotsiologik konsepsiylar ilgari surilgan. Biz ularga Imom Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" asaridagi hadislar doirasida javob berishga harakat qilamiz.

Islomda ezzulik va yovuzlik eng avvalo Allohga va Uning Rasuliga bo'lgan munosabat orqali qaraladi. Imom Buxoriy hadis keltiradi: "Kimki quyidagi uch xislatga ega bo'lsa, iymon halovatiga erishgusidir: Olloh taolo birlan uning Rasulini barchadan ham yaxshi ko'rmoqlig, birovni yaxshi ko'rsa,

faqat Olloh taoloni deb yaxshi ko‘rmoqlik hamda qayta kofir bo‘lmoqlikdan o‘tda kuymoqdan qo‘rqandek hazar qilmoqlik” [2, 341 b.]. Demak, Olloho ni va uning Rasulimi yaxshi ko‘rish, hatto boshqa birovni ular uchun yaxshi ko‘rish xudojo‘y amal qiladigan birinchi shartdir. Yaxshilikni, ezunglikni bunday teosntrik tushunish insondagi e’tiqodni, ishonchni mustahkamlaydi.

Ezunglik, yaxshilik Alloh dan keladigan ne‘matlardir, chunki u hamma narsaga qodir, hamma narsani biluvchidir. “Ey robbim, bu dunyoda hayotimizni yaxshi qilgin, oxiratda ham yaxshi qilgin”, degan iltijoda Xudoning ezunglik, yaxshilik manbai ekani nazarda tutilgan.

Qur’oni karimning “Baqara” surasida esa “yaxshilik (qiluvchi) – Alloh” [7, 8 b.], deb ko‘rsatiladi. Demak, Alloh yaxshilik manbai, agar ilmiy til bilan aytas “Mutlaq yaxshilik”dir, chunki Uning barcha amallari va so‘zлari yerda ezunglikni, yaxshilikni qaror toptirish, iymon-e’tiqod orqali barcha kishilarda, insonlarda ezgu, yaxshi fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Hatto iymon ham yaxshilikning qismidir [7, 8 b.].

Yaxshilik islomda “birr” so‘zi bilan ataladi. U ikki qismga – “sila” va “ma’ruf”ga bo‘linadi. “Sila” minnat, evaz, qaytarishni talab qilmay mol-mulkdan tarqatish, uni sarflash demakdir. “Sila” uchun nafsning kenglisi, saxovatpeshalik zarur. “Ma’ruf” esa gap va amaldagi yaxshilikdir. “Gapdagи birr, ya’ni yaxshilik guzalkalom, go‘zal bashorat va go‘zal so‘zlarni ishlatish ila bo‘ladi. Buning boisi husni xulq va muloyim tabiatdir. Bu ham sahiylik kabi, chegarada bo‘lishi kerak. Agar bu ishda isrofga o‘tib ketilsa, yaldoqlikka aylanib, yolg‘on deb baholanadi. Agar o‘rtacha va chegaradan chiqmagan bo‘lsa, ma’ruf va maqtalgan birr, ya’ni yaxshilik bo‘ladi” [6, 12 b.]. Shuning uchun yaxshilikning chegarasi yo‘q deyish noto‘g‘ri, haddan oshgan yaxshilikning tilyog‘lamalikka, sanoxonlikka aylanish xavfi mavjud. Bunday birr – yaxshilik provard natijada yomonlikka, hatto yovuzlikka aylanishi mumkin.

“Amaldagi birr- yaxshilik obro‘ni ishlatish, jon ila ko‘mak berish hamda qiyin holatda yordam berishlar bo‘ladi. Bu odamlarga yaxshilik qilishga muhabbat va ularning foydasini ustun qo‘yish istagidan kelib chiqadi... Bu ishlarda isrof va chegara yo‘q. Chunki bu kabi ishlar qancha ko‘p bo‘lsa, ikki tarafga shuncha foya bo‘laveradi, o‘sha ishlarni qiluvchiga ajru savob ko‘payaveradi...” [7, 6 b.]. Aslida bu yaxshiliklar insonga xosdir. Demak, Alloha xos yaxshilik bilan insonga xos yaxshilik aynan voqeliklar emas. Alloha xos yaxshilik mutlaq yaxshilik, ya’ni chegara bilmas, yaldoqlikka, sanoxonliklikka aylanmaydigan, “o‘zi o‘zi uchun” yaxshilikdir. Faqat insonga xos yaxshilikda chegara bor, u haddan oshsa tilyog‘lamalikka, g‘arazli maqsadlarga qaratilgan maqtovga, hatti-harakatlarga aylanadi.

Teotsentrik ma’nodagi yaxshilik islom dogmatikasiga amal qilingan hatti-harakatlarni, amallarni anglatadi. uning ko‘rinishlari Qur’oni karimda aniq keltirilgan. Unda deyilgan: “Yuzlaringizni Mashriq va Mag‘rib tomonlariga buraverishingiz yaxshilik emas, balki Alloha, oxirat kuniga, farishtalarga, kitoblarga, payg‘ambarlarga iymon keltirgan, o‘zi yaxshi ko‘rib turib molini qarindosh-urug‘lariga, yetim-yesirlarga, miskin-bechoralarga, yo‘lovchi-musofirlarga, tilanchi-gadolarga va qullarni ozod qilish yo‘lida beradigan, namozni to‘kis ado qilib, zakotni beradigan kishi va ahndlashganlarida ahdlariga vafo qiluvchilar va xususan og‘ir-yengil kunlarda va jangu jadal paytida sabr-toqat qiluvchilar yaxshi kishilardir. Ana o‘shalar chin iymonli kishilardir va ana o‘shalar asl taqvodordirlar” [1, 25 b.]. Mazkur oyatdan ma’lum bo‘ladiki, yaxshi odamlar Alloha, oxirat kuniga, farishtalar, kitoblar va payg‘ambarlarga iymon-e’tiqod qiladigan, mol-dunyosidan faqir, yetim-yesirlarga nafaqa beradigan, besh vaqt namoz o‘qiydigan, zakot beradigan, ahdiga vafo qiladigan, sabr-toqatlар insonlardir. Agar Alloha, oxirat kuniga, farishtalar, kitoblar va payg‘ambarlarga iymon-e’tiqod qilish aniq teotsentrik talab bo‘lsa, qolgan talablar ko‘proq antropotsentrik xususiyatlarga egadir. Hatto besh vaqt namoz o‘qish ham insonning imkoniyatlari doirasidagi talab, rukn, shartdir, ammo iymon-e’tiqod keltirish imkoniyatlardan yuqoridir. Ya’ni inson imkoniyatlari qarab iymon-e’tiqod keltirmaydi, u insonning burchi borlig‘i, yashashining substansional asosidir. Inson ushbu asossiz mavjud bo‘lmaganidek, iymon-e’tiqodsiz ham yashay olmaydi.

Adabiyotlar

1. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. –Toshkent.:Cho‘lpon,1992.
2. Abu Abdullohamid ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih (Ishonarli to‘plam) 4-kitob. T.: – Qomuslar bosh tahriri, 1992.
3. Axloq-odobga oib hadis namunalar. – Toshkent, “Fan”, 1990.
4. Vsemirnaya filosofiya. XX vek /Avt. sost. A.P. Andrievskiy. – Mn: Xarvest, 2004.
5. L.A.Chuxina. Chelovek i yego sennostnyy mir v religioznoy filosofii. – Riga, «Zinatne», 1991.
6. Fozil Qori Yosin o‘qli, qalblar shifosi. Sizdan husni obod meros qolsin. – Toshkent, Mavarounnah, 2000
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Yaxshilik va axloq. 34-Juz. – Toshkent.: Sharq, 2011.

8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Namoz kitobi. 6-Juz. – T.: Sharq, 2011.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Ro‘za kitobi. 9-juz. – T.: Sharq, 2011.
10. Xazrat Inoyat Xan. Metafizika. Oryt dushi na raznyx urovnyax sущestvovaniya. Sbornik. – M.: Sfera, 2007.

UDK: 130.1

OILAVIY MUNOSABATLAR MADANIYATINI TRANSFORMATSIYALASHUVIGA TA’SIR KO’RSATADIGAN OMILLAR

Sh. Q. Amirxo’jayev
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri oilaviy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish masalalariga bag’ishlangan bo’lib, maqolada oilaviy munosabatlar madaniyatini tiklashga ta’sir ko’rsatadigan ayrim omillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’z: Oila, jamiyat, o’zbek oilasi, oilaviy munosabatlar, transformatsiya, destruktiv senariy.

Факторы, влияющие на трансформацию культуры семейных отношений

Аннотация: Этой статье посвящено одной из актуальных проблем современности, а именно, развитию и усовершенствованию семейных отношений. В статье рассматриваются и некоторые факторы, влияющие на восстановление культуры семейных отношений.

Ключевые слова: Семья, общество, узбекская семья, семейные отношения, трансформация, деструктивные сценарии.

Factors influencing on family relationships of culture transformation

Annotation: This article deals with one of developing and improving of family relationships, and the article focuses on some of the factors that influence on family culture.

Key words: Family, society, Uzbek family, family relationships, transformation, destructive scenarios.

Oilalardagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasiga stixiyaviy faktorlarning ta’siri ortib bormoqda, natijada ularni boshqarish va transformatsiyalashuv jarayoni intihosining mavhum qolishi faylasuf, politolog, sotsiologlarni diqqatini tortib kelmoqda. I.V.Knyazevning ko’rsatib o’tishicha, transformatsiyalashuv tizimining beqarorligi “dinamik xaos”ga yaqinlashgan. Ijtimoiy o’zgarishlarni nazoratdan chiqib ketish xavfi juda yuqori, nazoratga olinmasa faqatgina alohida lokal jamiyatlar uchun emas, balki butun insoniyatni yakson etadi [1.3]. Bu o’z navbatida transformatsiyalashuvni destruktiv senariyalariga yo’l qo’ymaslikni taqozo etadiki, bu masala bevosita fanni, shu jumladan ijtimoiy falsafaning vazifasi hisoblanadi. Bu muammo, ijtimoiy institut va ijtimoiy subhektlarni o’rganish bilan bog’liq. Ularni o’rganmasdan, ijtimoiy jarayonlarda kechayotgan o’zgarishlarni mazmun va mohiyatini belgilab bo’lmaydi.

Transformatsiyalashuv jarayonida ikki avlod orasidagi munosabatlarni integratsiyalashuvi yoki intivlashuvi xar ikki avlodning oldida o’z manfaatlarini ximoya qilishni talab etadi Bunda:

ijtimoiy-madaniy jarayonlarning mayjud xolatini tizimli-inqirozli tarzida baxolash;

nomufoqlikni bartoraf etishning ijtimoiy modelning yo’qligi;

yangi munosabatlar tarzini galdaq rivoshlanish boshkichini qanday kechishining mafxumligi chunki transfarmattsiyalashuv jarayonida qo’ydagi o’zgarishlar kuzatiladi:

a) mayjud qadriyatlar, rasm-rusumlarga oldingiday amal qilishni shart emasligi;

b) ayrim ijtimoiy rollarni o’zgarishi;

v) keksa avlod tajribasiga suyanmaslik;

g) o’zgarishlarga yoshlarni tez maslashuvi;

d) ijtimoiy idiallarni o’zgarishi;

e) qadriyatlarini o’zgarishi kabilar kuzatiladi bu xolat o’z navbatida yo’naltirishni, qo’llab quvvatlashni, maslahat berishni talab etadi.

Mazkur kursatkichlar faqatgini er va xotin orasida balki ota-onada farzatlar orasidagi madaniy munosabatlarga ham tasir kursatadi P.Sarokin XX asrning avvallarida mazkur munosabatlarini faqatgina er-xotinlar namunasida tadqiq etib, qo'yidagilarni ko'rsatib o'tgan[2.C.553-557]:

- oilaviy ajrimlarni foiz hisobida tez surhatlar bilan ortib borishi;
- oila qurishni son jixatidan kamayishi;
- oila qurmasdan oilaviyt xayot kechirishni o'sib borishni;
- tug'ulish sonini pasayishi;
- ayollarni erlarining vasiyligidan xalos bo'lishi;
- oiladagi ma'naviy asoslarni yemirilishini;
- oilani davlat tomonidan himoyasini amalgaga oshirishini pasayishini va b.

P.Sorokinni ko'rsatib o'tganliklarini, ijtimoiy-falsafiy jihatlariga etibor qaratsak, oilada kechadigan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvi ikki mazmunda, ya'ni salbiy yoki ijobiy kechishi mumkin. O'zbek oilalarida uning salbiylari sifatida:

- oilaning etnomadaniy tarkibi;
- qudolar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik;
- madaniy-nutqiy tafovut;
- oila qurishda moddiy manfaatdorlikni yetakchilik qilishi;
- oilaviy qadriyatlarga amal qilmaslik;
- ikki avlod orasida vorislikni amal qilmasligi;
- ijtimoiy tajribalarni yetkazmaslik;
- oila qurish an'analarini va rasm-rusumlariga amal qilmaslik kabilalar shular jumlasidandir.

O'zbek oilalarida uning ijobiylari sifatida:

- oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashuvi (zamonaviy lashuvi);
- formal tarzda amal qiladigan rasm-rusumlarga amal qilmaslik;
- sovchilik kabi ijtimoiy-madaniy institutni funksiyasini o'zgarishi va b.

Ijtimoiy jarayonlarni transformatsiyalashuviga tizimli yondashganda esa, uning dastlabki asosi (omili) sub'ektlar (oila a'zolari, guruh a'zolari) hisoblanadi. Ular, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni ta'minlovchisi va tashuvchisi hisoblanadi.

Bosh ustiga, jamiyat talablariga oila hayotining, qadriyatlarining, munosabatlar madaniyatining mos tushishini inobatga olsak. Bunda:

- oilaviy xulq-atvor me'yorlarining namunalarini;
- oilada ijtimoiy rollarning bajarilishi;
- oilada me'yorlarning joriy etilganligi va ularga amal qilinishi;
- oila a'zolarining haq-huquqlari ta'minlanganligi, majburiyatining bajarilishi;
- noformal me'yorlarning an'analar, odatlar va axloq talablari bilan tartibga solinishi;
- oilada munosabatlar ierarxiyasida qabul qilingan ta'qiq va ijtimoiy cheklolvar;
- oilani jamiyatning boshqa institutlari bilan ijtimoiy aloqalarini yo'lga qo'yilishi ijtimoiy sub'ektlar bilan bog'liq. Aynan ular, innavatsion va ijodiy faoliyatlarini namunasida transformatsion jarayonlarni ta'minlovchisi hisoblanadi. Unga xos bo'lgan erkinlik, yaratuvchanlik ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida gavdalanadi. Bu o'z navbatida, oilaning ijtimoiy institut sifatida tahlil qilishda, quyidagilarni inobatga olishni taqozo etadi:

oilaning ijtimoiy-madaniy tarkibi, guruhiy jipsligi, faoliyati, muloqot madaniyati va b.;

oilani jamiyatning boshqa institutlari bilan aloqasi hamda ular bilan munosabatlarga nisbatan o'z funksiyasini bajarishi va b.;

oila a'zolarining xulq-atvorini tartibga solish mexanizmini, ijtimoiy munosabatlar tizimida oila a'zolarining mavqeい va b.;

milliy madaniyatlarni asrashi, jamiyatda milliy qadriyatlar va me'yorlarni saqlash hamda ommaviy lashiga ishtirok etishini va ularning mavjudligiga xos bo'lganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchi O'.M.Muxtarovning fikricha, "Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi bir jamiyat a'zosining ijtimoiy Qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojarining o'zgarishi barobarida jamiyat tafakkurining o'zgarishida namoyon bo'lmoqda." [6. 90]

Tahkidlash kerakki, jamiyatda biron-bir ijtimoiy guruh oiladay jamiyatdagи ijtimoiy o'zgarishlar strategiyasini o'zgaritara olmaydi, ijtimoiy transformatsiyaning mustaqil sub'ekti bo'la olmaydi.

Sog'lom oila – tinch va totuv, salohiyatl, tahdidbardosh jamiyat negizi hisoblanib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida ifodalananadi. Negaki ijtimoiy institut sifatida oila, boshqa ijtimoiy institutlardan ajralib turadi va boshqa biron-bir institut uning o'rnini egallay olmaydi. Ijtimoiy fanlarda oila turli belgilari asosida klassifikatsiya qilinadiki, "Muhabbat va oila" asarida

uning turli shakllari keltirilgan[3.120]. E'tiborli tomoni shundaki, har bir oila o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. "Davlat xizmatchilar oilasi jamiyatda alohida o'r'in egallab, doimo xavf bilan, ya'ni oila yetakchisini yo'qotish bilan yuzma-yuz bo'lib kelgan"[4.195]. Bunga bir qator tarixiy misollarni keltirish mumkin. Kasbiy faoliyat va oilaning bir-biriga ta'siri qator sabablar bilan belgilanadi. Bular ma'lum bir kasb egasining vatanni himoya qilish yo'lida tanlangan kasbning maqsad va vazifalari bilan bog'liqidir. Ayrim kasb egalari xizmat taqazosiga ko'ra, oilasi bilan mehnat faoliyati davomida bir huddudan ikkinchi hududga ko'chib o'tadi. Bu o'z navbatida oilaviy munosabatlar, ya'ni er-xotin hamda farzandlar va otanonalar kabi munosabatlarda ifodalanadi.

Oila bir qator ijtimoiy funktsiyalarni bajarish bilan birga ayrim ta'sirlarga ham uchraydiki, bu esa ijtimoiy-psixologik funktsiyalarda o'z ifodasini topadi, ularni quyidagicha ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- kasbiy majburiyat kasb shaxsiga quyiladigan xizmat vazifalarini bajarishda oila taqdiri va hayotini alohida inobatga olish;

- kasbiy xizmatchi va uning oila a'zolarining yangi xizmat joyiga ko'chib o'tishda tabiiy, klimatik, maishiy, ijtimoiy sharoitga o'zini buysundira bilish zaruriyati va moslashish jarayoni, psixologik va jismoniyo zo'riqishini keltirib chiqaradi;

- vaqtinchalik doimiy yashash joyining bo'lmasligi ma'lum bir kasb egasining xotinini ishga joylashish ehtimolining kamligi, bolalar bog'chasida joy kamligi, oiladagi farzandlarni o'qish joyini o'zgarishi kabilalar oilada beqarorlikni, qattik hayajonlanishni keltirib chiqarib, turli ijtimoiy nizolarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin;

- ayrim kasb egasining maxsus sharoitlari natijasida, vaqtning chegaralanganligi kasb egasining oila davrasida yetarli darajada bo'lmasligiga olib keladi. Bu oilaning ma'naviyati, bola tarbiyasiga, oila a'zolarining etiboriga, izzatiga va bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishdan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi. Bunday holatda kasb egasining oilasining tipik o'ziga xosligini hisobga olish, uni hayotdagisi vazifasi va roli, mehnat jamoalar faoliyatidagi o'rnini o'rganish muhim sanaladi.

Oilanning eng muhim tabiiy-biologik funktsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri vazifasi bu avlod davomiyligini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun I.A.Karimov "Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebahonem'at bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi"[5.56]-deya juda o'rinni ta'kidlagan. O'zi aslida shu maqsadda oila instituti tashkil qilingan. O'z tarixiy rivojlanish davrida bu institut bir qator bosqichlardan o'tib, turli tendentsiyalar kuzatilgan.

Jamiyatimiz oilalarning barqarorligini ta'minlashdan manfaatdor bo'lib, bu esa o'zaro oilaviy munosabatlar asosida shaxsnинг yetilishini, ruxiy jihatdan tayyorligini ta'minlaydigan omillar majmuasi shakllantiradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- muloqot madaniyatiga ega bo'lish;
- turli ijtimoiy nizolarni yenga bilish;
- psixologik yordam ko'rsata olishni bilish;
- odamlar bilan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish;
- psixoterapevtik qobiliyatiga ega bo'lish;
- farzandli bo'lishga tayyor bo'lish;
- ijtimoiy faol bo'lish va boshqalar.

Bu omillar o'z navbatida shaxsnинг ijtimoiy faolligini ta'minlashga xizmat qilib, ijtimoiylashuv jarayonini ijobji kechishini ta'minlaydi.

Oilani barqarorligi ko'p jihatdan oiladagi rollar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, unga amal qilishga bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda boshqa oilalar qatori davlat xizmatchilar oilasida ham shu omil bilan bog'liq bo'lgan nizolar vujudga keladi. Shuning uchun, mazkur masalani ham o'rganish maqsadida "Oilaviy munosabatlar madaniyatini o'rganish so'rovnomasasi"dan foydalandik. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 89% rafiqalar va 83% turmush o'rtog'lar oilaviy rollarning taqsimlanishi haqida aniq tasavvurga ega. Bu o'z navbatida er-xotin orasidagi nizolarni silliq kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ammo bu holat faqatgina 59% juftliklarda kuzatilishi aniqlandi, 17% oilalarda bola tarbiyasi, uy xo'jaligini yuritish, dam olishni tashkil qilish va boshqa masalalarda kelishmovchiliklar kuzatilishi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkich, turmush o'rtoqlarda oilaviy rollar va ularni bajarish mezoni haqida aniq tasavvur shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun er-xotinga nizoning sababi, ifodalanish tarzi, mohiyatini va undan chiqish yo'lini singdirmoq lozim. Buning uchun oilada o'zaro munosabatlarni aniqlovchi ichki shaxsiy omillar tahlili olib boriladi. Shu maqsadda tashxis xulosalari an'anaviy, monologik interpretatsiya usulida emas, balki o'zaro muloqot tarzida yetkazilmog'i darkor. Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- O'zbek oilalarida otaning safarda (xorijda ishslash,sayohat va b.) bo'lishi tufayli farzandlarning tarbiyasi va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish xotinning zimmasida qolishi kuzatiladi. Bu, bevosita o'zbek oilalarining XX asrning oxirlarida kuzatilgan inqirozlarning natijasi tarzida namoyon bo'lmoqda;
- farzandlar tarbiyasida vorisiylik tamoyilini ishtirok etmasligi, ya'ni buva-buvilarning aralashmasligi esa, an'analarga rioya etish istagini yo'qligidan emas, balki yashash sharoitini yaxshilash maqsadida, yoshlarni ota-onasiga, ya'ni qaynona va qaynotalar qaramog'idan chiqishi natijasida vujudga kelganki, ijtimoiy-madaniy munosabatlarda uni salbiy illat ekanligi ifodalanmoqda;
- davlat xizmatchilarining oila yumushi uchun, farzandlar bilan shug'ullanishi uchun vaqtining chegaralanganligi. Shu sababli:

birinchidan, oilaviy munosabatlarni transformatsiyalashuvini ta'minlashda mahalla instituti kabi boshqa institutlarning ishtirokini ta'minlash maqsadida, "Mahalla va oilani qyllab-quvvatlash" vazirlikning faoliyati darajasida me'yoriy hujatlarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, transformatsiya rivojlanishni ta'minlovchi omil ekanligi bilan birga, ayrim an'anaviy me'yorlarni izdan chiqaruvchi ham hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Князев И.В. Трансформационные процессы в России: субъектный аспект // Автореф...дис.. к.социологических наук. – Новочеркасск, 2006.
2. Сорокин П. А. Влияние войны на состав населения, его свойства и общественную организацию // Голод как фактор. М., 2002.
3. Shoumarov F. B., Shoumarov SH.B. Muhabbat va oila. – T.: Ibn Sino, 1994.
4. Samarov R.S. Qurolli Kuchlar tizimining feminizatsiyalashuvii: rivojlanishning o'ziga xosligi va ijtimoiy mexanizmi (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari misolida) // Fals.f.d, dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU. –2005.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Muhtarov O'.M. Family education instead of 'ersonnel immunity of the youth and 'ublic health // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 9 Issue 3, March 2019. Im'act Factor: SJIF 2018.

UDK: 130

INNOVATSIYANING TIZIM SIFATIDA RIVOJLANISHI

N. B. Sunnatov

Navoiy davlat konchilik instituti

Sunnatov_1979@mail.ru

Annotatsiya. Usbu maqolada tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tahvilning asosiy qoidalari va nazariy modellashtirish metodlari, shuningdek innovatika, innovatsiya fenomenining tahviliga nisbatan yondashuvlarning asosiy qoidalari o'rganilgan. Ular turlicha nazariyalar, kontseptsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, Ta'lim tizimi, jamiyat, innovatsion, yangi metod, metodika, texnologiya, Innovatsiyada yangilik, fenomen, tafakkur, kreativlik, aqliy harakat, idrok.

Развитие инноваций как системы

Аннотация. В данной статье исследована научная и практическая значимость результатов исследования, основные правила анализа и методы теоретического моделирования, а также научное значение основных правил, подходов анализа инноватику, феномен инноваций. Они были изучены на основе различных, концепций, теорий, подходов, позиций, направлений.

Ключевые слова: цивилизация, система образования, общество, инновация, новый метод, методология, технология, инновация в инновации, феномен, мышление, творчество, умственное движение, восприятие.

The development of innovation as a system

Abstract. This article explores the scientific and practical relevance of the research results, the basic rules of analysis and theoretical modeling methods, as well as the scientific significance of the basic rules, approaches to analyzing innovation, the phenomenon of innovation. They were studied on the basis of various concepts, theories, approaches, positions, directions.

Key words: civilization, Education system, society, innovation, new method, methodology, technology, Innovation in innovation, phenomenon, thinking, creativity, mental movement, perception.

Sivilizatsiya uchinchi ming yillikning boshiga kelib o'z rivojlanishining shunday bir chegarasiga etdiki, u davr talablariga javob beradigan bilimlar yaratish va qadriyatlarga munosabatni shakllantirishni talab qildi. Hozirgi dunyo o'ta murakkab, tez o'zgaruvchan, qaysi yo'ldan rivojlanishini oldindan aytib bo'lmaydigan, xavf-xatarga to'la tus oldi. Bunday dunyoga odatdag'i o'lchovlar bilan yondashish mumkin emas. Sivilizatsiyaning rivojlanishi shu darajada jadal sur'at oldiki, bunda inson o'zi global muammolarni his etmasdan o'r'in olishga qodir emas. Ta'lim tizimi dunyoda Yuz bergan o'zgarishlarga moslashib ulgurmay, o'ziga qo'yilayotgan talablarga javob bermay qo'ysi. Ta'lim tizimini davr talablariga moslashtirish olamshumul muammoga, buni tushunish esa – ta'lim tizimiga davlat, jamiyat va fuqarolar munosabatining asosiy belgisiga aylanadi, bu ta'lim tizimi milliy mahsulotning o'z ulushini iste'mol qiluvchi tizimdir degan tasavvurlarga barham berdi. Hozirgi vaqtida rivojlangan mamlakatlarda ta'limni jamiyatning, bir tomonidan, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch – insonni kamol toptiradigan, boshqa tomonidan esa – dunyoqarashni shakllantirish manbai, jamiyatning madaniyatatlilik darajasi ko'rsatkichi hisoblanadigan yirik tarmog'iga aylanish tendentsiyasi tobora bo'rtibroq namoyon bo'layotgani tasodifly bir hol emas. Mamlakat qudrati avvalo ta'lim tizimi bilan belgilanishi aniq-ravshan tus olmoqda. Ta'lim tizimiga qarab jamiyatning o'zi, uning ma'rifatlik darajasi va kelajagi haqida tasavvur hosil qilish mumkin, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xush, shunday ekan, ta'lim tizimida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimida innovatsion yondoshuv shakllanganmi? Ushbu maqolada ta'lim tizimi innovatsiyalari tushunchasining genezisi va ularning namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilamiz.

Jahonning ilg'or mamlakatlarida texnik, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat sohalarining rivojlanishiga kuchli turtki bergan o'ziga xos innovatsion «portlash» makrosotsiologiya doirasida shakllanuvchi innovatsiyalarni o'rganishning nazariy asoslariga va innovatsion jarayonlarni mantiq va innovatsiya mexanizmlari nuqtai nazaridan empirik tahlil qilishga e'tiborning kuchayishiga olib keldi.

Innovatsiya muammolariga bag'ishlangan asarlarning Yuzaki tahliliyoq «yangilik» va «innovatsiya» kabi o'zak (balki jins bildiruvchi) tushunchalarni ajratish imkoniyatini beradi. Ayrim tadqiqotchilar qayd etishlaricha, dastavval «innovatsiya» atamasi paydo bo'lgan, u «so'zlashuv tili»ga XIII asrdayoq kirib kelgan va «o'z davridan o'zib ketgan biror narsani o'ylab topish» degan ma'noni anglatgan [1]. Keyinchalik, XIX asrda u ilmiy bilim sohasiga kirib kelgan va ilmiy bilimning turli sohalarida har xil ro'lb o'ynay boshlagan. Masalan, lingvistikada bu atama grammatik shakllar bir madaniy arealdan boshqa madaniy arealga o'tkazilganida ularda Yuz beruvchi o'zgarishlarni anglatgan. Uning assimilyatsiyasi va bunda kasb etiladigan yangi sifatlar, «madaniyat tuzilmalari rivojlanishining tabiiy mexanizmi sifatida» talqin qilinuvchi tarkibiy munosabatlar madaniy (tilga oid) innovatsiya degan nom olgan [2]. Etnografiyada ham shunga o'xhash jarayonlar (bir madaniyatdan boshqa madaniyatga o'tish) madaniy innovatsiya sifatida tavsiflangan. Yurisprudentsiyada innovatsiya deganda mavjud majburiyatni boshqa majburiyat bilan almashtirish innovatsiya sifatida tushunilgan. Tabiatshunoslikda ushbu atamadan o'sish jarayonida Yuz beruvchi o'zgarishlarni ifodalash uchun foydalanimagan.

Ko'rib turganimizdek, «innovatsiya» tushunchasi etilish jarayonining shu bosqichidayoq uning talqinida umumiyligi va xususiy jihatlar namoyon bo'la boshlagan. Bu erda gap innovatsiya ob'ektiga ilgari xos bo'lmanan muayyan yangi sifatning vujudga kelishi haqida boradi. Bu yo ilgari ma'lum bo'lgan narsa yoki hodisani yangi ijtimoiy-madaniy zaminga ko'chirish, yo ilgari ro'yobga chiqarilmagan imkoniyatni o'zlashtirish, yo innovatsiya ob'ektining tadrijiy rivojlanishi yo'li bilan Yuz beradi, lekin barcha hollarda ob'ekt o'zining yangicha sifat kasb etishi bilan tavsiflanadi. Bizningcha, bu innovatsiyaning mazmun va mohiyatini belgilovchi mezonlardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Boshqa bir umumiyligi yondashuvga ko'ra, innovatsiya – bu ob'ektning bir holatdan boshqa holatga o'ziga xos tarzda o'tishidir. Ushbu fikr nazariyada innovatsiya shakli xususida mavjud qarama-qarshi nuqtai nazarlarga nisbatan aniq bir to'xtamga kelish uchun zarur. Xo'sh, innovatsiya – bu jarayonmi yoki natijami?

Innovatsiya – bu «...yangi turdag'i mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi» [3]. Bu fikrga Yu.A.Karpova «Innovatsiya – bu ijodiy faoliyatning keng miqyosda qo'llaniladigan va inson, jamiyat va

tabiatning hayot faoliyatida sezilarli darajada o'zgarishlar Yuz berishiga olib keladigan progress natijasidir» [4] deb aniqlik kiritadi. Misol uchun, «yangilik» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash jarayonida narsalar va hodisalarning quyidagi tartibi o'rnatiladi. «YAngilik – bu aynan vosita (yangi metod, metodika, texnologiya, dastur va sh.k.), innovatsiya – bu ayni shu vositani o'zlashtirish jarayonidir» [5]. YAngilikning vosita sifatidagi talqinini hozircha bir chekkaga surib, innovatsiyaning jarayon sifatidagi talqiniga nazar tashlaymiz. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'tgan asrda bu tushunchadan shu jumladan biologiyada o'sish bilan bog'liq o'zgarishlarni ifodalash uchun foydalilanilgan. O'sish o'z-o'zicha jarayonni anglatadi. Albatta, bu hodisaning mezon sifatidagi muayyan jihatini belgilash uchun etarli shart emas. Ammo, innovatsiya tushunchasining keyingi taqdiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning inson va jamiyat hayot faoliyatining deyarli barcha sohalariga ekspansiyasi jarayonida, fenomen butunlay yangi xossalalar kasb etishiga sabab bo'lувчи ijtimoiy diffuziya hisobiga, innovatsiya, bizning nazaramizda, to'laqonli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi innovatsion hodisalarni o'rganuvchi ayrim mualliflar «...ta'limning permanentligi kontseptsiyasining o'zi o'zgarishlarning permanentligini nazarda tutadi» [6], deb hisoblaydilar va innovatsiyaga kundalik ishning uyg'un qismi sifatida, ya'ni uzluksiz jarayon sifatida yondashadilar.

Bu erda innovatsiya fenomenining yana bir o'ta zaruriy mezonini qayd etish lozim. Gap shundaki, stixiyali kechadigan, tabiiy jarayondan farqli o'laroq, innovatsiya «...amalga oshiriladigan va boshqariladigan o'zgarishlar, oqilona ta'sir ostida Yuz beruvchi o'zgarishlar» [7] xususiyatini kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, bu sun'iy tarzda tashkil etilgan, muayyan natijaga erishishga qaratilgan va boshqariladigan jarayondir.

Ko'rib turganimizdek, mazkur yondashuv innovatsiyani boshqarish mumkinligi va zarurligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan yondoshilganda, innovatsiya – bu stixiyaning tartibsizligiga barham berishga qodir boshqariladigan jarayondir, degan fikrga barcha tadqiqotchilar ham qo'shilavermaydi. Taniqli sotsiolog olim I.V.Bestujev-Lada innovatsiyani «o'z xususiyatiga ko'ra stixiyali, tartibsiz jarayon, chunki inson zotiga xos bo'lgan Yutuqlarga erishishga intilish hamda insonning sifat jihatidan yangi narsa yaratish qobiliyatiga asoslanadi» [8], deb tavsiflaydi. Bizning nazaramizda, bu erda gap innovatsiyaning ijodiy tabiat haqida boradi, bunda ijodning muhim xossalari to'laligicha innovatsiyaga ko'chiriladiki, buni to'g'ri deb aytish qiyin. Darhaqiqat, ijod ko'p jihatdan spontan, impulsiv, tabiatan o'zgaruvchan jarayon. U shaxsning ruhiyatida Yuz beradi. «Bu faoliyat emas, balki inson mohiyatining spontan namoyon bo'lishidir» [9], deb yozadi V.N.Drujinin. «Ijodiy faoliyatda eng muhimi cheklangan moddiy natija emas, balki bunyodkorlik, madaniyat yaratish qobiliyatining namoyon bo'lishi va takomillashuvividir» [10], deb ta'kidlaydi boshqa bir tadqiqotchi. Bu fikrga qo'shilmaslik qiyin, lekin bu erda gap boshqa hodisaning tabiat haqida boradi.

Birinchidan, «Yutuqlarga erishish»ga bo'lgan ehtiyoj ijod qilishga, haqiqatning tagiga etish va o'zligini anglash yo'lida izlanishlarga bo'lgan sof insoniy ehtiyoj bilan doim ham muvofiq kelavermaydi. Ikkinchidan, ehtiyoj sifatidagi ijod va unga muvofiq keluvchi qobiliyatlar innovatsion faoliyatning zaruriy omili sanalsa-da, innovatsiyaning inson yoki kishilar muayyan birligining ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va uYushtirish shakli sifatidagi o'ziga xos mohiyatini to'la aks ettirmaydi. Uchinchidan, innovatsiya asosiy urg'uni shaxsning o'zini o'zi o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojidan tizimli sifatning o'zgarishi tarzida namoyon bo'lувchi sirtdagи «moddiy» natijaga ko'chiradi. Darvoqe, bunday mo'ljalning mavjudligini Yuqorida keltirilgan fikr muallifining sa'y-harakatlari ham tasdiqlaydi: u «ishni o'z holiga tashlab qo'ymaslik» uchun innovatsion muhitni tashkillashtirishning optimal shakllari, usullari va vositalarini belgilashga harakat qiladi. Binobarin, ijod innovatsiyaning zaruriy, lekin etarli bo'luman shartidir. Lo'nda qilib aytganda, innovatsiya ijodning amalda namoyon bo'lish shakllaridan biri, ijodiy faoliyatni tashkillashtirish va uning yangilik sifatidagi natijasiga erishish usulidir.

Bunday tavsiflarga amal qiladigan bo'lsak, vazirliking muayyan kursni joriy etishga doir har qanday yo'riqnomasini innovatsiya sifatida muayyan pedagogik tizimni yoki ta'lim texnologiyasini o'zlashtirishdan ajratish qiyin. Zero oliv ta'limning ta'lim muhiti uchun bularning barchasi amalda yangilik bo'lishi va nazariy jihatdan ayni bir algoritnga bo'yusunishi mumkin.

E.M.Rojers amerikalik va ayrim evropalik nazariyachilarning tadqiqotlarini tahlil qilish asosida: «YAngilik – bu konkret shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir. g'oya ob'ektiv jihatdan yangi yoki yangi emasligi ahamiyatga ega emas, biz uni mazkur g'oya kashf etilgan yoki birinchi marta qo'llanilgan beri o'tgan vaqtida aniqlaymiz» [11], degan fikrni ilgari suradi. Agar bu nuqtai nazarga qo'shiladigan bo'lsak, Erda yashaydigan har bir inson innovatordir, chunki hayotga qadam qo'yari va odamlar dunyosida o'zining o'rnini belgililar ekan, u muayyan g'oyalarni o'zi uchun kashf qilishi va ulardan hayotda foydalanishi muqarrardir, degan xulosaga kelishimiz kerak bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, yangiliklarning taklif qilinayotgan tipologiyasi kontekstida «yangilik»ka ta'lim g'oyalari va amallari sifatidagi mazmunli asos

sifatida yondashiladi. Ayni holda «innovatsiyadagi yangilik» alohida kategoriyasini ajratish mumkin va u yangilikning abstrakt talqinidan uzoqlashish va tushunchaning mazmuniga aniqlik kiritish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'zak tushunchalar va ularning o'zaro munosabatlari majmuini innovatsiya tushunchasining ta'rifi sifatida ifodalash uchun imkoniyat yaratadi.

Innovatsiyada yangilik – bu davr va sharoit taqozosi (rivojlanish ehtiyojlari) bilan belgilangan mohiyat bo'lib, uning atrofida yangilikning mazkur tizimda ilgari qo'llanilgan tushunchalardan tizimning belgilariga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra butunlay farq qiladigan mazmuni shakllanadi. Taxmin qilinayotgan natijaga erishishni ta'minlaydigan elementlar, munosabatlar va harakatlarning muayyan tizimini o'zida ifodalovchi jarayon innovatsiya hisoblanadi. Aynan innovatsiya rivojlanishning aniq va muayyan shakli sanalgani bois, innovatsiyani boshqarish (yoki innovatsiya yordamida boshqarish) rivojlanishni boshqarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, innovatsiya rivojlanishning muhim ijtimoiy mexanizmlaridan biriga aylanadi va shu nuqtai nazardan mazkur mexanizmning amal qilishini tashkillashtirishning tahlili diqqatga sazovordir. Ayni paytda, g'oyalarni amalda kuzatish mumkin bo'lган o'zgarishlarga aylantirish borasidagi harakatlar ketma-ketligini belgilashga nazariy urinishlarning aksariyat qismi ilmiy-teknikaviy mexanizmlar yoki boshqaruv (bozor munosabatlari doirasidagi sotish) mexanizmlari sohasida yotadi [12].

O'z-o'zidan ravshanki, bu erda gap «yangi g'oya – yangilik – innovatsiya» zanjirini uning bosqichlarini izchillik bilan Yuz beruvchi yagona harakatga birlashtirishni mazmun jihatidan ta'minlash texnologik jarayoni haqidagina borayotgani yo'q. Harakat moddiy jihatdan innovatsion o'zgarish qaysi professional birlikning muhitida Yuz berishi lozim bo'lsa, ayni shu professional birlik holatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ko'chadi. Bu innovatsion tayyorgarlikning, hech shubhasiz, muhim elementi, lekin jarayonning mazmunini texnologik ta'minlash bilan u faqat bilvosita bog'liq. Shuning uchun bo'lsa kerak, ayrim mualliflar innovatsion jarayonni tashkillashtirishning Yuqorida keltirilgan modeliga tayanib, uni yangi tartib-qoidalarni joriy etishning konkret bosqichlarini sanab o'tish bilan to'ldirish zarur deb hisoblaydilar:

- innovatsion g'oya;
- loyiha;
- reja;
- baholash;
- eksperiment va joriy etish [13].

Innovatsiyalar ijtimoiy mexanizmi ayrim elementlari o'zaro aloqasining umumlashtirilgan va yo'riqnomalar sifatida belgilangan (tarkibi, tuzilishi, bosqichlari va hokazolarni bayon etish orqali) tizimiga oliv ta'limning innovatsion jarayon sifatida rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotda duch kelish mumkin [14].

Yu.A.Karpova adabiyotlarda mavjud ishlanmalarga innovatsion jarayonni tashkillashtirishning sof texnik yoki boshqaruvga oid modellarining bir yoqlamaligini chetlab o'tuvchi falsafiy tahlil nuqtai nazaridan tanqidiy ko'z bilan qarash orqali ushbu muammoni echishga nisbatan o'z yondashuvini taklif qiladi. Ko'rib chiqilayotgan yondashuvlarning kamchiligi sifatida ular jarayonning bir yoki bir nechta bosqichini vaqtida va makonda tavsiflash bilan kifoyalanishini qayd etib, u innovatsion jarayonda quyidagi bosqichlarni ajratishni taklif qiladi:

- ijtimoiy ehtiyojlarni anglab etish yoki prognozlashtirish;
- muammoni echish kontseptsiyasini izlash;
- muammoni o'rganish;
- innovatsiyalarni ishlab chiqish;
- o'zlashtirish;
- tarqatish (diffuziya);
- madaniyatda mujassamlashtirish va integratsiya [15].

Bizningcha, ushbu yondashuvning diqqatga sazovor jihatni shu bilan belgilanadiki, unda innovatsiyaning mazkur fenomen amal qiladigan turli xil xususiyatli sohalarni qamrab oluvchi polifunksional hodisa sifatidagi yaxlitligi ta'minlangan. «Innovatsion faoliyatning politsentrizmi uning barcha elementlarini, chunonchi: intellektual-boshqaruv, informatsion-joriy etish va madaniy-izlanish sohalarini qamrab oladi. U ilmiy Yuuqlarni o'zlashtirishnigina emas, balki madaniy an'analarni tiklashni ham nazarda tutadi» [16]. Innovatsiyaning taklif qilinayotgan modelida mazkur fenomenologik belgi tizim yaratuvchi va yaxlitlik sifatini ta'minlovchi belgiga aylanishi mumkin.

Ma'lumki, innovatsiya muayyan makonda to'liq hayot tsiklini yashaydi, lekin uning istalgan bosqichida innovatsion uzilish Yuz berishi mumkin va buning natijasida dastlabki muammoga aniqlik

kiritishga (bu holda innovatsiyaning yangi hayot tsikli boshlanadi) yoki tizimning boshlang'ich holatiga qaytishga (innovatsiyadan rivojlanishni boshqarish usuli sifatida voz kechiladi) ehtiyoj tug'iladi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, innovatsiya hayot tsiklining turli bosqichlarida u yoki bu moddiy harakatni tegishli tadrijiylikda bajarishga qodir bo'lgan o'z ijtimoiy mexanizmlari shakllanadi. Masalan, «yangilik» g'oyasidan uni optimal ro'yobga chiqarish sari harakatlar ketma-ketligi bilan tavsiflanuvchi birinchi bosqichda ijtimoiy mexanizmning tarkibiy tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- tizimning rivojlanish manbai bo'lib xizmat qilish orqali muammoni echishga qodir bo'lgan g'oyalarni jamlash;

- g'oyani zaruriy tizimli sifatlarga boshqariladigan ta'sir ko'rsatish imkoniyatini belgilovchi vazifa-omillar majmui sifatida o'lchanadigan maqsadga aylantirish;

- g'oyani vazifa-omillarga o'tkazishning anqlik darajasini tekshiruvchi xayoliy yoki amaliy eksperiment;

- eksperiment natijalari asosida innovatsiyaning kontseptsiyasini tuzish;

- kontseptsiyani amalga oshirish variantlarini ishlab chiqish va optimal variantni tanlash;

- innovatsion o'zgarishni texnologik amalga oshirish va uning iqtisodiy samaradorlik darajasiga baho berish;

- innovatsiyaning prototipini yaratish (yo'llari, shakllari, usullari, vositalari va h.k.);

- ob'ektning alohida xususiyatlarini hisobga olib innovatsiyaning konkret modelini yaratish [17].

Ilgari yaratilgan nazariy modellarni bevosita amalga oshirishdan iborat bo'lgan ikkinchi bosqich tizimda (ya'ni innovatsion o'zgartirish ob'ektida) sifat o'zgarishlari yasashni nazarda tutadi. Bunda quyidagilar ijtimoiy mexanizmning elementlari hisoblanadi:

- innovatsiyaga asoslantirilgan rozilik (innovatsion mo'ljallarni ilgari surish, zaruriy bilimlarni o'zlashtirish, qaror qabul qilish);

- innovatsiyani mazmun va usulini bir-biriga bog'lash yo'li bilan kontseptuallashtirish;

- resurslarni (intellektual resurslardan moddiy resurslargacha) optimallashtirish;

- innovatsiya modelini amalga oshirish;

- natijalarni institutsiallashtirish [18].

Bu innovatsion jarayonning eng og'ir bosqichi, chunki unda faoliyat ko'rsatayotgan tizimning mavjud mazmuni innovatsiyaning ta'sir ko'rsatuvchi mazmuni bilan amalda uchrashadi va ularning birikishi tizimni beqarorlashtiradi, unga rivojlanish impul'sini beradi. Bunda murakkab, dinamik tizimlarda Yuzaga keluvchi disfunktsiyalarini, odatda, algoritmlashtirib bo'lmaydi, shu sababli har bir keyingi vaziyat noyob va betakrordir. Ayni shu erda har qanday ijodiy jarayonning atributiv belgisi – oldindan berilmaganlik o'z ta'sirini ko'rsatadi va innovatsiya jarayonining o'zini har safar «narsa o'zida»ga aylantiradi. Sinergetik yondashuv terminologiyasidan foydalanib, tizimning innovatsion holatida bifurkatsiya nuqtalarining Yuzaga kelishi va rivojlanish attraktorini tanlash imkoniyati uning boshqa har qanday holatidagidan anche Yuqoridir, deb aytish mumkin.

Bosqichning yana bir xususiyati shundaki, uning muhimligi innovatsiyaning politsentrik xususiyati to'laqonli namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Bunda harakatni tashkillashtirishda Yuqorida zikr etilgan intellektual-boshqaruv, informatsion-joriy etish va madaniy-izlanish elementlari o'zini teng darajada namoyon etadi. Faoliyat predmetining har xilligi uning asoslarini metodologiyalashtirishni nazarda tutadi, chunki polifoniya innovatsiyaning politsentrik tabiatini imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan metafaoliyatga (faoliyatning boshqa turlarini o'zgartirish borasidagi faoliyatga) ehtiyoj tug'diradi [19]. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion jarayonni tashkillashtirishga jalb qilinadigan bilimni universallashtirishni talab etadi.

Nihoyat, innovatsiyani bevosita amalga oshirish bosqichida polifunktzionallik innovatsiyaning o'ziga xos jihatni sifatida o'zini to'laqonli namoyon etadi. Texnologik jihatdan mukammal bo'lgan innovatsiya ham taskilotning ko'p omilli elementi – ijtimoiy-psixologik muhitga sezilarli darajada bog'liqdir. Lo'nda qilib aytganda, innovatsion jarayonning mazkur bosqichi innovatsiyani jarayon va natija sifatida institutsiallashtirishda alohida o'r'in tutadi.

Bizning talqinimizdagи innovatsion jarayonning uchinchi, yakunlovchi bosqichining xususiyati shu bilan belgilanadiki, u nisbatan mustaqil bo'lgan ikki kichik bosqichdan tarkib topadi: birinchi – harakatning boshqa miqyosida innovatsion o'zgarishlarni tashkillashtirish; ikkinchi – yangi sharoitlarda innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish. Bizning nazarimizda, uchinchi bosqichning bunday tuzilishi, bir tomonidan, ijtimoiy-madaniy muhitda innovatsion diffuziyaning mavjud qonuniyatlarini bilan, boshqa tomonidan esa – innovatsiyaning uning yanada rivojlanishini ta'minlovchi zaruriy ekspansiyasi bilan izohlanadi. Gap shundaki, innovatsion vogelikni o'rganishga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlarning ma'lumotlari «mavjud shakllardan farq qilishi tufayli yangi hisoblanadigan har qanday g'oja, xulq-atvor andozasi yoki

artefakt-ob'ekt vogelikning tashkiliy tuzilishida o'zgarish yasaydi» [20], degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Innovatsiya fenomenini o'rganish, ta'lif tizimining ko'p darajali maydonida innovatsion o'zaro aloqalarning ijtimoiy konstruktsiyalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog'liq muammolar shu darajada murakkab va serqirraki, bir maqolada doirasida ularning hammasini aks ettirish mumkin emas. Uning tuzilishi va mazmuni o'zgacha mantiq - ta'lif sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonlarida innovatsiyaning o'rni va rolini tushunish mantig'i, innovatsiyalarni joriy etishni boshqarish maydonida yuzaga kelishi muqarrar bo'lgan muammolar mazmunini anglab etish mantig'i bilan belgilanadi.

Ammo inson hayot faoliyatini tashkil etishda innovatsiyaning o'rni, hozirgi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga innovatsiyaning tatbiq etilishi dinamikasi, shuningdek innovatsiyaning mazmun va mohiyati tobora mavhumlashib borayotgani har qanday taddiqotchi oldiga eng avvalo o'rganilayotgan hodisaga nisbatan o'z nuqtai nazarini kontseptual belgilash vazifasini qo'yadi. Ayni shu sababli ish ma'nodosh tushunchalar (yangilik, innovatsiya) o'zaro munosabatlarining tahlilidan boshlanadi. Ushbu tahlil innovatsiya o'ziga xos bo'lgan barcha belgilari bilan alohida tizim sifatida shakllangani haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

1. Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М: Наука, 1998. – С.15.
2. Сазонов Б. Институт образования: смена вех // Инновационное движение в образовании. – М., 1997. – С.83.
3. Научно-технический прогресс / Словарь. Сост. Горохов В.Г., Халипов В.Ф. – М., 1987. – 80-б.
4. Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М.: Наука, 1998. – С.21.
5. Хомерики О.Г., Поташник М.М., Лоренсов А.В. Развитие школы как инновационный процесс. – М., 1994. – 9-б.
6. Ангеловски К. Учителя и инновации. – М.: Наука, 1991. – С.16.
7. Радугин А.А., Радугин К.А. Введение в менеджмент: социология организаций и управления. – Воронеж, 1995. – С.81.
8. Бестужев-Лада И.В. «Алгоритм» социального нововведения // Социологические исследования. 1991. №9. – С. 85.
9. Дружинин В.Н. Психодиагностика общих способностей. – М.: Луч, 1996. –С.46
10. Гольдентрихт С.С. Методологические проблемы общей теории творчества // Диалектика и теория творчества. – М.: Наука, 1987. – С. 6.
11. Ангеловски К. Учителя и инновации.– М.: Наука, 1991. – С.35.
12. Гребнев Е.Т. Управленческие нововведения. – М., 1985; Коротаев А.С. Нововведения в промышленности США: разработка и внедрение. – М.: 1981; Мончев Н. Разработки и нововведения. – М.: 1978.
13. Удальцова М.В. Социология управления. – М., Новосибирск, 1998. – С.56.
14. Управление развитием школы / Под ред. Поташника М.М. и Лазарева В.С. – М., 1995. – С.101-104.
15. Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М.: 1998. – С.23.
16. Режабек Е.Я. Что такое постиндустриализм // Инновационные подходы в науке. – Ростов-на-Дону, Феникс, 1995. – С.27.
17. Коротаев А.С. Нововведения в промышленности США: разработка и внедрение. – М., 1981; Rickards T. Stimulating Innovations. A System Approach. – L., 1985. – P. 127.
18. Мешков А.А. Основные направления исследования инноваций в американской социологии // Социологические исследования. 1996. №5. – 119-б.
19. Лапин Н.И. Системно-деятельностная концепция исследования нововведений // Диалектика и системный анализ. – М.: 2008. –С.79.
20. Мешков А.А. Основные направления исследования инноваций в американской социологии // Социологические исследования. 1996. №5. – С.120.

UDK: 37.035

**YOSHLARDA FUQAROLIK MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISH O'ZBEKISTONDA
BARQAROR VA FAROVON HAYOT ASOSI**

Sh. Turatov

Jizzax politexnika instituti

Annotasiya. Maqolada O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish jarayonida yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishning zarurligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar masalasiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat, fuqarolik mas'uliyati, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, o'rta va mayda tadbirdorlikni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarda mas'uliyat hissini shakllantirish va mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash.

Создание гражданской ответственности у молодёжи важный фактор поступательного развития общества в Узбекистане

Аннотация. В статье даётся социально-философский анализ о необходимости создания гражданской ответственности у молодёжи в процессе построения демократического правового государства и гражданского общества в Узбекистане. Также рассматриваются факторы влияющие в формировании гражданской ответственности у молодёжи.

Ключевые слова: Демократическая правовая государство, гражданское общество, гражданская ответственность, повышение правовых знаний у граждан, всестороннее развитие среднего и мелкого предпринимательства, формирование и укрепление ответственности у молодёжи, национальное самосознание, пробуждение исторической памяти, возвышение чувств национальной гордости и достоинства, укрепление идеологического иммунитета.

Creation of civil responsibility for youth the basis of processive and well-being life in Uzbekistan

Abstract. The article provides a socio-philosophical analysis of the need to create civic responsibility among youth in the process of building a democratic state of law and civil society in Uzbekistan. It also considers factors affecting the formation of civic responsibility among young people.

Keywords: democratic rule of law, civil society, civil responsibility, increasing legal knowledge among citizens, the full development of medium and small business, the formation and strengthening of responsibility among young people, national self-awareness, the awakening of historical memory, raising feelings of national pride and dignity, strengthening ideological immunity.

Bugungi kunda O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish asosiy maqsad sifatida belgilangan bo'lib, ushbu jarayonda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va yuksaltirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Fuqarolik mas'uliyati jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarga fuqarolarning ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashish jarayonini o'zida ifodalaydi. Fuqarolik mas'uliyati – jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning davomi va uzbek qismi bo'lib, jamiyat o'z demokratik rivojlanishida fuqarolarga faqatgina tenglik, ozodlik, birodarlik kabi umuminsoniy huquqlarni berish bilan cheklanmaydi, balki shu huquqlarga rioya qilishni, o'z huquqlaridan ijodiy, jamiyat manfaatlarini ko'zlab foydalanishni talab qiladi. Jamiyat hayotida demokratiya qanchalik taraqqiy etib, yuksalib borsa, undagi fuqarolarning mas'uliyati ham shu darajada yuksalib, oshib boradi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayonida fuqaro mavjud huquqlarga tayangan holatda jamiyatning muammolarini hal etishda faol qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlarning ilm-fan, madaniyat, davlatchilik, huquq, siyosat, diplomatiya va iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi yutuqlaridan ijodiy tarzda foydalangan holda o'z fuqarolarida fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratib kelmoqda. O'zbekistonda yosh avlodning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish masalasi bugungi kundagi dolzarb masaladir.

Bizning yana bir muhim vazifamiz – fuqarolar, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro mas'uliyat, huquq va burch bog'liq ekaniga oid prinsipni izchil amalga oshirishdan iborat, - deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - Bu prinsip mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalarini hal qilishda

davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyatni o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydigan konstitusiyaviy asosdir. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas'ulmiz. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik va totuvlik muhitni, o'zaro hurmat va hamjihatlikni asrash va mustahkamlash maqsadida olib borayotgan ishlarmizni yanada kuchaytirishimiz lozim [1].

Hozirgi paytda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, o'rta va mayda tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarda jamiyatga nisbatan, mustaqillikka nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish va mustahkamlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini yuksaltirish asosida mafkuraviy immunitetini mustahkamlash asosida amalga oshiriladi. Yoshlar tomonidan ilm-fan yutuqlarini chuqur egallash, xorijiy tillarni, kompyuter texnologiyalarini mustahkam o'rganish, halol mehnat qilib ishbilarmonlik va tadbirkorlik bilan shug'ullanish, O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga o'zining hissasini qo'shish yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va yuksaltirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayonida inson huquqlari va ularni ta'minlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Inson shaxsining kamoloti uchun fuqarolik jamiyatni zarur bo'lib, faqat fuqarolik jamiyatidagina shaxs o'zining barcha qobiliyatlarini to'la namoyon eta oladi. Demokratik an'analarning rivojlanish jarayoni mamlakat iqtisodiy salohiyati, fuqarolar saviyasining yuqoriligi va ularning siyosiy faolligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bugungi kunda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, - Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini, avvalambor, yuksak ma'naviyatlari, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq [1]

Hozirgi paytda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, o'rta va mayda tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish yoshlarda, O'zbekiston fuqarolarida jamiyatga nisbatan, mustaqillikka nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirishga va mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mustaqil O'zbekiston yoshlari, fuqarolarining o'z burch va huquqlarini yaxshi bilishlari jamiyat taraqqiyotining muhim va zaruriy sharti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitusiyaviy mas'uliyatlarini ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

I. O'zbekiston yoshlari, fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va davlat tizimini mustahkamlashga qaratilgan mas'uliyatlarga O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga rioya qilish, qonunlarni bajarish, mehnat intizomini saqlash, jamoat burchiga vijdon bilan qarash, mulkning bozor shakllarini mustahkamlash, turmush qoidalarini hurmat qilish, boshqa mamlakat fuqarolarining milliy qadr-qimmatini, huquqlarini hurmatlash, sha'nini, o'zligini hurmat qilish, ijtimoiy burchini halollik bilan bajarish, O'zbekiston fuqarosi degan yuksak nomga munosib bo'lish kabi mas'uliyatlar taalluqlidir.

II. O'zbekiston yoshlari, fuqarolari tomonidan O'zbekiston manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mas'uliyatlarga esa Vatan qudratini oshirish va himoya qilish, Vatanni himoya qilish, umumiy harbiy xizmatni qonun asosida bajarish kabi mas'uliyatlar kiritiladi.

Mustaqillik sharoitida fuqarolar mas'uliyatining har bir shakli va sohasi yangi ma'no va mazmun kasb etib, hozirgi sharoitda har bir fuqaroming say-harakati, mehnati, intizomi, mulkka munosabati, tarixiy ma'naviy merosni asrab-avaylashi, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarda O'zbekiston yutuqlarini jahonda namoyon qilishi va obro'-e'tiborini himoya qilishi kabi mas'uliyatlar dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. 2016 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, ushbu qonunda O'zbekiston yoshlarida fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga yordam beradigan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, mafkuraviy immuniteti shakllangan, hayotga qat'iy ishonch va qarashlari qaror topgan inson qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish masalasi ham muhim o'rinn tutadi. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarda sog'lom

turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlarni sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish ham davlatning yoshlarga oid olib borayotgan siyosatida muhim o'rinn tutadi.

Hozirgi davrdagi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda yoshlarni hayotida qayta tiklanib borayotgan milliy qadriyatlar va an'analar bilan bir vaqtida xorijiy innovasion o'zgarishlarning kirib kelishi va islohotlarni yanada chuqurlashi natijasida paydo bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar tezlik bilan o'zgartirishga bo'lган talablarning paydo bo'lishi, yoshlarni ongidiagi ma'naviy va ruhiy yangilanishlarning shiddat bilan kechishi yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yemoqda. O'zbekistonning barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohada olib borilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini teran tushunib yetadigan, jamiyatning buguni va istiqboli uchun jon kuydiradigan, elim va yurtim deb yonib yashaydigan fidoyi, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularning g'oyaviy tarbiyasi, ijtimoiy-siyosiy bilimlari darajasini yuqori darajaga ko'tarish yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yoshlardan O'zbekiston aholisining katta va faol ijtimoiy qatlami bo'lib xisoblanadi. Yoshlarda faol fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish ularda mustaqil fikr, mustaqil ong, mustaqil qat'iyatni shakllantirish asosida amalga oshirilib, bu qat'iyat ularning hayotiy maqsadlarga intilishi asosida shakllanadi, mustahkamlanadi, ota-onasi, elu yurti, xalqi, hayot, tabiat, jamiyat va Vatan, dinu e'tiqodi oldidagi burchi va mas'uliyatini ifodalaydi, ularning oldidagi javobgarlik tuyg'usidan kelib chiqadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, milliy g'oya va mafkurani yoshlarning ongi va qalbiga singdirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash asosida amalga oshiriladi. "Milliy g'oyani yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish orqali ularda mafkuraviy immunitet hosil qilish davr talabi. Bu bir zumda, birpasda amalga oshadigan jarayon emas. Bunda har bir kishining faolligi, omilkorligi talab etiladi. Uning amalga oshirilishi esa O'zbekistonning salohiyatini yuksaltiradi, kelajagi buyuk davlat barpo etishga yordam beradi, odamlarimiz e'tiqodini mustahkamlaydi" [2].

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish masalasiga bo'lган e'tibor kuchayib bormoqda. Yoshlardan kuchli salohiyat va g'ayrat-shijoat sohiblari bo'lib, ana shu salohiyatni faqat Vatan ravnaqi, jamiyat manfaati, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun yo'naltirib borish qo'yilgan maqsadlarga erishishga zamin yaratadi. Yoshlarning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi faolligini oshirish, ularda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish jarayonida quyidagi mezonlarga asosisi e'tibor qaratiladi:

- yoshlardan o'rtaida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda yurt tinchligi, Vatan mustaqilligini mustahkamlashda faol qatnashish yoshlarni uchun vijdanan bajarilishi zarur bo'lган vazifa sifatida e'tirof etiladi. Yoshlardan fuqarolik mas'uliyati asosida yurt tinchligi, Vatan mustaqilligini mustahkamlashda faol qatnashishga da'vat etiladi;

- yoshlardan ongiga baynalmilalchilik, bag'rikenglik, o'zaro ishonch, milliy va diniy totuvlik, ijtimoiy hamkorlik tamoyillarini singdirish masalasiga e'tibor kuchaytiriladi;

- yoshlarda Vatan sarhadlarini himoya qilish, uning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi kurashish, o'zining ma'naviy va ma'rifiy salohiyati bilan "jaholatga qarshi ma'rifat" asosida Vatan ravnaqiga xizmat qilish ko'nikmalari shakllantiriladi;

- mahalla, oila, jamoat joylarida odamlarni, yoshi ulug'larni hurmat qilish, milliy qadriyatlarni e'zozlash, o'zbekona axloqqa zid bo'lган turli xatti-harakatlarni qilmaslik ko'nikmalari singdiriladi;

- jamiyatda uchraydigan korrupsiya, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik kabi illatlarga qarshi kurashish, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, tabiatni asrab-avaylashga oid tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ham yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish jarayoni davlat va jamoat, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy muassasalar orqali olib borilib, doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Jamiyat barqarorligini ta'minlash jarayonlarida yoshlarda fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy-siyosiy faollilikni yuksaltirish masalasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

- bugungi kunda inson qalbini egallashga qaratilgan salbiy g'oyaviy jarayonlarning mavjudligini, ularning yoshlarda loqaydlik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan bosh tortishga undashga yo'naltirilganligini hisobga olib, jamiyatda siyosiy targ'ibot ishlari uzlusizligini ta'minlash;

- yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlarda, ayniqsa, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalardagi ishtirokini kengaytirish, siyosiy ishtirok orqali yoshlarning jamiyat jarayonlariga ongli ravishda ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etish;

- yoshlarni jamiyatda “demokratiya darsxonalar” hisoblangan o’zini o’zi boshqarish organlaridagi ishtiroki orqali jamiyatda jamoatchilik nazoratini tashkillashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish, bu jarayonda oqsoqollar, keksa avlod tajribalariga suyanish;

- yoshlarning bevosita demokratiya jarayonlarida ya’ni jamiyat va davlat hayotining muhim masalalari hisoblangan saylovlar va referendumlarda faol va ongli ravishda ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- jamiyatda pluralizm, fikrlar xilma-xilligi, siyosiy hayotning rang-barangligi, mafkuraviy jarayonlarda ilg’or g’oyalarning mavjud bo’lishi kabi jarayonlarni tashkil etish va bu voqyelikda yoshlar jamiyat jarayonlarini tashkil etuvchi siyosiy kuch sifatida namoyon bo’lishiga erishish;

- jamiyatda yoshlarning ijtimoiy va siyosiy tashabbuskorligini oshirish, davlat va jamoat tashkilotlarida faol qatnashishi orqali jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda hal qiluvchi kuch sifatida ishtirok etish ko’nikmalarini shakllantirish;

- yoshlar ongida demokratik qadriyatlarini vujudga keltirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish, OAVlarini siyosiy targ’ibotning eng samarali va jiddiy mexanizmi sifatida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini kengaytirishdagi rolini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir [3].

Bugungi kunda O’zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur bo’lgan barcha sharoitlar yaratilib, yoshlar muammolari davlat siyosati darajasiga ko’tarilib, yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekistonda yoshlar tarbiyasida ta’lim va tarbiya uyg’unligi masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi O’zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish va rivojlantirish O’zbekistonda ijtimoiy barqarorlik, jamiyat taraqqiyoti va qo’lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarning muhim asosi bo’lib, milliy g’oya va mafkura asosida muayyan maqsadga yo’naltirilgan, jipslashgan yoshlarni tarbiyalash masalasi O’zbekistonda davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitusiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir //Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent, O’zbekiston, 2018 yil, 512 bet.

2. Ergashev I. va boshqalar. O’zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent, Ijod dunyosi, 2002 yil, 28 bet.

3. Saitqosimov A.I. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish jamiyat barqarorligining muhim mezoni // “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to’plami. Toshkent, 2019 yil, 192 bet.

UDK: 301(575.1)

IJTIMOIY XIZMAT PARADIGMALARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING KASBIY AHAMIYATI

D. A. Raxmonov¹, N. J. Nazarova²

¹O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

²Toshkent temir yo’l muhandislarasi instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy xizmat ko’rsatishning jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi fenomen sifatida turli paradigmalar asosida ma’lum bir ta’limotlar asosida vujudga kelganligi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy omillari mavjudligi, bozor iqtisodiyotining rivojanishi, fan va texnika yutuqlarining ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi natijasida ijtimoiy xizmat ko’rsatish sohasining tarmoqlashuvi, ijtimoiy xizmat ko’rsatish haqidagi tasavvurlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlar bilan bog’liq holda o’zgarib borishi ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: tizimli-ekologik, kommunikativ-rolli, institusional, funksional, etik-aksiologik, konsultativ, vital-mo’ljallash, evoxomologik, sinergetik, radikal-gumanistik, radikal-strukturaviy, interpretativ.

Парадигмы социальных услуг и профессиональная сущность их использования

Аннотация. В данной статье рассматривается появление социальных служб как одного из явлений, обеспечивающих развитие общества на основе различных парадигм, основанных на определенных доктринах, их социальных, экономических, культурных и правовых факторов, развития рыночной экономики, социальных и научных достижений. В результате его реализации происходит разветвление сектора социальных услуг, изменения в восприятии социальных услуг по отношению к социальным процессам в обществе.

Ключевые слова: системно-экологическая, коммуникативно-ролевая, институциональная, функциональная, этико-аксиологическая, консультативная, витально-планировочная, эвохомологическая, синергетическая, радикально-гуманистическая, радикально-структурная, интерпретативная.

Paradigms of social services and the professional essence of their use

Abstract. This article considers the emergence of social services as one of the phenomena that ensure the development of society based on various paradigms based on certain doctrines, their social, economic, cultural and legal factors, the development of a market economy, social and scientific achievements. As a result of its implementation, there is a branching of the social services sector, changes in the perception of social services in relation to social processes in society.

Keywords: systemic-ecological, communicative-role, institutional, functional, ethical-axiological, advisory, vital planning, evohomologic, synergistic, radical humanistic, radical structural, interpretative

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy xizmat tizimi borasida ulkan amaliy tajriba to'plangan. Ijtimoiy xizmat tizimi rivoji ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy omillar hamda jamiyat hayotida mavjud realliklar bilan bog'liq bo'lgan turli ko'rinishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy muammolar hamda jismoniy sog'liqning yo'qolishi natijasida dolzarblashib boradi. Shu bois, ijtimoiy xizmat sohasi bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratilib, dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham keng darajada o'rGANilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ijtimoiy xizmat tizimi rivojlantirishda xalqaro e'tirof etilgan paradigmalarini tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi fenomenlardan biri sifatida turli paradigmalar ma'lum bir g'oyaviy va ilmiy-falsafiy ta'limotlar asosida vujudga kelgan. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, fan va texnika yutuqlarining ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi natijasida ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlashtirildi. Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy xizmat ko'rsatish haqidagi tasavvur jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ma'nnaviy va ma'rifiy asoslarga ega. Shu bois uni tadqiq va tahlil etish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy xizmatning faoliyat sifatida ilk ko'rinishi go'daklarning rivojlanishi, keksalarni moslashuvchanligini ta'minlash hamda turli xil darajadagi nogironlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ular haqida qayg'urish shakllarida namoyon bo'lib, dunyoning rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan quyidagi paradigmalar: funksional, radikal-gumanistik, radikal-strukturaviy, interpretativ, evoxomologik kabilar asosida tahlil etishdan iborat.

Mazkur jarayonda retrospektiv va qiyosiy tahlil, faoliyat mahsulini o'rGANish, kuzatuv, hujjalarni o'rGANish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ijtimoiy xizmat paradigmalarining nazariy metodologik masalalari tashkil etadi.

Madaniy sivilizatsiya dialektikasi shundan dalolat beradiki, jamiyat hayotida qadimdan ijtimoiy xizmat ko'rsatishning turli ko'rinishlari mavjud bo'lgan. Bunda, madaniy, jamoaviy va an'anaviy kabi ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlarini keltirib o'tish mumkin.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayoni insonga xos faoliyat turi hisoblanib, uning zamirida ma'nnaviy-kognitiv konseptlar ifodalangandir. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish hayotiy turli ko'rinishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy muammolar hamda jismoniy sog'liqning yo'qolishi natijasida dolzarblashib boradi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish bevosita ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Bu borada Prezident SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi» [1].

Ijtimoiy xizmat ijtimoiy institut sifatida insonlar hayotining mazmunli kechishini ta'minlab, ehtiyojni (talabni) qondirish natijasida vujudga kelgan. Ijtimoiy xizmatning tarixi umuman olganda etnogenetik muammolar bilan bog'liq bo'lib, immanent mazmunga egadir. Faylasuf olma

N.Musayevaning ta'kidlashicha, «Ijtimoiy xizmat tarixiy-epistemologik» mazmun kasb etib [2.10-22], individual sha'n, shaxsiy potensialni (imkoniyatni) dolzarblashuvi bilan bog'liqdir. Bu o'rinda, «Ijtimoiy falsafa» ijtimoiy xizmat uchun fan tarmog'i sifatida «metodologik», «gnoseologik» va «prognostik» vazifalarni bajaradi [2.30-31].

«Jahondagi barcha elat va xalqlar ancha murakkab etnik jarayonni boshdan kechirganlar. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr davomida turli elatlari bilan aloqada, ba'zan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o'ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida shakllanib kelgan» [3.10]. Ana shu tarixiy davr davomida ijtimoiy xizmatning ayrim jihatlari shakllana borgan.

Ijtimoiy xizmat mintaqaviy jihatdan ham rivojlanish bosqichlariga ega bo'lishi mumkin. Ijtimoiy xizmatni ilk ko'rinishidan to institusional mazmun kasb etishigacha bo'lgan davrini sharthi ravishda to'rt bosqichga: «Yaqin kishilariga g'amxurlik ko'rsatish bosqichi», «Jismoniy va ruhiy jihatlardan nogiron bo'lganlar, keksalar, yosh bolalar va onalarga amaliy yordam ko'rsatish bosqichi», «Boquvchisini yo'qotganlarga yordam ko'rsatish bosqichi», «Mehnat bozoriga ijtimoiy xizmatni mehnat turi sifatida kirib kelish bosqichi»ga ajratish mumkin. Bosqichlarning tasnifi ijtimoiy xizmatning institusional shakllanishini asoslab berish uchun xizmat qiladi. Shu tariqa ijtimoiy xizmatning turli paradigmalari vujudga kelgan [4.22]. Ularning mazmun va mohiyatini anglash uchun, ijtimoiy xizmatga doir ta'limotlar nazariy tahlilini amalga oshirish lozim.

AQSH va G'arbiy Yevropada strukturaviy yondashuv doirasida quyidagi paradigmalar vujudga kelgan: funktsional; radikal-gumanistik; radikal-strukturaviy; interpretativ [2.36]. Va har bir paradigma aniq ta'limotning bosh g'oyasi asosida vujudga kelib, ijtimoiy borliqning talablari bo'yicha rivojlangan.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning falsafiy-psixologik asoslarini o'rgangan K.Yakubenko esa Rossiya Federatsiyasida o'tgan asr davomida amal qilgan ijtimoiy xizmatda ko'pfunksionallik va universalik kuzatilib, u ko'proq sintetik yondashuv asosida ishlagan deb ko'rsatgan [4.22]. Vaholanki, sintetik yondashuv ijtimoiy psixologik maktab doirasida, diagnostik va funksional matablarning negizida vujudga kelgan [5.9].

«Ijtimoiy xizmatning shakllanishiga aholi joylashishi, uy qurilishi va jihozlash an'analari, milliy kiyim-kechak, pazandachilik va mehmonnavozlik, ijtimoiy va oilaviy-maishiy turmush tarzi kabi omillar qatori ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar kechishini ham alohida ko'rsatib o'tish mumkin» [6.20-23]. Rivojlanayotgan davlatlar siyosatida taraqqiyot modelini tanlashda demokratik taraqqiyot tamoyillarini inkor etmagan holda milliy taraqqiyot konsepsiyasini ham puxta ishlab chiqish hollari ro'y berayapti. ...Milliy taraqqiyot yo'li qonuniyatlarini to'laqonli boshdan o'tkazib shakllangan millatda esa, qonuniy ravishda ozodlik, tenglik, adolat haqidagi ideallar, qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladi [7.483]. R.Ro'ziyeva «...qadriyat subyektiv faoliyat sifatida tushuncha, kategoriya, gnoseologik tajriba mahsuli, ong, aqlo idrokka oid fenomendir. Qadriyatning mazkur subyektiv, gnoseologik xususiyati, belgilari, genezisi uning ontologik asosini rad etmaydi. Bu ontologik asosning qadrlari yoki qadrsiz, qadriyat yoki istagan bir so'z, tushuncha ekanini inson ongi, aqlo idroki, gnoseologik tajribasiga muvofiq belgilaydi. Shu nuqtai nazardan qadriyat insonning obyektiv borliqqa sensitiv-kognitiv munosabati, affektiv bahosi, gnoseologik izlanishlari, tajribasi mahsulidir [8.56]-deya ta'kidlaydi. Shunga ko'ra ijtimoiy xizmat ko'rsatishda qadriyatlar asosida quyidagi paradigmalar vujudga kelgan: tizimli-ekologik; kommunikativ-rolli; institusional; funksional; etik-aksiologik; mafkuraviy; konsultativ; vital-mo'ljallah; evojomologik; sinergetik va boshqalar.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish manzilligiga qarab individual ijtimoiy xizmat, kichik ijtimoiy guruhlarda, guruh bilan ijtimoiy xizmat shakllarida olib boriladi. «Ushbu ishlarni amalga oshirishda bir qator iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yetishmovchiliklarning, ziddiyatlarning bo'lishi aniq. Ana shu yetishmovchilik va ziddiyatlar mamlakatimizda yashayotgan ba'zi bir irodasi sust, e'tiqodi yo'q odamlarni axloqiy va estetik tanazzulga duchor etishi mumkin» [9.305]. Shunga ko'ra, bugungi kunda ijtimoiy xizmatning inqirozli konsepsiysi (inqirozli vaziyatlarda ijtimoiy xizmat olib borish texnologiyasi) ham shakllanayapdi. Mazkur konsepsiya asosida ijtimoiy xizmatda «inqirozli intervensiya» tushunchasi kiritildi. Bu tushuncha alohida inson yoki gurujni emotsional, ma'naviy, ekzistensial va axborot jihatlaridan qo'llashni nazarda tutadi.

Aslida ijtimoiy xizmatning faoliyat sifatida ilk ko'rinishi go'daklarning rivojlanishi, keksalarni moslashuvchanligini ta'minlash hamda turli xil darajadagi nogironlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ular haqida qayg'urish shakllarida namoyon bo'lgan. Bu jarayon tarixiy davr o'tishi bilan madaniylashib, sanoatning rivojlanishi, fan va texnika yutuqlarining ijtimoiy hayotga shiddat bilan kirib kelishi natijasida ilmiylik tusini olib, tibbiyot, psixologiya, fiziologiya, filologiya, sotsiologiya kabi fanlarda inson hayot-faoliyatiga

bag‘ishlangan kashfiyotlarning hosilasi sifatida mustaqil tarzda rivojlandi. Shu tariqa mamlakatimizda ham ijtimoiy xizmatning **funktional-madaniy paradigmasi** vujudga keldi.

Uning zamirida ijtimoiy madad ko‘rsatish, himoyalash, turmush tarzi va mohiyatini qadriyatlar, an‘analarga amal qilish mazmunida anglashni ta‘minlashdan iborat. Shu sababli, aholiga amaliy yordam ko‘rsatish tizimida ijtimoiy xizmat kasbiy xodimlariga talab oshib bormoqda. Bu birinchidan, ijtimoiy hayot tarzini ta‘minlashda jamoatchilik nazorati ta’sir kuchi oshayotganligi bilan izohlansa, ikkinchidan, inson va uni manfaatlarini himoyalash institusionallashayotgani bilan bog‘liq. Ammo, rivojlangan mamlakatlarda bu bevosita inson individual hayot tarzining ilg‘orlashib borayotganligi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy xizmatning falsafiy, iqtisodiy, psixologik, sotsiologik, pedagogik, akmeologik, huquqiy, tibbiy asoslari mayjud bo‘lib, bugungi kunda unga oid bo‘lgan alohida ilmiy yondashuvlar vujudga kelgan. «Ijtimoiy-faoliyatli paradigma»; «Madaniy-sivilizatsion paradigma»; «Individual-shaxsiy paradigma» kabilar shular jumlasidandir. Ilmiy-nazariy jihatdan ularning kategorik-terminologik apparati yaratilgan bo‘lib, ular obyektini inson va uning hayot-faoliyati qamrab oladi.

Ijtimoiy xizmat nazariyasining yaratilishi ham shu tariqa yuzaga kelib, bunda Kurt Levin [10], Jorj Xoumans [11.46-61] va Lev Zanderlar [12] yaratgan konsepsiylar alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xizmat texnologiyasi tasnifi ijtimoiy xizmat nazariyasi va amaliyoti rivojining eng muhim jihatidir. Falsafa fanlari doktori P.Pavlenok bunday texnologiyalarning uchta muhim sohasini ko‘rsatib o‘tgan, ya’ni:

- umumiyl va xususiy;
- aholining turli guruuhlari;
- hayotning turli sohalari [13.23-26].

Bugungi kunda ijtimoiy xizmat amaliyotini yanada rivojlantirish uchun uni aniq ilmiy uslublar asosida o‘rganish lozim. Chunki ijtimoiy xizmat alohida faoliyat sifatida, avtonom tarzda amal qilishi uchun, uni ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, madaniy darajalarini belgilab olish zarur. Bu o‘z navbatida xorij amaliyoti, mintaqaga ijtimoiy xizmatining joriy holati va ehtiyojlarni o‘rganib, uning konseptual modelini yaratishni taqozo etadi. Chunki konseptual modelning mavjudligi ijtimoiy xizmat istiqboli, unga qo‘yiladigan talablarning o‘sishi, yechilishi ehtimol qilinadigan muammolar majmuasini o‘z vaqtida belgilab olish imkoniyatini yaratadi. Mazkur holat kasbiy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi takomillashuvi uchun xizmat qilib, soha xodimini imijini, unga qo‘yiladigan kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasini mukammallashtirish imkonini beradi.

Demokratik islohotlar davomida aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi «Ijtimoiy ish» - kasb darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizning oliy ta‘lim muassasalarida, «Ijtimoiy ish» ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ta‘lim falsafasi sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etmoqda. Uni falsafiy jihatdan tasniflash uchun alohida tadqiqotlar talab etmoqda. Ijtimoiy ish falsafasi «inson-jamiyat» hamda «inson-tevarak-atrof» muammolarini anglashda muhim, bunga muvofiq falsafiy bilim uchun «olam-odam» muammolarini ijtimoiy xizmat tarixida tizimlashtiruvchi hisoblanadi. Shu tariqa ijtimoiy ish falsafasi obyekтивlashib, uning asosiy vazifalalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ijtimoiy xizmat ontologiyasi muammolarini, uning gnoseologik masalalariga oid, ijtimoiy xizmat hosilasining shaxs ijtimoiylashuviga (resotsializatsiyasiga) ta’sirini o‘rganish hamda qadriyatlari haqida nazariy bilimlarni ishlab chiqish va tizimlashtirish;
- jamiyatda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish jarayonining ijtimoiy-falsafiy mezonlari, unga bog‘liq muammolar chegarasi, xarakterini aniqlash, muammolar yechimini belgilashda hamkorlik tizimi mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- ijtimoiy xizmat va siyosatga daxldor muammolar, yechimi va prognozini amalga oshirishning metodologik asoslarini yaratish;
- ijtimoiy xizmat xodimlari kasbiy dunyoqarashini shakllantirish, kasbiy faoliyat metodologiyasi, kasbiy sifatlar majmuasini yaratish, uni tatbiq etishning ilmiy asosi hamda kasbiy madaniyatni shakllantirish;
- ijtimoiy xizmatga aloqador sohalar va ular doirasidagi amaliy yordam majmuasini belgilash va boshqalar.

Ta’kidlash lozimki, ijtimoiy xizmatning institusional rivojlanishi uchun ijtimoiy yordam oluvchilarini individual shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish zarur va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish soha mutaxassislarini tayyorlashda tizimli tarzda yondashishni taqozo etadi. Ta’kidlanishicha, «Odamlar ko‘proq «ideal»larga emas, aksincha, kundalik maishiy turmush talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fikrlaydilar. Shunga qarab o‘z faoliyatlariga, boshqalarga baho beradilar yoki shunday baholashga urinadilar» [14.109]. Masalan, amaliy yordam ko‘rsatishda ideal «Men» va joriy «Men» orasidagi hamda subyektda «Istayman - qo‘limdan kelmaydi» va «Istamayman - birovning yordamiga doimiy tarzda zarurat

sezaman» kabi tasavvurlar asosida yuzaga keladigan nizolar uchraydi. Bu turdagи nizo shaxsiy darajada yuzaga kelib, shaxslararo mazmun kasb etishi mumkin. Shu bilan birga inson organizmining harakatlanishi quyidagi dinamik faollikni qamrab olganligini masalaga alohida tayyorgarlik asosida yondashishni taqozo etadi:

- tenglashtirish jarayoni (organizmda kuch-quvvatni teng taqsimlash);
- muhimlikni ta'minlash jarayoni (ijodiylik inson organizmining asosiy motivi sifatida);
- muhit bilan murosaga kelish jarayoni (organizm, o'z talablariga mos tushadigan muhitni izlashi)

va h.k.

Bu holatda ijtimoiy xizmatning maqsadi shaxs desotsializatsiyasini nisbatan kamaytirishdan iborat bo'ladi va bu mazmuniga ko'ra psixokorreksiya o'tkazish faoliyatini bilan bog'liq hodisadir.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish doirasida birlamchi yordam muammoning xarakteri, vaziyati, yordam ko'rsatish turi, vaqt va joyini inobatga olgan tarzda ko'rsatiladi. Yordam ko'rsatish jarayonida salbiy ta'sirli omillar qarshiligi kuzatiladi, bunda quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi: nochorlik hissini yuqori darajada ifodalanganligini; ijtimoiy yordam olishga ehtiyojmandning o'lim bilan «yuzlashgan»ligini; tanada qattiq jismoniy shikastlarni kuzatilishini; vafot etgan insonga o'zini o'xshatishini; jismoniy yoki psixologik yetuk bo'limganligini; ijtimoiy aloqalar doirasining torligini; mavhumlik holati hukmronligini; shaxsiy va oilaviy yo'qotishlarni; ijtimoiy yordam oluvchi yaqinlarining patologik reaksiysi.

Bunday holatlarda amaliy yordam bilan birga psixologik ta'sir ko'rsatish lozim bo'ladi. Chunki ishontirish, tushuntirish, chalg'itish, ruhlantirish, ehtirom ko'rsatish amaliy yordam beruvchidan psixologik bilimlarni talab etadi.

Xulosa. Demak, ijtimoiy xizmat paradigmalari va ulardan foydalanishning kasbiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning bir qator paradigmalari mavjud bo'lib, ular aniq ilmiy-falsafiy ta'limat asosida yaratilgan. Bunga, funksional-madaniy, etik-aksiologik, evoxomologik, vitalmo'ljalga olish paradigmasi kabilarni misol keltirib, bizning sharoitimizga ularni moslashtirmasdan, aynan qo'llab bo'lmaydi;

ikkinchidan, ijtimoiy xizmat mazmun-mohiyati, vazifalar ko'لامи hamda bevosa tegishlilik darajasi bilan farqlanib, ijtimoiy xizmat psixologiyasi, pedagogikasi, meditsinasi kabilarning nazariy asosini takomillashtirish uchun xizmat qiladi;

uchinchidan, ijtimoiy xizmat falsafasi shakllanish bosqichida, asosiy kategoriyalari belgilab olingan bo'lsada, amal qilish doirasi yetaricha asoslanmagan. Buning sababi sohaning psixologik, kasbiy-axloqiy va ma'naviy kabi qator qirralari bugungi kunga qadar bog'liqlik jihatidan tasnif etilmaganligida;

to'rtinchidan, ijtimoiy xizmatning funksional-madaniy paradigmasi, etnomadaniyat tamoyillariga amal qilgan holda, turli sohalarda ijtimoiy yordam ko'rsatish amaliyotini ta'minlash uchun maqbul hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Мусаева Н.К. Социальная работа как объект философского анализа. Дис. ... канд. филос. наук. – Бишкек: Институт философии и политики-правовых исследований, 2012. – 182 с.
3. Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти (Этномаданий лавҳалар). – Тошкент: Ўқитувчи, 2003.– 208 б.
4. Якубенко К.Ю. Современные отечественные и зарубежные парадигмы социальной работы: социологический анализ. Автореф. дис. ... канд. соц. наук. – М., 2003. - 22 с.
5. Konopka G. Social Group work: A Helping Process. –N.Y.: Prentice-Hall, 1963. – 236 р.
6. Самаров Р. Ижтимоий иш назарияси ва амалиётининг илмий-назарий асослари // Замонавий таълим. – Тошкент, 2013, 7-сон.-Б. 20-23.
7. Мадаева Ш.О. Цивилизацион жамият тараққиётида «миллат» ва «демократия» тушунчалари симбиози // Цивилизация келажаги: фалсафий ёндашув. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. I қисм.- Тошкент: Noshir, 2012.- Б.481-484.
8. Рўзиева Р.Х. Жамиятнинг маънавий янгиланишида миллий ва умумinsonий қадриятлар йўнунилигини шакллантириш масалалари. Фалс. фан. докт. ... дис. – Тошкент: ЎзМУ, 2012. –Б.56.
9. Нурматова М.А. Ҳозирги даврда қадрланиш ва қадрсизланиш муамmosи // Цивилизация келажаги: фалсафий ёндашув. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. I қисм.- Тошкент: Noshir, 2012.- Б.301-306.

10. Левин К. Теория поля в социальных наук – www.klex.ru/epo
11. Хоманс Дж. Возвращение к человеку //Американская социологическая мысль / Под ред. В.И.Добренькова. -Москва, 1994. - С. 46-61.
12. Зандер Л.А. Бог и мир (Мироизречение отца Сергея Булгакова). В 2-х тт. – Париж, 1948. – www.odinblago.ru/bog_i_mir
13. Павленок Т.Д. Некоторые методологические вопросы состояния и развития теории и практики социальной работы // Социальные технологии, исследования. – Москва, 2007, №6. - С. 23-26.
14. Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. Монография. –Тошкент: Akademiya, 2011.- 144 б.

UDK: 004.056**VIRTUAL REALLIKNING ILMIY-FALSAFIY TAHLILI****A.N.Sanaqulov***Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

Annotatsiya. Maqolada axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari, virtual reallikni namoyon bo‘lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholashning strategik ma’no-mazmuni, virtuallikni tadqiq etishning yo’nalishlari, virtual reallikning insoniyat uchun ta’siri hamda inson hayotini tashkil qilish va tartibga solishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, axborot jamiyatni taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy institular transformatsiyasi, onlayn birlashmalar rivoji va ularning an’anaviy birlashmalar bilan hamkorligi, ijtimoiy kommunikatsiya tizimi o‘zgarishiga Internet tarmog‘i rivoji va ta’siri hamda zamonaviy ta’lim transformatsiyasi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: axborotlashgan jamiyat, Internet, virtual reallik, raqamli texnologiya, transformatsiya, ijtimoiy institut, elektron hukumat.

Научно-философский анализ виртуальной реальности

Аннотация. В статье проанализированы перспективы использования возможностей современных виртуальных технологий в информационной системе общества, стратегическое значение социально-философской оценки индикаторов проявления виртуальной реальности, направления исследований виртуальности, влияние виртуальной реальности на человечество и ее значение в организации и регулировании жизни человека. Также исследованы трансформация социальных институтов в условиях развития информационного общества, развитие онлайн-объединений и их сотрудничество с традиционными объединениями, развитие и влияние сети Интернет на изменение системы социальных коммуникаций, а также трансформация современного образования.

Ключевые слова: информационное общество, интернет, виртуальная реальность, цифровые технологии, трансформация, социальный институт, электронное правительство.

Scientific and philosophical analysis of virtual reality

Abstract. The article analyzes the prospects for using the capabilities of modern virtual technologies in the information system of society, the strategic importance of socio-philosophical evaluation of indicators of virtual reality manifestation, the direction of research on virtuality, the impact of virtual reality on humanity and its significance in the organization and regulation of human life. The transformation of social institutions in the context of the development of the information society, the development of online associations and their cooperation with traditional associations, the development and impact of the Internet on changing the system of social communications, as well as the transformation of modern education are also studied.

Key words: information society, Internet, virtual reality, digital technologies, transformation, social institution, e-government.

Jahon axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu mavzu allaqachon, virtual reallikni yuzaga keltirgan – kibernetika sohasi chegarasidan tashqariga chiqib, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga chuqur kirib bordi va ijtimoiy-falsafa, psixologiya va madaniyat falsafasi sohasidagi tadqiqotlarni asosiy o‘rganish ob’yektiga aylandi. Ayniqsa, bugungi kunda rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyatda shakllanayotgan yangi virtual madaniyat va uning o‘ziga xos

xususiyatlaridan tortib, to uning virtual reallikda mavjud bo‘lish oqibatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatda virtual reallikning namoyon bo‘lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholash strategik ma’no-mazmunga ega.

Dunyo amaliyotida bugungi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy qilinayotganligi inson faoliyatining virtuallashuvi bilan bilan xarakterlanadi. Chunki, axborotlashgan jamiyat asoschilaridan hisoblangan M.Kastels to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «zamonaviy olam asosini «tarmoqli» tuzilmalar tashkil qiladi» [1]. Darhaqiqat, hozirgi jamiyatda aynan global tarmoq orqali turli ijtimoiy institutlar, tuzulmalar va birlashmalar shakllanishiga keng shart-sharoit yaratib berilmoqda. Bizga ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonuniyatlaridan ma’lumki, har bir texnikaviy kashfiyot va yutuqlar, o‘zidan oldin rivojlangan ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar bilan tobora mustahkamlanib boraveradi. Hozirda bunday ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish global o‘zgarishlar sharoitida lokal madaniyatlar identikligini saqlab qolishga intilayotgan bir vaqtida ayniqlas ahamiyatlidir. Bundan tashqari, axborotlashgan jamiyatda shakllangan ba’zi salbiy tendentsiyalar shaxslar ayniqlas yoshlar o‘rtasida ijtimoiy begonalashuv holatlarini keskin ortishiga olib kelmoqda. Sababi esa turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida aksariyat odamlarning zaruriy ish bilan ta’minlanmaganligi yoki ularning real dunyo qiyinchiligidan «osongina» voz kechib ketayotganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqlas virtual olamda hali dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan yoshlar shuningdek o‘z qat’iy fikri pozitsiyasiga ega bo‘lmagan kishilarni o‘z domiga tortib ketadigan g‘ayritabiyy kuchga ega bo‘lgan g‘oyaviy-mafkuraviy oqimlar ta’sirining kuzatilayotganligi bu muammoni o‘rganish qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shu boisdan ham bunday virtual tahdidlarni oldini olish yoki bartaraf etish maqsadida «Biz mamlakatimizda investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar «nou-xau»lar sohasiga ham keng jalg qilishimiz kerak» [2] ligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Axborotlashgan jamiyat rivojining asosiy omili media madaniyat bo‘lib, u o‘z ichiga ekran madaniyati (kino, televiedenie, multimedia, kompyuter texnologiyalari, Internet va hok.)ni qamrab oladi. Ekran madaniyati evolyutsiyasi kinodan tortib Internetgacha muntazam ravishda yangilanuvchi va o‘zgaruvchi, har biri yanada individual, realistik va interaktiv bo‘lib boruvchi vizual texnik vositalar majmuasiga asoslanadi. XX asr oxiri - XXI asrda bo‘lgan axborot portlashi yangi axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z navbatida yangicha virtual reallik, inson mavjud bo‘ladigan yangi makonning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Virtual ma’lumotlarni uzatish texnologiyalari teleradioeshitirishlar orasida uning ustun jihatni, internet axborotni uzatibgina qo‘ymay, shaxslararo, guruhlararo va individual kommunikatsiya quroli sifatida ham xizmat qiladi. Bundan tashqari axborot to’plash jarayoni mexanizmlarni takomillashtirish, saqlash va uzatish jarayoni bilan parallel ravishda tobora rivojlanib boraveradi. Bu jarayon esa o‘z navbatida jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy hayoti, ta’lim va tarbiya tizimida turli darajadagi muammolarni hal etish zaruratinini paydo qiladi.

Jahon axborotlashgan jamiyatining yuksalishi yangi texnologik inqilob natijasidir. Axborotlashgan jamiyat haqiqiy bilimlar jamiyatini amalga oshirishda muhim vosita ekanligini unutmasligimiz kerak. Shu boisdan ham faqat internetning rivojlanishi bilimlar jamiyatining poydevori bo‘lishi mumkin emas. Umuman olganda, axborot sotib olinishi va sotilishi mumkin bo‘lgan tovar hisoblanadi. Yangi texnologik inqilob odamlarga bilimlarni misli ko‘rilmagan darajada egallahsga va inson qobiliyatini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor berishga imkon berdi. Amartya Senning fikricha, inson rivojlanishi asosiy erkinliklarga intilishdan iborat, ya’ni erkinlik faqat qonun bilan belgilanib qolmasdan tajriba bilan tasdiqlanishi muhim. Bunday erkinlik inson rivojlanishining maqsadi va vazifasidir. Bunday erkinliklar jumlasiga ayollar uchun ta’lim olish, mehnat bozoriga kirish, tibbiy va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan bahramand bo‘lish, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish, mavjud axborotlardan teng foydalanish va jamoaviy xavfsizlik va boshqalarni kiritish mumkin.

Bilim nuqtai nazaridan har bir jamiyat o‘z afzalliklariga ega. Shu sababli, turli xil jamiyatlarda allaqachon mavjud bo‘lgan bilimlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga harakat qilish kerak. «Axborot jamiyat» tushunchasi texnologik taraqqiyotga asoslanadi. «Bilimlar jamiyat» tushunchasi esa kengroq ijtimoiy, axloqiy va siyosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shubhasiz, «bilimlar jamiyat» atamasini ko‘plikni ishlatalish tasodifiy emas: bu madaniy va lingvistik xilma-xillikni to‘liq aks ettirish uchun yetarlidir. Bugungi axborotlashgan jamiyatdagi tub o‘zgarishlar sharotida har kim o‘z yo‘lini faqat oqilona bilimga ega bo‘lish orqaligina topishi mumkin. Chunki aynan har qanday jamiyatni qurish jarayonida bilimlar va madaniy shakllar har doim xilma-xil bo‘lib, ular zamonaviy ilm-fan va texnika taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

«Postindustrial jamiyatning paydo bo‘lishi» kitobida Daniel Bell birinchi bo‘lib insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan ijtimoiy resurslar strategik o‘zgarishga duchor bo‘lganligini aytadi. Sanoat jamiyatida strategik resurslar kapital va mehnat bo‘lgan bo‘lsa, kelajakdagil jamiyatda esa eng muhim strategik manbalar bular axborot va bilimdan iborat bo‘ladi. U bu haqida shunday deb yozadi: «Keng

ma'noda aytganda, agar sanoat jamiyat mashinasozlik texnologiyasiga asoslangan bo'lsa, postsanoat jamiyat bilim va texnologiyalar asosida shakllanadi. Agar kapital va ishchi kuchi sanoat jamiyatining asosiy tarkibiy xususiyatlarini tashkil etgan bo'lsa, u holda ma'lumot va bilimlar postindindial jamiyatning asosiy tarkibiy xususiyatlarini o'zida ifodalaydi. Shu boisdan ham M.N.Normamatova «Virtualistik bilimda har bir epistemologik qatlam attraktor rolini o'ynab, tadqiqotning kontseptual va tajribaviy tavsiflarini o'ziga tortadi, komleks bilim tuzilmalari hosil bo'ladi. Virtualistik bilimning qayd etilgan xislatlari unda postnoklassik epistemologik tuzilmaning shakllanib borishidan dalolat beradi» [3] deb ta'kidlaydi.

Bilimlar jamiyatining asosini «inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni yaratish va qo'llash uchun axborotni aniqlash, ishlab chiqarish, qayta ishlash, o'zgartirish, tarqatish va undan foydalanish qobiliyati tashkil etadi». Inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlar avtonomiyaiga mos keladigan ijtimoiy nuqtai-nazarga asoslanadi. Jamiyatning bu tushunchasi pluralizm, integratsiya, o'zaro yordam va ishtirok tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. Boshqacha qilib aytganda, jahon axborot jamiyat bilimlar jamiyatining sakrashini va «inson huquqlariga asoslangan inson taraqqiyotini» qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Ushbu maqsad ayniqsa muhimdir, ayniqsa uchinchi sanoat inqilobi, yangi texnologiya inqilobi va globallashuvning keyingi bosqichi ko'plab standartlarni tubdan o'zgartirib tashladi. Bu holat esa boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yanada oshirdi. Axborotlashgan jamiyat tushunchasining o'zagini «axborot» tashkil etadi. Axborot nima?, axborotning mohiyati nima?. Bu bugungi kunda boshqa soha vakillari qatori faylasuflar o'rganishi kerak bo'lgan asosiy muammoga aylandi. Aksariyat olimlarning «axborot» tushunchasi bilan bog'liq falsafiy qarashlari Shannonning axborot nazariyasi bilan emas, balki Vinner kibernetikasi bilan bog'liq holda tushuntirib o'tiladi.

Zamonaviy davr yuqori va raqamli texnologiyalarga asoslangan global mediamuhitni tashkil qiluvchi axborotlashgan davr deb qo'llab kelmoqdamiz, bu hayotimizning har bir jabhasida o'zini aksini namoyon qilib kelmoqda. Natijada, hozirda raqamli iqtisodiyot va unga asoslangan boshqaruva usullarining amaliyotda keng qo'llanilishi jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillardan biriga aylandi. Rivojlangan davlatlarning yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyotning ulushi 2010 yilda 1,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 5,5 foizni tashkil etdi [4].

Bugun futurolog E.Toffler XX asr oxirida yangi jamiyat obrazni: «boylik yoki zo'ravonlikka emas, axborot hosil qiladigan intellekt va bilimga asoslanadi» degan fikriga hech birimiz qarshi chiqsa olmaymiz [5]. Demak zamonamizning o'ziga xos jihatni axborot hukmronligi, media hukmronligidir. Tadqiqotlardan bilish mumkinki virtuallik muammo birinchi navbatda XX asr oxirida postmodernistlar tadqiqotlarida ilmiy nazariy jihatdan asoslashga, ilmiy-texnik taraqqiyotni madaniyat bilan to'qnashuvini xarakterlarshga harakat qilgan. Boshqa tomondan esa mazkur muammo doirasining kengayishi axborot jamiyatni nazariyasi rivoji bilan bog'liq, qaysiga ko'ra virtuallik zamonaviylikning asosiy va hal qiluvchi xususiyati sifatida ta'riflanadi. Virtuallikni nazariy tadqiq etishning turli yo'nalishlari belgilanib olindi. Bunday klassifikatsiyalash asosiga ikki ontologiya: reallik va virtuallikni kontseptsiyalar nisbatiga ko'ra tadqiq etish belgilanib olindi. Shunday qilib uch yo'nalish belgilandi. Birinchidan, bu virtuallik fenomenini zamonaviyligi va uniing texnogen tabiatini alohida o'rganilgan – virtual reallik, virtuallashuv nazariyalari, shuningdek shu mavzu doirasidagi postmodernistik nazariyalar. Bunday tadqiqotlarga xos bo'lgan umumiyyat jihat virtuallik va reallikni qarama-qarshi qo'yilishi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, bu yondashuv anchayin keng va atroficha tasvirlangan falsafiy an'anaga aylangan.

Virtual reallik bu reallikdir. OAV «virtual» tushunchasi ko'pincha «o'ylab topilgan», «haqiqatda mavjud bo'lмаган» ma'nolarda qo'llaniladi. Biroq ilmiy diskursda «virtuallik» reallikning bir turi sifatida qabul qilina boshlangan. «Bugungi kunlarda ko'p gapirilayotgan virtual reallik, - bu biz vaqtı-vaqtı bilan kirib turadigan boshqa reallik emas, balki biz haqiqatdan ham yashayotgan reallikdir.

Virtual reallik atamasining ilk bosqichlarida panorama tushinilib kelingan. Panorama – grekcha ko'rish maydoni degan ma'noni anglatadi. Panoramaning turli shakllari mavjud bo'lib, ular: chizilgan, shakllantirilgan, tasvirga olingan va video-film ko'rinishidagi turlaridir. Axborot texnologiyalarida panorama 360 gradus burchak ostidagi ko'rish imkoniyatiga ega tasvir tushuniladi. Virtual reallikning insoniyat uchun ta'siri inson hayotini tashkil qilish va tartibga solishda, insonlar o'rtasidagi aloqaning yangi shaklini yaratishda, jamiyat hayotining asosiy sohalari siyosat, iqtisod, san'at va turizm sohalariga ijobjiy ta'sirini oshirish va boshqalarda yorqin namoyon bo'ladi.

Virtuallik voqe'likda mavjud bo'lмаган ob'yekt yoki holat, haqiqatda yo'q ammo ma'lum sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin. Virtuallikda bu sharoitlar turlicha yondashuvlarda amalga oshiriladi. Ontologik jihatdan qaraydigan bo'lsak, virtuallik borliqdagi ma'lum bir potentsial holat, undagi muayyan faol ibtidoning mavjudligi, muayyan sharoitlarda ayrim hodisalar yoki holatlarning yuzaga kelishiga moyillikni anglatishini bilib olamiz. Zamonaviy texnik vositalar yordamida virtual reallikka yanada

chuqurroq sho'ng'ishimiz ham mumkin, unda sub'ekt sifatida biz real va virtual olam narsa va hodisalarini bir-biridan ajratolmaymiz. Chunki bu olam insonga bevosita uning hissiyotlari orqali ta'sir qiladi.

Virtual reallik ongning muayyan bir holati bo'lgani uchun ob'yekтив reallikdan, shu jumladan bizning kundalik hayotimizdan farqlanadi. Xuddi shunday virtual reallik texnologiyalari falsafa, psixologiya, estetika va umuman ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tadqiq etiladi. Shu nuqtai nazardan, hozirda virtual reallik texnologiyalari tadqiqi qilish, amal qilish mezonlarini aniqlash, bilish va amaliy faoliyatdagi roli, ehtimollik kategoriyasi bilan aloqadorligini, virtuallik tabiatini umuman universum va borliq xossalari bilan tushuntirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. B.V.Markovning fikricha, telekommunikatsion texnologiyalar transmilliy darajada demokratlashuv imkonini beradi [6]. Shuningdek, nokompyuterli virtuallashuv sohasida ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, xususan Rossiya fanlar akademiyasi Inson instituti qoshidagi Virtuallashuv Markazi tomonidan virtuallashuv psixologiyasi va ijod virtualligi kabi masalalar tadqiq etilib «Virtualistika manifesti» yaratilgan va yangi dunyoqarash tizimi sifatida taqdim etilgan bo'lib, uning asosida «olam virtualdir» g'oyasi yotadi. Manifestda shuningdek virtual reallikning asosiy xossalari aniqlangan bo'lib, ular quyidagilardir: o'zlashtirilganlik, faollik, avtonomlik, interfaollik. Yana bir rossiyalik olim V.Rudnev ham: «...har bir reallik virtualdir» g'oyasini qo'llab quvvatlaydi, chunki haqiqiy olam «insonlar ongi va ular tomonidan o'ylab topilgan diskurslar (g'oyadan tortib to dingacha va til o'yini sifatida tushuniluvchi hodisalar) ning virtual realligi bilan qorishib ketadi» [7].

Virtual realliking o'ziga xos ta'rifi S.S.Xorujiy maqolasida beriladi: «Virtual reallik, virtual hodisalar har doim qandaydir qisman ro'yobga chiqqan va nisbiy mavjudlik xususiyatiga ega bo'lib, empirik reallikning u yoki bu hodisalari yetishmovchiligi yoki mavjud emasligi bilan xarakterlanadi (yuzaga keltiriladi U.J.)». Virtuallashuv hodisasiga bag'ishlangan fundamental tadqiqot D.V.Ivanovning «Jamiyat virtuallashuvi» monografiyasini hisoblanadi. Unda virtual reallik mantig'i real mavjud bo'lgan narsalar va hatti-harakatlar obrazlar – simulyatsiyalar bilan almashtirilishi sifatida yoritiladi. Muallif virtual reallikning uchta asosiy belgilarini ajratadi: nomoddiy ta'sir (tasvirlanayotgan narsa mavjud bo'lgan narsalar effektini hosil qiladi); parametrlerning shartliligi (ob'yektlari sun'iy va o'zgaruvchan); efemerlik (kirish/chiqish erkinligi bo'lib, ya'ni uzilish holatlari bo'lganda qayta mavjud bo'lish imkonini yaratadi). Shuningdek asarda muallif bir qancha muammolar yechimini taklif qiladi.

Birinchidan, «real/virtual» dixotomiyasini qo'llashga asos bo'lish uchun, ijtimoiy reallik genezisini kuzatish va tadqiq qilishi talab etiladi. Shu sababli jamiyat virtuallashuvining taklif etilayotgan kontseptsiyasi moderndan – postmoderngacha bo'lgan ijtimoiy reallik fenomenining jamiyat modernizatsiyasi va ijtimoiy reallikning paradoksal transformatsiyasi jarayonida ijtimoiy madaniy o'zgarishlar yuzaga kelishini tahlil qilish natijasida ayon bo'ladi.

Ikkinchidan, «reallikdan-virtuallikka» kabi ijtimoiy o'zgarishlar modelini yaratish uchunturli xil empirik hodisalarni umumlashtirish lozim. Bu masalaning yechimini XX-XXI asrlarda ro'y bergen jarayonldarga bag'ishlangan tadqiqotlar natijasida aniqlangan va taklif etilayotgan kontseptsiyalarning ijtimoiy yadrosini tashkil qilgan – virtuallashuv ijtimoiy o'zgarishlarning namunasi va yagona tamoyili berishi mumkin.

Uchinchidan, virtuallashuv kontseptsiyasining nazariy maqomini aniqlash uchun uni zamonaviy ijtimoiy-gumanitar sohada qo'llanilayotgan jamiyat transformatsiyasi modellari bilan solishtirib ko'rishi zarur. Biroq, muallif debocha qismida «taqdim qilinayotgan ishdagi jamiyat virtuallashuvi modeli ijtimoiy o'zgarishlar yangi nazariyäsining qoralama variant, eskizi sifatida berildi» deb ogohlantiradi. Demak, aytishimiz mumkinki virtual reallik va virtuallashuvi mexanizmlarining ontologik tabiatni zamonaviy ilmiy olamda hamon tushunish va anglash jarayonida ketmoqda. Tadqiqotlarning asosiy qismi esa elektron virtual reallik doirasida amal qilib, tadqiqotchilar bu jarayon borasida, ya'ni jamiyat transformatsiyasining yangicha ko'rinishi uning «virtuallashuv»i haqida gapirganda asosan Internet tarmog'i makoni bilan bog'liq virtuallashuvni nazarda tutmoqda.

«Ekan»ga ommaviy ravishda sho'ng'ib ketish AKTga nisbatan tanqidiy qarashlar shakllanishiga olib keldi. Ko'pgina tadqiqotchilar frantsuz poststrukturalistlar, xususan J.Bodriyyar kabi yangi mediani moddiy reallik «simulyakr»lari sifatida, ya'ni individ hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi yoki R.Bart metodiga ko'ra «reallikni miflashtirishning semiotik tizimi» sifatida idrok qila boshladи. Biroq kompyuter texnologiyalar va Internetning zamonaviy madaniyatga va ijtimoiy-madaniy faoliyatga ta'sirini inkor qilib bo'lmaydi. Tarmoqdagi leksikon kundalik muomala madaniyatimizga singib bormoqda, internet-portallar moda va hayot tarzimizga, tashqi ko'rinishimiz va iste'mol madaniyatimizga yangi talablarni belgilamoqda. Virtual reallik haqiqiy reallikning o'mini bosmayapti, balki ular parallel ravishda mavjuddirlar. D.O.Usanova ta'kidlaganidek, «u, har doim ham tayyor mahsulot olish kabi maqsadni ko'zlovchi jismoni faoliyatimizdan farqlanib turadi, bu uning kundalik va pragmatik ahamiyatga urg'u bermasligini, aksincha

katta kuchni ijodga sarflovchi va shu nuqtai nazardan virtual madaniyatni yuqori darajali madaniyat sifatida xarakterlashimizga imkon beruvchi hodisadir» [8].

«Virtual reallik» istilohi, ayniqsa XXI asrda keng tarqalgan bo‘lib, anchayin noaniq tushuncha hisoblanadi. Masalan, D.V.Pivovarov uchun bu «u yoki bu amalga oshmagan yoki tabiiy ravishda amalga oshirilmaydigan fikriy ehtimollikning (abstrakt yoki konkret) belgi-grafik shaklda sun’iy amalga oshirilishi (yaratilishi)»[9]. S.L.Katrechko fikricha esa mazkur tushuncha bir necha ma’noda qo’lamilishi mumkin, ulardan asosiysi virtual olam «variativlik va beqarorligi bilan ajralib turuvchi» va «inson tomonidan yaratilgan jismoniy olamga aynan o‘xhash sun’iy olamdir». Shu nuqtai nazardan, «real vaqtida ma’lum (chegaralangan) vaqt mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday sun’iy (madaniy) olamni virtual deb atash mumkin» [10], - kitoblar, kinotasma, teatr spektakllari olami kabilarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

Virtuallik amerikalik sotsiolog M.Kastels ta’kidlashicha: «biz o‘ziga xos virtual hisoblanushi madaniy sharoitda yashamoqdamiz, chunki u elektronika bilan boshqariluvchi kommunikatsiyalarning virtual jarayonlariga asoslanadi». Aynan shu jihat axborot davri madaniyatini ajratib turadi: «biz asosan virtuallik orqali yaratgan ma’nolarni yuzaga chiqaramiz» [11].

Virtuallikni falsafiy madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan anglashda esa D.O.Usanova quyidagicha ta’rif beradi, «o‘qishning qo‘yidagi muhim variantlari dinamikasi sifatida taqqdim etilishi mumkin: 1) virtuallik o‘zga, mavjud bo‘lmagan borliq sifatida; 2) virtuallik bilinmagan (bilish amalga oshirilmagan) reallik»; 3) virtuallik utopiya sifatida – ideal reallik; 4) virtuallik individning sub’ektiv, ichki olami kechinmalariga asoslangan reallik; 5) virtuallik ishontiriluvchi, imitatsion (o‘ylab topilgan reallik); 6) virtuallik axborot-texnik makon – kibermakon: texnik vositalangan muhit, zamonaviy jamiyatning axborot resursi, madaniyatning mediya muhiti sifatida» [12].

Demak, g‘arblik olimlar virtuallikning asosi faqat texnologiyalar deb hisoblasha, rossiyalik olimlar qarashlari «sun’iy», «o‘ylab topilgan» belgi, obraz, timsollardan foydalananligi madaniy amaliyot olami, degan kontseptsiya bilan bog‘liq. «Virtual reallik», «virtual madaniyat» tushunchalarining ko‘pgina ilmiy talqinlari hamda mazkur masala bo‘yicha bahslar hamon davom etayotganligi sababli yangi ilmiy fan «virtualistika»ni vujudga kelishiga va inson faoliyatining turli sohalari: madaniyat, din, siyosat, fan va ta’limda virtuallashuv jarayonlarini kengroq tadqiq qilish uchun bo‘ldi.

Axborotlashgan jamiyatda axborot kommunikatsion texnologiyalar keng tarqalishi ijtimoiy madaniy maydon tarkibiy tuzilmasining tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahliliy tadqiqotlar bunday o‘zgarishlarni o‘rganishni ko‘zda tutadi. Shunday qilib, amerikalik tadqiqotchi F.Xemmit, virtual reallik manbalarini tadqiq qilar ekan, uning fikricha «virtuallahuv» fenomenining sababi bir qancha omillar bo‘lib, ular kinoning sintetik funksiyalarini takomillashtirishga asoslanadi. Tadqiqotchi tahminicha, keljak virtual reallik ortidadir, shu sababli mazkur soha bo‘yicha fundamental tadqiqotlarga zarurat tug‘iladi, shunchaki urfdagi tendentsiya sifatida emas haqiqatdan bu muammolarni o‘rganishga katta ehtiyoj yuzaga keladi. Uningcha, «kompyuter funksiyalari dasturiy ta’milot takomillashtirilishi natijasida mutlaqo o‘zgarishi mumkin» [13].

Bugungi kunda virtual makonning inson ijtimoiy-madaniy sohasini tobora qamrab olayotganini va yuqorida ilmiy farazning qanchalik haqiqiatga to‘g‘ri keliganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Bir tomonidan texnik ta’milot ijtimoiy-madaniy faoliyat uchun kerakli sharoit yaratib, kerakli qurollar bilan ta’milsa, boshqa tomonidan bunday qurollarning hammaga ochiqligi, soha mutaxassislari murojaat etilishiga zarurat qoldirmayapti. Masalan, biror tadbirning ijtimoiy tarmoqda sahifasini ochish albatta internet-auditoriyasida katta qiziqish uyg‘otishi mumkin. Biroq boshqa tomonidan, virtual olam tadbirga haqiqiatda borish ishtiyoqidagilarni ham o‘ziga jalb qiladi. Chunki bo‘layotgan har bir hodisani bormasdan, moliyaviy, emotSIONAL va jismoniy kuch sarflamasdan kuzatish ham mumkinku. F.Xemmit fikricha, virtual reallik «elektron axborot olamida inson amal qilishi uchun, «do’stona» funktsional-interaktiv interfeys asosida yaratilgan yo’nalish.

Virtual reallik sohasida ishslash oson va tezligiga ko‘ra afzal buning ustiga o‘yin xarakteriga ega» [14]. Bunda mashina bilan foydalanuvchining birligi, insonning virtual olamga «ko‘chishi», virtual ob‘yektlarning «haqiqiy reallik» kabi idrok etilishi, kompyuter hech narsa va hech kim o‘rnini bosa olmaydigan yordamchiga aylanishi holatlari kuzatiladi. Kitob, film, spektakl virtual olami interaktivligi bilan ustun hisoblanuvchi kompyuterga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. F.Xemmit virtual reallikni ideallashtirmaydi, uning inson psixikasi va moddiy olamni idrok qilishiga salbiy ta’siri borligini ta’kidlaydi, biroq bo‘sh vaqtarda virtual reallik texnologiyalarini qo‘llash ta’lim va intellektual rivojlansh uchun istiqbolli hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar, masalan R.A.Barishev, «virtual reallik» va «kibermakon» tushunchalarini ajratadi. U uchun ikkinchisi «o‘zini kompyuter, tarmoqlar bilan hamkorlikda topuvchi inson borlig‘ining virtual ijtimoiy maydoni» [15]. Shunday qilib, agar virtual reallikni texnik

kashfiyotlar va yangiliklar mahsuli deb ko'rib chiqadigan bo'lsak, u holda kibermakondagi madaniy amaliyat gumanitar soha vakillarining savollariga javob bera oladi va qiziqishini orttiradi.

Xullas, yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib zamonaviy tadqiqotchilar murojaat qiluvchi virtual texnologiyalarning quyidagi ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ko'rsatish mumkin: axborot jamiyati taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy institularning transformatsiyasi; onlayn birlashmalar rivoji va ularning an'anaviy birlashmalar bilan hamkorligi; ijtimoiy kommunikatsiya tizimi o'zgarishiga Internet tarmog'i rivoji va ta'siri; zamonaviy ta'lif transformatsiyasi, distantsion ta'lif rivoji; madaniy identiklikni saqlash muammosi; «elektron iqtisod», «elektron hukumat» va boshqalarni shakllanishi shular jumlasidandir.

Adabiyotlar

1. Кастельс М. Становление общества сетевых структур // Новая постиндустриальная волна на Западе: Антология. - М.: Academia, 1999. - С.492-505.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2019. – B.88.
3. Normamatova M.N. Virtualistikada postnoklassik epistemologiya g'oyalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018. – B.14.
4. Measuring the Information Society Report Volume 1. 2018. ITUPublications. Statistical reports. International Telecommunication Union. Place des Nations. CH-1211 Geneva Switzerland.
5. Тоффлер Э. Метаморфозы власти: знание, богатство и сила на пороге XXI века. Москва : ACT, 2003. - С.669.
6. Марков Б.В. Демократия и Интернет // Технологии информационного общества — Интернет и современное общество: Материалы Всероссийской объединенной конференции. СПб., 20-24 ноября 2000г. – СПб.,2000. <http://ims2000.nw.ru/src/TEXT74.HTML>
7. Руднев В. Прочь от реальности. - М.: Аграф, 2000. - С. 80.
8. Усанова Д.О. Виртуальная культура как феномен современности и ее презентация в субкультурных практиках // Теория и практика общественного развития. 2013. № 11. С. 395-396.
9. Социальная философия : словарь / под ред. В.Е. Кемерова, Т.Х. Керимова. Москва : Академический проект, 2003. – С.47.
10. Катречко С. Трансформация сознания в эпоху Интернета // Влияние Интернета на сознание и структуру знания. Москва : Институт философии РАН, 2004. - С.60-62.
11. Кастельс М. Галактика Интернет: размышление об Интернете, бизнесе и обществе. Екатеринбург: У-Фактория : Изд-во Гуманитарного ун-та, 2014. – С.327.
12. Усанова Д.О. Виртуальная культура как феномен современности и ее презентация в субкультурных практиках // Теория и практика общественного развития. 2013. № 11. - С. 396.
13. Hammet F. Virtual reality. New York, 1993. 213. - P. 104.
14. Hammet F. Virtual reality. New York, 1993. 213. - P. 108.
15. Барышев Р.А.Личность в контексте киберпространства // Вестник Челябинского государственного университета. Философия. Социология. Культурология. 2011. № 2 (217). Вып. 20. - С.15-18.

UDK: 1.311.34

SIVILIZATSIYALAR TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY OMILLARI

J.A.Ochilov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Maqolada sivilizatsiyalar transformatsiyasining ijtimoiy-siyosiy omillari G'arb va Sharq munosabatlari kontekstida izohlanib, ular o'rtaqidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy integratsiyalashuv xususiyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, har bir mintaqaning milliy mentalitetiga aylangan ratsionalizm va irratsionalizm haqidagi nazariy ta'limatlar falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: G'arb va Sharq sivilizatsiyalari, transformatsiyasi, integratsiyasi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy omillari, demokratiya eksporti, ommaviy migratsiyasi, adaptatsion potentsial, individualistik-ratsionalizm, ma'naviy-ijtimoiy irratsionalizm, geoijtimoiy-madaniy sindrom, zamonaviy texnogen sivilizatsiya.

Социально–политические факторы трансформации цивилизаций

Аннотация. В статье комментируются социально-политические факторы трансформации цивилизаций в контексте западных и восточных отношений и рассматриваются социальные, экономические, политические, духовно-идеологические особенности интегрирования между ними. А также, философски анализируются теоретические учения о рационализме и иррационализме, превратившихся в национальный менталитет каждого региона.

Ключевые слова: Запад и Восток, трансформация, интеграция цивилизаций, социальные, экономические, политические, духовно-идеологические факторы, массовая миграция, адаптационный потенциал, индивидуалистический рационализм, духовно-социальный иррационализм, культурный синдром, современная техногенная цивилизация.

Social-political factors of the transformation of civilizations

Abstract. The article comments on social-political factors of civilization transformations in the context of eastern and western relations and social, economical, political, spiritual-ideological peculiarities of the integration between them are learned. As well, theoretical study of rationalism and irrationalism which became the national mentality of each region are analyzed philosophically.

Keywords: East and West, transformation, integration of civilizations, social, economical, political, spiritual-ideological factors, mass migrations, adaptation potential, individualistic rationalism, spiritual-social irrationalism, cultural syndrome, modern technogenic civilization.

Keyingi yuz yillik oxirlaridan boshlab (ayniqsa, dunyoda siyosiy tizim mafkuralari qaramaqarshiligi rasman barham topgandan keyin), Sharq va G'arb davlatlari munosabatlarda “g'arbona hayot tarzini” sharq xalqlari milliy taraqqiyoti modellariga transformatsiya qilishga harakatlar kuchayib ketdi. Xususan, “demokratiya eksporti” yoki “ommaviy madaniyat” eskalatsiyasi an'anaviy shakllangan sharqona hayotnini izdan chiqarishi, muayyan maqsadni amalga oshirish, manfaatni himoya qilishga yo'naltirilgan. Aniqroq qilib aytganda, G'arbing Sharqni “yashashga o'rgatishi”, unga egalik qilish va boshqarish maqsadini, manfaatini namoyon qiladi.

Shuning uchun ko'pchilikni qiziktirgan G'arb va Sharq munosabatlari mohiyatini aniqlash uchun g'arb-sharq sivilizatsiyalari, ularning transformatsiyasi to'g'risidagi muqobil qarashlarni (geosiyosiy manfaatlar kontekstida) qiyosiy tahlil qilib, umumiy tasavvurga ega bo'lish kerak. Chunki bu muammoga turli (xususan, siyosiy yoki konfessional) manfaatlar asosida yondashuvlar, yagona haqiqatlikka davogar turli muqobil nazariyalarni, ta'limotlarni ilgari surilishiga, ularning ustuvorlashuviga olib kelmoqda.

Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, faqat Gegel's unga haqiqiy falsafiy umumlashgan ta'rif bergen, ya'ni madaniyatlar va sivilizatsiyalar tarixini o'rganida muammo mazmuniga muqobil ilmiy yondashuvlar tarkibida, birinchilar qatorida, dialektik usulni qo'llagan. Xususan, Gegel's barcha narsa va hodisalarni “qutblarga” ajratib, ularni “G'arb” va “Sharq” munosabatlari kontekstida izohlagan edi. Shu nuqtai nazardan, Gegel's butunnni qismlarga ajratish tamoyilining har bir narsa va hodisaga xosligini asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, planetamizda shakllangan dunyoqarashlar tizimini ham, sivilizatsiyalarini ham, katta magnit qutblariga o'xshatish mumkin [1, 20].

Dunyo tarixida Sharq sivilizatsiyasi xususiyatlari va muammolarini gegelcha talqin qilishning boshqa faylasuflardan farqi shundaki, u G'arb-Sharq, dixotomiyasini taqqoslab, bu “qutb”lar xalqlarni bir-biridan ajratadigan badiiy-siyosiy ustqurmaga emas, balki insoniyatning universal, umumlashgan “ma'naviy aloqasi” imkoniyatlari, degan xulosaga kelgan. Frantsiyalik tadqiqotchi M.Hlenning fikriga ko'ra, Gegel's tomonidan Sharq sivilizatsiyasiga oid maxsus kontseptsiya yaratilgan bo'lib, unga asosan G'arb madaniyati, qandaydir harakatsiz, tarixiy berk ko'chaga kirib qolgan hodisadan qochadigan yagona marra tarzida tushuniladi [2, 8].

G'arb va Sharq sivilizatsiyasining falsafiy kontseptsiyalari, xususan teologik tahlili, ularning umumiy jihatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni dunyoning azaldan G'arb va Sharqqa bo'linishi, faqat mexanistik tarzda geografik “qutb”larga ajratish emas, balki tabiat tomonidan belgilangan tartibni e'tirof etishdir. Masala, bu tartibni anglash asosida munosabatda bo'lisch va unga “qutblarning” o'zaro moslashish adaptatsion potentsialidan foydalanishdadir.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, Sharq va G'arb hayot tarzi, sivilizatsiyalari xususiyatlari hamda transformatsiya imkoniyatlari yagona ob'ektiv ontologik asosga ega bo'lib, ularning bir-biridan farqi, vujudga kelish genezisiga ko'ra: xususiy-individual ildizlarga, retrospektiv-tarixiy asoslarga egaligidadir. Boshqacha qilib aytganda, bu umumiy universiumni – Inson, Kosmos va Mikrokosmosni (“qutblar” dunyoviy ilmlarida ham, teologik ta'limotlarida ham) e'tirof qilishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'zining universal mohiyatiga ko'ra, “Sharq sivilizatsisi” va “G'arb sivilizatsiyasi” ijtimoiy borliq

umumiyligining konkret ko'rinishlari bo'lsa ham, ontologik-teologik asosiga ko'ra, bir-biriga mos va bir butunlik yaxlitligini bildiradi.

Tasavvuf falsafasining yirik namoyondasi Ibn Arabiy (1165-1240) o'zining "Donolik usullari" asarida "Sharq" ko'zga ko'rinib turgan (irratsional.) borliq, "G'arb" nazardan panadagi ko'rinnmas (ratsional) tuyg'u, deb yozgan edi. Boshqacha qilib aytganda, "G'arb" va "Sharq" universiumining gnoseologik chegaralarini belgilaydi va birida – sezgilar bilan (Sharq), boshqasida – aql bilan (G'arb) idrok qilinadigan dunyo yotishini ko'rsatgan edi [3].

Makrokosmosni teologik tushinish masalasida, insonning sharqona va g'arbona faoliyat usulidagi farq, shartli va nisbiy xarakterga ega. Chunki "Sharq va G'arb odami" mohiyatiga ko'ra, Inson dunyosining "yarim sharları" bo'lib, bir butunlik tarzida e'tirof etilishida jiddiy asos mavjud. Xususan, German Gress ularning umumiyligi haqida: "Sharq va G'arb hikmatlarida biz o'zaro kurashayotgan dushmanlik kuchlarini emas, oraliqda silkinayotgan qutblarni ko'ramiz" [4, 217], deb yozgan edi.

XIX-XX asrlar falsafasi tarixida "Sharq va G'arb" sivilizatsiyalari o'zaro munosabati muammosi (ayniqsa, diniy konfessional kontekstda) hamda ularning ahamiyati yetarli darajada yoritilmagan. Chunki, XIX-XX asr xalqlari sivilizatsiyasi tarixini (tanjidiy yondashuvsiz, qiyosiy tahlilsiz), ularning mazmunini, ahamiyatini to'liq oshib berish mumkin emas edi.

Shuning uchun ham K.S.Gadjievning "Zamonaviy Sharq ijtimoiy-madaniy, milliy tarixiy-madaniy xududlarni qamrab olgan. Ya'ni Yaqin Sharqda – arab-turk, Markaziy Osiyoda – turkiy xalqlar musulmonchiligi, Sharqiy Osiyoda: budda-sinto, konfutsion-hind, hind-buddiy-musulmonchiligi va boshqa dunyolarning har biri o'zining xususiyatlariga ega va tegishli yondashuvni talab qiladi. Shu o'rinda Sharqqa g'arbona yondashuvda gegelcha tasavvur ustuvorligi, sharqona mentalitet rivojlanishining texnologik va boshqa shakllariga loqaydligi va ishonchsizligi orqali belgilanadi" [5], degan fiqrda bu sivilizatsiyalarga teologik yondashuv ustuvor bo'lsa ham, muayyan haqiqat mavjud.

Zamonaviy mualliflar Osiyo davlatlarini modernizatsiyalashtirish, sekulyarizatsiyalashish imkoniyatlarini, ularning o'zidan emas, balki tashqaridan izlashadi, diqqatni faqat tashqi ekzogen omil roliga, (xususan, demokratiyani eksport qilishga, prozelitizmga, "ommaviy madaniyat" transformatsiyasiga, inqilob fenomenga, davlat va jamiyat qurilishi institutlarining dominantligiga, erkinlikni mutlaqlashtirishga) qaratishmoqda. Buning amaliy ko'rinishiga, bugungi kunda Yevropa davlatlarida Yaqin Sharq, Afrika va boshqa rivojlanayotgan davlatlardan qochoqlar ommaviy migratsiyasi bilan bog'liq inqirozni misol qilib keltirish mumkin.

Bunda ayrim mualliflar Sharq-G'arb yoki G'arb-Sharq (qaysini birinchi o'ringa qo'yish, uning funktsional ahamiyatini mutlaqlashtirishini ko'rsatadi) ijtimoiy munosabatlari tizimida muayyan tomonlarni, ya'ni "G'arbda" – shaxs, individualistik-ratsionalizm, "Sharqda" esa – ma'naviy-ijtimoiy irratsionalizm, jamoaviylik tamoyillari ustuvorligini e'tirof qilishadi. Bunday "dualistik" qarashlar asosida sivilizatsiyaning "geoijtimoiy-madaniy sindromini", uni identifikatsiyalashtiruvchi va asosiy determinlashtiruvchi omillarni mutlaqlashtirish ko'zga tashlanadi.

Har ikki yondashuv, o'ziga xos tarzda, ijtimoiy-madaniy va ruhiy jihatlardan integratsiyalashgan umumiyl, unitar sivilizatsiyani ijtimoiy makon doirasida chegaralashga olib keladi. Lekin falsafa tarixida, yuqorida ko'rsatilgan "dualizmni" (ayniqsa, xristian va islom monizmini) o'zaro murosaga keltirishga, muvofiqlashtirishga urinishlar alohida o'ringa ega. Xususan, Gegels: Sharq – butun dunyo tarixining boshlanishi, Yevropa uning davomidir, deb hisoblagan. Uning fikricha, Sharqda "tashqi fizik quyosh chiqadi", G'arbda esa "ichki o'z-o'zini anglash quyoshi" chiqadi [6, 554].

Bunday qarashlar XX asrning 50-70 yillarigacha ayrim G'arb olimlari tomonidan rivojlantirilgan. Ular Yevropa va Osiyo (ayniqsa, Afrika) jamiyatlari sivilizatsiyasini har xil tipdag'i ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tasvirlanganlar. Ya'ni, Afroosyo jamiyatlari ichki taraqqiyot potentsiyaliga ega bo'limgan, qoloq tuzum sifatida baholanib, G'arbning "etakchilik rolini" mutlaqlashtirganlar.

G'arbning Sharq madaniyati, sivilizatsiyasi bilan murakkab aloqalari haqidagi zamonaviy nazariyalarda, ularning an'anaviy modernizatsiyasi, simbiozi masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki Sharqda XIX asr boshlarida, bir tomondan, jamiyat hayotining: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy yo'nalishlari, konservativ-arxaik tarixiy an'analari doirasidan chiqib, modernizatsiyalashish jarayoni boshlanganligini, yangi sivilizatsiyalashgan global jamiyat shakllanishi va uning ijtimoiy transformatsiyasi sifatida qarash kerak. Boshqacha aytganda, bu hodisa tarixiy jarayonlar kompleksi globallashuvi bilan bog'liq bo'lib, turli jamiyat va mamlakatlarning umumjahon sivilizatsiyasi jarayoniga integratsiyalashuvi natijasi bo'ldi.

Ikkinci tomonidan, XIX asr dunyoni geoijtisodiy, geosiyosiy, geomadaniy va boshqa geografik etno-demografik mental xususiyatlar bilan bog'liq: g'arbiy (kapitalistik – industrial rivojlangan) va sharqiy (nokapitalistik rivojlanayotgan – agrar) qutblarga ajratish keng qo'llanildi.

Bu tarzda qutblashtirishdan asosiy maqsad – an'anaviy Sharqni G'arb sivilizatsiyasining dominant xususiyatlari asosida modernizatsiya qilish va undan muayyan maqsadlar uchun foydalanishdan iborat edi. Shuning uchun S.Ayzenshtadtning: “XVII-XIX asrlardagi tarixiy modernizatsiya G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada rivojlangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sistemasi (ta'siri) o'zgarish jarayonidir va undan keyin boshqa Yevropa mamlakatlariiga, XIX-XX asrlarda esa, Janubiy Amerika, Osiyo va Afrika qit'alariga tarqaldi” [7, 214], degan xulosasida muayyan haqiqat bor.

Biroq, Sharq bu jarayonda passiv ta'sir sub'ekti bo'lib qolmagan, ya'ni Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining (mustamlakachilik siyosati natijasida) to'qnashishi (ularning jiddiy ziddiyatlariga qaramasdan), o'zaro moslashishini taqozo qilgan. Bunga buyuk hind gumanist-mutafakkiri Shri Aurobindo Goxash. Maxatma Gandilar alohida e'tiborni qaratgan edi [8, 404]. Ularning milliy ozodlik harakatlarida tinch yo'lni tanlashlarini misol qilib keltirish mumkin.

Chunki Sharqning boshqa mamlakatlari kabi, Hindiston ham Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangandan keyin (ayrim mutaassiblarcha iddaolarga qaramasdan), bir tomonidan, o'zining G'arbgaga nisbatan (ayniqsa, texnogen sivilizatsiya sohasida) qoloqligini e'tirof qilishga majbur bo'lgan edi. Ikkinci tomonidan esa, mavjud reallikka modernizatsiyalashish uchun G'arb sivilizatsiyasi yutuqlarini o'zlashtirishning ob'ektiv zaruratini anglab yetgan. (Nafslambirini aytganda, davlatlarning milliy mustaqillikka erishishida ham, ma'lum ma'noda, modernizatsiyalashish jarayonida g'arbona hayot tarzini, ayniqsa, texnogen sivilizatsiyasi ijobji natijalarini o'zlashtirishlari katta rol o'yagan).

Rivojlanayotgan mamlakatlarning texnogen sivilizatsiyalashgan Yevropa davlatlari standartlarini ijodiy rivojlantirib modernizatsiyalashuvini, ularning mahalliy-mental xususiyatlari o'zgarishi jarayoni tarzida e'tirof etilishi kerak. Lekin sivilizatsiyalar transformatsiyasi va integratsiyalashuvi madaniyatlar, sivilizatsiyalar “to'qnashuvi” bilan bog'liq ijtimoiy muammolar “kaskadini” vujudga keltirdi.

Bu muammolarni bartaraf qilish murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, mavjud streotiplarni o'zgartirishni taqozo qiladi. N.Berdyaev ta'biri bilan aytganda: “biz yangi ongga, tafakkurga, faqat tavba qilish va o'zimizni fosh qilish orqali kelamiz”. Chunki turli konservativ-reaktsion kuchlarning modernizatsiyalarga, reformalarga qarshiligi, ularning millat madaniy birligini, qiyofasini yo'qotishga, uning ma'naviy degradatsiyalashib, global sivilizatsiyadan ajralib qolishiga olib keladi.

Yevropa va boshqa industrial rivojlangan davlatlarda ilmiy-texnika inqilobi jahon hamjamiyatida G'arbiy Yevropa texnogen sivilizatsiyasining kelajak andazasi, degan stereotipni shakllantirdi va kishilar ongiga mustahkam o'rashib qolishga olib keldi. Vaxolanki, qozog'istonlik madaniyatshunos T.X.Gabitovning fikriga ko'ra, “Evropa madaniyatshunosligida Sharq vesternizatsiya polgoni sifatida qabul qilingan. Ammo, ob'ektiv ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, G'arb Sharqsiz bir o'lchamli va ma'naviy chegaralangandir” [9, 95].

Zamonaviy texnogen sivilizatsiya (ob'ektiv tarixiy taraqqiyotning qonuniy natijasi bo'lsa ham), umuminsoniyat ma'naviyati an'anaviy permanentligi “uzilishga”, insonda individualizm, iste'molchilik stereotipleri rivojlanishiga, pragmatik qoida va normalar ustuvorlashuviga olib keldi. Insoniyat texnogen sivilizatsiyaning oqibatlaridan sarosimaga tushib, undan chiqishga doir nazariy ta'limotlar “kaskadini” shakllantirdi.

R.Rozakning fikricha bu tupikdan chiqish uchun insoniyat: mantiq va intuitsiya, fan va e'tiqod, individualizm va jamoaviylik, sun'iy va tabiiylikni o'z ichiga olgan yangi global madaniyatni shakllantirishi kerak. Chunki, hozirgacha G'arb va Sharq ma'naviy-madaniy boyliklarini integratsiyalashtirishga, uning simbiozini yaratishga doir madaniyatshunoslik nazariyalari ham, tarjibalari ham, kutilgan natijani bermadi.

Buning asosiy sababi, bir tomonidan, G'arb texnogen sivilizatsiyasi universalligiga qaramasdan, Sharq madaniyati va mentalitetining, faqat tashqi, xususiy tomonlariga, muayyan ijtimoiy qatlamlarni tanlab ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkinci tomondan, G'arb dunyosining “begona” ma'naviy ta'sirlarga qarshi “immuniteti potentsiali” (kalondimog'ligi, konformistik sterotipleri, manmanligi) yuqoriligi, uni Sharq madaniyatidan begonalashtirmoqda.

Zamonaviy sotsiumning asosiy xususiyati: “axborot bosimiga”, texnologik jarayonlar shiddatiga, o'zgarayotgan ijtimoiy munosabatlar spektriga moslashishga harakatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda “ilg'orlik” yoki “qoloqlik” shartli va nisbiydir. Rus etnograf-tarixchisi L.Gumilev fikricha, azaldan ilg'or yoki qoloq xalqlar, millatlar yo'q, Sharq va G'arbdagi yashagan barcha xalqlari o'z tarixida ilgariga harakat qilgan. Lekin bu harakatning, muayyan davrlarda, susayishi yoki orqaga ketish hollarini vaqtinchalik hodisa, deb hisoblaydi.

Har qanday jamiyatning muayyan ijtimoiy qatlamlari, u yoki bu darajada (manfaatlarini anglash doirasida) global madaniy integratsiya jarayoniga ham, uning modernizatsiyasiga ham (ba'zan

ochiqchasiga, ba'zan niqoblangan shakllarda) qarshilik ko'rsatadi. Ularning passiv-konservativligi yoki ashaddiy-agressivligi, aynan shu qarshilikda va ularni amalda ifodalash shakllarida namoyon bo'ladi.

G'arb sivilizatsiyasi va madaniyatdagi utilitar va merkantil ratsionalizm, ularning turmush tarzini butunlay o'zgartirib, inqirozga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, g'arbona fikrlash va amaliy hayot tarzidagi inqilobi o'zgarishlar inson muammolarini butunlay hal qilmadi, aksincha keskinlashtirdi. Yanada aniqrog'i, G'arbda intellektual salohiyat kuchiga (ma'naviy-axloqiy normalarga emas), texnogen aqlga tayanish, bir tomonidan, inson ustidan hukmron bo'lgan zamonaviy fan, texnika taraqqiyoti insonlarning o'zaro munosabatlarini keskinlashtuvchi "texnologiyani" takomillashtirdi, ikkinchi tomonidan, insonni induvidiallashtirgan, manqurtlashtirgan, marginallashtirgan: ijtimoiy, ekologik, ma'naviy inqirozga olib keldi va uni chuqurlashtirmoqda. Lekin texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti tarixiy mantig'idan shu narsa aniq bo'ldiki, insoniyatning global muammolari asoslarini, sabablarini texnologik rivojlanish oqibatlaridan emas, balki inson tabiatidan, ma'naviy dunyosidan qidirish kerak ekan. Shuning uchun zamonaviy G'arb mutafakkirlari bu inqirozdan chiqish yo'llarini Sharq falsafasining ma'naviy-axloqiy ta'limotlari merosidan, sharqona hayot an'analaridan qidirishi tasodifly emas.

Bu mavzuning dolzarblashuviga XIX asr oxiri XX asr boshlarida Sharq va G'arb siyosiy munosabatlari keskinlashuvi ham asosiy sabab bo'lib qoldi. "Millatlararo ziddiyatlar", "dinlararo qarama qarshilik", "diniy ekstremizm", "diniy funametalizm", "neofashizm" va boshqa shu kabi tushunchalar ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda. Bu tushunchalar mazmuni, faqat ko'p millatli, ko'p konfessionalli mamlakatlarda dolzarb muammo bo'lib qolmasdan, balki nisbatan monoetnik, monokonfessional davlatlarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Umumlashtirib aytganda, bugun jahon sivilizatsiyasi natijalarini G'arb ratsionalizmi va Sharq irratsionalizmi simbiozi asosida saqlab qolish mumkinligi haqidagi nazariy ta'limotlar keng tarqalmoqda. Zero, insoniyat o'z tarixidan, faqat nima qilishni emas, balki nima qilmaslikni ham o'rganishi kerak. Shu nuqtai nazardan jahon falsafasi tarixida bugun bizning oldimizda turgan global muammolar yechimi haqida ratsional nazariy ta'limotlar yaratilgan. Gap ularni ijodiy o'rganish va o'zlashtirishdadir.

Adabiyotlar

1. Шаймухамбетова Г.Б. Гегель и Восток. Принципы подхода. –М., 1995. – С. 20.
2. Hulin M . Hegel et l ' Orient . Р ., 1979. –Р . 8.
3. Религиозно-философские учения Востока (сборник) / Под ред Г.Б. Шаймухамбетовой – М., 1989.
4. Паломничество Германа Гессе в страну Востока // Восток-Запад. Исследования. Переводы. Публикации. - М.,1992. Вып.1. –С. 217.
5. Гаджиев К.С. Введение в geopolитику. – М.: Логос, 1998. – 416 с.
6. Гегель Г.В.Ф. Работы разных лет. –М., 1971. Т. 2. –С. 554
7. Паломничество Германа Гессе в страну Востока // Восток-Запад. Исследования. Переводы. Публикации. - М.,1992. Вып.1. - С. 214.
8. Ауробиндо Шри Индийская культура и влияние извне // Открытие Индии. Философские и эстетические взгляды в Индии в XX веке. - М., 1987. - С.404.
9. Габитов Т.Х. Коллизии и искания казахской культуры // Казахская цивилизация / The Kazakh Civilization . 2001. №1. – С. 95.

UDK: 745/749

DIZAYN, DIZAYNER VA MEZON

N. B. Abdullaeva

O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: Maqolada jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj va talablari, texnika taraqqiyotining dizaynga ta'siri, falsafiy-estetik mezonlari, qadriyatlilik xususiyatlari tadqiq etilgan. Dizayn fenomenini zamonaviy ijtimoiy-madaniy makon tizimida tadqiq etish postmodernizm davrining intensiv rivojlanishi, dunyoqarashlar, qadriyatlar tizimidagi fundamental o'zgarishlar bilan bog'liq. Muallif tomonidan dizaynning madaniy makon, narsa va buyumlar muhitini yangilanishi va takomillashuvidagi o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Dizayn, dizayner, madaniyat, qadriyat, estetika, go'zallik, predmetli muhit, mezon, foydalilik, ijodiylik.

Дизайн, дизайнер и мера

Аннотация: В этой статье рассматриваются социально-экономические потребности и требования общества, влияние технического развития на дизайн, философские и эстетические критерии и характеристики. Изучение феномена проектирования в системе современного социокультурного пространства связано с интенсивным развитием постмодернистского периода, фундаментальными изменениями в системе мировоззрения и ценностей. Автор анализирует роль дизайна в реконструкции и благоустройстве культурных пространств и предметов.

Ключевые слова: дизайн, дизайнер, культура, аксиология, эстетика, прекрасное, предметно-пространственная среда, креативность, польза.

Design, designer and the criteria

Annotation: This article analyzes the socio-economic needs and demands of the public, the impact of technology development on design, the philosophical and aesthetical aspects of design and the value characteristics of design. The phenomenon of design in the modern socio-cultural space of research is related to the intensive development of the postmodernism era, fundamental changes in the world of thoughts and values. The author analyses the cultural design, materials, and products in the context of evolving and improving the design. The article uses the methods of system-functional approach, historical, logical, systems approach, computational, comparative analysis, questionnaires, follow-up, interviews.

Keywords: design, designer, culture, values, aesthetics, beauty, material space, criteria, creativity

Dizayn madaniy hayotning tarkibiy qismi bo'lib u inson aqliy va jismoniy mehnati asosida vujudga kelgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda inikos etadi. Dizayn ob'ektlari shaklini yaratish dizaynerlik faoliyatining asosi, mazmuni bo'lib faqat estetik jihat bilan chegaralanmaydi, balki uning insoniy faoliyat uchun kerakligi, yaroqliligi, qo'llanishi, zararsizligi, maqsadga muvofiqligini ham e'tiborga oladi. Mana shu jihat uning mohiyatini oshib beradi. Chunki dizaynda har bir predmet;

funktional – buyumning texnik maqsadini va insonning utilitar talablarini oldindan aniqlab inson uchun kerakli, qulay, foydali xususiyatiga binoan;

konstruktiv-tekhnologik materialning fizik va mexanik xususiyatlari va shakl konstruktsiyasini oqilona ifodalashi, ekologik xavfsizligi;

estetik – jamiyatning estetik ideallariga mosligi, narsa va buyumlarning chiroyligi, badiiy, estetik ta'sirchanligiga ko'ra vujudga keladi. Agar predmetning funktional jihatga e'tibor qaratilib estetik jihatiga e'tibor berilmasa mahsulot xaridor e'tiborini tortmasligi, konstruktiv jihatiga e'tibor berilmasa inson sog'liqi uchun ziyon keltirishi mumkin. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq, shuningdek har biri alohida o'ziga xos namoyon ham bo'ladi. Har qanday tovarni xaridorgir qiladigan xususiyatlar uning sifati, estetik shakli, chidamli, yaroqli, foydaliligidir. Go'zallik, badiiy-obrazlilik, narsa yoki buyumning shakliga tegishli bo'lib insonni jalb etadi, chidamli, yaroqli, foydaliligi uning amalda qo'llanishi jarayonida namoyon bo'lib boradi. Ular ikkisi birlashib mahsulot yoki buyumning tijoriyligini ta'minlaydi. Bizning qadriyatlar tizimimiz ham shu hodisalar bilan bog'liq bo'lib, atrofimizda bo'lgan narsa va buyumlar olamini ikki nuqtai nazarga ko'ra qadrlaymiz, moddiy-manfaatdorlik va ma'naviy jihatdan. Moddiy manfaatdorlik asosida qadrlashda narsa-predmetga nisbatan foydalilik va egalik qilish mezoni asosida yondoshiladi. Foydalilik dizaynda muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bevosita ob'ekt va sub'ekt o'zaro aloqadorligining natijasidir. Foydali deganda, avvalo, muayyan buyumning inson amaliy-manfaatdorlik (utilitar) talab-ehtiyojlarini qondirishi nazarda tutiladi. qolaversa, foyda – narsa-buyumning muayyan qismida emas, balki predmetning yaxlit ko'rinishidagi, tugallangan holatidagi foydani anglatadi. "Har qanday narsa, ya'ni mahsulot yoki buyum foydalanishga noqulay bo'lsa va manfaat – ishga oidlik talablariga javob bermasa, u yaroqsiz deb hisoblanadi. Agar uy johozi foydalanishga noqulay: asbob qo'lni og'ritadigan, mashina yoki dastgohni ishga solish noqulay va kam mahsulot beradigan, zargarlik buyumi ko'rimsiz bo'lsa, ular yaroqsiz qisoblanadi. Mahsulot shakli va uning alohida qismlarini hal etishda birinchi navbatda, shakl ko'p darajada uning foydalilik – ishga oidlik vazifasiga muvofiq kelishi kerak. Shuning uchun har qanday narsani loyihalashtirish uning zarurligi, manfaat keltirishi vazifalarini o'rganishdan boshlanishi kerak" [1. B. 81-82].

Dizayn sohasida foydalilik insonda axloqiy-estetik fazilatlarni birlashtirishga xizmat qilishi lozim. Chunki axloqiy nuqtai nazardan foyda ma'naviy qadriyat sifatida ham ko'rildi. Utilitarizm asosida shaxsiy qiziqish yotadi. Bu tamoyil ma'naviy fazilat sifatida inson faoliyatining maqsadga muvofiqligini anglash orqali yuzaga keladi. Foyda hatta-harakatlarning pirovard maqsadi sifatida ko'rindi. Utilitarizm axloqi degan yo'naliш ma'naviylikni insonning real hayotiy qiziqishlari bilan bog'laydi. Demak, yaratilajak buyumlar yoki predmetlarni ishlab chiqarish kam xarajat talab etsa, inson manfaatlariga xizmat qilsa,

qo'yilgan maqsadga, yutuqlarga erishishni ta'minlasa foydali qisoblanadi. Har bir ijodkor dizayner narsa va buyum yaratayotganda uning oldida avvalo talablari aniq ravshan bo'lgan iste'molchi turadi, har bir asar yoki mahsulot albatta kim uchundir yaratiladi. Dizaynda professorallik va havaskorlik bir-biridan farq qiladi. Har bir kishi havaskor bo'lishi mukin ammo professional bo'lomaydi. Har bir ishlanma esa ma'lum bir asarning poydevori, ijodkor dunyoqarashining mevasi. Shuning uchun u tizimli, mantiqiy asosiga ega bo'lishi taqozo etiladi. Uning san'atdagi ijodiylikdan farqi shunda. Dizayner mutaxassisning qobiliyati loyiqaviy tasavvur va obrazli tafakkurdir. Bu obrazli modellashtirish yoki obrazli tip kabi yangi loyihamiy tafakkur mexanizmlarini vujudga kelishida asos bo'ladi. Bu tushunchalar dizaynning voqelikka munosabatini his qilish va dizayn obrazlarining san'atdagi obrazlardan farqini tushunishga yordam beradi, shuningdek hayotiy qadriyatlarga aylantiradi.

Ammo bugun hayot sur'atlaring tezlashuvi, atrof-muhitdagi, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar shaxsdagi moslashuv funksiyalarini o'zgartirib, ayrim hollarda tezlashtiradi, oqibatda inson va buyum o'rtaisdagi munosabat yanada qisqarib bormoqda. Ilgari uy jihozlaridan 20 yillab foydalangan bo'lsak bugun ularning texnik, estetik, funksiyaviy jihatdan takomillashib borishi natijasida 2-3 yildayoq eskirishga olib kelmoqda. Foydalanimagan jihoz esa qadriyatilik xususiyatini yo'qotadi (faqt shaxsiy qadriyatga aylanadi, bu esa qadriyatlar o'rtaida to'qnashuvga olib keladi). Faylasuf madaniyatshunos Olin Toffler "Yangi tovarlarni loyihalashtirish va ularni jozibador, yorqin psixologik jihatdan emotsiyon boy liboslarga burkab berish ertangi kunning eng topqir tadbirkorlaridan ham haddan tashqari yuksak darajada uddaburonlikni talab qiladi. Biz muvaqqat ehtiyojlarni qondirish uchun muvaqqat usullar bilan tayyorlangan muvaqqat buyumlar davriga qadam qo'yemoqdamiz. Inson bilan buyum o'rtaisdagi munosabat borgan sari behuda bo'lib bormoqda" [2. B.100]. deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, zamonaqiy inson talabini qondirish uchun dizayner undan bir qadam oldinda yurishi lozim. Bu tezkorlikni talab etadi, "bir martalik" buyumlarning ko'payishiga olib keladi. Bir martalik shpritslar, idish-tovoqlar inson salomatligi, shaxsiy gigienasi uchun zarur. Ammo inson foydalananidan barcha predmetlar bir martalikka aylanar ekan ularning qadriyatilik tabiatini yo'qoladi. Bu Toffler aytganidek muvaqqat buyumlar davriga qadam qo'yganimiz, uning sifatsiz yoki, yaroqsiz ekanligigagina bog'liq emas, balki dunyoqarash va didimiz ham o'zgarayotgani, yangilanishga bo'lgan ehtiyojimiz bilan ham belgilanadi. Ilgari buyumga nisbatan eng muhim talab uning pishiqligi va uzoq vaqt davomida foydalishga yaroqligini bo'lgan, endilikda esa inson uchun buyumming estetik shakli, ekologik tozaligi ham muhim. Hatto ba'zan unda ijodiylik birinchi o'ringa chiqib qolishi ham uchraydi. Masalan eksklyuziv buyumlar, liboslarni misol qilish mumkin. Ulardan foydalaniib bo'lmaydi, ya'nii ularga egallik qilishi mezoni bilan belgilanadi.

Ma'lumki dizayn va foydalilik bir-biri bilan chambarchas bog'liq ammo foydalilikni sof iste'molchilik nuqtai nazaridan tor ma'hoda tushunish ham noto'qri, chunki, axloqiy nuqtai nazaridan foya ma'naviy qadriyat sifatida, inson harakatlarining pirovard maqsadi sifatida ham namoyon bo'ladi. Ya'nii, foydaning asosida insonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, mutaxassislik, madaniy mavqeini ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan turli ob'ektlarga bo'lgan munosabati, qiziqish va manfaatlari yotadi. Omad, samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, afzallik kabi amaliy ahamiyat kasb etgan sifatlar, foya, ezzulik, go'zallik, haqiqat, barkamollik, mukammallik kabi qadriyatlar bilan bog'liqdir. Ba'zi ishlab chiqaruvchilar foydaning qadriyatilik xususiyatini unutishmoqda, xudbinlik, shaxsiy manfaat ustunlik qilmoqda, oqibatda dizaynning qadriyatilik xususiyati e'tibordan chetda qolmoqda. Masalan, bolalar uchun yaratilayotgan qo'g'irchoq va o'yincholarning bola so g'ligi va ruhiyatiga salbiy ta'sir qilayotgani xususida bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgani fikrimiz dalilidir. Barbi ishlab chiqaruvchi "Mattel inkorporeyted" kompaniyasi ushbu qo'g'irchoqni olishni istagan qizaloq eski Barbisini almashtirish evaziga yangisini anchagina arzon narxda olishi mumkinligi to'g'risida e'lon qilib boradi. qar Haftada millionga yaqin, har sekundda esa ikkita Barbi qo'g'irchoqi xarid qilinar ekan. Amerikalik 3 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan qizlarda 8 ta, italiyalik qizaloqda 7 ta, frantsuz, nemis va ingлиз qizaloqida o'rtacha 5 tadan Barbi qo'g'irchoqi bor ekan.

Toffler ta'kidlaganidek bu qo'g'irchoqlari chirib-to'zib ketgunicha o'ynagan buvilarning davomiylik jamiyatiga qarshi omonatlik g'oyasiga asoslanuvchi jamiyat o'rtaisdagi tafovutni ko'rsatadi. Oxir oqibatda bolalarda Toffler aytganidek "tashlab yuborish" madaniyati singadi. Bir martalik narsa va buyum qadriyatilik tabiatiga ega bo'lmaydi. Bu esa tejamkorlik, uvol, shukronalik kabi azaliy axloqiy qadriyatlarimizga ham ziddir, shuningdek ularning qadrsizlanishiga olib keladi. O'z o'yinchog'iga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'limgan bola ertaga tabiatga, xalqimiz yaratgan osori-atiqalarga ham behurmat bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Yillar osha inson uchun qadrli bo'lgan narsa va buyumlar nima uchun qadrini yo'qotib qo'yadi? Uni qadrsizlanmasligi uchun nima qilish kerak? Bu kabi savollarning tug'ilishi tabiiydir. Olim Q.Nazarov qadrsizlanishning tabiatni, mohiyati, shakllari va sabablarini ko'rsatib o'tar ekan, "Har bir qadriyat ob'ektining qadrlash mezoni bor. Bu mezon u yoki bu qadriyatni qadrlashning ob'ektiv me'yorini anglatadi. Ana shu me'yroring buzilishi u yoki bu qadriyat qadrining, bir tomonidan,

haddan ortiq mutlaqlashtirilishi, ikkinchi tomondan esa, aksincha, bu qadrning mutlaqo e'tiborga olinmasligiga sabab bo'ladi. Xullas, qadrlash me'yorining buzilishi, har qanday holatda ham qadrsizlanishning asosiy sabablaridan biridir". [3. B 82.]

Shu o'rinda yarim-yalang'och Barbilarlarning liboslari, soch turmamlari qizaloqlarning go'zallik haqidagi ilk qarashlarining noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi, hattoki balog'atga etgan ayrim qizlar Barbilarlarning qomatiga mahliyo bo'lib, taqlid qilishlari oqibatida turli kasalliklarga chalinayotganliklarini ham unutmaslik lozim. Bu dizaynda axloqiy jihatlari ham e'tibordan qolmasligini taqozo etadi. Dizaynerlik ixtirolari, shakllari inson va jamiyatni ezgulikka jalb qilganidek, yovuzlikka ham chorlashi inson faoliyatida destruktiv xususiyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin" [4; s.4].

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy asosining o'zgarishi yangi ehtiyoj va talablarni kelib chiqishi, yangi materiallarning yaratilishi va texnologiyalarning yangilanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z o'rnida inson maishiy hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan buyumlar shaklining bu talablarga mos bo'lishi vazifasini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, XXI asr sur'ati va globallashuv jarayoni insonning qulaylik va foydalilikka bo'lgan talabini kuchaytirib, moddiy olamning ixchamlashuviga, mobillashuviga olib kelmoqda. Bu esa dizayn oldiga har qanday qayotiy va ishlab chiqarish jarayoniga mos optimal mahsulotlar assortimentini yaratish, buyumlar olami oqilona talablar, real ehtiyojlarga mos va maqsadga muvofiq bo'lishi, insonni qurshab turgan moddiy olamda uyg'unlik, qaror toptirishning zaruriy yo'llarini topish vazifasini qo'yemoqda. Bu vazifaning bajarilishi esa faqat dizayner emas balki iste'molchiga ham bog'liqdir. Iste'molchi yoki xaridor o'z didiga mos narsani tanlaydi, xarid jarayoni tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo'lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga ega. Avvalo chiroyli, sifatlari, qulay narsalargina xaridor e'tiborini tortadi. Shunda tovarning umumezonga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro'y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorgia, xaridorning esa ishlab chiqarishga estetik ta'sirini ta'minlaydi.

Demak, biz ishlatadigan buyumlar bizning didimiz, dunyoqarashimizni ko'rsatishi bilan birga, dunyoqarash va didimiz eng zamonaviy buyumlar, texnikaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun mobil telefonlar, televizor, muzlatkich va shu kabi maishiy buyumlarning necha-necha avlodи yuzaga kelgan. Ular yildan- yilga qulay, ixcham, chidamli, ko'rkam va texnologik jihatdan tejamlili bo'lib bormoqda. Bunga erishish uchun utilitar va estetik xususiyatlarni chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Utilitar deganda narsa va buyumlarning- foydalilik, funksionallik, qulaylik, texnologik tejamlilik va konstruktiv xususiyatlari, estetik esa go'zallik, nafislik, badiiylikni o'z ichiga oladi. "Dizayn nazariyasini madaniyat tizimidan ayri holda emas uning tizimida, predmetli faoliyat, loyihalash faoliyati, san'at va texnika bilan aloqadorlikda, inson hayoti va faoliyatning barcha sohalarida tabiiy tovar va mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy iste'moli, ikkalamchi tabiat-sun'iy atrof-muhit, predmetli-makon bilan birgalikda tahlil etish lozim" [5; s.23]. Bugungi kunda dizayn mehnat vositalaridan tortib ishlab chiqarish jarayonining moddiy shart-sharoitlarini ham o'z ichiga oladi. U ishlab chiqaruvchining ish faoliyati, mehnat sharoitiga ta'sir ko'rsatadi, mashina-yu uskunalarni yangilash, yaxshilashdan tortib, ularning ish joylarida estetik muhitni yaratish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishini ta'minlashni ham o'z oldiga qo'yadi. Dizayn inson mehnat sharoitini yaxshilash orqali mehnat jarayonini quvonchli qiladi, buning natijasida mehnat samarasi oshadi, sifatlari, chiroylar buyumlar yuzaga keladi. Demak, insonning sog'ligini himoyalash, estetik didimi tarbiyalash, ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratib berish orqali dizayn jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Ko'rinish turibdiki bu jarayon bir-biri bilan uzviy bog'liq. Jamiyat ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti dizaynga, dizayn taraqqiyoti jamiyat madaniyati yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu dizaynerlik kasbiga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganida ham aks etmoqda. "Respublikamiz mustaqillikka erishuvni bozor munosabatlarining shakllanishi, ko'p sonli kichik va o'rta biznes korxonlarning ochilishi, xalqaro aloqalarning faol yo'lga qo'yilishi bilan dizayn badiiy ijodning ommaviy turiga aylandi. Shuningdek, dizayn yosh mustaqil davlatimiz madaniy siyosati doirasiga kirdi. Bu O'zbekiston hukumatining dizayn sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va hujjatlarida ham o'z aksini topadi." [6. B.6]

Zamonaviy dizaynerlarga bo'lgan talab ortib bormoqda, ularning ishtirokisiz bugun to'y-bazmlar, uylarimiz intererdan tortib sanoat, umuman madaniy hayotimizni tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun, dizayner o'zi xizmat ko'rsatayotgan madaniy qatlarning ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarni bilishi, estetik bilimlarni ham egallagan bo'lishi taqozo etiladi. U yaratayotgan narsa-buyumlarning inson uchun qulay, kerakli, foydali, zamonaviy, ayni paytda axloqiy qadriyatlarimizga ham mos kelishi lozim. Buyumlar muhitini inson ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlariga muvofiqlashtirish uchun badiiy va ma'naviy-estetik qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ilmiy bilimlarning moddiy reallik bilan bog'liqligi, inson hayot faoliyatini sharoitlarini yaxshilashga qaratilganligini e'tiborga olgan holda, yangi texnologiyalarga tayanish eng maqbul va kerakli yo'ldir. "Dizaynerlik faoliyatining asosiy va o'ziga xos xususiyati morfologik va

aksiologik ideallar bilan real olamning ideal manzarasi orasidagi o'ziga xos universal mutanosiblikni aniqlashdan iborat” [7; s.33].

Iqtisodimizning sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tkazishda malakali kadrlar, o'z kasbining mohir ustalari, zamon talablari darajasidagi etuk, ma'naviy barkamol shaxslar asosiy hal qiluvchi rolni o'ynaydilar. Bu esa dizaynerlik kasbining mezonlarini aniqlash, uning ilmiy-nazariy, badiiy-estetik jihatlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Shunda dizayner o'z yaratuvchilik mehnatining natijasiga, bozordagi bahosi, qiymatiga qarab, u yaratgan moddiy yoki ma'naviy boylik o'zgalar uchun qanchalik muhim va zarur ekanligi, qanchalik sifatlari va zamon talablariga javob bera olishi, boshqa turli jihatlari asosida muayyan daromadga ega bo'ladi, jamiyatda muayyan obro'-ehtiromga, muayyan mavqe va maqomga sazovor bo'ladi. Dizayn mutaxassis tafakkurida obrazlilik va tizimlilikni uyg'un birlashtiradigan va voqelikka yangi ijtimoiy madaniy mazmun kirituvchi loyihalash amaliyoti [8.s.16]. Narsa va buyumlarni yaratishda estetik did, sinchkov zehn, faqm-farosat, mutaxassislik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish lozim. Dizayner didi, iste'dodi, mahorati natijasi o'laroq buyumlar estetik madaniyatimizning tarkibiy qismiga aylanadi. Dizayner inson his-tuyg'ulari, orzu-intilishlari, estetik idealini namoyon ettirishi bilan birga buyumni qadriyatga aylantiradi. Zero, “moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish, uni iste'mol qilish o'z-o'zicha qimmat va mazmunga ega emas. Asosiy mohiyat va mazmun bu yaratuvchanlik faoliyati asosida har tamonlama kamol topgan shaxsnинг shakllanishidir” [9.B.12].

Shuni xulosa qilish mumkinki, dizaynda bugun go'zallik, foydalilik, shakl va mazmun uyg'unligi, tejamkorlik, zamonaviylik kabi falsafiy-estetik mezonlar uning qadriyatilik mohiyatini yuzaga chiqaradi. “Dizayn postindustrial jamiyat sharoitida shaxsnинг o'z imkoniyatlarini amalga oshirish dunyonи aksiologik printsiplar asosida qayta qurish, o'zgartirish, usulidir [10. B. 38]”. Bu jarayonda dizayn san'at va texnika, aql va hissiyot, nazariya va tajribani uyg'unlashtirib umuminsoniy qadriyatlarni yaratuvchisiga aylanadi.

Ikkinchidan, zamonaviy dizayner inson bilan buyumlar o'rtasidagi estetik munosabatni mustahkamlash uchun milliy an'analarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish tamoyiliga tayanib ish ko'rishi lozim.

Uchinchidan, insonga “inson-texnika” tizimining tarkibiy qismi sifatida emas, balki uni avvalo madaniy mavjudot, ishlab chiqarish sub'ekti hamda ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy madaniy tavsiflarning butun bir tizimi sifatida e'tibor qaratish lozim.

To'rtinchidan, dizaynning qadriyatilik xususiyati yoshlarning o'zligini yo'qotib, individualligini namoyon qila olmaydigan ommaga aylanishiga emas, balki madaniyatli shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Bekmuratova N.A. Texnikaviy ijod va dizayn. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2006. B.217
2. Toffler B. Kelajak bilan to'qnashuv. // Jalon adabiyoti, 1998, №4, B.100
3. Q.Nazarov Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi.-Toshkent: Manaviyat, 1998. –121 b.
4. Mosorova N.N. Философия дизайна: Социальноантропологические проблемы: dis. dokt. filos. nauk: - Ekaterinburg, 2001. –S. 236
5. Medvedev Yu. Научные аспекты дизайна. Sankt-Peterburg . 2014, S.23
6. Oqilova K. O'zbekistonda dizayn nazariyasi //San'at, 2015.- №1
7. Bezmomin L.N. V mire dizayna. T.Fan. 1990,- S.33.
8. Rozenson A.V. Основы теории дизайна. SPB Piter, 2013. - s .345
9. Jalilov B. Shaxs va jamiyat. Milliy va umuminsoniy madaniyatlar uyg'unligi: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari . 2016.- 568b.
10. Chijikov, V.V. Dizayn i kultura: Monografiya. M.: MGUKI, 2006.- 361 s.

UDK: 316

**XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIAL JIHATLARI
TAHLILI**

M. Q. G'afforova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi

Annotasiya. Mazkur maqolada xotin-qizlar tadbirkorligining mazmun mohiyati, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlanirish borasida olib borilayotgan ishlarning sotsiologik tahlili hamda tadbirkorlik sohasida mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish yo'llari oolib berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar tadbirkorligi, bandlik, ishlab chiqarish, imtiyozli kredit, mental xususiyat, iqtisodiy savodxonlik.

Анализ социального аспекта развития женского предпринимательства

Аннотация. В данной статье раскрывается суть и содержания женского предпринимательства, социологический анализ проводимой работы по развитию женского предпринимательства, а также пути решения имеющихся проблем в сфере предпринимательства.

Ключевые слова: женское предпринимательство, занятость, производство, льготный кредит, ментальная особенность, экономическая грамотность

Analysis of the social aspect of the development of female entrepreneurship

Abstract. This article reveals the essence and content of women's entrepreneurship, sociological analysis of the work on the development of women's entrepreneurship, as well as ways to solve existing problems in the field of entrepreneurship.

Keywords: women's entrepreneurship, employment, production, preferential credit, mental peculiarity, economic literacy

So'nggi yillarda mamlakatimizning har tomonlama taraqqiy etishi borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shubhasiz, xotin-qizlar tadbirkorligi borasida ham amalga oshirilgan ishlar taqsinga sazovor. Jumladan, 2019-yil 7-martdagি O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid choratadbirlar to'g'risida"gi PQ - 4235-sonli Qarori. [1] bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan xotin-qizlar mehnat huquqlari hamda tadbirkorligini yanada qo'llab-quvvatlash hamda ularning erkin faoliyat olib borishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berishga qaratilgan meyoriy hujjat sifatida qabul qilinganligini e'tirof etib o'tish lozim.

Mazkur Qarorda qayd etib o'tilganidek O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, ularning mehnat huquqini kafolatlash shuningdek ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, respublikamizda xotin-qizlarning tayanchi va ularning manfaatlarini himoya qilish maqsadida faoliyat olib borayotgan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining faoliyati tahlil qilinib, uning vazifalar doirasi qayta ko'rib chiqildi, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo'linmalari, Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi va boshqa bir qator samarali ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunga kelib xotin-qizlar iqtisodiyotning qariyb barcha jabhalarida faoliyat olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar Qo'mitasi hamda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik bilan shug'ullanishga keng targ'ib qilish maqsadida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o'tgan 2018-yilning o'zida xotin-qizlar uchun 131 074 ta yangi ish o'rnlari yaratilgan bo'lib, shulardan 29 785 tasi korxona va tashkilotlarda, 8 679 tasi kichik biznes sohasida, 3 664 tasi kasanachilik, 8 967 tasi oilaviy biznes sohasida, 62 335 tasi ipakchilik sohasida hamda 18 623 tasi boshqa sohalarda ish o'rnlari yaratilgan bo'lsa, 2019-yilning dastlabki choragida 40 000 ta doimiy ish o'rnlari yaratilgan bo'lsa, 30 000 ga yaqin xotin-qizlar vaqtincha ish bilan ta'minlanganligi yuqorida bildirilgan fikrlarning isboti sifatida ko'rishi mumkin. Birgina 2019-yilning dastlabki uch oyi davomida 5 000 nafar xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlariga amaliy yordam ko'rsatildi [2].

Xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlash, tadbirkorlik sohasida samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudki ularni o'z vaqtida va samarali hal qilish orqali nafaqat xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga mamlakat iqtisodiyotini yanada yuqori marralarga olib chiqish uchun zamin yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan respublikamizning barcha hududlarida biznes inkubatorlar ko'rinishidagi «Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari» tashkil etildi. Mazkur markazlarning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

Birinchidan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilda bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga amaliy ko'maklashish;

Ikkinchidan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish;

Uchinchidan, ayollarning o'z biznesini tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo'llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'qitishni tashkil etish;

To'rtinchidan, tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlardan berish va amaliy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko'maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizasiya qilinishiga ko'maklashish;

Beshinchidan, norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro'yxatdan o'tkazish, «Hunarmand» uyushmasiga a'zo qilish orqali soliqlar va boshqa turdag'i imtiyozlardan foydalanishda hamda imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko'rsatish.

Umuman olganda tadbirkorlik xo'jalik yuritish uslubi bo'lib, ko'p asrlik rivojlanish evaziga rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida ustuvor mavqyega ega bo'ldi. Tadbirkor ishlab chiqarish ko'rsatkichlari omillarining shunday birlashuvi va qo'shiluvini ta'minlash uchun o'zining imkoniyatlaridan foydalanadi, u maqsadga erishishda yuqori foya olishni ta'minlab beradi. Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirishga intilish innovasiyalar bilan chambarchas bog'liqidir. Shuning uchun tadbirkorlik, resurslarga foydali mablag' sarflash, bozorga mahsulotlarni kiritish, yangi mahsulotlar yaratmay turib, amalga oshirish mumkin emas.

Xotin-qizlar tadbirkorligi xususida so'z yuritishdan oldin "tadbirkor" va "tadbirkorlik" atamalarining rivojlanish evolyusiyasiga nazar tashlasak. Mazkur tushunchalarni ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon (1680-1734) tomoniddan qo'llanilganligini ta'kidlab o'tish joiz bo'ladi. Uning fikricha, tadbirkor bu – xatarli sharoitda harakatlanuvchi inson. R.Kantilon nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy ta'minlanganlikni manbasi yer va mehnat hisoblanadi.

Olimming fikricha, tadbirkor bu barcha xarajat va xatarni o'z zimmasiga oladigan va oxir oqibatda mahsulot sotilishidan manfaatdor bo'ladigan shaxs bo'ladigan bo'sa, ayrim bir iqtisodchilar tomonidan tadbirkorlik jinsga millatga va yoshga ega emas degan fikrlarni ilgari surishadi. Shu nuqtai nazaridan mazkur xavf-xatarni oldini olish maqsadida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan tadbirkorlik faoliyatini kafolatlash siyosati kelgusida albatta o'zining ijobjiy natijasini ko'rsatadi, albatta.

Xohlagan soha bo'yicha yetuk salohiyatlari kadr tayyorlash uchun qanchadan qancha vaqt, mablag', ilmiy-amaliy bilim talab etiladi. Bu jarayon fonda inson kapitaliga sarmoya deb nomlanadi. Tadbirkor haqiqiy shu nomga loyiqligini o'z ongi va tafakkuri bilan his qilib anglaguncha ancha vaqt talab etiladi.

Afsuski iqtisodiyot fani asoschilar hisoblangan klassik olimlar tadbirkor shaxsi bilan unchalik qiziqishmagan. Ularning tahlilida tadbirkorlik faoliyati yetakchi g'oya bo'lib xizmat qilmagan. Xususan, ingliz iqtisodchi olimlari Adam Smit (1723-1790) va David Rikkardo (1772-1823) iqtisodiyotni o'zini o'zi boshqaradigan mexanizm sifatida tasavvur qilishgan va bu tahlillarda tadbirkor tushunchasiga o'rin topilmagan. Shunga qaramasdan A.Smit o'zining asosiy iqtisodiy asari hisoblangan "Xalqlarning boyliklari sabablari va tabiatni tahlili" asarida tadbirkor atamasiga to'xtalib o'tgan. Uning fikricha, tadbirkor konkret iqtisodiy g'oyani amalga oshirish va daromad olish maqsadida risk qiladi, chunki u yoki bu ishga kapital kiritish o'z o'zidan riskni talab etadi. Unga ko'ra olinadigan daromad qilingan risk uchun kompe5nsasiya hisoblanadi. A.Smitning mazkur qitobi AQSh mustaqillik deklarasiya bilan bir yilda qabul qilinganligi sababli bu ikki hujjat qaysi biri insoniyat uchun qanday tarixiy ahamiyatga egaligi haqida bahs yuritiladi.

Faqatgina, XIX-XX asr oralig'ida tadbirkorlik institutining roli va ahamiyatini anglab yetish boshlandi. Fransuz iqtisodchisi A.Marshall (1907-1968) ishlab chiqarishning uch klassik omili (yer, kapital,

mehnat) ga to'rtinchı omil sifatida tashkilotni kiritadi. Shu davrlardan boshlab tadbirkorlik tushunchasi keng o'rganilmoqda va uning funksiyalari o'rganilib borilmoqda.

Xotin-qizlar orasida innovasion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni targ'ib qilish orqali ham qaysidir ma'noda xotin-qizlar tadbirkorligining yangicha rakursda qarash imkonini yaratib beradi. Innovasion tadbirkorlik natijasi sifatida tayyor mahsulot (xizmat) ko'rildi, tadbirkor mazkur mahsulot (xizmat)ni iste'molchiga innovasion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va korxonaning daromadini inobatga olgan holda belgilangan narxda yetkazib beradi.

Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlik bu – xo'jalik yuritishning novatorlik jarayoni hisoblanadi. Uning asosida innovasiyaning yangi imkoniyatlarini doimiy izlash, xom ashyo bilan bog'liq muammolarning tezkor va xilma xil manbalar hisobidan yechimlarini topish degan tushunchalar yotadi. Bunday turdag'i tadbirkorlikda tadbirkor o'z xohishiga ko'ra yangi loyihami amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan riskni o'ziga olish va kechayotgan jarayon uchun molivaviy, ahloqiy, ijtimoiy javobgarlikni his qilgan holda olinadigan moddiy daromad va erishilgan natijadan qoniqish tuyg'ulari bilan bog'liq bo'ladi. Umuman olganda innovasion tadbirkorlik boshqa barcha tadbirkorlik sohalari uchun asosiy baza bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi demokratik yangilanish yo'lidan borar ekan, ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida bo'lGAN kabi O'zbekistonda demokratiya rivojlanishining muhim yo'nalishlari, mazmuni, strategik prinsiplari va erkinlashtirish vazifalari ustivor omil sifatida qayd etib o'tilmoqda. Demokratik davlat rivoji asoslarini yaratish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jamiyatning asosiy sohasi bo'lgan iqtisodiyotning yangilanmagan, ijtimoiy munosabatlarni erkinlashtirishsiz (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) idrok etib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti, modernizasiya nazariyasi va amaliyoti oldiga yangi vazifalarni qo'yadi, bunda davlat eng asosiy islo hatchi bo'lib, o'ziga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy modernizasiya – sanoatlashtirishning tatbiqi davomida, uning uchun zarur bo'lgan tadbirkorlik madaniyatini tashkil etishda shaxsiy mulkni, xususiy lashtirishda iste'molni nazorat qilish, hatto butun bir ijtimoiy sinf – o'rtalikta sinf mulkdorlarini shakllantirishdagi tashabbusni o'z qo'liga oladi.

Butun dunyoda kechayotgan global mashuvjarlar O'zbekiston Respublikasi va uning iqtisodiyotini ham chetlab o'tmasdan qolmadi. Har qanday obyektiv jarayon sifatida global mashuvjar ham barcha millat va davlatlarni o'z orbitasi tomon jalb qilib, barcha millat iqtisodiyotlarini yagona iqtisodiy tizimga birlashtirib, o'z faoliyat sarhadlarini kengaytirib boradi. Juhon iqtisodiyotining transformasiyalashtirish va mehnatni xalqaro taqsimlash sharoitida, tashqi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ayrim davlatlar konsolidasiyalashga, muntazam o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, mavjud manbalardan foydalanish samaradorligini oshirishga majbur bo'lmoqdalar. Bu ma'noda O'zbekiston Respublikasi istisno emas. Respublikaning rivojlanayotgan va kengayib borayotgan ichki va tashqi bozori jahon iqtisodiyotiga faol integrasiyalashuvdan boshqa chorasi yo'q. O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati va jahon iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, uning kelgusi rivojlanishi va iqtisodiyotining kelajagi mamlakatning global iqtisodiy tizimga integrasiyalashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki bugungi kunda O'zbekiston xuddi boshqa davlatlar kabi iqtisodiy o'sishning murakkab masalalarini yakka holda, ya'ni qolgan dunyo bilan mahsulot ayirboshlash jarayonlarida mehnatni xalqaro taqsimlashda keng ishtiroykisiz samarali hal qila olmaydi. Unga yosh suveren davlat sifatida xalqaro institut va tashkilotlarda faol ishtiroyk etish bilan birga global iqtisodiy tizimga chuqur integrasiyalashish lozim bo'ladi. Juhon iqtisodiy inqirozi ushbu integrasiyaning qanchalik chuqurligini, shu vaqtning o'zida rivojlanish siklik sharoitida yuzaga kelayotgan davriy pasayishlardan iqtisodiyotni himoyalashning milliy preventiv choralarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi. "O'zbekistonda qabul qilingan modernizasiya va islo qilish modeli kelgusida milliy manfaatlarni amalga oshirishni" o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, "yangisini yaratmay turib, eskisidan voz kechma" degan naqlga amal qilgan holda islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'zbekiston nafaqat ko'p sohali sanoat va tabiiy boyliklardan iborat raqobatbardosh usutvorliklarga, balki mavjud ilmiy-texnik salohiyat va malakali kadrlarga ega bo'lgan yirik ilmiy bazaga egadir. Bugungi kunda respublikada 220 dan ziyod ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalar, kichik innovatsion markazlar faoliyat yuritmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil 7 fevraldag'i ПФ-4749-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi

Farmonini tasdiqladi. Mazkur Farmonda iqtisodiyotga investisiya kiritish shuningdek innovasion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilishi ko'zda tutilgan ustivor vaziqalar belgilab berilgan. Unga ko'ra tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizasiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishda:

- ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma loyihamonlari amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishslash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishslash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ishlab chiqarish mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rmini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan [5].

Ma'lumki, "ayol tadbirkorligi" tushunchasi ifodalaydigan fenomenning mohiyatini ohib berish uchun avvalo unga ta'rif va tavsif berish, bu hodisaning genezisi va evolyutsiyasini o'rganish, jamiyatdagi boshqa sistemalar bilan bog'liqligini, struktura va funksiyalarini, ahamiyati va istiqbolini belgilash talab etiladi.

Mazkur jarayoni ijtimoiy tahlil qilish jarayonida tushunchaga quyidagi yangicha ta'rifni berish imkonи tug'ildi: "Ayollar tadbirkorligi" – bu gender munosabatlar doirasidan chiqadigan, ijtimoiylashgan biznes ma'nosiga ega bo'lgan, jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan, xotin-qizlarning kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga tayyorligi hamda shu faoliyat turi bilan amalda mashg'ul bo'lishini anglatadigan tushunchadir. Odatda, ayollar ta'limtarbiya, tibbiy va maishiy xizmat, yengil sanoat kabi sohalarda tadbirkorlikni yo'lga qo'yishga moyil bo'ladilar, binobarin, yangi yo'nalish bo'lgan "ijtimoiy tadbirkorlik"ni rivojlantiradilar. Ayol tadbirkorligi statusining sosial rollarga ta'siri: ona, turmush o'rtog'i, malakali mutaxassis funksiyalarini qo'shib olib borish ma'nosini beradi. Biznes olamida hech kim ayol kishining oiladagi bandligini, ona bo'lish istagini inobatga olmaydi. Va, aksincha, ziddiyat tamoyiliga ko'ra, bola-chaqa, uy-ro'zg'or ayol uchun ustivor bo'lsa, biznes – daromadga putur yetadi. Shuning uchun tadbirkor xotin-qizlardan juda noziklik bilan muvozanatni saqlash talab etiladi.

Kuzatishlar ko'rsatishicha, ayol kishi tadbirkorlik sohasida yutuqlarga erishgan sari uning sosial roli ham, oila va jamiyatdagi o'rni ham transformatsiyaga uchraydi. Bu, ayniqsa, axloqiy ma'naviy munosabatlarda muammolar keltirib chiqaradi. Zamonaviy ayol tadbirkorligi, bozor munosabatlarining murakkablashishi, "mulkdorlar sinfi"ning shakllanishi tufayli bir qator xususiyatlarga ega bo'lmoqda. O'zbekiston mustaqilligi arafasida va istiqlolning dastlabki yillarda ko'plab xotin-qizlar qo'shni davlatlardagi bozorlarga qatnay boshladilar. Bu ham tadbirkorlikning o'sha ilk davriga xos oddiy shakli edi. O'tish davrida faqat O'zbekiston emas, MDHning boshqa davlatlarida ham xotin-qizlar ijtimoiy ahvolining og'irlashishi, sog'ligining yomonlashuvi, ishsizligining ortishi kuzatildi. Hayotning eng katta og'irligi aksariyat hollarda ayollar zimmasiga tushdi. Erkaklar ishga zor bo'lib yurganda xotinlar uy ichkarisida, hatto hijobga burkanib o'ltirishi kerak, degan qarashlar ham kuchaydi. Xullas, "ayol tadbirkorligi" kattagina qarshilikni yengib o'tishi, o'zining ijtimoiy samaradorligini isbotlab berishi lozim edi. Ayol tadbirkorligi ixtiyoriy, erkin tarzda tashkil etiladi va olib boriladi;

- bizneschi ayollar o'z ishlariga ko'proq xotin-qizlarni jalb etish xususiyatiga egadir;
- ayol tadbirkorligi jismonan yengil vazifalarni bajarishga qaratilgan;
- tashqi stimulga va qo'llab-quvvatlashga ko'proq muhtoj bo'лади. O'tkazilgan tadqiqot davomida tadbirkorlik faoliyati mutlaqo ixtiyoriy, erkin faoliyat turi ekani, undagi tavakkalchilik (risk) o'zbek ayoli uchun, eng avvalo, oilasi, farzandlari osoyishtaligi, farovon yashashi uchun zarurligi ta'kidlanadi. Tadbirkor ayoldagi ushbu umuminsoniy fazilat xotin-qizlar psixofiziologik tuzilishiga muvofiq keladi;

ayollarning sertuyg'u, hissiyotga, emosiyaga beriluvchan ekanligi ko'p bor ta'kidlangan. Ular o'z faoliyatiga ham ushbu ruhiy holatlarni olib kirishga, baxsli mavzularni hal etishda

hissiyotga erk berishga intiladi. Shuning uchun bu xususiyatning paradoksal tomoni shundaki, tadbirkor ayollarda intuitsiyaga tayanish keng rivojlangan bo‘ladi;

ayolda hayotni asrash, qadrlash va sevish hissi kuchli rivojlangan bo‘ladi. Ushbu his tuyg‘u tufayli tadbirkor ayollar o‘z atrofiga huddi shunday tuyg‘ularga ega xotin-qizlarni tezlik bilan to‘play oladi va birlashtiradi. Bunday xotin-qizlar, yig‘ilishdan yoki tadbirkor ayol bilan ishlashga rozi bo‘lganida mablag‘, daromad orttirishdan ko‘ra dili diliga yaqin hammaslak, sirdosh, dugona uchratganidan xursand bo‘ladi;

ayollar zaifa emas, ular raqobatda faoliyat ko‘rsatishga qodir. Tadbirkor ayollar ishchan xotin-qizlarni o‘z atrofiga to‘plaganida raqobatdosh muhitda yashashga, ishlashga to‘g‘ri kelishini unutmaydi. Ulardagi introspektiv xislatlar birgalashib harakat qilishi jarayonida ekstrospektiv yondashishga aylanadi, xizmat turlarini kengaytirib, raqobat muhitida yashashga, ishlashga chorlaydi. Sharq ayoliga xos xislat shundaki, u tadbirkor sifatida raqobatdoshini yengish, bankrot qilish, bozordan siqib chiqarish uchun emas, balki raqobatda o‘ziga ishongan subyekt sifatida qatnashishni ko‘zlaydi. Sharqona odob, axloq normalariga rioya etish, mehnat qilib obro‘, foyda topish o‘zbek tadbirkor ayollariga xos xislatdir. Xotin-qizlar duch kelgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga jur‘at etavermaydi. Ularga jismonan yengil vazifalarni bajarish yoqadi. Shuning uchun ham sanoat, qurilish, tog‘-konchilik va geologiya qidiruv ishlari, muhofaza xizmatlari kabilarda ayollar tadbirkorligi deyarli uchramaydi. Ijtimoiy hayotda ba’zan uchrab turadigan ochiq yoki pinhona segregasiya, ya’ni jinsiga qarab odam ajratish va konvergensiya aynan ayol va erkak munosabatlarda, ularning gender aloqalarida aks etib keladi. Agar segregasiya ko‘rinishlari qoralansa, hatto unga qarshi xalqaro hujjatlar, konvensiyalar qabul qilingan bo‘lsa, konvergensiya, ya’ni turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zaro yaqinlashish ijtimoiy borliqning atributi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda zamonaviy tadbirkorlik ayollar yoki erkaklar ishbilarmonligidagi segregasiyani atayin chuqurlashtirish, tafovutlarga urg‘u berishda emas, balki ularning differensial xususiyatlarini bilish uchun muhimdir, degan xulosaga kelingan. Bunday yondashuv tadbirkorlikning immanent belgilarini chuqurroq bilishga, uni tashkil etish va boshqarishning samarali mexanizmlarini topishga imkon beradi.

Fuqarolik jamiyati inson huquq va erkinliklari ustuvorligini tan olgan, ularni ta’minalash va himoya qilishni o‘z asosiy maqsadiga aylantirgan jamiyatadir. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini himoya qilish ham uning asosiy hususiyatlaridan biriga kiradi. Shu bilan birga avvalo tadbirkorning o‘zi unga tegishli ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan keng foydalanishi, ularni himoya qilishga intilishi darkor. Shu o‘rinda aytish joizki, ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-huquqiy va mulkiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida o‘z ifodasini topgan. Asosiy Qonunning 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb ta’kidlangan [6]. Mazkur modda nafaqat xalqaro huquq normalariga muvofiq, balki ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning mavqyeini oshirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Ayollar tadbirkorligini ijtimoiy-huquqiy asoslari ham mazkur normaga asosan tashkil etiladi va qo‘llab-quvvatlanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 07.03.2019 y. PQ - 4235-sonli “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.03.2019 y., 07/19/4235/2727-son
2. Sh.Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining 20-sessiyasi yalpi majlisidagi sozlagan nutqi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil, 7 mart. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagи nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/2417>
4. Ma’lumotlar muallif tomonidan 2019 -yil yanvar-fevral oylarida o‘tkazilgan sosiologik tadqiqotlar natijasida olingan.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni. 07.02.2017-yil
6. «Xalq so‘zi» gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018 y., 03/18/498/2051-son; 06.03.2019 y., 03/19/527/2706-son)

UDK: 316.7

SHARQ MUTAFIKKIRLARINING OILA MUSTAHKAMILIGI TO'G'RISIDAGI QARASHLARI**A. H. Xudoyberdiyeva**

*Navoiy davlat konchilik instituti
anorabonus.xudoyberdiyeva@bk.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining keng qamrovli qarashlari bilan insonni qanday qilib baxtli hayotga yo'llash mumkinligi borasidagi fikrlari yoritib berilgan. Oila muqaddasligi, uning barqarorligi va bardavomligini saqlash borasida Qur'oni Karim va hadislarda alohida e'tibor berilgan, shuningdek, farzandlarning nasliy pok bo'lishini hisobga olib, bo'lajak qaynota va qaynonalarni tanlash zaruriyati o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Bu fikrlar bugungi kunda ham hayotimizda o'z aksini topgan bo'lib, o'zbek oilasi o'zining bolajonligi, ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarining samimiyligi, or-nomusning kuchliligi, yoshlarga izzat, keksalarga hurmat kabi fazilatlari bilan alohida ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Oila, Avesto, Qur'oni karim, jamiyat, burch, Qobusnama, metodika, farzand tarbiyasi, oila mustahkamligi, oila boshqarish.

Взгляды восточных мыслителей о прочности семьи

Аннотация. В этой статье освещены широкие взгляды восточных мыслителей, о ведение счастливую жизнь человека. В священным Коране и хадисах уделяется особое внимание на сохранении святости семьи, ее стабильности и преемственности, а также необходимости выбора будущей свекрови с учетом здоровья детей. Эти идеи до сих пор отражаются в нашей жизни сегодня, и узбекская семья характеризуется такими качествами, как любовь ребенку, искренность отношений между родителями и детьми, сила достоинства, уважение к молодежи и пожилым людям.

Ключевые слова: Семья, Авесто, Коран, общество, долг, референция, методология, воспитание детей, семейная солидарность, управление семьей.

Views of Eastern thinkers about family strength

Abstract. In this article, the views of the Eastern thinkers on how to lead a person to a happy life with a wide range of views have been highlighted. In the holy Qur'an and Hadith, special attention is paid to preserving the holiness of the family, its stability and continuity, as well as the need to choose the future mother-in-law, taking into account the health of children. These ideas are still reflected in our lives today, and the Uzbek family is characterized by such qualities as love for the child, sincerity of relations between parents and children, strength of dignity, respect for young people and older people.

Keywords: Family, Avesto, Quran, society, duty, reference, methodology, parenting, family solidarity, family management.

Kirish. Nikoh masalasi, oila munosabatlari azal-azaldan insoniyatning keng ilmiy-ijtimoiy jamoatchiligi diqqat markazida bo'lib kelgan eng dolzarb masalalardan biri oila qurish ulkan voqelik. Bu nafaqat milliy, balki umumbashariy qadriyat.

Oila instituti asrlar mobaynida ajodolarimizning bilim va tajribalari, madaniy qadriyatlarasi asosida, shuningdek, zamondoshlarimizning erishgan va erishayotgan yutuqlari negizida shakllanib, taraqqiy etmoqda. Jahon fani va madaniyatiga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyolik donishmandlar o'zlarining keng qamrovli fikrlari bilan insonni qanday qilib baxtli hayotga yo'llash mumkinligi borasida ham fikrlar bildirib o'tishgan. Ular o'zlarining yaratgan asarlarida totuv oila qurish baxt-iqbolga eltuvchi ishonchli yo'llardan ekanligini aytib o'tishgan.

Asosiy qism. Agar biz o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqining oilaviy an'ana va urf-odatlari juda qadim zamonlardan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri bo'lgan "Avesto" da oila inson salomatligi, kamolotining manbai sifatida ulug'lanadi. Asarning bosh qahramoni Zardushtning zamindagi eng muhtaram go'sha qaysi go'sha? – degan savoliga yaxshilik va ezguliklar xudosi bo'lmish Axura Mazda: "Agar inson uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga, mollariga o'rin ajratib bersa, em-xashagi ko'p bo'lib, chorvasi va itlari to'q yashasa, uyida noz-ne'matlar muhayyo bo'lib, xotini va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l -ko'l bo'lsa, o'sha hudud muhtaramdir" – deb javob beradi.[1] Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" da keltirilgan oila va sha'riy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning

burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g'oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. SHuningdek, "Avesto" da oila-nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Unda qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iy man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, bir yo'la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor ekanligi ayтиб о'tilgan.Oila muqaddasligi uning barqarorligi va bardavomligini saqlash borasida Qur'oni Karim va hadislarda alohida e'tibor berilgan shuningdek, farzandlarning nasliy pok bo'lismi hisobga olib, bo'lajak qaynota va qaynonalarni tanlash zaruriyati o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo'lgan har bir ota-onaning bo'lajak qudalar naslini surishtirishlari yoxud har bir musulmon o'zining "yetti pushti" ni bilishi lozim, degan talablar ham islomiy ma'naviyatdan kelib chiqqan. Qur'oni Karimning "Baqara", "Niso" suralarida oila, oilaviy munosabatlari va oilaviy tarbiya masalalariga alohida urg'u berilgan. Bu fikrlar bugungi kunda ham hayotimizda o'z aksini topgan bo'lib, o'zbek oilasi o'zining bolajonligi, ota-onsa va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarining samimiyligi, or-nomusning kuchliligi, yoshlarga izzat, keksalarga hurmat kabi fazilatlari bilan alohida ajralib turadi. Dinimiz Islom ta'limotida oilaviy hayot muqaddas narsa hisoblanadi. CHunki, oila jamiyat binosining g'ishti, bir bo'lagidir. Agar binoning g'ishtlari sog'lom bo'lsa, bino ham mustahkam bo'ladi, aks holda bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi. Aynan shuning uchun dinimizda oila masalasiga benihoya jiddiy e'tibor qaratiladi, uning mustahkamligi, er-xotin o'rtasidagi mehr-muhabbat davomiyligini ta'minlash uchun dinimiz Islom o'ziga xos qonun-qoidalarni joriy qilib qo'ygan. Oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari bo'lmiss er va xotinning har biriga o'ziga xos burch va vazifalarni yuklagan, bir-birlariga nisbatan haq va huquqlarni belgilab bergan. Agar er va xotin mazkur qoidalarga amal qilishsa, bir-birlariga nisbatan zimmalaridagi burch va mas'uliyatlarini his qilib, sidqidildan ado etishsa, bunday oila baxt va saodat qasriga aylanadi. Bunday namunaviy oilada tug'ilgan farzandlar ham go'zal tarbiya topadilar va kelajakda ulardan jamiyatga foydasi tegadigan buyuk insonlar yetishib chiqadi. Bordiyu, oila boshliqlari ya'ni er va xotin bir-birlarining haq-huquqlarini tanimasalar, balki, ularni poymol qilsalar, tabiiyki, unday oilada tinchlik va xotirjamlit bo'lmaydi, o'zaro mehr-muhabbat zavol topadi va oila parokanda bo'lisch va parchalanish xavfi ostida qoladi.

Dunyoga mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobi inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, denga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur "Fozil odamlar shahri" va "Baxtsaodatga erishuv haqida" asarlarda bayon etadi. Farobi keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt –saodatga erishish yo'llari haqida gapirib, shunday deydi: "Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". SHuningdek, "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur"ligini ta'kidlaydi.

SHarq mutafakkirlaridan yana biri –Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlarini ham alohida e'tiborga loyiqdir. Beruniy o'z qarashlarida, ayniqsa, xotin – qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'zining "Minerologiya" asarida oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi va shunday yozadi. "Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oljanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo'lsang, u senga xizmatchi bo'ladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlargina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma." [2]

Abdulloh ibn Jafar ismli ota o'z qizini turmushga chiqarayotib shunday deydi:

- Sen rashk qilishdan saqlangin, chunki bu ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaversang nafratni uyg'otadi. YAxshisi, sen ering bilan xushmuomala bo'lgin, bu har qanday sehr-jodudan yaxshidir va suvdan foydalangin, bu xushbo'y narsalarning ichida eng birinchisidir.

Beruniy o'z qarashlarida oila tinch bevosa aqlli, farosatlari, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida urg'u bergan. Axloq-odob egasi bo'lувchi inson, eng avvalo, o'zining yurish-turishi, muomala madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida namuna bo'lishi kerakligini uqtiradi: "... Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir." [2]

Oilaviy munosabatlar masalalariga oid o'zining diqqatga sazovor qarashlari bilan ajralib turuvchi mutafakkirlardan biri- Abu Ali ibn Sinodir. Allomaning, ayniqsa, ayollar hayotda qanday bo'lislari kerakligi haqidagi qimmatli fikrlari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Uning "Tadbiri manzil" asaridagi "Afsofiy behtarin zanho" bo'limida ayollarning yaxshi xulqli bo'lishi haqida so'z boradi va mazkur asarda ayollar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lislari lozimligi ta'kidlandi:

1. Bilimli bo'lsin.
2. U dinga ishonishi kerak.
3. Uyatchan, sharm-hayoli bo'lsin.
4. Tabiatan jasur bo'lsin.
5. O'z erini qattiq sevsin.
6. Tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'yasin.
7. Ezma bo'lmasin.
8. O'z eriga bo'ysunsin.
9. To'g'ri, kamtar va farosatli bo'lsin.
10. U hech qachon o'z shaniga dog' tushirmas.
11. Eri bilan ehtiyyotkor bo'lib, uning hurmatimi joyiga qo'yib, xushmuomala bo'lishi shart.
12. U o'z vazifasini va burchini yaxshi bilsin.
13. Xotin oila xo'jaligidagi narsalardan to'g'ri, tejab foydalanishni bilsin.
14. U o'z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotsin.[3]

Ibn Sino ayollarga ana shunday murakkab va hayotiy vazifalarni yuklaydi. Bu o'z navbatida oilani mustahkamlashga turtki bo'ladi. Mutafakkir "Eng yuksak sevgi-bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini sahovatli qiladi, uni oq ko'ngil va jozibali kishiga aylantiradi" deb ta'kidlaydi. Mutafakkirning talqin etishicha, sevgi inson zimmasiga juda katta axloqiy, ma'naviy va huquqiy ma'suliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi deganda oshiqlik emas, balki oshiq-ma'shuqlikni tushunadi. Oshiq-ma'shuqlik bilan turmush qurish oila mustahkamligining asosi sifatida ta'kidlanadi. Ibn Sinoning fikricha: Tangri taolo insonga shunday kuch-qudratni in'om etadiki, u orqali ezzulik, yaxshilik ("xayr")ni, yomonlik ("sharr") dan, aqliy kamolot, yetuklik ("rashad") ni yolg'on-yaxshi, adashuv ("gumrohlik")dan farq eta olish imkoniyati paydo bo'ladi.[3]

Yusuf Xos Hojibning mashhur "Qutadg'u bilig" asarida ham turmush o'rtoq tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarning oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o'rni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar keltiriladi.

Kaykovus o'zining "Qobusnomा" asarida ota-onani e'zozlash xususida ajoyib fikrlarni bildirgan. Kitobdagи assosiy g'oya- yoshlarni ota-onani hurmat qilishga, e'zozlashga chaqirishdir. Muallif ota-ona o'z farzandi uchun, hatto "o'limga ham tayyor" ekanligini ta'kidlab, o'z navbatida, ularni aslo ranjitmasliklari, aksincha shirinsuxanlik bilan munosabatda bo'lislarni uqtirib: "bir farzandki, oqil va dono bo'lsa, ota-onan mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmag'ay" [4] - deydi hamda bu fazilat aqlli va dono farzandga xos narsa ekanligini qayd etadi.

Mutafakkir ota-onasi haqqini bilmak xususida g'oyat muhim bir fikrni bayon etadi: "Nima eksang, shuni o'rasan" degan o'zbek va tojik xalqlari uchun mushtarak bo'lgan maqolni ishlatib, oilada bola tarbiyasining yo'lga qo'yilishi ana shu maqol asosiga qurilsa, mos ish tutilgan bo'ladi, deb hisoblaydi. Asarda yoshlarning axloq-odob, tarbiya, hunar va mehnatga munosabatiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kaykovus o'g'liga nasihat bera turib, shularni uqtirgan: "...agar o'g'lingni uylantirmoq va qizingni erga bermoq tilasang, zinhor o'z qarindoshlarining bila berishib-olishmag'il. Begonadin xotin olgil, nedinkim, o'z qarindoshlarining olmasang ham ular sening bila go'sht, qondek yaqindurlar. Boshqa qabiladin xotin olgil. Bu bilan bir qabilani ikki qabila qilmish bo'lgaysan, begonani o'zingga qarindosh qilgaysan, toki bir quvvating ikki bo'lgay, ikki tarafdin madading va ko'maging ko'paygay".[4]

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, etti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligrini, jismongan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusrlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim"[5]

Buyuk alloma Alisher Navoiyning er-xotin munosabatlari, burchlari, ayollar fazilati, ularning oilada tutgan o'rni haqidagi qarashlari beqiyosdir. "Mahbub-ul-qulub" asarining "Uylanish va xotinlar to'g'risidagi" fasilda mutafakkir uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fazilatlari

haqida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Navoiy ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqil bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi".[9]

Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o'zining "Navodir ul-vaqoe" ("Nodir voqealar") nomli asarida "Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati" haqida batafsil bayon qilgan. Mutafakkirning fikricha, inson muayyan yoshga etgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo bo'ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunchaga ega bo'ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmoq, hurmat qilmoq har bir erkak (er) ning vazifasi ekanligini aytib o'tadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istiklari, maqsadlariga etishib yashashdir. Ahmad Donish oilaviy baxt ko'proq xotinlarga bog'liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne'mat yo'qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo'lidadir, degan fikrlarni hamda oila qurish motivlarini kengroq yoritib beradi.[10]

XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat oila masalasiga va uning jamiyat hayotidagi tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Allomaning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ota-onsa, farzandlarning huquq va burchlari, farzand tarbiyasi haqidagi qarashlari chuqr yoritib berilgan. Donishmand mazkur asarda uylanish va bo'lajak er-xotin, birinchi navbatda, nimalarga ahamiyat berishi lozimligi haqida qimmatli fikrlarini ilgari suradi.

Adibning "Oila" asarida esa uylanmoq zarur bo'lganda qanday xotinni tanlash lozimligi, mahr va to'y qanday bo'lishi kerakligi, er-xotinning qanday yashamoqliklari, ota-onaning haq-huquqlari va qizlarning ilm olishlari xususidagi qimmatli fikrlari diqqatga sazovordir.

Oila-nikoh munosabatlarini o'rganish tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oila institutini uning mustahkamligini ta'minlash tom ma'noda jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida shakllantirishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

Birinchidan, O'zbekistonda oila nafaqat avlodlar davomiyligini ta'minlaydi, balki ijtimoiy hayotni insonparvarlashtirishning muhim omili hisoblanadi va shundan kelib chiqib, barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni dolzarb ekanligiga alohida e'tibor qaratish kerak;

Ikkinchidan, oila a'zolarining har biri o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlik, insonsevarlik, olivjanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi muhim. Bunday qadriyatlarga oilada amal qilinishi shunday ma'naviy muhitni yaratadiki, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida oila mustahkamligi, barqarorligi, oila tinchligini asrab-avylash, eng yaqin kishisining baxti uchun o'z shaxsiy manfaatlarini qurban qilish kabi tushunchalar shakllanadi;

Uchinchidan, oilani mustahkamlashda ota-onalarning, keksa avlodning mahalla-kuy, qo'ni-qo'shnilarining roli alohida ekanligi, ularning boy hayotiy tajribalari bolalar tarbiyasida ham, oilani mustahkamlashda ham hamon kerak bo'layotgani bir so'z bilan aytganda, bularning barchasi oila mustahkamligining ma'naviy-axloqiy asosi ekanligiga e'tibor berish lozim.

Xulosa. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy barkamol, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bunday sharoitda oilada farzand tarbiyalash borasidagi an'analarimiz davr ruhi va ehtiyojlari bilan chambarchars bog'lanib, yanada o'z ahamiyatini yaqqolroq namoyon etmoqda. SHu sababli oilani mustahkamlash, uming ma'naviy-axloqiy borasidagi o'rnini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatining asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Hozirgi davrda oila, yosh oila mustahkamligi oilaviy munosabatlar, oiladagi ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya va uning xususiyatlarini tadqiq etish muhim muammolardan bir bo'lib hisoblanadi. Keyingi yillarda oilada kelishmovchiliklar, o'zaro nizolar, ajralishlar soni tobora ko'paymoqda. Buning natijasida hozirgi davrda noto'liq oilalar soni ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda oila institutini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha qonunlar qabul qilishni, bu masalaga jamiyatimizning e'tiborini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. А.Маковельский. Авеста. Баку -1960.B 80-81
2. Abu Rayhon Beruniy. Minerologiya.- M., 1963.-B.256.
3. S.Rahimov. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida.-T.: "O'qituvchi", 1967. 99-b.
4. Kaykovus. Qobusnoma.-B.108
5. Ayol muqaddassan.-T., "YOzuvchi", 1999.-242-b.
6. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-Qulub.-T., 1966.13 jild.-244-b.
7. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe', - Dushanbe: "Donish", 1989.-339-b.

UDK: 316.35

SHAHAR EKOTIZIMINI BOSHQARISHNING TARIXIY BOSQICHLARI (SAMARQAND MISOLIDA SOTSILOGIK TAHLIL)

X.X.Xaydarova

Samarqand davlat arxitektura qurilish instituti

hilolahaydarova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada shahar ekotizimi tushunchasining mohiyati hamda ekotizimni boshqarishda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada Samarqand shahri ekotizimining boshqarilishi tarixiy kontekstda, statistik ma'lumotlar tahlili asosida ko'rib chiqilgan bo'lib O'zbekistonda bu borada amalga oshirilgan islohotlar, Samarqand shahari ekotizimining joriy holati, yutuqlari va istiqbollari haqida so'z yuritiladi. Maqola so'ngida shahar ekotizimini boshqarishda beshta vazifaga a'lovida e'tibor berish lozimligi tavsiya etilgan.

Kalit so'z: Shahar, ekotizim, ekotizimni boshqarish, hudud, atrof-muhit, shahar ekotizimining taxlili

Исторические этапы управления городской экосистемой (социологический анализ на примере Самарканда)

Аннотация. В этой статье приведено значение сущность городской экосистемы и реформы в управлении экосистемой города. В статье также рассматривается управление экосистемой Самарканда в историческом контексте с анализом статической информации и рассказывается о реализуемой реформы в Узбекистане, текущей состояние, достижении и перспективах накопленного в экосистемы города Самарканда. В конце статьи сформулированы пять важнейшие задачи, которые необходимо решить в управление экосистем городов.

Ключевые слова: Город, экосистема, управление экосистем, территория, окружающая среда, анализ экосистем города

Historical stages of urban ecosystem management (sociological analysis on the example of Samarkand)

Abstract. In this article, we give consequence the essence of the urban ecosystem and reforms in the management of the ecosystem of the city. The article also being considered the management of the ecosystem of Samarkand in a historical context and tells about the ongoing reform in Uzbekistan, the current state, achievements and prospects of the accumulated in the ecosystems of the city of Samarkand. At the end of the article, five most important tasks are formulated that need to be addressed in the management of the city's ecosystems.

Keywords: City, ecosystem, management ecosystem, territory, environment, analysis of the ecosystem

Mustaqilligimizning 29 yilligi mobaynida mamlakatimiz bo'ylab ko'plab ijobjiy o'zgarishlar yuz berdi. Kun sayin shahar va qishloqlarda ko'plab obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy shaharzozlik tufayli eski shaharlar markazlarini saqlab qolib, shaharlar qiyofasi zamonaviy binolar bilan uyg'unlashgan holda o'zgartirilmogda.

Bilamizki shahar bu o'zining doimiy va nisbattan anchagina katta aholisiga ega bo'lgan, sanoati rivojlangan, xizmat ko'rsatish tizimi mavjud, transport tizimiga ega, aholisining katta qismi fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan, shuningdek, boshqaruvin tizimi mavjud bo'lgan hududdir. Har bir shahar o'z ekotizimiga ega bo'lib, ular bir-biridan farqlanadilar. Ekotizim bu birgalikda yashaydigan organizmlar va ular yashaydigan sharoit majmui [2] bo'lib, tabiiy va sun'iy holatda bo'lishi mumkin. Shaxar sun'iy ekotizim bo'lib, insoniyat aholi uchun qulay sharoitlar yaratilishi evaziga tabiiy ekotizimni sun'iy holatga aylantirilishiga erishadilar. Shaharlar ekotizimining turlicha bo'lishi, ularning qanday tarkibda tuzilishi dastavval ob-havoga, geologik sharoitga hamda insoniyatning ta'siri doirasiga bog'liq. Shahar ekotizimining buzilishi atmosferaning buzilishiga, suvning ifloslanishiga, tuproqning sifatiga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, insonning rivojlanishiga, jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlarning o'rnatilishiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ayni damda esa, ilm ahli va intelektual salohiyatlari qatlama vakillari shaharda turib, ushbu dolzarb masalaga turli xil yechimlar topishga intilmoqdalar. Rossiyalik olima N.V.Karpova "Shahar qazib olinayotgan resurs manbalaridan yonilg'i, oziq ovqat, suv ko'rinishida

iste'mol qiladi. Natijada shahar ekotizimi faoliyati nafaqat moddiy va ma'naviy boylik ishlab chiqarishda shu bilan birga atrof muhitni ifloslanishida, informatsion "shovqin" hosil qilishda hamda iqlimni o'zgartiradigan turli hil chiqindilarni ko'paytirishda ham namoyon bo'lmoqda" [3] deya ta'kidlaydi. Darxaqiqat, shahar ekotizimi insoniyatdan doimiy ravishda e'tiborni talab etadi. U insoniyat va jamiyat tomonidan to'g'ri boshqarilishi lozim.

Shahar ekotizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishi va boshqarilishi nafaqat shaharning o'sishiga balki davlatning tez sur'atlarda rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Shu sababli shahar ekotizimini boshqarish va bu jarayonda nafaqat iqtisodiy, xuquqiy, madaniy omillar balki ijtimoiy omillarni ham o'rganish zarur.

Har bir davlat tarixiy taraqqiyot bosqichida o'z hududidagi ma'lum bir shaharlarning ekotizimini boshqarishga azal-azaldan alohida e'tibor berib kelganligini bilamiz. Shu sababli ular markaziy maqomga ega bo'lib kelishgan. Xususan, Samarqand shahri ekotizimini boshqarish misolida buni yoqqol ko'rsak bo'ladi.

Tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz Samarqand hududlarini obodonlashtirish uchun ko'p say harakatlar amalga oshirilganligini kuzatishimiz mumkin. Samarqand hududlari uzoq vaqtlardan buyon markaziy hududlardan biri bo'lib kelganligi buning amaliy tasdiqidir. Tarixiy tahlil metodi asosida yozma manbalar o'rganilganda Samarqand shahri to'g'risidagi bir muncha diqqatga sazovor bo'lgan ma'lumotlar ko'zga tashlandi. Xususan, 1939 yilda olim N.G.Xarlamov tomonidan so'nggi paleolitga oid uchta: yuqori, o'rta va quyi madaniy qatlamlar topilgan bo'lib, ushbu qatlamlar so'nggi paleolit davrida ham shahar o'ziga xos ekotizimdan iborat bo'lganini bildiradi. Bundan tashqari miloddan avvalgi IV asrdan milodiy VI asrgacha Sug'd davlatining poytaxti, toki poytaxt Buxoroga ko'chirilgungacha ya'ni 889 yilga qadar Somoniylar davlatining ham poytaxti bo'lib [2], bu davrlarda ham shahar o'zgacha qiyofani aks etgan. Xususan, buyuk sarkarda bobokalonimiz Amir Temur davrida ham saltanatning markazi Samarqandga, uning ekotizimiga alohida e'tibor qaratilib, hattoki ko'plab sayohatchilarni hayratga solgan o'sha davrning ekotizimi bugungi shahar ekotizimining qiyofasini boyishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda Arab sayyohi Ibn Battuta o'z asarida Samarqandni O'rta Osiyodagi eng katta, go'zal va obod shaharlardan biri sifatida ta'riflaganligi yohud vinetsiyalik olim Marko Polo Samarqand haqida "Sonmarkon kapa va mashhur shahar" [2] deb ta'riflaganligidan ma'lumki, Samarqand shaharining ekotizimi nafaqat bugun balki uzoq tarixiy davrlardan buyon boshqarilib kelinmoqda.

Samarqand shahri 1925–1930 yillarda ham O'zbekiston poytaxti vazifasini o'tagan bo'lib, mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan buyon respublikamizning yirik madaniy markazlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda Samarqand shahrining umumiyligi maydoni – 120 km² bo'lib, dastlabki ma'muriy tumangarga bo'lish 1939 yilda amalga oshirilgan. 1939 yil 10 fevralda Samarqand shahri 3 ma'muriy tumanga "Bog'i-Shamol", "Jeleznodarojniy", "Siyob" tumanlariga bo'lingan. 1950 yilga kelib esa bu uch tuman bekor qilinib, faqatgina 1976 yilga kelibgina bu tumanlar yana qaytdan tashkil etilgan. Biroq, tumanlarning bittasini nomi, xususan, "Bog'i-Shamol" so'zi "Bog'ishamol" so'ziga o'zgartirilgan. 1990 yilga kelib esa Samarqand shahridagi "Jeleznodarojniy" nomli tumanning nomi "Temiryo'l" nomiga o'zgartirilishi nafaqat Samarqand shahri aholisi uchun, shuningdek O'zbekiston aholisi uchun ham ijobjiy holat bo'lgan edi. 2003 yilda qabul qiligan qarorga binoan esa 2004 yil 1 yanvardan boshlab Samarqand shahridagi ushbu uch tuman ham bekor qiliindi [2].

Shahar ekotizimini o'rganish jarayonida Samarqand viloyati, xususan, Samarqand shaxridagi ekologik ahvolni statistik ma'lumotlarga tayangan holda tahlil etish, Samarqand shahri ekotizimini boshqarishda to'sqinlik qiluvchi omillarni ko'rsatib o'tishni lozim deb bildik. O'zbekiston statistika qo'mitasi atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarni O'zbekiston Respublikasi miqyosida o'rganib chiqdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand viloyatida 52,1 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga chiqarilgan. Toshkent (336,6), Qashqadaryo (152,2), Buxoro (74,8), Sirdaryo (60,5), Farg'ona (53,2) [4] viloyatlariga nisbatan ancha past ko'rsatkich bo'lsada, ushbu ko'rsatkichning o'zi shaxardagi minglab insonlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi uchun hamda jamiyat a'zolarining ruhiy holatining o'zgarishi uchun yetarli.

Samarqand shahrining ekotizimida transport sohasi ham alohida ahamiyatga molik bo'lib, havo, temir yo'l va shahar ichki transplorti aholi uchun xizmat qilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, 2016 yilning oxirida O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqandda yangi tranvay liniyalari qurilishi boshlanib, hali-hanuz shahar ichki transportiga katta e'tibor berilmoqda. Hozirda Samarqand shahrida jamoat transportidan avtobuslar, marshrutli taksilar, xususiy va davlat taksi xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Shaharda avtoqatnovlarning ko'payishi kishilar manzilini yaqinlashtirishga ko'maklashsada biroq ular hududda keragidan ortiq shovqinni keltirib chiqarayotganini unutmasligimiz lozim. Shu sababli avtoqatnovlarni doimiy nazorat qilish, funksional

vazifalarini to‘g‘ri va vaqtida amalga oshirilishini boshqarish shahar ekotizimini boshqarishning muhim vazifasidir.

Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar ham Samarqand shahri ekotizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biridir. 2020 yil 1 mart holatiga ko‘ra Samarqand viloyatida 32 736 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, xususan, uning aksariyat qismi Samarqand shahri hududiga to‘g‘ri keladi. Xususan, O‘zbekiston–Turkiya qo‘shma korxonasi –SamKochAvto, O‘zbekiston–Chexiya qo‘shma korxonasi – Praga, O‘zbekiston–Latviya qo‘shma korxonasi – BravoSut shular jumlasidandir. Albatta, mamlakatimizdagi korxonalar va tashkilotlarning olib barayotgan faoliyati iqtisodiy o‘sishga xizmat qilishi mumkindir, biroq korxonalar tomonidan chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar shu yerda isteqomat qiluvchi aholi uchun anchagina zarardir. Shu sababli korxonalarни butunlay faoliyatiga chek qo‘yish muvofiq emas. Biroq bunga boshqacha yechim ham mavjud. “Samarasiz va zarar bilan ishlaydigan korxonalarни xususiyashtirish, monopoliyani tugatish kerak” [1] deb yurtboshimiz bejizga aytganlari yo‘q. Bu shahar ekotizimini boshqarishda eng oqilona siyosat desak adashmagan bo‘lamiz.

Samarqanddagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar ham shahar ekotizimining muhim bug‘ini bo‘lib, boshqaruv tizimida ularni ta‘mirlash va obodonlarshtirish ishlari doimiy ravishda davom etmoqda. Bugun Samarqand viloyatida 73 ta yirik tarixiy me’moriy yodgorlik [2] bo‘lib, Registon ansamblı, Shoxizinda ansamblı, Ruhobod maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Afrosiyobga tutash tepalikda joylashgan Hazrati Xizr masjidi va shu kabi ko‘plab yodgorliklar o‘zining go‘zallligi va tarixiyligi bilan ko‘plab sayyoxlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarning shahar ekotizimida mavjud bo‘lishining ikki tomoni mavjud bo‘lib, hududda bir tomonidan tashrif buyuruvchi kishilarning oshishiga olib kelsa, ikkinchi sotsiologik omillardan biri kishilarni bir tarix negizida birlashtirishga xizmat qilishini unutmasligimiz lozim.

Shahardagi shuningdek 67 ta mакtab, 10 ta oliy o‘quv yurti[5], 4 ta kutubxona, 2 ta kinoteatrning faoliyat olib borayotgani nafaqat xudud aholisining ma’naviy ma’rifiy ongini o‘sishiga, balki respublikadagi salohiyatning o‘sishiga xizmat qiladi va bu jarayonda shahar ekotizimining muhim bo‘g‘inlaridan ekanligi namoyon bo‘ladi.

2018 yilgi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra mamlakatimizdagi jami axborot resurs va axborot kutubxona markazlari 2902 tani tashkil etib, ularning 1932 tasi [4] Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda axborot resurs markazlarining ko‘payishi shaxar ekotizimini boshqarilishda faol fuqarolik pottsitsiyasiga ega fuqarolar bilan ishlashda muhim bo‘lib, bu sohada tashabbuskor yoshlarning yangicha g‘oyalari bilan ekotizimni asrashga erishish mumkin.

2018 yil Samarqand viloyatining 2,4 ming hektar er hududi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ro‘yxatiga kiritilib, ushbu jarayon Samarqand shahri ekotizimini boshqarishda ijobjiy holat bo‘ldi. Biroq, Toshkent viloyatining muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni 642,3 ming hektarni, Jizzax viloyatining muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni 68,5 ming hektarni, Qashqadaryo viloyatining muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni 84,9 ming hektarni [4] tashkil qilishiga nisbatan oladigan bo‘lsak bu ko‘rsatkich past bo‘lib, ushbu muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonining kengaytirilishi shahar ekotizimini boshqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilar edi.

Xujjalarni tahlil qilish asosida shahar ekotizimini o‘rganar ekanmiz, mamlakatimizda har yili shahar ekotizimini boyitish va zamonaviy shaharsozlikni qo‘llab quvvatlash maqsadida qonunchilikda bir qancha ishlar amalga oshirilganligini kuzatdik. Xususan, 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi dasturiga ko‘ra, Samarqand viloyatiga bu muddat oralig‘ida 290 milliard sumlik ikki yuzdan ortiq loyiha amalga oshirilishi rejalshtirilgan va amalga oshirilgan [1, 185 b].

Shu bilan birgalikda ““Toshkent-Samarqand” tezyurar temir yo‘l uchastkasi bo‘ylab joylashgan aholi punktlarining arxitektura qiyofasini yaxshilash va unga tutash hududlarni obodonlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ” (№493, 13.07.2017) gi, “2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” (№450, 30.06.2017) gi, “Samarqand viloyatida kichik sanoat zonalarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (№556.19.07.2018)gi, “Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti huzurida “Samarqand me’mor loyiha” loyiha qidiruv tashkilotini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi (№945, 27.11.2017) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori, “2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi (PQ-3609,16.03.2018) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori shahar ekotizimini boshqarish bo‘yicha amalga oshirilgan qonunchilikdagi eng ildam chora-tadbirlardan bo‘ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir shahar ekotizimini boshqarishda dastavval oqilona islohotlarni amalga oshirilishiga erishish kerak bo‘lsa, so‘ng amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmunini to‘g‘ri tahlil qilish va uni jadallashtirishda aholining ishtirokini kengaytirish lozim. Bu bilan

shuningdek Samarqand shahrining ham ekotizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga erishish mumkin. Albatta, bu jarayonda galadagi vazifalarning unutmaslik lozim:

Birinchidan, Samarqand shahrida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish lozim. Samarqand shahrida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni boshqa viloyatlarga qaraganda ancha kam.

Ikkinchidan, Shaharning ichida binolarning zikh qurilishiga yo‘l qo‘ymaslikka erishish lozim. Binoning zikh qurilishi haroratga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, kasallikning tez ko‘payishiga imkoniyat yaratishi bilan birgalikda shaharda iste’qomat qiluvchi shahar aholisining fotogeneziga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, shaharda ifloslantiruvchi moddalar atmosferaga ko‘p chiqarilgani bois Samarqand shahri ichida sun’iy muhitni nisbatan kamaytirish evaziga tabiiy muhitni ko‘paytirish lozim. Bog‘, kichik o‘rmonlar kabi tabiiy muhitni shakllantirish evaziga sun’iy muhitga biroz cheklov qo‘yilishi mumkin.

To‘rtinchidan, avtoqatnovlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim, ular bozorda tovar sotib olayotgan yoki tovar sotayotganday yondoshishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Zero, ko‘chalarda mijoz talashayotgan avtobus yoki taksilarning bir birlarini qisish asosida nimalarnidir bir birlariga tushuntirmoqchi bo‘lishganida bir qop kartoshkani olib ketayotganini emas, balki jamiyatda qandaydir muhim vazifani ado etishga shoshilayotgan insonlarni his etishlari lozim. Avtoqatnov oqilona yo‘lga qo‘yilsa, o‘z-o‘zidan shovqinning biroz bo‘lsada kamayishiga erishish mumkin.

Beshinchidan, shaharda ekologik toza va xavfsiz atrof muhitni shakllantirishda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish lozim. Bunda ijtimoiy sheriklik dastavval oila-shahar-tashkilotlar tizimi asosida tuzilsa, ikkinchidan, ijtimoiy hamkorlik shaharlararo yoki viloyatlararo kesimida shakllanishi maqsadga muvofiq. Bunda shaharlar ekotizimini boshqarishda zarur bo‘lgan tamoyillarni mujassam qilgan holda Dastur ishlab chiqishlari lozim bo‘lib, ushbu qonun qoidalarga shahar aholisi ham, shaharga yangi kelib joylashganlar ham amal qilishga majbur bo‘ladilar. Dasturga amal qilish jarayonini shahar rahbariyati ijtimoiy faoliyatga zarar yetkazmagan holda nazoratda ushlashi va shahar aholisi uchun sog‘lom atrof muhitni ta’minlashi kerak.

Yurtboshimiz “Sizlarni sharq durdonalaridan biri Samarqandga taklif etishdan mammunman. Samarqandda bebafo tarixiy madaniy ob’yeqtlnarni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rish, xalqimiz hayoti, mакtab, akademik litsey va kollejlarimiz, oliy o‘quv yurtlarimiz faoliyati bilan bevosita tanishishingiz mumkin” [1] deya dunyodagi turizmni Samarqand shahriga jalb etar ekanlar biz yoshlar shahar ekotizimini boshqarishga ko‘mak berishimiz va bu yo‘lda bir tanu bir jon bo‘lib shu jamiyatning a’zosi sifatida daxldor xissi ila harakat qilmog‘imiz kerak.

Adabiyotlar

- Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2 T. –T.: O‘zbekiston, 2018. 117 b.
- O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti.T.:2013. 96-114 b.
- Карпова Н.В. Город как урбоэкосистема: сущностное содержание и подходы к управлению. Экономика и экология территориальных образований. ISSN 2413-1474.2018. Т.2. №3. С.73-78.
- <https://stat.uz>
- dist.edu.uz elektron ta’lim platformasi.

УДК: 323.2

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЦЕНТРОВ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОБРАЗА ВЛАСТИ У ГРАЖДАН

III. А. Кодирова

Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан
E-mail: sharifa_k_93@mail.ru

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному анализу предоставляемых государственных услуг на основе проведенного эмпирического исследования в pilotном регионе, изучения правовых основ деятельности центров государственных услуг и их влияние на формирование образа государственной власти в сознании граждан. Далее, на основе изучения опыта зарубежных стран были разработаны рекомендации для повышения эффективности работы Центров оказания государственных услуг.

Ключевые слова: Образ государственной власти, принцип «Единого окна», электронное правительство, Центры государственных услуг, государственные услуги, качество оказываемых государственных услуг, органы государственной власти на местах.

Fuqarolarda davlat xokimiyati to‘g‘risida ijobiliy fikr shakllantirishda davlat xizmatlari markazlari faoliyatini takomillashtirish

Annotatsiya. Ushbu maqloda davlat xizmatlarini ko‘rsatishning tajribaviy hududda o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari va davlat xizmatlari markazlari faoliyatining huquqiy asoslari tahlil etilgan va ularni fuqarolar ongida davlat hokimiyati to‘g‘risidagi tasavvurini shakllanishiga ta’siri yoritilgan. Shu bilan birga, maqlada, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida davlat xizmatlарini ko‘rsatish markazlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat hokimiyati imidji, "Yagona darcha" tamoyili, elektron hukumat, davlat xizmatlari markazlari, davlat xizmatlari, ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifati, mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Improvement the activities of public service centers in the formation of a positive image of government among citizens

Abstract. This article is devoted to a comprehensive analysis of providing public services based on empirical research in the pilot region, studying of the legal regulations of public service centers and their impact on the formation of image on government bodies in the minds of citizens. Further, based on the study of the experience of foreign countries, recommendations were developed to improve the efficiency of the public service centers.

Keywords: The image of government power, the principle of “Single Window”, e-government, public service centers, public services, the quality of public services provided, local government.

Одним из главных факторов во взаимоотношениях народа и государства является образ государственной власти в сознании граждан, мнение народа, доверие государству и политике страны.

Мнение народа по отношению к государственной власти имеет ряд важных для развития страны влиятельных сторон. Одобрение гражданами государственной политики приводит к повышению уровню их доверия к государственной власти, что напрямую влияет на легитимизацию власти. Легитимизация власти как значимый процесс принятия, признания населением власти делает ее дееспособной, - с одной стороны, а с другой – позволяет кооперироваться народу с государством, обеспечивая образование синергетического эффекта, что ускоряет процесс развития страны.

Однозначно, в процессе формирование образа власти у населения первостепенную роль играет опыт взаимодействия граждан с представителями государственной власти. И первой инстанцией, где гражданин встречается с органами государственного управления является Центр государственных услуг, где населению предоставляются государственные услуги.

Очевидно, что развитие системы государственного управления Узбекистана сегодня происходит под влиянием стремительного прогресса информационного общества, углубления процессов глобальной интеграции и широкого применения информационно-коммуникационных технологий.

При этом, степень развитости, качество предоставления услуг выступают важными аспектами государственной политики: определяют удовлетворенность населения и формирование положительного образа власти.

Значимость данного аспекта государственной политики отмечается и принятыми, в связи с этим, нормативно-правовыми программами, где поставлена цель - совершенствование государственного и общественного строительства, системы «Электронное правительство», повышение качества и эффективности государственных услуг [1],

Соответственно, повышение качества системы оказания государственных услуг, удовлетворение интересов и потребностей населения, требуют изучения и совершенствования нормативно-правовой, административной и технологической базы.

В связи с этим, нами было проведено исследование, направленное на выявление текущих проблем в системе оказания государственных услуг, и разработку предложений по улучшению их качества в pilotном регионе Сариосийском районе Сурхандарьинской области.

Всего в социологическом опросе участвовало 108 человек – потребителей государственных услуг, интервью проводилось с 17 человек. В процессе изучения были охвачены следующие аспекты: правовая база деятельности ЦГУ, организационная структура, инфраструктура и качество оказываемых услуг.

На сегодняшний день, во многих странах мира внедрена система оказания государственных услуг по принципу «единого окна», где все государственные услуги консолидированы в одном органе. Помимо этого, в последнее время можно заметить активное внедрение системы электронного правительства, где большинство (или все) услуг(и) оказываются в онлайн-режиме.

При этом, необходимо дать **«определение основным терминам»**, связанными с предоставлением государственных услуг.

Необходимо разделять такие понятия, как «государственная», «публичная» и «социальная» услуга. «Публичные услуги» — это частные услуги, предоставляемые физическим и юридическим лицам государственными органами власти при непосредственном взаимодействии. С помощью такого рода услуг становится возможным удовлетворение общественного интереса. Социальные услуги тесно связаны с публичными услугами. Они могут быть оказаны любыми субъектами. В основном, они могут быть реализованы в отраслях социальной сферы [2]. Государственная услуга непосредственно связана с публичными функциями государства и вытекает из них. В частности, речь идет о таких услугах, как: лицензирование, сертификация, регистрация, оформление в собственность, выдача справок. Данная услуга оказывается государственными органами власти при непосредственном взаимодействии с заявителем [3]. Разделяют вынужденные и добровольные государственные услуги. Вынужденная услуга должна оказываться государственными органами власти только на бесплатной основе, за исключением тех случаев, когда при ее предоставлении заявитель должен оплатить государственную пошлину [4].

Под *государственной услугой* понимается «деятельность по предоставлению услуг органами государственного управления, государственной власти на местах и другими государственными организациями, осуществляемая по запросам заявителей, в том числе в уведомительном порядке, в пределах установленных полномочий данных органов и организаций, направленная на обеспечение реализации прав и законных интересов заявителей, предусмотренных законодательством» [5].

При этом, *результатом* считается «реализация прав, свобод и законных интересов заявителей, выраженная в осуществлении государственными органами соответствующих действий согласно регламенту оказания государственной услуги, в том числе предоставление заявителям соответствующей информации и документов» [5, там же].

В нашей стране проводится ряд реформ в данной сфере. Важным шагом к этому стало создание Агентства государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан и подчинённых ему Центров государственных услуг во всех городах и районах страны от 12 декабря 2017г. [6].

Центры государственных услуг (далее, ЦГУ) на сегодняшний день оказывают населению более 100 видов услуг, и, в перспективе, их количество планируется увеличить до 200, а также перевести большую часть из них на онлайн-обслуживание [7].

В первую очередь обратимся к анализу *нормативно-правовой базы АГУ*. Основной задачей Агентства государственных услуг (далее, Агентство, АГУ) [8], является реализация единой государственной политики в области оказания государственных услуг и комплексное совершенствование, и развитие данной системы. Для этого территориальные управления АГУ взаимодействуют в пределах своей компетенции с территориальными подразделениями других органов государственного и хозяйственного управления, органами государственной власти на местах и иными организациями; также и с секторами по комплексному социально-экономическому развитию при разработке и реализации «дорожных карт» по социально-экономическому развитию соответствующих территорий. Государственные органы и иные организации, услуги которых оказываются через центры государственных услуг, должны своевременно представлять информацию о реквизитах банковских и казначейских счетах для перечисления соответствующих средств, включая сведения об изменении данных счетов.

Решения Агентства, принятые в пределах его полномочий, являются обязательными для исполнения органами государственного и хозяйственного управления, органами исполнительной власти на местах, другими организациями и их должностными лицами. Также агентство имеет полномочие вносить на рассмотрение в органы государственной власти на местах и территориальные управления органов государственного и хозяйственного управления предложения по вопросам, входящим в компетенцию Агентства.

Исходя из этого становится очевидным, что, во-первых, ЦГУ отчитываются только своим вышестоящим структурам, что не позволяет местным органам власти участвовать в координации и оказании содействия в развитии ЦГУ. Так как, в статье 100 Конституции Республики Узбекистан [9] указано, что к ведению местных органов власти относятся: обеспечение законности, правопорядка и

безопасности граждан; вопросы экономического, социального и культурного развития территорий; формирование и исполнение местного бюджета, установление местных налогов, сборов, формирование внебюджетных фондов; руководство местным коммунальным хозяйством; охрана окружающей среды; обеспечение регистрации актов гражданского состояния; принятие нормативных актов и иные полномочия, не противоречащие Конституции и законодательству Республики Узбекистан.

Так же, в Законе «О государственных органах власти на местах», закреплены полномочия местных представительных органов власти, которые гласят о том, что их решения являются обязательными для исполнения всеми расположенными на территории области, района, города предприятиями, учреждениями, организациями, должностными лицами и гражданами. Здесь, по нашему мнению, можно заметить коллизию между нормами Конституции и нормами, и положением АГУ.

Во-вторых, в Законе «О нормативно правовых актах» [10], где указан перечень государственных органов, которые имеют права принимать нормативные акты, не указано АГУ. Это противоречит положению последнего, где указано о том, что АГУ может принимать решение которые имеет обязательную силу для исполнения всеми организациями.

Помимо этого, исходя из анализа *Структур центрального аппарата АГУ, Типовых структур территориального управления АГУ и ЦГУ* [11], с учетом требований сегодняшнего времени, реалий, специфики работы данных учреждений для совершенствования их деятельности, было бы целесообразным создать *отдел «Исследований и повышения потенциала»* в структуре центрального аппарата АГУ. Обязать данный отдел выполнять следующие задачи: разработка и проведение исследований на постоянной основе, направленные на повышение эффективности деятельности ЦГУ, изучение мнения населения об услугах ЦГУ, разработка инструкций, рекомендаций для сотрудников ЦГУ; разработка тренинговых занятий и их проведение; разработка видеоматериалов для обучения и повышения уровня осведомленности граждан.

Говоря об удобстве *инфраструктуры ЦГУ*, мы бы хотели отметить о наших наблюдениях по обращению граждан с *аппаратом по выбору услуг и выдаче талона очереди*. Ряд граждан, пришедших в ЦГУ, преимущественно, молодые люди от 18 до 30 лет, подходили к аппарату, рассматривая его, и методом «тыка» брали лист очередь. Другая часть людей, по большей части, женщины и пожилые люди, занимали «живую» очередь, не имея представления об использовании данного аппарата. После ожидания в «живой очереди» сотрудники, заметившие отсутствия у них талона очереди, указывали на аппарат. Из описанного видно, что для повышения эффективности деятельности ЦГУ необходимо повысить осведомленность граждан о специфике оказания услуг ЦГУ, для этого можно поставить человека ответственного за консультацию пришедших граждан, как об услугах, документах, которые необходимы, так и по работе и назначению аппарата.

Помимо этого, для повышения удобства *ожидания очереди*, продуктивного времяпровождения в этот период необходимо внедрить систему «QBox», которая поможет гражданам подключиться к облаку данных, где можно читать интересные электронные книги, прослушать аудиокниги, видеоуроки, документальные фильмы. Также, мы считаем, важным разделить очереди для пожилых, беременных и людей с ограниченными возможностями в *особую категорию: «Срочно»*, чтобы учитывать их психофизиологические особенности.

Значим и вопрос инклюзии или доступности ЦГУ для людей с ограниченными возможностями. Для этого, по нашему мнению, ЦГУ необходимо оснастить пандусами, оборудованием для незрячих и повысить осведомленность сотрудников об особенностях людей с ограниченными возможностями для их эффективного обслуживания.

Говоря об удобстве и доступности *географического расположения ЦГУ Сариосийского района*, обратимся к мнению опрошенных людей.



Диаграмма 1. Расположение и близость ЦГУ для граждан

Выше представленная диаграмма показывает нам, что, примерно, половина опрошенных отмечает о близости и удобном расположении ЦГУ, но мнение остальных людей расходится. Также при интервью с гражданами, ими было отмечено, что некоторым приходится доехать до ЦГУ на 2 или 3 транспортах, что вызывает особые неудобства как в материальном, так и во временном отношении. Это говорит о том, что необходимо уделить внимание вопросу транспортной доступности ЦГУ. Решением данной проблемы, как мы считаем, будет являться оснащение населения транспортом (автобусы, маршрутки) из различных районных центров в ЦГУ.

Далее перейдем к *анализу качества предоставляемых услуг ЦГУ*. По итогам подсчетов было выявлено 10 услуг, за которыми чаще всего обращались граждане в течении 9 месяцев 2019 года, на анализ которых мы делали акцент при опросе граждан.

Таблица 1.

Наиболее часто употребляемые услуги за 2019 год

№	Наименование услуги	Кол-во обращ.
1.	Получение Электронной подписи	10617
2.	Уточнение Идентификационного номера налогоплательщика ИНН	8897
3.	Получение ИННН	7511
4.	Подача заявления для принятия детей в ДОУ	6205
5.	Признание права собственности в случае разовых публичных действий против самовольно построенного жилья	4306
6.	Регистрация граждан в накопительной пенсионной системе	3181
7.	Подача заявок по взятию на учет электроэнергии (счетчик) для снятия пломбы	1777
8.	Выдача справки о судимости	1304
9.	Получение технических условий на подключение к электрическим сетям не более 20 кВт	1092
10.	Нострификация регистрационных документов	900

Именно на анализ выше приведенных услуг делался акцент в проведенном опросе.

Оценка качества предоставляемых услуг ЦГУ

■ Очень плохо ■ Плохо ■ Средне ■ Хорошо ■ Очень хорошо




Диаграмма 2. Общая диаграмма по оценке качества предоставляемых услуг

Исходя из выше представленной диаграммы видно, что большая часть опрошенных отмечали о хорошем качестве оказания государственных услуг ЦГУ, но основными замечаниями, были то, что получение услуг часто задерживается из-за отключения электропитания, также медленной работы интернета, из-за которых сотрудники ЦГУ не могут полностью удовлетворить запрос клиента. Решением данной проблемы является установка UPS и электрогенераторы, которые уже используются в некоторых ЦГУ для бесперебойной работы.

Также были выявлены некоторые услуги, например: «Подача заявления о приеме детей в государственное дошкольное образовательное учреждение (ДОУ)», по которым граждане выражали недовольство из-за того, что очередь «двигается» очень долго, некоторые ждут месяцами и годами и каждое определенное время приходят, чтобы узнать продвижение очереди. В данном случае, по нашему мнению, будет целесообразным давать возможность гражданам видеть продвижения очереди визуально онлайн в подобных многоэтапных услугах.

Качество оказания таких услуг, как «Получение ИНПС», «Получение ИНН», «Получение военной справки», «Открытие электронного ключа», «Получение справки о несудимости» и т.п., оценивалось граждане очень высоко, и это связано с тем, что в оказании данных услуг нет затруднений в процессе и во времени.

Нужно отметить, что 94% граждан отмечают о том, что, при обращении в ЦГУ, их документы сразу же приняли. При этом в следующей диаграмме указано сколько раз гражданам приходилось обращаться для получения услуги полностью.

**СКОЛЬКО РАЗ ВАМ ПРИХОДИЛОСЬ ПОСЕЩАТЬ ЦГУ,
ЧТОБЫ ПОЛУЧИТЬ УСЛУГУ ПОЛНОСТЬЮ?**




Диаграмма 3. Количество посещений ЦГУ для получения одной услуги

Выше представленная диаграмма также повторяет тот факт, что услуги не предоставляются сразу и рекомендацией здесь также будет видимая онлайн функция отслеживания этапов удовлетворения запроса и очереди граждан.

Нужно отметить, про низкую популярность использования гражданами услуг через интернет, электронной подписи: всего лишь 6% граждан пользуются услугами онлайн, в основном юридические лица. При этом, предприниматели (ИП, ЧП) отмечали про сложность использования ЭЦП, про необходимость создания краткого видео-инструктажа по его использованию.

Соответственно для того, чтобы увеличить частоту получения услуг в онлайн-режиме, необходимо проводить ряд работ по повышению осведомленности граждан об удобных возможностях получения государственных услуг через интернет посредством создания и распространения видеороликов, презентаций.

Исходя из комплексного изучения деятельности ЦГУ, были выработаны следующие рекомендации по улучшению деятельности ЦГУ на примере Сурхандарьинской области Сариосийского района.

1. Внести в Устав Об Агентстве по оказанию государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан Раздел «Об отчетности ЦГУ», которым устанавливается, что руководитель региональных ЦГУ должен предоставлять ежеквартальный отчет о деятельности ЦГУ перед Кенгашем народных депутатов. Данная норма позволит Кенгашу народных депутатов вносить предложения по совершенствованию деятельности ЦГУ и осуществлять депутатский контроль.

2. Создать отдел «Исследований и повышения потенциала» в структуре центрального аппарата АГУ. Данный отдел на постоянной основе должен проводить исследования по повышению эффективности деятельности ЦГУ; изучение мнения населения; разрабатывать и проводить обучающие тренинги, инструктаж, рекомендации для сотрудников ЦГУ.

3. Добавить штат психолога в структуре ЦГУ, который будет работать с эмоциональным выгоранием сотрудников, обучать как выходить из стрессовых и конфликтных ситуаций, как корректно общаться с людьми.

4. Создать условия для доступности ЦГУ людям с ограниченными возможностями (пандусы, оборудования для незрячих и др.).

5. Усовершенствовать условия для эффективного времепровождения в период ожидания в очереди:

- Создать систему организации очереди отдельно для пожилых людей, беременных и людей с ограниченными возможностями.

- Установить систему «QBox», которая представляет собой хранение облачных данных (документальных фильмов, электронных книг, аудиокниг, познавательных программ) для подключения смарт-устройств граждан.

6. Привлекать волонтеров, стажеров из общественных организаций, учебных заведений или назначать дежурного из числа сотрудников для помощи и разъяснения работы аппарата по выбору услуг.

7. Разработать и внедрить систему оценки эффективности деятельности сотрудников по оказанию государственных услуг, где граждане смогут давать обратную связь и комментарии по качеству предоставленных услуг.

8. Ввести в регламент работы ЦГУ еженедельный «час обратной связи» сотрудников, где будут обсуждаться качество оказания услуг, основных недостатков и путей их решения.

9. По нашему мнению, будет целесообразным давать возможность гражданам видеть продвижения очереди визуально онлайн в подобных многоэтапных услугах.

10. Принять ряд мер по повышению осведомленности граждан об удобных возможностях получения услуг в онлайн-режиме, создать ряд видеоматериалов, презентаций по разъяснению использования ЭЦП.

11. Систематически организовывать тренинги по командообразованию в коллективе, формированию корпоративной культуры, благоприятной атмосферы для работы в системе «человек-человек» в позитивной атмосфере; также тренинги по следующим тематикам: Развитие Социального интеллекта; Развитие Коммуникативных навыков; Навыки Управления временем; Навыки Планирования и целеполагания; Клиенториентированность.

12. Провести управленческим кадрам ЦГУ тренинги по Развитию Управленческих навыков в целях повышения их компетентности в организации эффективной работы команды, создании благоприятной, доброжелательной атмосферы.

Подводя *итоги* нашей работы, отметим, что ЦГУ сегодня проделали значимый путь по совершенствованию своей деятельности, но для соответствия вызовам современности, удовлетворения потребностей современного общества Узбекистана, с учетом быстротекущих процессов глобализации, влияния ИКТ, развития социально-культурных отношений в обществе, ЦГУ, как органу государственной власти, с которым чаще всего сталкивается гражданин и, в результате обращения, формирует образ государственной власти, должны понимать всю ответственность перед народом и постоянно совершенствовать свою деятельность. Постоянный пересмотр деятельности государственного органа, обратная связь, мнение, анализ удовлетворенности граждан, усиленная работа над собой – являются залогом развития государственного сектора и формирования положительного образа государственной власти в сознании граждан современного Узбекистана.

Литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 07.02.2017 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»: <https://www.lex.uz/tu/docs/3107042> (дата обращения: 07.03.20).

2. Тихомиров Ю.А. Публичные услуги: спрос общества и реализующие его институты // Материалы 6-й Международной конференции Модернизация экономики и выращивание институтов. – М: ВШЭ, 2005.

3. Шаститко А.Е. Организационные рамки предоставления публичных услуг // Вопросы экономики. – 2004, №7.

4. Попова Н.В. Особенности модернизации сектора государственных услуг. Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ), 2012 № 1. С. 123-124.

5. <https://www.gazeta.uz/tu/2015/05/15/public-services/> (дата обращения: 20.04.20).

6. Положение об Агентстве государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан (Приложение N 1 к Постановлению КМ РУз от 31.01.2018 г. N 70): <https://lex.uz/docs/3542529> (дата обращения: 09.04.20).

7. Официальный сайт Министерства Юстиции Республики Узбекистан: <https://www.minjust.uz/ru/activity/bringing/89487/> (дата обращения: 05.05.20)

8. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №70 от 31.01.2018 «О мерах по организации деятельности Агентства государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан»: <https://lex.uz/docs/3542529> (дата обращения: 20.04.20).

9. Конституция Республики Узбекистан: <https://lex.uz/docs/35869> (дата обращения: 02.04.20).

10. Закон Республики Узбекистан «О нормативно правовых актах» <https://www.lex.uz/acts/2105726> (дата обращения: 02.04.20).

11. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-3430 от 12.12.2017 «Об организации деятельности Агентства государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан»: <https://lex.uz/docs/3454986> (дата обращения: 02.04.20).

УДК:338.2:004.9

**O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH TALABLARI VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

G' Z.Ubaydullaev

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
gayrat.ubaydullaev@mail.ru*

Annotatsiya. Iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish masalasi O'zbekistonda davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda. Mazkur maqolada bugungi kunda O'zbekistonda amalga tatbiq etilayotgan elektron hujjat tizimlarining joriy etilishi, elektron to'lov turlarini rivojlanib borishi va elektron tijorat sohasida yaratilgan ma'lumotlar bazasini takomillashtirilishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli(axborotlashgan) iqtisodiyot, AKTni rivojlanishi, innovatsiya, axborot ayirboshlashning elektron shakli, industrial internet, jahon iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyotni rivojlanish, blokcheyn.

Требования и перспективы развития перехода к цифровой экономике в Узбекистане

Аннотация. Вопрос развития цифрового сектора экономики в Узбекистане поднимается до государственного уровня, и в этом направлении принимаются масштабные меры. В данной статье обсуждается внедрение систем электронного документооборота в Узбекистане, разработка видов электронных платежей и совершенствование базы данных, созданной в области электронной коммерции.

Ключевые слова: цифровая (информационная) экономика, развитие ИКТ, инновации, электронная форма обмена информацией, промышленный интернет, мировая экономика, развитие цифровой экономики, блокчейн.

Requirements and development prospects for the transition to digital economy in Uzbekistan

Abstract. The issue of developing the digital economy in Uzbekistan rises to the state level, and large-scale measures are being taken in this direction. This article discusses the introduction of electronic document management systems in Uzbekistan today, the development of types of electronic payments and the improvement of the database created in the field of electronic commerce.

Keywords: digital (information) economy, ICT development, innovation, electronic form of information exchange, industrial internet, world economy, development of digital economy, blockchain.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo'llagan 2020 yil 24 yanvardagi Murojaatnomasida 2020 yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlanish yili" deb atadilar. Davlatimiz rahbarining ushbu Murojaatnomasini nafaqat 2020 yil uchun ishlab chiqilgan Dasturlarni, balkim, mamlakatimizni yaqin kelajakda taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi ham fundamental ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy hujjat sifatida baholashimiz zarur. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "...O'zbekistonni texnologik rivojlanishirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga amaliy imkon yaratishi lozim".

Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIMni umumiyligi hajmi ham, YaIMni aholi son boshiga ulushi ham yuqorida. Shu jihatdan, davlatimiz rahbarining bu masalaga davlat miqyosida qarashlari bir maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa, birinchidan, aholining yashash darajasini yuksaltirish, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirishga xizmat qilsa, uchinchidan, yashirin iqtisodiyotga barham berilib amalga oshirilayotgan operatsiyalar elektron ro'yxatdan o'tilishi barobarida hamma narsa shaffof bo'lishiha erishiladi.

Yurtimizdagagi qulay ishbilarmonlik muhiti, ishlab chiqarish hamda savdo sur'atlarining o'sishi ham albatta, soha yuksalishida muxim omil bo'ldi. Jamiatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda zamonaviy bilimlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhim rolb o'ynaydi. Yuqori informatsion texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalardan to'g'ri foydalanish har bir tadbirkorni strategik vazifasi hisoblanib, mehnat unimdonligi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va aholi daromadlarining oshishini ta'minlaydi [1].

Asosiy qism. Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi

iqtisodiyot, axborot-iqtisodiyoti yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning kundalik oddiy iqtisodiyotdan farqi shundaki, misol uchun iste'molchiga o'z ehtiyoji uchun zarur tovarlar kerak bo'lsa uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy oddiy iqtisod. Internet orqali telegramdagi biron-bir savdo boti orqali o'ziga ma'qul bo'lgan tovarlarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish – raqamli iqtisodiyot deyiladi. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul uzatamiz, uysa shaxsiy ehtiyojlarlar uchun buyurtmalar qilamiz va boshqalar.

Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish masalasi O'zbekistonda davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasida yaratilgan normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, axborot-teknologik platformalarda faoliyat ko'rsatayotgan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda. Bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish – bu mavjud iqtisodiyotni axborotlashgan-raqamli iqtisodiyotga ya'ni, yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarini yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali yangicha tizimga ko'chirishdan iboratdir. Bularning ijro mexanizimiga avtomatlashtirish, elektron hujjat almashinuvini rivojlantirish, buxgalterlik va boshqaruvi tizimida elektron integratsiyalashuv faolligini oshirish, elektron ma'lumot bazalarini yaratilishini jadallashtirish, SRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi xududlararo) mavjudligi va korporativ sohalar tarmoqlari bo'yicha elektron integratsiyalashuvini yuqori darajaga erishish kiradi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldag'i "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni, zamonaviy axborot texnologiyalari davlat boshqaruvida tatbiq etishni rivojlantirish hamda davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida 2018 yil 3 iyuldag'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning galddagi muhim vazifalari sifatida – investitsion va tadbirdorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kriptoaktivlar aylanmasi sohasida turli faoliyatlarni, jumladan, kriptovalyutalarda yangi birliklar va komission yig'imlar formatida mukofot olish imkoniyatini beruvchi yangi bloklar yaratish va taqsimlovchi platformani qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat, smart kontraktlar (raqamli tranzaktsiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish bo'yicha huquq va majburiyatlar bitilgan elektron shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, tarqatish, boshqarish, sug'ortalash, kraud-fanding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish; malakali kadrlarni tayyorlash; kriptovalyutalar va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; bu borada huquqiy bazani yaratish kabilar nazarda tutilgan [3].

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlantirish masalasi O'zbekiston Respublikasida davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, shu bilan birga, 2030 yilga qadar "Raqamli O'zbekiston" kontseptsiyasini ishlab chiqish yuzasidan ham chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasida yaratilgan normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, axborot-teknologik platformalarda faoliyat ko'rsatayotgan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda. Bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda.

Zamonaviy ko'rinishdagi raqamli iqtisodiyotning asosiy xizmatlaridan biri mobil to'lov tizimlarini ko'rsatish mumkin. Bunda hammamizga ma'lumki, mijozlarning smartfonlari bankdagi hisobraqamlarga bog'langan bo'ladi, bu o'z navbatida mijozlarga on-line xaridlarni amalga oshirishi va faqatgina mobil apparatning ekraniga qo'l tekkizish orqali dunyoning istalgan joyiga pul mablag'lari o'tkazishi mumkin. To'lov tizimlari va bank axborot tizimlari raqamli aktivlardan keng foydalanishadi. Raqamli aktivlarning asosiy komponentlari sifatida intellektual mulk ob'ektlari hisoblanadi. Intellektual faoliyat natijalariga egalik huquqini faqatgina kompaniya ega bo'ladi. Bunday aktivlarga misol qilib, ixtiro patentiga mutlaq huquq, kompyuter dasturlariga mutlaq huquq va ma'lumotlar bazasini keltirish mumkin.

Dunyoda rivojlanayotgan so'nggi trendlarni o'rganish foydadan holi bo'lmaydi. Zero, Jahonda buxgalteriya balansidagi moddiy va nomoddiy aktivlar o'z o'rinlarini jadal almashtirish davrida biz ham asosiy e'tiborni faqat mahsulotlar eksportiga qaratmasdan, balki nou-xau, blokcheyn texnologiyalar faoliyatini zamonga moslab o'rganib, shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotdan foydalanishni yangi bosqichga olib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz [4].

Raqamli iqtisodiyot bu, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Eng yaxshisi, blokcheyning umumiy ma'lumotlar to'plami axborot shaffofligi va mobilligini ta'minlash uchun hizmat qiladi, ya'ni, iste'molchilar va ta'minotchilar eng yaxshi shartlarni o'zları tanlab olishlari mumkin. Shuningdek, elektron ijorat kompaniyalari an'anaviy kompaniyalarning resurslaridan foydalanish o'rniغا o'z platformalarini yaratib, blokcheynda teng huquqlar bilan ishlashlari ham mumkin. Albatta, Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi. Lekin, raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, axborot texnologiyalari yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot eng ko'p rivojlangan mamlakatlar bu AQSh va Xitoy bo'lib, dunyo bo'yicha blokcheyn texnologiyalarga doir patentlarning 75 foizi aynan shu davlatlarga to'g'ri keladi. O'z navbatida internet mahsulotlarining 50 foizini shu davlatlar aholisi iste'mol qiladi. Blokcheyn texnologiyalari tomonlarning hech qanday vositachisiz bitimlarni xavfsiz, ishonchli amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiyadir. Uni ko'pchilik kriptovalyuta texnologiyasi sifatida bilsa-da, aslida blokcheyndan raqamli identifikatsiya, egalik va mulkiy huquqlar ximoyasi, to'lov tizimi sifatida foydalanish mumkin. Ethereum kabi blokcheyn bazasida ishlaydigan ochiq manbali platformalar an'anaviy huquqiy jarayonlarsiz har qanday aktivlar bo'yicha bitimlar tuzish, bank xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Hozirda jahoning turli mamlakatlarida moliyaviy texnologiyalar, yer resurslarini boshqarish, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim sohalarida blokcheyn tizimidan foydalaniadi. Blokcheyn tizimi har qanday sohaning shaffoflik darajasini oshiradi, korruptsiya holatlarining kamayishiga xizmat qiladi [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor vazifasi – O'zbekiston iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash bilan birga, aholi ongini, ilmini, qarashlarini zamon bilan hamnafas qilish, qolaversa, mamlakatimizni xalqaro maydonda integratsiyasini tezlashtirish va natijada O'zbekistonni demokratik, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishdan iboratdir. mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izchil rivojlanishiga katta e'tibor berilayotgani bois xizmatlar hajmining o'sib borishi, axborotlashgan jamiyatda inson qulay sharoitlarga ega bo'lib, umuman olganda "Raqamli(axborotlashgan) iqtisodiyot"ning joriy qilinishi aholining raqamli madaniyatini ta'minlab yanada farovon yashashiga olib keladi. Raqamli iqtisodiyotning xalqaro taraqqiyotga jiddiy ta'sir o'tkazuvchi salohiyatini yuksaltirish uchun ushbu sohada mavjud imkoniyatlarni, to'siqlarni va eng yaxshi amaliyotlarni bat afsil o'rganish va tadbiq etishda jahon tajribasidan foydalanish talab etiladi.

Adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 anvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2020 yil 25 anvar.
- 2018 yil 3 iyulagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Xalq so'zi, 2018 yil 4 iyul.
- O'zbekiston Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Xalq so'zi, 2018 yil 20 fevral.
- Аюпов Р.Х. Развитие цифровой экономики. Казань: Издательство "Отечество", 2016.
- Пряников М.М., Чугунов А.В. Блокчейн как коммуникационная основа формирования цифровой экономики: преимущества и проблемы // International Journal of Open Information Technologies. 2017 год, № 6 (5), 49-55-стр.

MOTIVATSIYA SAMARADORLIK GAROVI SIFATIDA

M. A. Aynaqulov, B. B. Xudoyberdiyev
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Maqolada samaradorlikning asosiy unsuri sanalgan motivatsiya tushunchasi, motivatsiya funksiyasini amalga oshirishda menejmentning vazifalari, motivatsiyaning tashkilotda biror faoliyatga undash, qiziqtirish jarayonining yo‘lga qo‘yilganligi, shaxsiy va guruhiy motivatsiyalar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi, har bir xodimning faoliyatiga turki berish dinamikasi, xodimlar faoliyatining natijasiga motivatsiyaning ta’siri, shuningdek, motivatsiyaning tashkilotdagi asosiy turlari, motivatsiya faoliyatning xususiyatlariiga ta’sir qilishi, motivatsiyani uyg’otuvchi diversifikatsiya jarayolariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsiya funktsiyalari, motivatsiyaturlari, motivatsiya xususiyatlari, harakat, qat’iyatlilik, yaxshiniyat, vijdonlilik.

Мотивация как залог эффективности

Аннотация. В статье выялены понятие мотивации, являющееся ключевым элементом эффективности, роль менеджмента в выполнении функции мотивации, мотивация в организации, процесс мотивации, личностные и групповые мотивации и их взаимосвязь. Основное внимание уделяется динамике мотивации сотрудников, влиянию мотивации на производительность сотрудников, а также основным видам мотивации в организации, влиянию мотивации на характер деятельности и мотивации для диверсификации.

Ключевые слова: функции мотивации, виды мотивации, характеристики мотивации, действия, настойчивость, доброжелательность, добросовестность.

Motivation as a better of efficiency

Abstract. The concept of motivation, which is the key element of effectiveness in the article, is the role of management in carrying out the motivation function, the motivation for motivation in an organization, the motivation process, the personal and group motivations and their interrelationship. Focuses on the dynamics of employee motivation, the impact of motivation on employee performance, as well as the main types of motivation in the organization, the impact of motivation on the nature of the activity, and the motivation for diversification that motivates it.

Keywords: motivation functions, types of motivation, characteristics of motivation, action, persistence, goodwill, conscientiousness.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini, uning samaradorligini belgilab beruvchi, uni izga soluvchi usullardan eng asosiysi bu motivatsiyadir.

Motivatsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra yuqori darajaga erishishga undovchi haqiqiy hissiy niyat bo‘lib, ular juda murakkab bo‘lgani sababli buni aniqlash juda qiyindir. Biroq, shu bilan birga, motivatsiyaning (qiziqtirish) zamonaviy nazariya va an’analarni mohirlik bilan bilib olib, rejorashtirishda, tashkiliy boshqaruv tuzilmalarini tuzishda va nazorat qilishda yuqori malakali mutaxassislarni jaib qilib masalalarni mohirlik bilan hal qilgan holda tashkilotning maqsadlariga erishishga qaratilgan vazifalarni hal etishda, menejmentning barcha funktsiyalari o‘zgaruvchan va bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lishiga qaramay sezilarli darajada muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Taniqli rus psixolog, janob P.M. Yakobson ta’kidlaydiki, motivatsiya quyidagi motivatsion an’analarning yig’indisidan vujudga keladi: [5]

1. Siyosiy;
2. Ahloqiyg‘oyalar ;
3. Ishvahayotnuqtai-nazarigaqarashlar;
4. Ishdan qoniqish olish uchun kuchli qiziqishlarning yetarliligi, san’at, sport va h.k.;
- 5..Hayotni va maishiylikni tartibga solish, ishga jaib qilish, ijodiy faoliyat va h.k. larga intilish;
- 6.Oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyafzal, pul, kitoblar, turli buyumlarga bo‘lgan ehtiyojlar;
- 7.Yetarlichcha kuchli sevgi his tuyg‘usi, minnatdorchilik, qo‘rquv, g‘azab, nadomat, achinish va boshqalar.
8. Muayyan vaziyatlarda tegishli tarzda javob qaytarishda qattiq ruhiy siqilishlar;
9. Odatlar, an’analalar, boshqa xodimlarga, mehnatga nisbatan befarqlik;

10. Xulq-atvorning muayyan harakatini taqlid qilish, ta'miga, kiyim-kechak rusumiga, poyabzal va boshqalar.

Motivatsiya – bu ma'lum darajadagi tuyg'u bilan uyg'unlashgan ichki va tashqi harakatga keltiruvchi kuchlarning yig'indisi bo'lib, u insonni yaxshi niyat ila o'ziga xos tarzda maqsad sari undaydi, yaxshi niyat qilish jarayoni esa o'z navbatida, o'zini va boshqalarni tashkilotning va (yoki) shaxsning maqsadlariga erishish bo'yicha muayyan harakatlarga yetaklaydi. [2]

Motivatsiya funksiyasini amalga oshirishda menejmentning vazifalari quyidagilardir:

1. Zamonaviy motivatsiyaning nazariyalarini qo'llagan holda har bir menejerda xodimlarni boshqarish bo'yicha demokratik yondashuvlarni shakllantirish.

2. Har bir xodimda mehnat jarayonida motivatsiyaning mohiyati va ahamiyatini tushunishga imkoniyat yaratish.

3. Har xil darajadagi rahbar va ishchilarni tashkilotda muloqotning ruhiy asoslari bo'yicha o'qitish.

Ushbu vazifalarni bajarishga kirishishdan oldin tahlil qilib ko'rish kerak:

- tashkilotda biror faoliyatga undash, qiziqtirish jarayonining yo'lga qo'yilganligi;
- shaxsiy va guruhiy motivatsiyalar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;
- har bir xodimning faoliyatiga turki berish dinamikasi;
- xodimlar faoliyatining natijasiga motivatsiyaning ta'siri.
- kooperatsiyalashuv asosida boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlikning yo'lga o'yilganligi. [1]

To'liq tahlildan so'ng motivatsiyani o'zgartirish, ya'ni kuchaytirish kerak.

Motivatsiyalash - bu insonning yaxshi niyatini inobatga olish bilan uni faollashtirib, biror narsa qilishga undash, muayyan harakatlarni amalga oshirishi uchun unga ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Motivatsiyalash menejmentning asosiy o'zagi hisoblanadi, uning samarasi esa ko'plab undovchi sabablarning tug'ilishiga bog'liq.

Motivatsiyaning ikki asosiy turi bor:

1. Kerakli harakatlarga olib keladigan niyatlarni uyg'otish yo'li bilan o'zi xohlagan natijaga olib kelishga sabab bo'ladigan darajada insonga tashqi ta'sir qilish. Ushbu tur savdodagi bitimga o'xshab ketadi, ya'ni, "men sizga nimani xohlasangiz, shuni beraman, ammo siz ham mening xohishimni qondirib berasiz."

2. Insonda muayyan motivatsion tuzilmalarni shakllantirish. Motivatsiya-lashning mazkur turi ta'lim va tarbiyaviy jihat bilan xarakterlidir. Uning amalga oshirilishi juda katta bilimni, harakatlarni, qobiliyatlarni, kuchlarni talab qiladi, ammo, natijasi motivatsiyalashning birinchi turidagi kabi a'lo darajada bo'ladi.

Motivatsiyalashning yuqoridaq ikki turini ham o'zlashtirgan va o'zlarining amaliyotida qo'llayotgan tashkilotlar menejmentning muvaffaqiyatlarini ko'tarinkи kayfiyatda amalga oshiradilar.

Motivatsiya faoliyatning quyidagi xususiyatlariga ta'sir qiladi:

- mehnatsevarlik;
- harakat;
- qat'iyatlilik;
- yaxshi niyat;
- maqsadga muvofiqlik;
- vijdonlilik.

Darhaqiqat O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, davlat mulkini xususiylashtirish va xususiy tadbirdorlikka keng yo'l ochish natijasida ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi va faoliyat ko'rsatmoqda. Unda turli tarmoq va sohalarga mansub bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi yirik korxonalar bilan bir qatorda aholi tashabbusi bilan barpo etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar toifasidagi kichik tadbirdorlik sub'ektlari asosiy o'rin tutadi. Bu turdag'i xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iste'mol bozorlarini tovar va mahsulotlar bilan to'ldirish, aholining bandligini ta'minlash bilan birga, oilalar daromadining asosiy manbasiga ham aylanib bormoqda. Iqtisodiy islohotlar tufayli bundan ko'zlangan maqsad vaqtinchalik cheklovlar tadbirleri (karantin) hamon davom etayotgan bir paytda O'zbekiston sharoitida uning oldini olish, yumshatish va shu orqali iqtisodiy tanglikka yuz tutmaslik, shuningdek, xalqimizni zaruriy, yuqori sifatlari iste'mol mollari bilan ta'minlashga qaratilgandir. Yuqorida ko'rsatilgan ishlarni amalga oshirishda mavjud ishlab chiqarish doiralarini kengaytirish, ularga har tomonlama mustaqillik berish, maxsus industrial zonalar doirasida ko'plab qo'shma korxonalarini yaratish kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Bu turdag'i dolzarb masalalar esa boshqaruv organlarining, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishiga oid muhim masalalarni ham tartibga solishni o'z ichiga oladi. Bundan ko'zlangan maqsad esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik

dastagini takomillashtirish, shuning negizida bozorni zarur, yuqori sifatli xalq iste'moli mollari bilan to'ldirish, jahon bozoriga chiqishga keng yo'l ochish va o'z mahsulotlarining xorijiy davlatlarda raqobatga bardosh beradigan qilib tayyorlash va uni valyutaga sotish va bu bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishdir. Bunday mas'uliyatli masalalarni ijobjiy hal qilish uchun esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar imkoniyatlarini to'liq izga soluvchi yo'nalishlar va usullarni qidirib topish, hamda amaliyotda qo'llay olishdan iboratdir.

Korxonalar faoliyatining tajribasi va ular rivojlanishining garovi sifatida ana shunday yo'llardan biri – bu korxonalarda xodimlar boshqaruvining samarali yangi motivatsion usullarni qidirib topish va qo'llashdir.

Korxona boshqaruvi – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi uchun maqsadli yo'naltirilgan jarayondir.[3]

Xodimlar boshqaruvi esa o'z mohiyatiga ko'ra xodimlarning intellektual salohiyatini, shuningdek, ularning har taraflama imkoniyatlarini hisobga olgan holda xo'jalik yurituvchi sub'ektni taraqqiy ettirishdir. Bu insonning ob'ektlar va jarayonlarga, ularda ishtirot etish faoliyatiga ma'lum yo'nalish berish, kutilgan natijalarga erishish - boshqarishning eng asosiy maqsadidir. Boshqaruvning zaruriyati iqtisodiy, ishlab chiqarish jaryonlarning murakkabligi tufayli unda ishtirot etuvchilarning soni ancha katta bo'lganda vujudga keladi.[4]

Boshqaruv jarayonlari o'z vazifalaridan kelib chiqib o'z harakatining ketma-ket bajarilish jarayoni bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning bir qator ishlab chiqarish va ijtimoiy masalalarini yechish va ularni amalga oshirish uchun zaruratdir. Albatta boshqaruv o'zining vazifalarini amalga oshirish mobaynida o'z-o'zidan o'zining texnologiyasini yaratadi va o'z navbatida, korxona o'zining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida uni muntazam takomillashtirib boradi.

Boshqaruv texnologiyasining zaminida va uning takomillashuvida boshqaruv uslubi yotadi. Boshqaruv uslubi esa bu ish uslublarining majmuasi bo'lib, u o'zining faoliyatida har xil ijobjiy, shuning bilan birgalikda muammoli lahzalardan andoza oladi va shu asosida murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik munosabatlarni ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirish shaklida namoyon bo'ladi

Bugungi kunda korxonalarda muntazam va uzlusiz ish jarayonini ta'minlash maqsadida mahsulot ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarga erishish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hayotiy zaruratdir. Ushbu jarayon esa yangi boshqaruv uslublarini va uning asosida uning yangi texnologiyalarini yaratishni taqozo etadi.

O'z navbatida shuni aytish joizki, har bir tashkilot va korxonada xodimlar ruhiyatiga faol ta'sir etuvchi, ya'ni motivatsiyaga yetaklovchi usul va yo'nalishlar mavjudki, ulardan biri bu korxona faoliyatini diversifikatsiyalashdir.

Diversifikatsiya – bu lotinchada har xil taraqqiyot demakdir. Diversifikatsiya o'z mohiyatidan ko'rinish turibdiki, u o'zida ko'p tarmoqli faoliyatni namoyon qiladi. Bu esa o'z navbatida har bir xodimning o'z iqtidoriga ko'ra oziga munosib tarmoq faoliyatini tanlash imkoniyatini yaratadi.[1]

Albatta ish uzlusizligini muntazam ta'minlab turish, mavsumbop ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish mamlakatimizda samaradorlikning eng muhim garovi bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarning ko'p tarmoqli mavsumbop mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan degan maqomga erishishi ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish yoki ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning davomchisi sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur tizimni amalga oshirish va uni rag'batlantirish quyidagilarga asoslanishi lozim:

- korxonada asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha tadbirkorlik faoliyati uchun xodimlar tashabbusiga mustaqillik berish;
- innovatsion turdag'i qo'shimcha tadbirkorlik faoliyati bo'yicha xodimlar imkoniyatini va tashabbusini o'rganish;
- xodimlarning intellektual salohiyatiga qarab, ularni innovatsion turdag'i tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish;
- qo'shimcha tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadga qarab ular ish haqiga ustamalar belgilash;
- ayrim holatlarda innovatsion turdag'i qo'shimcha tadbirkorlik faoliyatini yagona badal to'lovi orqali rag'batlantirish;
- yangi tizimni albatta kasanachilik asosidagi o'zaro hamkorlik bilan bog'langan holda tashkil qilish.

Mazkur takliflardan xulosa qilsa bo'ladiki, xodimlarni boshqarish uchun uning psixologiyasini, ya'ni shaxs psixologiyasini yaxshi bilish kerak. Bu esa o'z navbatida ularning iqtisodiy jarayonlarni nechog'liq to'g'ri his eta olishlari bilan bog'liq. Albatta har bir insonda oila tebratish mas'uliyati tufayli

iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida, iqtisodiy to‘kinchilik yoki taqchillik haqida ma’lum tushunchalar, tasavvurlar mavjud bo‘ladi, bular o‘zaro yig‘ilib vaqtlar o‘tishi bilan xodimda iqtisodiy tafakkurni shakllantiradi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yoki xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda har bir fuqaro o‘zining shaxsiy hayotiy yo‘nalishida o‘z shaxsiy hayotiy rejasiga ega bo‘lishi, izchil iqtisodiy tafakkurga ega bo‘lmog‘i lozim bo‘lib, bu faol hayotiy pozitsiyani mustahkamlovchi, hayotda o‘z o‘rnini egallashga undovchi iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishishni ta‘minlovchi muhim shartlardan sanalib, iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga va iqtisodiy psixologiyani yaxshi bilishga, iqtisodni samarali boshqarishga yordam beradi. Xodimlardagi iqtisodiy ruhiyatni yaxshi o‘zlashtirgan rahbar ular bilan tez til topisha oladi, ularga ijobjiy ta’sir qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.
2. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Москва: Дело, 1997.
3. Наумов О.С. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс. Москва: Зеркало, 1998.
4. Попов А.В. Эффективное управление. Москва: Экономика, 1995.
5. Турсунходжаев М.Л., Сагдуллаев М. Т. Инновационный менеджмент. под общ. ред. акад. Зайнутдинова Ш.Н. Тошкент: ТГЭУ, 2001.

UDK:338

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEHNAT MIGRATSİYASI MUAMMOLARI VA MIGRATSİYA ASOSIDA PUL O‘TKAZMALARI STATİSTİK TAHLİLİ

O. M. Ro‘zibayev

*Samarqand davlat universiteti
otabekrm21@gmail.com*

Annotatsiya. Maqlada XX asrning oxiri va keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi muammolari va migratsiya asosida pul o‘tkazmalari statistik tahlili haqidagi ma’lumotlar berilib, diagrammalar ko‘rsatilib o‘tilgan.

Shuningdek, migratsion munosabatlarda yuzaga kelgan ijobjiy sabablar va salbiy oqibatlar haqida so‘z yuritilib, migratsion yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilib o‘tilgan va hozirgi kunga qadar bu sohadagi kamchilik va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan say-harakatlar, qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining amaliyotga joriy etilishi va samarasini ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, mehnat munosabatlari, migratsiya, migratsiya muammolari, migratsion yondashuvlar, statistik tahlil, fuqarolar, statistika, pul, pul o‘tkazmalari, xalqaro pul o‘tkazmalari.

Проблемы трудовой миграции и анализ статистических данных денежных переводов на основе миграции в конце XX века и последние годы в Республике Узбекистан

Аннотация. В статье приведены сведения о проблемах трудовой миграции в Республике Узбекистан в конце двадцатого века и статистический анализ денежных переводов на основе миграции, как показано на диаграммах. Также обсуждены позитивные причины и негативные последствия миграционных отношений, с особым акцентом на миграционные подходы и усилия по устранению недостатков и проблем в этой области на сегодняшний день, реализации принятых законов и нормативных актов.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, трудовые отношения, миграция, миграционные проблемы, миграционные подходы, статистический анализ, граждане, статистика, деньги, денежные переводы, международные денежные переводы.

Problems of labor migration and analysis of statistical data of money transfers based on migration at the end of the XX century and last years in the republic of Uzbekistan

Abstract. The article provides information on the problems of labor migration in the Republic of Uzbekistan at the end of the twentieth and subsequent years and a statistical analysis of remittances based on migration, as shown in the diagrams.

The positive reasons and negative consequences of migration relations were also discussed, with special emphasis on migration approaches and efforts to eliminate shortcomings and problems in this area today, and to implement the adopted laws and regulations. Introduction and effectiveness are shown.

Keywords: Republic of Uzbekistan, labor relations, migration, migration problems, migration approaches, statistical analysis, citizens, statistics, money, money transfers, international money transfers.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi bo‘yicha XX asr oxiri va keyingi yillarda kuzatilgan muammolar, bundan tashqari shu ko‘rsatilgan vaqtida O‘zbekistonga migratsiya asosida yuborilgan xalqaro pul o‘tkazmalari tizimli muammolari va statistika tahlillari haqidagi ma’lumotlarning kam o‘rganilganligi bu mavzuning bugungi kundagi dolzarbligini belgilaydi.

Maqolada o‘tgan asrning oxiri va bugungi kungacha tashqi migratsiyaga bo‘lgan munosabatlar, migratsion munosabatlar sababli yuzaga kelgan ijobiy sabablar va salbiy oqibatlar haqida so‘z yuritilib, migratsion yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilib o‘tilgan. Mehnat munosabatlarini yaxshilash chora-tadbirlari qanday holatda bo‘lganligi, hozirgi kunga qadar bu sohadagi kamchilik va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan say-harakatlar, qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining amaliyotga joriy etilishi va samarasi ko‘rsatib o‘tilib, mustaqillikning ilk kunlaridan davlatimizda migratsiya masalalari muammolarini bartaraf etishda amalga oshirgan chora-tadbirlari yoritib berilgan.

Bundan tashqari xalqaro pul o‘tkazmalarining aniq hisob-kitobi Jahon Banki xodimlari tomonidan tuzib chiqilgan statistika ma’lumotlari asosida chuqur tahlil etilib, diagramma ko‘rinishida havola etilmoqda. Mehnat migratsiyasi kelib chiqishining asosiy sabablari va migratsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar keltirilib, aniq faktlar bilan ko‘rsatilib berilgan va o‘sha davrdagi noqonuniy migratsiyaning ortib ketishi haqida batafsil ma’lumotlar berilib, migratsiya jarayonlari o‘rganishining ilmiy yondashuvlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Asosiy qism. XX asrning so‘nggi yillarida butun dunyoda migratsiya masalalari global muammoga aylanib qolgan edi, bu masaladagi muammolar hozirgi kunga qadar sezilib, o‘zining o‘rnini bildirmoqda. Migratsiya masalalari inson taqdiri va hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan, chunki, bu borada gap ketganda mehnat migrantining taqdiri hammani o‘ylantirib qo‘yishi tabiiy hol albatta. Chet el mamlakatlarda mehnat migrantligi bilan shug‘ullanayotganlarning hammasi ham “galstukli ishchi”lar toifasiga kirmaydi, demak ularning hayot xavfsizligi, noqonuniy migratsiya bilan olib qarasak, kafolatlanmaydi. Mehnat migrantlarining noqonuniy yo‘l bilan ishlash uchun o‘zining mamlakatini tark etish holatlari XX asr va bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib qolgani bu hech kimga sir emas. Hozirgi kunda ham noqonuniy migratsiya hech bir mamlakatda to‘liq bartaraf etilmagan va mehnat migrantining hayot xavfsizligi yoki bo‘lmasa uning sog‘lig‘i, huquq va manfaatlari hamda ularning oila a’zolari uchun ishonchli shart-sharoitlar to‘laligicha kafolatlanmagan. Mehnat migrantlarining noqonuniy tarzda ishlashga chet el mamlakatlariga borishlari ularning insoniy qadr-qimmati va huquq erkinliklari o‘zlarining tanlagan yo‘llari sabab poymol bo‘lishi hech gap emas.

XX asr oxirlarida endigina mustaqillikka erishgan, yosh O‘zbekistonda mehnat migrantlarining chet ellarga chiqib ishlab kelish holatlari ko‘rsatgichlarda o‘sma boshladi, bunda aldovga uchrab qolish, ya‘ni odam savdosi qurbaniga aylanib qolish holatlari ayniqsa avj organ pallalar edi, mehnat migrantligiga jo‘nab ketgan fuqarolarimiz shu kabi holatlarga uchrab qolgani haqida deyarli har kuni ommaviy axborot vositalari orqali eshitilar edi. Bundan tashqari noqonuniy tarzda mehnat migrantligini tanlagan fuqarolar diniy aqidaparastlar qurshoviga tushib qolish holatlari uchrab turishdi. Bu kabi masalalar nafaqat yosh O‘zbekistonda, balki butun dunyo mamlakatlarida kuzatila boshlandi. Yana shuni ta‘kidlab o‘tish zarurki, bunday holatlarga uchragan migrantlar orasida o‘lim yoki bo‘lmasa mayib-majruh bo‘lib qolishlarning “salmog‘i ortdi”. Bunday vaziyatda mamlakatlarda albatta fuqarolarning huquq vaerkinliklarini ta‘minlash uchun migratsiya munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risidagi qonunlarga ehtiyoj sezildi.

Mamlakatimizda migratsiya munosabatlarini tartibga soluvchi bir qator hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12- noyabrdagi “Chet elda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda va O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarini ish bilan ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni hal qilish vazifasi yuklatilgan. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga (AVVTM), shuningdek, Mehnat vazirligi huzuridagi fuqarolarni chet ellarda ish bilan ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy boshqarmalarga O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish mas’ulyati yuklatilgan.

2019-yil 17-yanvardagi Prezidentimizning 5635-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi»da belgilangan vazifalar ijrosi doirasida O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida 2019-yil 17-may kuni «O‘zbekiston Respublikasida migratsiya siyosatini ta‘minlash muammolari va yechimlari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga jo'nab ketayotgan fuqarolar – mehnat migrantlarining huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ularga zarur huquqiy, ijtimoiy, axborot-maslahat yordami ko'rsatish va moddiy qo'llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari uchun ishonchli, shu jumladan uy-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash, moliyaviy yordam, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish masalalarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish talab etilmoqda.

Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, davlat tomonidan ularning kundalik ehtiyojlari va orzu-umidlari to'g'risida har tomonlama g'amxo'rlik qilish, mamlakat hududida ham, uning tashqarisida ham ishonchli ijtimoiy va huquqiy himoya kafolatlarini kuchaytirish maqsadida 2019-yil 20-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralarini to'g'risida»gi 5785-sonli Farmoni qabul qilindi.

Migratsiya to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi, huquq va erkinliklarini kafolatlab berishga xizmat qiladi.

Migratsiya jarayonlarini o'rganishning ilmiy yondashuvlari mavjud, bularga quyidagilar kiradi:

- 1) iqtisodiy yondashuv;
- 2) demografik yonashuv;
- 3) tarixiy yondashuv;
- 4) huquqiy (yuridik) yondashuv;
- 5) tarixiy-biologik yondashuv;
- 6) psixologik yondashuv;
- 7) ijtimoiy yondashuv.

Bu ilmiy yondashuvlarning har biri migrantsion jarayonlarni o'rganishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi va migratsiya bo'yicha muammo hamda kamchiliklarni aniqlab, ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Har bir ilmiy yondashuvning migrantsion jarayonlarni o'rganishda o'zining inkor etib bo'lmas munosib o'rni mavjuddir. Bu yondashuvlarning hech biri migratsiya borasida ilmiy izlanish olib borayotgan yoki ilmiy ishini himoya qilganlarga begona emas.

Dunyo mamlakatlarida chet ellarga ishslash uchun o'z mamalakatidan chiquvchi fuqarolar oldilariga ustuvor vazifa qilib – yaxshi pul topishni qo'yishlari hammaga ayon holatdir. Buning uchun mehnat muhojiri yaxshi maosh to'lanadigan ish joyi izlab korishi yoki yaxshi maosh to'lanadigan joyni oldindan tanishlari orqali izlab topib olishi kundalik hayotimizda ko'rib, eshitib yurgan holatimizdir, ya'ni bu kabi voqealar goh-gohida qulog'imizga chalinib turadi. Ular ishlab topgan pullarini o'z mamlakatlariga ya'ni o'z oilalari uchun yuborishadi. Yuborilgan pullar kundalik ehtiyojlarni qondirib borish va ortgan mablag'larni yig'ib borish uchun saqlab qo'yadilar. Yig'ib qo'yilgan mablag'lar ham asosan iste'mol va birlamchi, ikkilamchi ehtiyojlar uchun sarf etiladi. O'zbekistonga 1991-1999-yillar davomida migratsiya asosida pul o'tkazmalari statistikasi haqida ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Jahon bankining ma'lumotlarda 1970-2005-yillarda O'zbekistonga migratsiya asosida pul o'tkazmalari amalga oshirilmagan yoki bo'lmasa pul o'tkazmalarining O'zbekistonga tegishli ulushi haqida ma'lumotlar yig'ilmagani ko'rinish turibdi. Bundan quyidagicha savol tug'ilishi tabiiy – O'zbekistonda 2005-yilga qadar mehnat muhojirlari umuman bo'limganmi? Albatta boshqa davlatlar kabi mehnat muhojirlar bo'lgan, faqatgina 1970-2005-yilgacha ma'lumotlar hech qaysi manbada berilmagan, berilgan bo'lsa ham keng ommaga ochiqlanmagan yoki bo'lmasa muhojirlar ishlagan pullarini o'zlarini bilan olibkelishgan. Bu esa statistikani aniqlashda pand bergen. Faqatgina 2006-yildan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan statistikalar mavjud bo'lib, 2006-yilda bu ko'rsatgich 898 mln AQSh dollarini tashkil qilgan, 2007-yilda esa bu 1 mlrd693 mln AQSh dollariga, 2008-yilda esa 3 mlrd007 mln AQSh dollari, 2009-yilda 2 mlrd071 mln AQSh dollari, 2010-yilda 2 mlrd858 mln AQSh dollari, 2011-yilda 4 mlrd276 mln AQSh dollari, 2012-yilda 5 mlrd693 mln AQSH dollari, 2013-yilda esa 6 mlrd689 mln AQSh dollariga, 2014-yilda 5 mlrd653 mln AQSh dollari, 2015-yilda esa 3 mlrd059 mln AQSh dollari, 2016-yilda 2 mlrd741 mln AQSh dollari, 2017-yilda 3 mlrd901 mln AQSh dollari, 2018-yilda bu ko'rsatgich 3 mlrd899 mln AQSH dollariga teng bo'lgan.



(Diagramma Jahon Banki xodimlari tomonidan tuzib chiqilgan statistika ma'lumotlari asosida tuzildi)

Bunda jamio'n uch (13) yillik migratsiya asosidagi pul o'tkazmalari miqdori 46 mlrd437 mln AQSh dollariga teng, o'rtacha yillik hisobda 3 mlrd572mln AQSh dollariga teng bo'lmoqda. Ushbu diagramma orqali ko'rish mumkinki, migratsiya asosida yuborilgan pul o'tkazmalarining eng past ko'rsatgichlari 2006 va 2007-yillarga tegishi bo'lib (2006-yilda 898 mln AQSh dollari, 2007-yilda esa 1 mlrd693 mln AQSh dollari) turibdi. Eng yuqori ya'mi baland ko'rsatgichlar esa 2012,2013 va 2014-yillarga tegishli (2012-yilda 5 mlrd693 mln AQSh dollari, 2013-yilda 6 mlrd689 mln AQSh dollari, 2014-yilda 5 mlrd653 mln AQSh dollari) ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, O'zbekistonda migratsiya muammosi hozirda dolzarbligi bilan ahamiyatli sanaladi. Shunday ekan bu boradagi yuzaga kelayotgan barcha muammolarning oldini olish zaruratipaydo bo'lmoqda. To'g'ri, mamlakatimizda mehnat munosabatlarni tartibga soluvchi farmonlar, qarorlar va yana bir nechta normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyatga joriy qilinishi:

-migratsiya jarayonlarini kompleks tahlil qilish, tashqi mehnat migratsiyasi sabablari va omillarini, mehnat migrantlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, ularning xorijda bo'lish shart-sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tizimli muammolarni aniqlashga;

- tashqi mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda vaqtinchha ishga joylashtirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari bo'yicha hamkorlik qilishga;

-dastlabki kasbiy tayyorgarlik, moslashuv tadbirlarini amalga oshirish, mehnat migrantlarini xorijda ishga joylashtirish, ularga, shu jumladan o'z Vataniga qaytib kelganidan so'ng huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonlarini samarali monitoring va nazorat qilishga;

-chet elda og'ir vaziyatga tushib qolgan va yordamga muhtoj mehnat migrantlari tomonidan masofadan turib murojaat yo'llashga;

-mehnat migrantlari, ishga joylashish geografiyasi, ularning faoliyat yo'nalishlari va turlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirishga imkoniyatlar yaratiladi.

Bularning barchasi o'z samarasini so'zsiz berib kelmoqda, lekin, aynan migratsiya to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi bu boradagi muammolarga yechim bo'lishi, chet ellarda mehnat migrantlari bo'lib yurgan ko'plab fuqarolarimiz uchun, ularning oila a'zolari uchun juda ham foydali bo'lishi aniq. Ushbu qonun orqali salbiy oqibatlarni batamom yo'qotish imkoniyatiga ega bo'lishimiz qiyin albatta, ammo deyarli 80-90% ga salbiy oqibatlarni chetlab o'tilishi aniq va ravshan. Hamma chet elda faoliyat yuritayotgan mehnat migrantlari faoliyati qonuniylashtirilib qo'yilsa va shaxsan davlat aralashuvi bilan bu ishlar amalga oshirilsa, xususiy bandlik agentliklari davlat tasarrufiga o'tkazilsa, odamlar aldanib qolmaydi, chetda yurgan fuqarolarimiz ham ortida o'z davlati turganini anglab, erkin, huquqlari poymol bo'lmasdan, doimiy davlat nazoratida bo'lishadi. Pul o'tkazmalarini muntazam amalga oshirib turishlaridan davlat manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomonidan fuqarolar ehtiyojlari doimiy qondirilish boriladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –Toshkent: Adolat, 2008.
2. Yosh rahbar ensiklopedik lug'ati. – Toshkent: Davlat ilmiy nashryoti, 2018.
3. Marketing terminlari izohli lug'ati. –Toshkent: Sharq nashryot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2012.

4. Migration and gender outcomes. Knomad working paper 35 (2018 december) World banking group. www.worldbank.org.
5. Leveraging economic migration for development (2019 september).World banking group. www.worldbank.org.
6. Миграция и денежный переводы. Под редакцией Али Мансура и Брюса Куиллина. Всемирный Банк. – Москва, 2008.
7. Migration and development brief 31 (2019 april).World banking group. www.worldbank.org
8. Jahon Banki xodimlarining statistik tahlillari(2018). www.worldbank.org

UDK: 339

MEHNAT BOZORI INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

N. U. Arabov, I. A. Usmanov

Samarqand davlat universiteti

n_arabov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismi asosiy elementlari, ish bilan bandlikka ko'maklashish davlat va nodavlat tuzilmalari faoliyatining rivojlanish yo'nalishlari, tasnifi hamda ularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori infratuzilmasi, davlat va nodavlat bandlik xizmatlari, rekrut tizimi, kadrlar agentliklari, mehnat qonunchiligi, korxonalar, firmalar, samarali ish bilan bandlik.

Основные направления развития инфраструктуры рынка труда

Аннотация. В данной статье исследованы основные элементы инфраструктуры рынка труда, направления развития, классификация государственных и негосударственных служб занятости, а также их взаимосвязь и взаимозависимость.

Ключевые слова: инфраструктура рынка труда, государственные и негосударственные службы занятости, кадровая система, кадровые агентства, трудовое законодательство, эффективная занятость.

The main directions of development of labor market infrastructure

Abstract. The article explores the main elements of the labor market infrastructure, development directions, the classification of state and non-state employment services, as well as their relationship and interdependence.

Keywords: labor market infrastructure, state and non-state employment services, personnel system, personnel agencies, labor legislation, effective employment.

Kirish

Mehnat bozori infratuzilmasi ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solishning muhim elementi hisoblanadi. Mehnat bozorida mehnat vositachiligi bilan shug'ullanadigan tashkilotlar faoliyatining tajribalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu bozor sub'ektlari o'rtasidagi ishchi kuchiga talab va taklif bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar samaradorligini oshirish uchun rivojlangan infratuzilma zarur. Ikkala tomonning manfaatlari muvofiqligi uchun davlat nomidan chiquvchi mustaqil tashqi tartibga soluvchi tuzilma kerak. Ko'pchilik mamlakatlarda mehnat bozori sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, davlat ish bilan bandlik xizmati hisoblanadi.

Mamlakatimizda ish bilan bandlik xizmatlarining rivojlanishi mehnat bozorida raqobat muhit Shakllanishing muhim vositasi hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari rivojlanishining xususiyatlari, usullari va ularning ishlash texnologiyasi, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari faoliyati samaradorligini baholash, ishchi kuchi sifat tarkibini takomillashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mustaqillikning yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida «... Aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda» deb [10] ta'kidlaganlar. Bu vazifalarni hal etishda mehnat bozori infratuzilmasi tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish ular o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga bog'liq holda mehnat bozorida davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlarining o'zaro munosabatlarining namoyon bo'lish shakllarini tasniflash hamda ular faoliyatining shakllanishini muvofiqlashtirish asosida mehnat

bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, ishchi kuchi mobilligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mehnat bozori sifat xususiyatining eng muhim mezoni sifatida uning infratuzilmasining rivojlanish darajasi, mehnat bozori infratuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tarkibiy qismlari elementlari, asosiy vazifalari va funksiyalari, davlat va nodavlat ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi tuzilmalari faoliyati, mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishini huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tartibga solish mexanizmlari, ish bilan bandlik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, davlat ish bilan bandlik siyosati samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlari, ish bilan bandlikni ta'minlash va ish joylarini rag'batlantirish mexanizmi, aholini samarali ish bilan bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Abdurahmonov Q.X. [1], Beysenov S, Muhambetov T. [2], Varfolomeeva O.A. [3], Rudneva L.N. [6], Wright P. M., Gardner T. M., Moynihan L. M. [8] larning asarlarida tadqiq etilgan.

Shuningdek, mehnat bozori infratuzilmasining iqtisodiyot va boshqaruva sohasida turli darajalardagi tarkibiy qismlari va elementlari hamda davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatini samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tasnifi hamda ish bilan bandlik xizmati faoliyatining samaradorligini baholash uchun optimal usullardan foydalanish zarurati Varfolomeeva O.A. [3], Lawler E., Boudreau J. [5], Smirnov S. [7] larning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mehnat bozori infratuzilmasining iqtisodiyot va boshqaruva sohasida turli darajalardagi tarkibiy qismlari va elementlari hamda davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatini samaradorligini kompleks baholashning umumlashgan ko'rsatkichlari tizimi Sims R. [9], Rudneva L.N. [6] lar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonda mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlari va ularning o'zaro samarali aloqadorligini aniqlash bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhash usullaridan foydalanildi hamda ish bilan bandlik xizmati faoliyatining samaradorligini baholashning optimal usullaridan foydalanish zarurati asoslandi.

Tahlil va natijalar

Ma'lumki, milliy mehnat bozorlarida davlat ish bilan bandlik xizmatining paydo bo'lish tarixi 1919 yildan XMTining yaratilishidan boshlanadi. XMTining dastlabki ishlab chiqilgan va qabul qilingan Konvensiyasida (XMTining 1919 yildagi 2-sonli ishsizlik to'g'risida) ish bilan bandlik bo'yicha bepul davlat byurosini tashkil etish to'g'risida nizom qabul qilish masalasi qo'yildi [7].

Respublikamizda davlat ish bilan bandlik xizmati tarkibi uch darajadan iborat: mamlakat miqyosida ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasida davlat siyosatini yurituvchi Mehnat vazirligi, uning hududiy darajalardagi boshqarmalari va shahar va tumanlar miqyosidagi markazlar. Ushbu tashkilotda ish bilan bandlikka ko'maklashish dasturlarining moliyalashtirilishi va ishsizlikdan ijtimoiy himoya qilish funksiyalarining amalga oshirilishi asosan respublika byudjet mablag'lari hamda aholini ish bilan ta'minlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, nodavlat ish bilan bandlik xizmatini bir necha turlarga tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Mehnat bozorida nodavlat vositachi firmalarning turlari bo'yicha tasnifi

Agentliklar turlari	Tavsifi
1. Ishga joylashtirish bo'yicha agentlik	Barcha kategoriyaladagi ishchilar va mutaxassislarni ish joylariga tanlash va yo'naltirishni amalga oshirish bo'yicha eng ko'p sonli guruh. Ushbu tashkiliy tuzilma tarkibida cheklangan guruhdagi mutaxassislarni ishga joylashtirishga ixtisoslashgan agentliklarga ajratish mumkin.
2. Xorijda ishchi kuchini yollash va mehnat resurslarining yoshlar marketingi bo'yicha agentlik	Malakali ishchi kuchiga talabni o'rganishda xorijiy hamkorlarni izlash. Test o'tkazish, rezyume tuzishga ko'maklashish, o'qish va o'qitish (asosan xorij tiliga), ishchi vizalarini va yashash joylari bilan bog'liq tartiblarni rasmiylashtirish.
3. Kadrlar maslahati bo'yicha maslahat agentligi	Yuqori malakali mutaxassislarni ishga yollashga ko'maklashadi, firmaning kadrlar muammosi tahlilini olib boradi.
4. Qisqa ixtisoslashgan	Alovida kategoriyaladagi fuqarolarni (bushatilgan zahiradagi harbiy

agentlik	xizmatchilar) ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish; maxsus faoliyat sohalari uchun (masalan, oilada personalni tanlash) personalni tanlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.
5. Personal autstaffingi bo'yicha agentlik	Buyurtmachi kompaniya shtatiga personal xulosasi va uni kompaniya provayder shtatiga rasmiylashtiradi.
6. Personal autsorsingi bo'yicha agentlik	Agentlik shtatida turuvchi ishchilar, buyurtmachi tashkilotga xizmat ko'rsatib, o'zlarining mehnat funksiyalarini bajaradi.
7. Ta'lim berish va so'ng ishga joylashtirish markazlari	Iqtisodiyot, yuristprudensiya, dasturlash, turizm, xizmat ko'rsatish sohalari uchun mamlakat va xorijda kafolatlangan ishga joylashtirish bo'yicha eng zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashni taklif etadilar.
8. Boshqalar	Tadbirkorlik faoliyatining boshqa ko'rinishlari bilan personalni tanlash va ishga joylashtirish bo'yicha alohida xizmatlarni birga olib boradi.

Ishga joylashtirish bo'yicha nodavlat xizmatlar ko'pincha aholining mehnatga layoqatli muayyan kategoriyalari bilan, ya'ni boshqaruvning yuqori va o'rta bo'g'inalriga yuqori malakali mutaxassislar, zahiraga bo'shatilgan harbiylar, muayyan kasblarda yuqori malakali ishchilar bilan ishslashga ixtisoslashadi. Ularning xizmatidan foydalanishni milliy va xorijiy xususiy kompaniyalar afzal ko'radilar. Davlat ish bilan bandlik xizmatiga nisbatan agentliklarning ish beruvchilar bilan aloqalari yetarlicha uzviy va ahamiyatli ravishda ishonchlidir.

Keyingi paytlarda mehnat bozorida ishga joylashtirishga ko'maklashishning davlat va nodavlat tuzilmalarining shakllanish samaradorligini baholash masalalariga ko'pchilik tadqiqotchilar o'z e'tiborlarini qaratmoqdalar [1, 2, 3, 5]. Bunda asosan tadqiqot ob'ekti bo'lib, muvofiq ravishda mijozlariga xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-demografik va kasbiy-malaka tavsifi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha natijalarni umumlashtirish shuni ko'rsatmoqdaki, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari mehnat bozorining turli segmentlarida xizmat ko'rsatadi. Xususiy xizmatlar mijozlarining ko'pchiligin yoshlar (ularning o'rtacha yoshi 26 yosh, bu vaqtida davlat ish bilan bandlik xizmati mijozlari 40 yoshni tashkil etadi) va ko'pchiligi yuqori darajadagi ma'lumotga ega (xususiy agentliklar orqali ishga ega bo'lgan yuqori ma'lumotga ega nomzodlar hissasi davlat ish bilan bandlik xizmati orqali ishga joylashganlarga nisbatan 1,8 marta ortiq) bo'lganlar tashkil etadi. Umuman xususiy xizmatlar mijozlari ichida yoshlarning solishtirma miqdori davlat ish bilan bandlik xizmatiga nisbatan 1,5-2 marta yuqori.

Davlat ish bilan bandlik xizmati mijozlari o'rtasida umumiy 20dan 30 yilgacha mehnat stajiga ega fuqarolar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu vaqtida tijorat xizmatlarida 1 yildan 10 yilgacha tashkil etadi (2 yildan 5 yilgacha bo'lgan guruhlar ish staji ustunlik qiladi).

Qo'shimcha mutaxassislikka ega davlat ish bilan bandlik xizmati mijozlarining solishtirma miqdori tijorat xizmatlarining mijozlariga nisbatan ancha past, chunki ular ishga joylashtirish bo'yicha xususiy agentliklarning potensial imkoniyatlarini yuqori baholaydilar.

Xususiy agentliklar kam hollarda mehnat bozorida raqobatbardoshligi past bo'lgan aholi kategoriyalari (kasbiy tayyorgarlikka ega bo'limgan yoshlar bilan; uzoq vaqt ishsiz bo'lganlar bilan va h.k.) bilan ishlaydilar.

Xususiy xizmatlar mijozlari moddiy imkoniyati yuqoriroq odamlar hisoblanadi: davlat ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qilganlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha kishi hisobiga oilaviy daromadga ega shaharning yashash minumimidan past bo'lganlar hissasi 65,6 %ni tashkil etgan, xususiy agentliklarga murojaat qilganlar o'rtasida bo'ndaylar 16,8 %ni tashkil etadi [8].

Taqqoslanayotgan tashkiliy tuzilmalar mijozlari o'rtasidagi jiddiy farq bo'lib, xususiy agentliklarga ko'pincha yangi ish izlash maqsadi bilan ishlaydigan fuqarolar, davlat ish bilan bandlik xizmatiga esa ko'pincha ish joyiga ega bo'limgan fuqarolar murojaat qiladi. Shunday ekan, davlat ish bilan bandlik xizmatini xususiy tuzilmalarga solishtirganda, asosan mehnat bozorida yetarlicha yuqori resurs imkoniyatiga ega fuqarolar murojaat qiladilar: oliy ma'lumotga, ish joyiga, muayyan farovonlikka ega yoshlar; nafaqat ish qidiruvchilar, balki qo'shimcha ish haqi olishga ega bo'imloqchi bo'lganlar.

Davlat ish bilan bandlik xizmatining yutuqlaridan biri sifatida xususiy xizmatlar foydalanadigan ma'lumotlar bazasi sifatida miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha mavjud bo'sh ish joylari ma'lumotlar banki hisoblanadi. O'z navbatida, xususiy agentliklar ish beruvchilar va ish qidiruvchi fuqarolarga taqdim qilayotgan bo'sh ish joylari sifati va to'liq axborotlarga egaligi bilan davlat ish bilan bandlik xizmatiga nisbatan ustundir.

Aytish kerakki, davlat ish bilan bandlik xizmati mijozlarining taxminan to'rtadan bittasi "universal" kategoriya tegishli, ya'ni ham davlat ish bilan bandlik xizmati ro'yxatida, ham xususiy

agentliklar ro‘yxatida turadi. Birdan bir undaydigan sabab, tijorat vositachiliga murojaat qilgan davlat ish bilan bandlik xizmatining mijozlari bo‘lib, mehnat faoliyatini yangidan boshlash uchun maqbul ish haqi darajasi bo‘yicha bo‘sh ish joylariga talab va taklif nomuvofiqligi hisoblanadi. Bunda davlat ish bilan bandlik xizmatining ma’lumotlar bazasiga ega o‘rtacha 16-18 %ga ega bo‘sh ish joylari yashash minimumidan yuqori darajadagi ish haqini kafolatlaydi.

Bo‘sh ish joylarini bir-birini takrorlanishi “universal” mijozlar hissasini yuksaltirib, turli ish bilan bandlik xizmatlari o‘rtasida ularning taqsimlanish mexanizmini takomillashmaganligini shartlaydi, davlat ish bilan bandlik xizmati ishchilariga kam bo‘lmagan ortiqcha yukni oshiradi. Bu mutlaqo ishsizlarni ishga joylashtirish samaradorligining o‘sish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun samarali ish bilan bandlik siyosatini ishlab chiqishning dastlabki sharti bo‘lib, ayniqsa mahalliy darajada ish bilan bandlikni kengaytirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishga ish beruvchilar va ishga joylashtirish sohasida faoliyat yurituvchi davlat va xususiy barcha tashkiliy tuzilmalar ma’suliyatining umumiyligi hisoblanadi. Qo‘yilgan maqsad yo‘lidagi amaliy qadam bo‘sh ish joylari tarkibi va ish qidiruvchi kishilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat bozori segmentlanishi va faoliyatning muvofiqligiga asoslangan ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi ish beruvchilar, davlat va tijorat xizmatlari o‘rtasida hamkorlik munosabatlari amal qilishi mumkin.

Mehnat bozorida nodavlat ish bilan bandlik xizmati sifatida rekrut xizmatlari yuqori malakali mutaxassislarini tanlash va o‘qitish xizmatlarini ko‘rsatadi. Bu firmalar faqat buyurtmachilar oldida majburiyat oladilar va faoliyati ish beruvchi tashkilotlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda personalni tanlash bo‘yicha mayjud rekrut xizmatlari tizimi mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish belgisi hisoblanadi. “Palmen Institute” (AQSH) maslahat firmasi ma’lumotlariga ko‘ra, barcha amerika kompaniyalarining 98 %i rekrut xizmatlari tayanadilar.

Rekrutment – bu ish beruvchi kompaniyalar buyurtmasi bo‘yicha mustaqil tashkiliy tuzilma sifatida faoliyat yuritadigan personalni tanlash bo‘yicha pullik xizmatlardir. Muvofiq ravishda rekrut agentliklariga personalni tanlash bo‘yicha potensial ish beruvchilarga xizmatlarni taklif etuvchi mehnat bozorida har qanday faoliyat tegishlidir. Rekrut agentliklarini bir qator belgilari bo‘yicha tasniflash mumkin (2-jadval).

2-jadval

Rekrut agentliklari tasnifi

Tasniflash belgilari	Agentliklarning ixtisoslashuvi
1. Firma ichidagi iyerarxiya darajasi	Yuqori menejerlarni tanlash
	Universal tanlov
2. Kasbiy mansublik yoki tanlanayotgan personal faoliyati sohasi	Bir nechta o‘zaro aloqador kasblar bo‘yicha qisqa profildagi mutaxassislarini tanlash
	Keng doiradagi kasblar bo‘yicha ishchilarni tanlash
3. Yollash turi	Personal lizingi (ijarasi)
	Doimiy ishga personalni tanlash

Birinchi guruh rekrut agentliklari eng ko‘p ommalashgan bo‘lib, boshqaruv sohasining har qanday darajasi uchun personalni tanlashga tayyor universal agentliklar hisoblanadi. Bunda asosiy diqqat boshqaruvning past va o‘rtalari uchun ishchilarni tanlashga qaratiladi.

Yuqori menejerlarni tanlash bo‘yicha agentlik rekrut biznesining eletasi hisoblanadi. Ular bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari darajasidan boshlab dunyo shtab-kvartirasida korporatsiya prezidenti darajasiga yetadigan lavozim bilan shug‘ullanuvchi kompaniya faoliyatining butun yo‘nalishlariga ma’sul muhim menejer ma’sullarni qidirish bilan shug‘ullanadi.

Har qanday xususiy agentliklar maqsadi mustaqil ravishda uchta masalaning yechimidan iborat: 1) buyurtmachi-kompaniyaning kadrlarga ehtiyojini tushunish; 2) bu ehtiyojlarga eng ko‘p darajada muvofiq keladigan takliflar ichidan topish; 3) kelgusi ishchilarning maksimal omilkorligi va tartibliligi bo‘yicha buyurtmachiga kafolat berish maqsadida oldingi nomzodlarni tekshirish.

Korxonalarни о‘rganish loyihalari doirasida USAID Assotsiatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘pgina milliy, qo‘shma va xorijiy kompaniyalarning (33,10 va muvofiq 52) 79 % so‘ralganlari kadrlar agentliklari xizmatidan foydalananlari. Bu rejada eng faoli malakali mutaxassislar va menejerlarni olishning eng samarali kanali sifatida hayotini tasavvur qila olmaydigan xorijiy kompaniyalar vakillari (87 %) hisoblanadi. Rekrut agentligidan tanlashda asosiy mezон sifatida nafaqat xizmatlar bahosi va buyurtmaning bajarilish muddati, balki kompaniya “yoshi” hamda xodimlarning obro‘si ham hisobga olinadi.

Rekrut agentliklarining rivojlanishi mehnat bozorining samarali shakllanish imkonini beradi. Biroq

bunda mamlakatdan xorijga yuqori malakali ishchi kuchi chiqib ketishi amal qiladi, modomiki, ko‘pchilik hollarda bunday agentliklarning mijozlari bo‘lib, qo‘shma korxonalar yoxud xorijiy firmalar hisoblanadi.

Mehnat bozorida turli xil tashkiliy tuzilmalarning faoliyat sohalari yetarlicha aniqlangan. Bunda davlat tashkilotlari aholining barcha kategoriyalari uchun amalda keng miqyosda bepul xizmatlarni ko‘rsatadi hamda mehnat bozorida nochor aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Mehnat bozori infratuzilmasining mehnat vositachiligi sohasida davlat va nodavlat xizmatlari bir vaqtning o‘zida rivojlanmoqda va mutlaqo turli xil faoliyat bilan shug‘ullanadi.

Mehnat bozorida davlat va nodavlat tuzilmalarning rivojlanishida bir qator jiddiy farqlarni keltirish mumkin:

Birinchidan, agarda ish bilan bandlikka ko‘maklashish davlat tuzilmalarining rivojlanishi davlat tomonidan muayyan dastur asosida amalga oshirilsa, unda ish bilan bandlikka ko‘maklashishning nodavlat tuzilmalari rivojlanishi davlat dasturlari doirasida emas, balki xususiy holda faoliyatini tashkil etadi.

Ikkinchidan, mehnat bozori infratuzilmasi davlat ob’ektlarining shakllanishi ishga joylashtirishning oldingi tuzilmalarini qayta shakllantirish yo‘li bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, mehnat munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha nodavlat tashkilotlar ko‘pchilik turining shakllanishi yangi tuzilmalarning yaratilish yo‘li bilan amalga oshirildi. Bu o‘z navbatida turli infratuzilmaviy faoliyatni amalga oshirish metodologiyasi va resurslaridagi farqini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, davlat tashkilotlari moddiy-metodologik bazaga va mehnat bozori kontragentlari vakillari bilan muayyan ko‘nikmalarga ega.

Aksincha, ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi yangi tuzilmalar “bo‘sh joyda” yaratiladi va mehnat munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirishning muqobil yo‘llarini qidirish va foydalnishga majbur, shuning uchun ular mehnat bozori tendensiylariga eng harakatchan va operativ ravishda ta’sir ko‘rsatadi.

Aftidan oxirigi holat mehnat bozori infratuzilmasida davlat va nodavlat elementlari amal qilish samaradorligidagi jiddiy farqni yuzaga keltiradi.

Mehnat bozorida vositachilar ob’ektlarining taqqoslama tavsifi quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Mehnat bozorida ish bilan bandlikka ko‘maklashish davlat va nodavlat tuzilmalarining taqqoslama tavsifi

Taqqoslash mezonlari	Davlat	Nodavlat
Rivojlanish dasturi	Mavjud	Mayjud emas
Me’yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy ta’minoti	Maxsus qonunlar va qoidalar	Amalda mavjud emas
Ish bilan bandlik davlat siyosatidagi qamrovi	To‘liq	Amalda yo‘q
Mehnat bozori segmentlarining qamrov darajasi:	Barcha segmentlar	Alovida segmentlar
ishchi kuchi taklifi bo‘yicha	Barcha segmentlar qamrab olingan	Ancha raqobatbardosh segmentlar
ishchi kuchi taklifi bo‘yicha	Barcha mulk shaklidagi korxonalarni masimal qamrab olishga intilish	Nisbatan chegaralangan va ixtisoslashgan
Qo‘shimcha tashkiliy birliklarning zarurligi	Amal qiladi	Amal qiladi

Xulosa va takliflar

Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishi ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasidagi huqqiy-me’yoriy asoslarni takomillashtirishni zarurat etadi.

Birinchidan, fuqarolarni ishsizlikdan himoyalash yuzasidan “Aholini ish bilan ta’minalash to‘g‘risidagi” qonunga bir qator o‘zgartirishlar kiritish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

- korxona profilining o‘zgarishi, xususiylashtirish, mulk egasining almashishi natijasida uning tarkibidagi kadrlarni tayyorlash va qayta taqsimlash hamda saqlash bo‘yicha qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritish;

- muhandis-texnik tarkib, yuqori malakali mutaxassislar va ishchilar hamda noyob kasblarni asrab qolish bo‘yicha qo‘shimchalar kiritish;

- tarmoq tamoyilidan kelib chiqqan holda, ishdan bo‘shatilgan va ishga joylashganlarni

himoyalash normasi. Masalan, faqat yashash joyi hududida kasbga qayta tayyorlash va ishga joylashishga murojat qilish mehnat resurslaridan samarali foydalanihni qiyinlashtiradi, modomiki, aniq hudud doirasida va tarmoq kesimida bo'sh ish joylari haqida yagona ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Bu oxir oqibatda ishchi kuchining hududlararo migratsiyasini yuzaga keltiradi, ko'r-ko'rona boshqa sohada ish izlashga yoki boshqa mutaxassislikga o'qishga majbur etadi;

- mehnat bozoridagi holatga muvofiq ravishda ijtimoiy hamkorlik masalalari.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikda aniq vakolat chegaralari, funksiyalar, moliyalash manbalari, milliy, hududiy va munitsipial hokimiyat organlari o'rtasida ish bilan bandlik sohalari hamda mehnat bozorini tartibga solish masalalariga ta'sir etish sohalarining aniq yo'nalishlar bo'yicha tasniflanmaganligi.

Uchinchidan, haligacha mehnat bozorida nodavlat tashkilotlar faoliyatini aniq qat'iy belgilovchi huquqiy va me'yoriy hujjatlarning mavjud emasligi.

Nodavlat ish bilan bandlik xizmatlarining rivojlanishi (asosan personalni tanlash bo'yicha kadrlar agentligi) mehnat bozorining chegaralangan, ixtisoslashgan segmentlarida ishslash samaradorligini oshirish hamda mehnat bozori infratuzilmasi davlat organlariga yukni qisqartirishi va ularning diqqat e'tiborini bir yerga to'plashni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq bu kam raqobatbardosh va kam ijtimoiy himoya qilingan segmentda amal qiladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtida hududiy mehnat bozorlari infratuzilmasining hozirgi holatida ularni muvofiq ravishda shakllanish jarayonlarini faollashishiga olib bormoqda. Shunga ko'ra mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi qo'yidagi chora-tadbirlarni amalgalash oshirishni zarurat etadi:

- “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida” Qonunning moddalariga hozirgi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish talablariga mos o'zgartirishlar kiritish;
- infratuzilma elementlari tomonidan turli xil ko'rinishdagi axborot va maslahat xizmatlarini shakllantirish;
- hududiy darajada mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish tamoyillarini takomillashtirish;
- turli infratuzilma elementlari harakatining o'zaro muvofiqligini ta'minlash;
- mehnat bozori infratuzilmasi alohida tizimlarini kompleks rivojlanish.

Mehnat bozorining infratuzilmaviy tuzilishi uni tartibga solish mexanizmlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. U mehnat munosabatlari sohasida bozorga o'tishning bir vaqtida indikatori va mehnat bozorining rivojlanish omili hisoblanadi. Mehnat bozori infratuzilmasi uning ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirish hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishini yumshatish vazifasini bajaradi. Mehnat bozori infratuzilmasini rivojlanish samaradorligini oshirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan davlat ish bilan bandlik siyosatini o'tkazishning pirovard natijalariga bog'liq.

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти (дарслик). -Т.: - «Мехнат» - 2009. 117-118 б.
2. Бейсенов С, Мухамбетов Т. Инфраструктура рынка труда // Человек и труд. - 1999.-№1. – С. 25-28.
3. Варфоломеева О.А. Становление инфраструктуры рынка труда в переходной экономике. – СПб., Издательство СПбУЭФ. 2001.
4. Колесникова О. Об оценке эффективности работы службы занятости // Человек и труд. – 2002. – № 3. – С. 55-56.
5. Lawler E., Boudreau J. Achieving strategic excellence: an assessment of human resource organizations. – Stanford, California: Stanford University Press 2006.
6. Руднева Л.Н. Формирование и регулирование инфраструктуры рынка труда. // дисс. д.э.н. – Екатеринбург, 2006. – 321 с.
7. Смирнов С. Методы оценки государственной политики занятости // Вопросы статистики. – 1998. – N2 4. – С. 29-34.
8. Wright P. M., Gardner T. M., & Moynihan L. M. (2003). The impact of HR practices on the performance of business units. // Human Resource Management Journal. – 2003. – №13(1), 21-36.
9. Sims R. Organizational success through effective human resource management. – Westport, Connecticut: Quorum Books, 2002.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019>

UDK:330

**AQSH VA RIVOJLANGAN DAVLATLAR MONETAR SIYOSATI TAJRIBALARIDAN
QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI**

E. T. Xamdamov

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy bank monetar siyosat instrumentlarini qo'llashning nazariy va amaliy masalalari o'r ganiladi. Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarida makroiqtisodiy siyosatning maqsadlari, iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili, jumladan, real sektor, davlat byudjeti, investitsiya, tashqi savdo aylanmasi, to'lov balansi, asosiy makroiqtisodiy va monetar ko'rsatkichlar holati, monetar siyosat vositalaridan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: arzon pullar, foiz stavka, repo operatsiyalar, svop operatsiyalar.

Теоретические и практические вопросы применения опыта монетарной политики в Соединенных штатах и развитых странах

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования инструментов денежно-кредитной политики Центральным банком. Основными направлениями денежно-кредитной политики являются задачи макроэкономической политики, анализ экономических условий, в том числе реального сектора, государственного бюджета, инвестиций, внешнеторгового оборота, платежного баланса, состояния основных макроэкономических и монетарных показателей, денежно-кредитной политики.

Ключевые слова: дешевые деньги, процентная ставка, операцииrepo, сделки своп.

Theoretical and practical issues of application from the experience of monetary policy in the United states and developed countries

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the use of monetary policy instruments by the Central Bank. The main directions of monetary policy are the objectives of macroeconomic policy, analysis of economic conditions, including the real sector, the state budget, investment, foreign trade turnover, balance of payments, the state of key macroeconomic and monetary indicators, monetary policy.

Keywords: cheap money, interest rate, repo transactions, swap transactions.

Rivojlangan davlatlar monetar va fiskal amaliyotidan ma'lumki, monetar siyosatning joriy va kelgusi yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilishida Markaziy banklarning mas'ul mutaxassislari asosiy e'tiborni dunyo iqtisodiy kon'yukturasidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, mamlakatda iqtisodiy o'sish, narxlar, valyuta kursi, foiz stavkalari, pul agregatlari, to'lov balansi, moliya, pul va valyuta bozorlari barqarorligiga e'tibor beradi.

Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarida makroiqtisodiy siyosatning maqsadlari, iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili, jumladan, real sektor, davlat byudjeti, investitsiya, tashqi savdo aylanmasi, to'lov balansi, asosiy makroiqtisodiy va monetar ko'rsatkichlar holati, monetar siyosat vositalaridan foydalaniladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili va holatlardan kelib chiqib, markaziy banklar monetar siyosatning kelgusi yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadilar va uni amalga oshirishda albatta monetarizm va keynschilik nazariyasiga tayanadilar.

Klassik iqtisodiy muktab vakillaridan - A.Smit, U.Petti, D.Rikardo, D.Fullarton, A.Marshall, I.Fisher, A.Pigu kabilarning pul muomalasi nazariyasi muammolariga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlari: pulga bo'lgan talab, pul taklifi, pulning miqdoriylik nazariyasi, pulning aylanish tezligi va almashuv tenglamasi kabi masalalar o'ziga xos tarzda tadqiq qilingan hamda ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Klassik miqdoriy nazariyachilar yondashuvlarini batafsil tavsiflab beruvchi ma'lumotlar amerikalik iqtisodchi olim I.Fisherning 1911 yilda nashr qilingan "Pullarning xarid quvvati" nomli kitobida keltirilgan. I.Fisherning qisqa muddatli davrda pulning aylanish tezligi doimiy degan taxmini almashuv tenglamasini pulning miqdoriylik nazariyasiga aylantirdi. CHunki bunga ko'ra, nominal YAIM mutlaq ravishda pul massasining tebranishlari orqali aniqlanadi. Klassiklar, shuningdek, I.Fisher ham ish haqi va baholarni mutlaqo egiluvchan deb hisoblashgan[2]. SHuni ta'kidlash joizki, fikrimizcha pulga bo'lgan talab I.Fisherning almashuv tenglamasiga muvofiq quyidagicha aniqlanadi:

$$M^*V = P^*Q$$

bunda,
M –muomaladagi pul miqdori,
V - pul aylanish tezligi,
P – tovar va xizmatlarning o‘rtacha bahosi,
Q – milliy iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning miqdori.

Pulning miqdoriylik nazariyasiga ko‘ra, agar pul massasi ikki hissa oshsa narxlar ham ikki hissa oshishi kerak. Klassik iqtisodiy maktab vakillarining nuqtai nazaridan qaraganda baholar darajasining o‘zgarishi faqat pul massasi hajmining tebranishi tufayli yuzaga keladi.

I.Fisher foiz stavkasi pulga bo‘lgan talabga ta’sir emaydi, u daromadga bog‘liq, degan xulosa qilgan. Uning xulosasidan farqli o‘laroq, Kembrij maktabining iqtisodchi olimlari foiz stavkasi ta’sirida pulga bo‘lgan talabning o‘zgarishini istisno etmagan holda u nominal YAIMga proporsional, deb hisoblashgan.

Monetar siyosat nazariyasida markaziy o‘rinni foiz stavkasi pulga bo‘lgan talabga ta’sir etadimi, agar ta’sir etsa, qay darajada, degan masala egallaydi. Bu xususda jahonning ko‘pgina taniqli iqtisodchi olimlari o‘z fikrini aytganlar. Jumladan, I.Fisher foiz stavkasi pulga bo‘lgan talabga ta’sir emaydi, u daromadga bog‘liq, degan xulosaga kelgan. Uning xulosasidan farqli o‘laroq, Kembrij maktabining iqtisodchi olimlari foiz stavkasi ta’sirida pulga bo‘lgan talabning o‘zgarishini istisno etmagan holda u nominal YAIMga proporsional, deb hisoblashgan.

J.Keyns nazariyasi asosida AQSHda arzon pullar siyosatini qo‘llagan holda iqtisodiy va investitsion faollik kuchaygan. Bundan tashqari, J.Keynsning “Arzon pullar” nazariyasi asosida Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlarning markaziy banklari faoliyatida muvaffaqiyatlari qo‘llanildi hamda mayjud makroiqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Monetarizm maktabi vakillari Markaziy bank tomonidan emissiya qilinadigan banknotalarni muomaladagi pul massasini tartibga solishning muhim vositasi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, tijorat banklari va ular mijozlarining pul munosabatlari nisbatan barqarordir, pul massasi esa Markaziy bank pullariga mutanosib ravishda o‘zgarib turadi.

Monetar siyosatning nazariy va amaliy masalalariga oid tahlillar natijasiga ko‘ra quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar shaklantirildi:

- M.Fridmen va boshqa monetarizm maktabi vakillaridan farqli o‘laroq, J.Keyns, pullarning taklifi xususidagi masalaga chuqur to‘xtalib o‘tirmadi. CHunki, J.Keyns Markaziy banklar tomonidan pul massasini to‘la nazorat qilish imkoniyatining mayjudligiga ishondi. Haqiqatdan ham Keyns, markaziy banklar bank zaxiralarini nazorat qilishi yo‘li bilan bank depozitlarini yuzaga kelish jarayonini ham nazorat qila oladi, degan xulosaga keldi. Ushbu xulosa rivojlangan mamlakatlar amaliyotida o‘zining amaliy tasdig‘ini topdi;

- J.Keyns tomonidan amalga oshirilgan tahlilda pulga bo‘lgan talab foiz me’yorining funksiyasi sifatida, M.Fridmen talqinida esa, nominal daromadning funksiyasi sifatida qaraladi;

- hozirgi zamon keynschilar va monetarchilar ham ikki yirik nazariy oqim sifatida pul taklifining o‘zgarishi nominal YAIMga ta’sir qilishini tan oladilar, ammo ular ushbu ta’sirga turlicha baho beradilar. Xusan, mazkur ta’sirning ahamiyati va mexanizmning o‘zi: keynschilar nuqtai nazaridan qaraganda, monetar siyosat asosida ma’lum darajada foiz stavkasi bo‘lishi kerak, monetarchilar nuqtai nazaridan qaraganda esa ushbu asos - pul taklifining o‘zidir;

- amalda Markaziy bank monetar siyosatning zamonaviy vositalaridan samarali foydalangan holda jumladan, qayta moliyalash stavkasini, majburiy zaxira talablari me’yorini o‘zgartirish, REPO va SVOP operatsiyalarini o‘tkazish, depozit sertifikatlarini sotish va sotib olish orqali muomaladagi pul massasi hajmini istagan miqdorgacha o‘zgartiradi;

- mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikasiyalash bosqichida monetizatsiya darajasining amaldagi miqdori va tijorat banklari kredit emissiyasining nisbatan pastligi restriksion monetar siyosatni qo‘llash imkonini bermaydi;

- J.Keynsning pul taklifini rag‘batlantirishga qaratilgan “Arzon pullar” nazariyясini respublikamiz amaliyotida qo‘llash aholi va korxonalarining to‘lovga qobil talabi darajasini keskin oshirish imkonini beradi va buning natijasida milliy iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi oshadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan monetar siyosatni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalgga oshirmoqda.

1. Milliy valyutaning devalvatsiya sur’atini pasaytirish maqsadida Markaziy bank kurs siyosatining elastiklik darajasini oshirgan holda, pullar taklifini o‘sish sur’atlari barqarorligini ta’minlash orqali, milliy valyutaning nominal almashuv kursi xorijiy valyutalarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nisbatni aniq

aks ettirishi lozim. Xorijiy valyutalarga talab oshgan davrlarda intensiv valyuta intervensiyanini amalga oshirish zaruriyati yuzaga keladi. Ammo, intensiv valyuta intervensiysi rasmiy valyuta zaxiralaring kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning oshishi milliy valyutadagi pullar taklifini kamayishi hisobiga qoplanmoqda.

2. Markaziy bankning foiz siyosati orqali tijorat banklari kreditlarining bahosiga ta'sir etish ko'lamini kengaytirish maqsadida birinchidan, tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarini tebranish doirasini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga nisbatan belgilanmoqda; ikkinchidan qayta hisobga olish kontengentidan tijorat banklarining likvidiligidagi ta'sir etishning asosiy instrumenti sifatida foydalanishni yo'lga qo'yildi; uchinchidan hukumatga va davlat organlariga tegishli vaqtinchalik bo'sh pul mablag'laridan milliy ssuda kapitalari bozoridagi taklifga ta'sir etish maqsadida foydalanmoqda.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent oqshomi gazetasi 2017 yil 16 yanvar, dushanba №11(13.334) 1-beti.
2. Friedman M. The Quantity Theory of Money. - Chicago, 1956. - P. 16.
3. Мишкин Ф. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Учебное пособие для студентов вузов. Аспект пресс. М.: 1999 г. стр. 548.
4. Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 100-101.
6. Meltzer A.H. The Demand for Money: The Evidence from the Times Series// Journal of Political Economy (1963) №71 P.219 -246; Brunner, Meltzer A.H. Predicting Velocity: Implication for Theory and Policy// Journal of Finance (1963) №18. P. 319-354.
7. International Monetary Fund, International Financial Statistics. Vol. LXV, No 5, May 2016 маълумотлари асосида муаллиф томонидан хисобланди.
8. www.cbu.uz сайти маълумотлари.
9. 2015 йилда пул-кредит соҳасидаги вазият ва монетар сиёсатнинг 2016 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари//Бозор, пул ва кредит.-Тошкент, 2015.-№1.-Б. 24.
11. The Economist, Economic and financial indicators. November 5th -11th 2016, page 88 маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузиленган.
12. Interfax ва Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia маълумотлари.

UDK: 332

O'ZBEKİSTONDA İSHCHI KUCHİ MİGRATSIYASI SHAKİLLANISHINING O'ZİGA XOS XUDUDİY XUSUSİYATLARI VA MUÖMMOLARI

N. A. Imomova

*Farg'ona davlat universiteti
19imomovanozma84@mail.ru*

Annotatsiya. Maqola keng qamrovli bo'lib, tadqiqotda ishsizlik darajasi va insonlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlari ularni tashqi migratsiyaga olib kelishi tadqiq etilgan.

Tadqiqotning maqsadi-O'zbekiston hududlarida ishsizlik darajasi va uning migratsiyaga ta'sirini o'rghanish.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga keligan:

- Mehnat migratsiyasining respublika va uning hududlardagi holati davlat siyosatiga bog'liq bo'lib, bandlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari yuqori bo'lmaydi.

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lgan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yuqori bo'lgan hududlarda ham mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari ijobjiy bo'ladi.

- Qishloq va shahar aholisining yashash sharoitlari o'rtasidagi farqlar, infratuzilmaning holati ham mehnat migratsiyasiga ta'sir kiladi. Qishloq hududlarida suv, gaz va ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlantirilishi mehnat migratsiyasining oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: migratsiya, ishsizlik, iqtisodiy faol aholi, mehnat migrantlari, O'zbekiston, hududlar.

Особые территориальные характеристики и проблемы формирования трудовой миграции в Узбекистане

Аннотация. Эта статья носит всеобъемлющий характер: в исследовании изучаются уровень безработицы и потребности людей в жилье, что приводит их к внешней миграции.

Целью исследования является изучение уровня безработицы в регионах Узбекистана и его влияния на миграцию.

Анализ приводит к следующим выводам:

- Ситуация с трудовой миграцией в республике и ее регионах зависит от государственной политики, а в странах с высоким уровнем занятости показатели трудовой миграции невысоки.

- Трудовая миграция будет позитивной даже в регионах с высоким промышленным производством, высокой долей малого бизнеса и частного предпринимательства.

- Различия в условиях жизни сельского и городского населения, состоянии инфраструктуры также влияют на трудовую миграцию. Развитие водной, газовой и производственной инфраструктуры в сельской местности может служить важным фактором предотвращения трудовой миграции.

Ключевые слова: миграция, безработица, экономически активное население, трудовые мигранты, Узбекистан, регионы.

Special territorial characteristics and problems of formation of labor migration in uzbekistan

Abstract Выше представленная диаграмма показывает нам, что, примерно, половина опрошенных отмечает о близости и удобном расположении ЦГУ, но мнение остальных людей расходится. Также при интервью с гражданами, ими было отмечено, что некоторым приходится доезжать до ЦГУ на 2 или 3 транспортах, что вызывает особые неудобства как в материальном, так и во временном отношении. Это говорит о том, что необходимо уделить внимание вопросу транспортной доступности ЦГУ. Решением данной проблемы, как мы считаем, будет являться оснащение населения транспортом (автобусы, маршрутки) из различных районных центров в ЦГУ.

This article is comprehensive: the study examines the unemployment rate and people's housing needs, which leads them to external migration.

The aim of the study is to study the level of unemployment in the regions of Uzbekistan and its impact on migration.

The analysis leads to the following conclusions:

- The situation with labor migration in the republic and its regions depends on state policy, and in countries with a high level of employment, labor migration indicators are low.

- Labor migration will be positive even in regions with high industrial production, a high share of small business and private entrepreneurship.

- Differences in the living conditions of the rural and urban population, the state of infrastructure also affect labor migration. The development of water, gas and industrial infrastructure in rural areas can serve as an important factor in preventing labor migration.

Keywords: migration, unemployment, economically active population, labor migrants, Uzbekistan, regions.

Kirish. Migratsiya – insoniyatning rivojlanishi tarixida azaldan muhim ahamiyatga ega fenomen. Aholining, xususan, mehnatga layoqatli qatlamning geografik ko'chishi har doim demografik o'sish, texnologik o'zgarishlar, siyosiy mojarolar va hatto urushlarga olib kelgan. Shu bilan bir qatorda, shuni alohida ta'kidlashimiz zarurki, XX asr tom ma'noda migratsiya asri bo'ldi: mazkur hodisa shu paytgacha jamiyat hayotida, iqtisodiyot va siyosatda bu qadar katta o'zgarishlarga olib kelmagan edi. Shu nuqtai nazaridan, mehnatga layoqatli aholining o'z xohishi bilan bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chib o'tishi, jahon iqtisodiyotida ommaviy kuzatilayotgan fenomen sifatida olimlar uchun e'tibor qaratish kerak bo'lgan asosiy mavzulardan biri hisoblanadi.

Migratsiya nima, uning sabablari nimalardan iborat, mohiyati qanaqa, u qanday tasniflanadi? Keng ma'noda, migratsiya tushunchasi “insonlarning yetarlicha uzoq masofaga, yetarlicha uzoq muddatga ko'chib o'tishi”ni [1] anglatadi. Juhon iqtisodiyotida esa, ishchi kuchi migratsiyasi tushunchasi mehnatga layoqatli aholining bir mamlakatdan boshqasiga bir yildan uzoq muddatga ishslash uchun ko'chib o'tishini bildiradi.

O'zbekistonda ham o'ziga xos migratsion xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni aholida tadqiq dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jumladan:

- Hududlarda iqtisodiy faol aholi qatlamining yuqoriligiga qaramasdan ishsizlik darajasining hududlardagi ulushi yuqori ekanligi;
- Ishsizlik darajasining yuqoriligi o'zbekistonliklarning xorijiy mamlakatlarga migratsiyasining yuqorilashib borishidagi muhim omillardan biri ekanligi;
- Aholining yashash sharoitlari va uy-joy bilan ta'minlanishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi mehnat migratsiyasidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqot keng qamrovli bo'lib, iqtisodiy-statistik tahlillar asosida ijtimoiy sohaga oid xulosalar chiqarilgan.

Jumladan, migratsyaning hududlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda ishsizlik darajasi va aholining uy-joy bilan bog'liq muammolari ahamiyatga ega ekanligi induktsiya yordamida xulosa qilingan.

Hududlar bo'yicha ishsizlik va migratsiya darajasini tahlil qilishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan.

Mavzuning o'r ganilgan darajasi

Hozirgi kunga kelib, ilmiy adabiyotlarda migratsiya tushunchasining bir qator ta'riflarini uchratishimiz mumkin. Xususan, ushbu tushunchaga ilk ilmiy ta'rifni 1885 yili nemis geografi E. Ravensteyn o'zining "Migratsiya qonunlari" asarida berib o'tgan. Unga ko'ra migratsiya – "kishilarning o'z yashash joylarini doimiy yoki vaqtinchalik muddatga o'zgartirishi". [2]

BMT tomonidan 1958 yilda chop etilgan ko'p tilli demografik lug'at esa migratsiyaga "yashash joyini o'zgartirish maqsadida odamlarning ko'chishi" deya ta'rif beradi. Shu bilan birga mazkur lug'atda "migratsiya" va "migratsion harakat" tushunchalari hamohang tushunchalar sifatida keltirilib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin. [3]

B.D. Breev esa, "migratsiya (hududiy ko'chish) – ma'lum bir hudud ichida yoki hududdan tashqariga odamlarning ko'chishi", – degan fikrni ilgari suradi. [4]

V.I. Perevedentsevning fikricha, "aholi migratsiyasi – ko'chishning bir ko'rinishi bo'lib, xususan makon bo'yicha ko'chish hisoblanadi". Yoki "nisbatan torroq ma'noda, migratsiya deganda kishilarning hudud bo'yicha ko'chishlari yig'indisi tushuniladi va bu jarayon ularning nisbatan uzoqroq muddatga o'z yashash joylarini o'zgartirishlari bilan bog'liq". [5]

L.L. Ryabakovskiy aholi harakatini uch qismga bo'ladi: ijtimoiy, tabiiy va migratsion. [6] Aholining ijtimoiy harakati uning bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchi ijtimoiy qatlamga o'tishi bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarni sotsiologiya fani o'rganadi. Aholining tabiiy harakati demografiya fanining predmeti bo'lib, bunda asosan, tug'ilish va o'lish hisobiga aholi sonining o'zgarishi tahlil qilinadi. Migratsiya esa, o'z navbatida, davomiyligidan, doimiy yoki vaqtinchaligidan, maqsadidan qat'iy nazar aholining ma'lum bir ma'muriy-hududiy birlik doirasida mexanik ko'chishi bilan bog'liq. [7]

V.A. Iontsevning fikriga binoan, "Xalqaro mehnat migratsiyasi – mehnatga bo'lgan qobiliyatning sotilishi, ya'ni u yoki bu korxonada ishga joylashish va ishlash hamda u uchun haq olish maqsadida davlat chegarasini kesib o'tish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir". [8]

Yana bir Rossiyalik olim O.D. Vorob'evanining qarashlariga ko'ra, aholi migratsiyasi – aholining ma'lum ma'muriy-hududiy birliklarni, xoh ichki, xoh tashqi bo'lsin, kesib o'tish bilan bog'liq har qanday hududiy ko'chishi. Bunda ko'chib o'tayotgan aholi maqsadi doimiy yoki vaqtinchaligi yashashmi, inobatga olinmaydi. [9]

D.Xeyzel esa, o'z navbatida quyidagi ta'rifni ishlataladi: migratsiya – shunday geografik harakatki, u mazkur harakatda ishtirok etayotgan shaxsnинг o'z yashash joyini ma'lum bir siyosiy va statik punktlar doirasida o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi (D. Xeyzel, 1984, 6.2.5 Vol. I, P. 448).

S. Eyzenstadt migratsiyani "biror individ yoki guruhning bir jamiyatdan boshqa jamiyatga jismoniy ko'chishi", – deb hisoblaydi. [10]

"Umuman olganda, migratsiya yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq harakat va u odatda doimiy xarakterga ega". [11]

O'zbek olimlaridan Ye.V. Abdullaev ishchi kuchi migratsiyasini "ishchi kuchining yangi ishga joylashib, ko'proq daromad ko'rish maqsadida mexanik ko'chishi", sifatida talqin qiladi. [12]

D.V. Rasulova, "Aholi migratsiyasi – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning dastlabki ko'rinishi sanaladi. Migrantlar yaxshi yashash sharoitlarini topish maqsadida yo'lga chiqishlari, ya'ni mamlakatlar orasida mehnat resurslari migratsiyasini amalga oshirsalar tashqi migratsiya sanaladi, agar bu bir mamlakat doirasida yuz bersa, ichki migratsiya hisoblanadi", – degan fikrni ilgari suradi. [13]

Z.A. Qodirova esa, barcha yondashuvlarni birlashtirishga harakat qilgan holda, quyidagilarni ta'kidlaydi. "Xalqaro mehnat migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omil va sabablar ikki turda ya'ni, iqtisodiy

va noiqtisodiy shaklda namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, iqtisodiy omillarga mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, aholi turmush darajasi va daromadlar o'rtasidagi tafovutlar, noiqtisodiy omillarga esa, diniy, siyosiy, oilaviy, etnik kabi omillarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqaro mehnat migratsiyasini nazari va amalaij jihatdan tadqiq etishda aynan shu omillarga alohida e'tibor qaratish va mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari va manfaatlardidan kelib chiqib, mazkur omillar ta'sirini kuchaytirish yoki bu ta'sirlar oldini olish maqsadga muvofiq". [14]

Migratsiyaning oilaviy muammolar va boshqa ijtimoiy holatlar ta'sirida ham yuzaga kelishi mumkinligi sotsiolog olimlar tomonidan ham samarali o'rganilgan. Jumladan, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi direktori o'rnbosari Raximova Nigina Xayrullaevna tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasida hududiy monitoring o'tkazish usuli bilan jamoatchilik fikri asosida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda oila va nikoh masalalari, avlodlar o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyalash, barkamol avlodni shakllantirish bo'yicha jamoatchilik fikrida mustahkamlangan eng ustuvor yo'nalishlar ko'rib chiqilgan. Alovida e'tibor inson va jamiyatning hayotida oilaning roli va vazifalarini aniqlash masalasiga qaratildi. Erkaklar va ayollarning oila qurish yosh ko'rsatrichlari, shuningdek, uni mustahkam, farovon oilani ta'minlash uchun sharoit va omillar tahlil qilinadi.[15]

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi hududlarining aholisi o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi. 2018 yil ma'lumotlariga muvofiq mamlakat aholisining 14 641,6 mingi iqtisodiy faol hisoblanadi.

Aholisining iqtisodiy faoliik darajasi bo'yicha Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo, Andijon, Buxoro viloyatlari yetakchilik qilsa, ishsizlik darajasi bo'yicha Samarqand, Surxandaryo, Farg'ona, Jizzaj va Andijon viloyatlari yuqori salbiy ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. Respublikada iqtisodiy faol nisbatan ishsizlik darajasi 9,3 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholinaq iqtisodiy faoliik darajasi2), foizda	Aholinaq bandlik darajasi3), foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar1			
2018						
O'zbekiston Respublikasi	14641,7	13273,1	1368,6	74,3	67,4	9,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	779,5	705,2	74,3	69,5	62,9	9,5
viloyatlar:						
Andijon	1401,6	1266,8	134,8	77,0	69,6	9,6
Buxoro	887,7	810,1	77,6	77,4	70,7	8,7
Jizzax	539,4	486,6	52,8	68,3	61,6	9,8
Qashqadaryo	1353,3	1222,0	131,3	71,7	64,8	9,7
Navoiy	446,3	407,7	38,6	75,8	69,2	8,7
Namangan	1162,6	1051,5	111,1	70,5	63,8	9,6
Samarqand	1620,6	1463,3	157,3	73,4	66,3	9,7
Surxondaryo	1089,3	984,0	105,3	72,2	65,2	9,7
Sirdaryo	390,7	354,2	36,5	77,7	70,5	9,3
Toshkent	1349,8	1227,7	122,1	78,5	71,4	9,0
Farg'ona	1606,6	1451,0	155,6	73,1	66,0	9,7
Xorazm	786,0	711,8	74,2	71,3	64,6	9,4
Toshkent sh.	1228,3	1131,2	97,1	84,1	77,5	7,9

Hududlardagi ishsizlik darajasi mehnat migratsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisi soni ko'payishi barobarida ish qidirib chetga chiqayotgan fuqarolar soni ham oshib bormoqda. Shunisi qiziqliki, bu raqamlarning o'zaro nisbati 10 – 11 foiz atrofida deyarli o'zgarmas bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonning har o'ninchи iqtisodiy faol fuqarosi har yili ish topish maqsadida xorijga chiqadi. Shu o'rinda 2018 yil statistikasida keltirilgan ma'lumotlar (4,1 million kishi) bundan mustasno ekanini qayd etish joiz.

O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasining ma'lum qilishicha, 2016 – 2018 yillar mobaynida har yili 1,18 – 1,3 million o'zbekistonlik Rossiyaga chiqqan. Rossiya migratsiya xizmati hisobida turgan O'zbekiston fuqarolari soni bu yerdan Rossiyaga borganlar sonidan bir necha bor ko'p.

Bunday tafovutning ikkita sababi bor. Birinchidan, O'zbekiston fuqarolari yil mobaynida ikki yoki uch marotaba, masalan, har safar 3 oydan hisobga qo'yilgan bo'lshi mumkin. Ikkinchidan, ko'plab o'zbekistonliklar Rossiyaga uzoq muddatga – bir necha yilga boradi. Ular o'z vataniga qaytmagan holda registratsiyani uzaytiradi yoki qayta migratsiya hisobiga qo'yiladi.

Rossiyadagi O'zbekiston fuqarolari soni tobora ortib bormoqda. Buni migratsiya hisobining ijobjiylashtirilishi ham tasdiqlaydi – hisobga qo'yilgan va hisobdan chiqarilgan O'zbekiston fuqarolari soni o'rta sidagi farq yiliga

Qariyb 2,6 million O'zbekiston fuqarosi xorijda mehnat qilmoqda. Ularning 80 – 85 foizi Rossiyada ekan. Iqtisodiy faol aholi soni 14,6 mln kishidan ko'pligi hisobga olinsa, bu ishga layoqatli har beshinchi o'zbekistonlik mehnat migranti, har yettinchi iqtisodiy faol fuqaro Rossiyada ishlashini ko'rsatadi.

O'zbekistonda 2020 yil kuziga qadar chet eldag'i mehnat muhojirlari va ularning oilalari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Ushbu chora jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilingan 2020 yilga mo'ljallangan Davlat dasturi loyihasida ko'zda tutilgan.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtida 2,5 million kishi (iqtisodiy faol aholining 20 foizi), qariyb 34 million aholisi bo'lgan mamlakatdan tashqarida ishlaydi, ulardan ikki millionga yaqini Rossiyada.

2019 yilda doimiy yashash uchun O'zbekistondan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni 13 246 kishini tashkil qildi.

Eng ko'p Qozog'iston - 57,5% (7615 kishi) va Rossiyaga - 37,7% (4990 kishi) ko'chib ketish holati qayd etilgan.

Keyingi o'rnlarda 0,8 % bilan AQSh (112) va 0,7 % bilan Isroilga (99 kishi) qayd etilgan. Qolgan 3,3 % esa boshqa davlatlar hissasiga mos keladi.

2018 yilda Rossiyaga boshqa mamlakatlardan migratsiya oqimi 2005 yildan beri minimumga pasaydi - 124,9 ming kishi. Bu haqda Rosstat ma'lumotlarida aytilgan. 2017 yil bilan taqqoslaganda migratsiya o'sishi 41 foizga yoki 87 ming kishiga kamaydi.

Natijada, so'nggi 10 yil ichida ilk bor migratsiya oqimi tabiiy pasayishning o'rnini to'ldira olmadi, Rossiya aholisi 93,5 ming kishiga qisqardi.

Rossiyaga kelganlar soni 2018 yilda 4 foizga - 565,7 ming kishigacha kamaydi. Chiqib ketganlar miqdori 17 foizga - 440,8 ming kishigacha oshdi.

2006 yildan buyon uzoq xorij mamlakatlari bilan migratsiya almashinuvni ilk bor salbiy ko'rsatkichga yetdi (minus 4199 kishi).

O'zbekiston Rossiyada bo'lib turgan migrantlar soni bo'yicha hali ham yetakchilik qilmoqda. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda O'zbekistonning 4,5 million nafar fuqarolari migratsion ro'yxatga olingan, 3,25 million kishi - ro'yxatdan olingan (saldo 1,25 million). [16]

Mutaxassis fikriga ko'ra, migrantlar orasida ayollar soni ko'payishi – bu umumjahon trendi. Ayollar soni oshishi – migrantlar bolalarining ham soni oshishini bildiradi, deydi ekspert.

Shuningdek, turli yoshdag'i migrantlar ham kela boshladи. Oldinlari asosan o'rta yoshli biror mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar kelgan bo'lsa, hozir hech qanday ish tajribasiga ega bo'lmasan yosh fuqarolar ham kelmoqda.

Shunindek migrantlar orasida qishloqdan kelgan kishilar soni ham oshmoqda. Demak kelayotgan kishilarning aksariyati olyi ma'lumotga ega emas, rus tilini bilish darajasi ham ancha past. Oxirgi vaqlarda migratsiya sohasida ana shunday trendlar kuzatilmoqda. [17]

O'zbekistondan xorijga boruvchi migrantlarning asosiy qismi ona yurtida uy-joy qilishni maqsad qiladi. O'zbekiston xorijga uy-joy qilish maqsadida bo'lgan migrantlarning oldini olish maqsadida ularga uy-joy qilib berish siyosatini ham olib bormoqda.

2020 yilda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ehtiyojmand mehnat migrantlariga ko'p kvartirali uylardan 3462 ta xonodon ajratiladi. Bu O'zbekiston prezidentining 2019 yil 20 avgustdag'i farmonida belgilab qo'yilgan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ajratiladigan xonodonlar hududlar kesimida qanday ko'rinishga ega bo'lshini e'lon qildi.

Eng ko'p xonodon Andijon, Samarqand va Farg'on'a viloyatlarida ajratilgan – har bir viloyatda 420 tadan. Eng kam Navoiy viloyatida 60 ta ajratilgan.

Shuningdek, ro'yxatda Qoraqalpog'istonda 210 ta, Buxoro viloyatida 240 ta, Jizzax viloyatida 120 ta, Qashqadaryo viloyatida 300 ta, Namangan viloyatida 300 ta, Surxondaryo viloyatida 270 ta, Sirdaryo viloyatida 90 ta, Toshkent viloyatida 180 ta, Xorazm viloyatida 240 ta, Toshkent shahrida 162 ta xonodon ajratilishi ko'rsatilgan. [18]

O'zbekistonda chet elda ishlamoqchi bo'lганlar uchun Labor migration elektron dasturi joriy etildi.

"Labor migration – mehnat migrantlarini himoya qiladi. Xorijga ishga ketayotgan har bir fuqaro Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga kelib, ariza berib ro'yxatdan o'tsa u davlat tasarrufida bo'ladi. Shundan so'ng davlat u va ish beruvchi orasidagi munosabatlardan xabardor bo'lib turadi, hatto ish beruvchi hisobotlarini olib tekshirib turishgacha boradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2,5 milliondan ortiq o'zbekistonlik mehnat migranti sifatida xorijda istiqomat qiladi. Ularning oilalariga jo'natayotgan pul o'tkazmalari hajmi respublika viloyatiga qarab, umumiyligi aholi daromadining 5 foizdan 23 foizgacha bo'lган qismini tashkil etadi. Bu ayrim viloyatlarda o'rtacha statistik oila daromadining yigirmadan bir qismini, boshqa viloyatlarda esa aholi daromadlarining, taxminan, to'rtadan yoki beshdan bir qismidan iborat deganidir.

Ihsizlik darajasi yuqori bo'lган Andijon, Samarcand, Sunxondaryo viloyatlarida xorijdan pul o'tkazmalari umumiyligi daromadlarning 16-19 foizini tashkil etgan. Xorijdan pul o'tkazmalari hajmi [18]

Rossiyadan O'zbekistonga pul o'tkazmalari dinamikasi alohida e'tiborga loyiqlik. Ushbu o'tkazmalarning umumiyligi miqdori Rossiya fuqarolari va norezidentlar – O'zbekiston fuqarolari (norezidentlar) jo'natgan mablag'lardan iborat. Pulning aksariyat qismini O'zbekiston fuqarolari (norezidentlar) jo'natgani yuqoridagi grafikdan ham ko'rinish turibdi. O'tgan 10 yillik dinamikaning ko'rsatishicha, 2009 yildan 2013 yilgacha pul o'tkazmalari miqdori barqaror o'sib, yiliga 6,69 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Lekin undan keyingi 3 yil ichida bu ko'rsatkich 2,74 milliard dollargacha kamaydi. Bunga Rossiyada yuz bergan iqtisodiy inqiroz va 2014 yilda rublning keskin qadrsizlanishi sabab bo'ldi. 2016 yildan boshlab 2018 yil oxirigacha Rossiyadan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari miqdori atigi 4 milliard dollarga yetdi.

O'zbekistonliklarning aksariyat qismi Rossiyada mehnat qilayotgan bo'lsa-da, 2018 yilda mamlakatga qariyb 1 milliard AQSh dollarilik pulni boshqa xorijiy yurtlarda ishlayotgan migrantlar jo'natdi. So'nggi yillarda boshqa mamlakatlarga mehnat migratsiyasi tobora oshib bormoqda. Bizningcha, bunga 2014 yilda Rossiya rublining keskin qadrsizlanishi va mehnat migrantlarining ish haqi dollar hisobida bir yarim yoki ikki baravar kamayib ketgani sabab bo'ldi.

Ish topish maqsadidagi migratsiya geografiyasi so'nggi 5 yilda o'zgara boshladi hamda AQSh, Turkiya, Isroil, Janubiy Koreya, BAA va Qozog'istonga ishchilar oqimi tobora o'sib borayotgani kuzatilmoqda.

Ish topish maqsadida Rossiyaga ketayotgan o'zbekistonliklar soni yiliga 850 ming – 1 million kishi bo'lib turgan paytda boshqa mamlakatlarga ketayotgan mehnat migrantlari oqimi tobora oshib bormoqda. 2018 yilda Rossiyadan yuborilgan pul 2 foiz kamaygan bo'lsa, qolgan mamlakatlardan jo'natilgan o'tkazmalar ulushi ortdi.

2018 yilda Qozog'istonga safari maqsadini "ish" deb ko'rsatgan o'zbekistonliklar statistikasi bundan mustasno. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, bunday migrantlar 3,5 million kishini tashkil etadi.

Xulosa

O'rganilganlar asosida muallif tomonidan quyidagi xulosalarga kelingan:

- Mamlakat hud udlaridagi ishsizlik darajasi mehnat migratsiyasiga bevosita bog'liq bo'lган ko'rsatkich bo'lib, Andijon, Samarcand, Sunxondaryo singari ishsizlik darajasi yuqori bo'lган viloyatlarida xorijdagi mehnat migrantlari soni va ularning O'zbekistonga pul o'tkazmalari soni yuqori bo'lган;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lган mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Qonun loyihasi 1 sentyabrgacha ishlab chiqilishi kerak. Hozirda respublikada vaqtinchalik mehnat migratsiyasidagi fuqarolarning huquqlarini tartibga soluvchi qonun mavjud emas. Qonunda mehnat migrantlari va ularning oila a'zolaringi huquqiy maqomni va kafolatlari, shuningdek, ushbu toifadagi O'zbekiston fuqarolarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak;

- Xorijga ketayotgan mehnat migrantlarini qisqartirish maqsadida respublika hududlarida 2020 yilda 3462 ta xonodon ajratiladi va ishsizlik darajasi, migratsiya jarayonlari kuchli bo'lган hududlarda uyjoylarning hajmi katta.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqotchi tomonidan quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Mehnat migratsiyasining respublika va uning hududlardagi holati davlat siyosatiga bog'liq bo'lib, bandlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari yuqori bo'lmaydi.

2. Sanoat ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lgan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yuqori bo'lgan hududlarda ham mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari ijobiy bo'ladi.

3. Qishloq va shahar aholisining yashash sharoitlari o'rtasidagi farqlar, infratuzilmaning holati ham mehnat migratsiyasiga ta'sir kiladi. Qishloq hududlarida suv, gaz va ishlab chiqarish infratuzilmashining rivojlantirilishi mehnat migratsiyasining oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Интернатионал Энсайслопедия оғ тхе Сосиал Ссиенсес. Масмиллан, 1968.
2. Равенстейн Э.Г. Тхе Lawc оғ Мигратион. Жоурнал оғ Статистисал Сосиетй оғ Лондон. Вол.48, Но.2. 1885. pp. 167-235.
3. <http://ru-ии.демопаэдия.орг/вики/10> (охирги кириш: 10/01/2020) – БМТнинг кўп тилли демографик лугати
4. Бреев Б.Д. Подвижность населения и трудовых ресурсов. – М.: Статистика, 1977. – 176 с.
5. Переведенцев В. И. Методы изучения миграции населения. – М.: Наука, 1975. – 231 с.
6. <http://рыбаковский.ру/миграсиа2б.хтмл> (охирги кириш: 20/09/19) – Л.Л. Рыбаковский шахсий блоги
7. <http://рыбаковский.ру/миграсиа2б.хтмл> (охирги кириш: 20/09/19) – Л.Л. Рыбаковский шахсий блоги
8. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. // Международная миграция населения: Россия и современный мир. Выпуск №3 – М., 1999. Стр. 39.
9. Воробьёва О. Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики // Проблемы правового регулирования миграционных процессов на территории Российской Федерации / Аналитический сборник Совета Федерации ФС России – 2003. – № 9 (202). – с. 35.
10. Эисенштадт, С. (1953). Анализ оғ Паттернс оғ Иммиграцион анд Абсорптион оғ Иммигранц. *Популатион Студиес*, 7(2), 167-180. doi:10.2307/2172030
11. Жоҳнсон Ж.Х. анд Салт Ж. (1980) Лабоур миграцион шитхин организациюнс: ан интродусторй студий. Жоурнал оғ эсономис анд социал географий. 71(5):277-284.
12. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб. ст. / Отв. ред. Е.В. Абдуллаев.: Ташкент, 2008. – 204 с.
13. Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. – Т., 2010. 27-б.
14. Қодирова З.А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. – Т.: ИҚТИСОДИЁТ, 2016. – 152 бет.
15. Raximova N.X. Oila sotsiologiyasi: fikrlar, qadriyatlar, xususiyatlar. Ижтимоий тадқиқотлар журнали. №4, 2019. 16-24 бетлар.
16. <https://sputniknews-uz.com/migration/20200127/13307179/tgan-yilda-zbekistonliklar-asosan-aysi-daylatlarga-kchib-ketgani-malum-ilindi.html>
17. <https://sputniknews-uz.com/migration/20200109/13181941/Migrantlar-orasida-allar-soni-kpaymoda.html>
18. <https://sputniknews-uz.com/migration/20200103/13157394/ududlarda-migrantlarga-azhratilgan-uylar-soni-ochilandi-.html>

УДК:334

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

У. Шукуриллаев, Б.Усмонов

Ташкентский химико-технологический институт

Аннотация. В статье раскрываются роль человеческого капитала влияющей на рост экономики. Приводится анализ, в разрезе некоторых стран, инновационная активность в экономики, в том числе, в высшей школе. Показано, что степень эффективности инновации и величина ожидаемого прироста экономических выгод от ее использования зависят от качества управления человеческого капитала.

Ключевые слова: человеческий капитал, инновация, инвестиция, рейтинг, экономика, интеллектуал, образования, наука, критерий, разработка

Инсон капитали – давлат инновацион иқтисодиётининг асосий омили

Аннотация. Ишда иқтисодиётни ўсишига таъсир этувчи инсон капиталининг роли очиб берилади. Баъзи мамлакатлар кесимида иқтисодиётдаги, шу жумладан, олий таълимдаги инновацион фаоллик тахлили келтирилган. Уни қўллашдаги инновация самарадорлиги даражаси ва кутилаётган иқтисодий фойданинг ўсиш миқдори инсон капиталини бошқаришнинг сифатига боғлиқлиги кўрсатилган.

Калит сўзлар: инсон капитали, инновация, инвестиция, рейтинг, иқтисодиёт, интеллектуал, таълим, фан, мезон, ишланма

Human capital as a key factor in the innovative economy of the country

Abstract. The role of human capital influencing economic growth is revealed in the article. An analysis is given, in the context of some countries, of innovative activity in the economy, including in higher education. It is shown that the degree of innovation efficiency and the expected growth in economic benefits from its use depend on the quality of human capital management.

Keywords: human capital, innovation, investment, rating, economy, intellectual, education, science, criterion, development

Экономика Узбекистана сегодня значительно отстает по-научному и инновационному потенциалу от экономики развитых стран. Слабое присутствие Узбекистана в мировых (глобальных) рейтингах во многом связано с неэффективностью управления человеческим капиталом.

Необходимость развития методологии управления человеческим капиталом в инновационной экономике определяется наличием следующих взаимосвязанных проблем:

1. Для страны, обладающей значительным научным и инновационным потенциалом, сегодня характерна низкая инновационная активность и восприимчивость к инновациям. В 2013 году только 6,7% предприятий выпускали инновационную продукцию [1]. В высокотехнологических отраслях, изначально ориентированных на высокую инновационную активность, доля новой продукции предприятий для рынка сбыта составляет 0,3% (для примера, в Эстонии- 40,4% и Беларуси - 66,9%, в Азербайджане - 13%, в Казахстане - более 33%).

2. Наблюдается низкая публикационная активность ученых. В 2015 году количество публикаций ученых в ведущих мировых журналах составила 473 (19) (для сравнения, в РК – 2545 (15 место в Азии), в Японии – 127862 (3 место в Азии), в Киргизстане – 164 (25 место), в Китае – 461547 (1 место)) [2].

3. Экономика сегодня характеризуется недостатком высокоинтеллектуальных и инновационно-компетентных работников. Численность занятых исследованиями и разработками в Узбекистане не изменилось за 15 лет с 2000 г. по 2016, и составляет 37 тысяч (рис.1.) [3].




Рис. 1. Публикационная активность стран Центральной Азии за 2015 г.

4. В Узбекистане ограничено число передовых практик по проблемам развития способностей к креативному мышлению, по проблемам обучения в течение всей жизни, готовности к предпринимательству и принятию риска.

5. Существующие методы и инструменты оценки человеческого капитала не позволяют полностью раскрыть профессиональные, интеллектуальные и креативные способности работников для определения направлений их формирования и развития, что снижает точность прогноза и планирования развития человеческого капитала, необходимого в условиях инновационной экономики.

Указанные проблемы актуализируют необходимость развития методологии управления человеческим капиталом в интересах инновационного экономического развития. Исследование приобретает особую актуальность в связи с декларированием курса государства на инновационное развитие.

В связи с этим стимулирование научно-исследовательской и инновационной деятельности, создание эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику, организация при высших образовательных учреждениях и научно-исследовательских институтах специализированных научно-экспериментальных лабораторий, центров высоких технологий и технопарков определены в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах в качестве важнейших направлений развития сферы образования и науки.

В целях решения накопившихся проблем в данной сфере экономики в феврале 2017 г. принято Постановление Президента Республики Узбекистан, которым предусматривается реализация широкого круга конкретных мер по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности [4]. Этим нормативным актом определены основные задачи и приоритетные направления деятельности академической науки на основе современных требований. В составе Академии наук создается ряд новых научно-исследовательских учреждений, отдельные организации возвращаются в сферу ее влияния [5].

В условиях современного развития общества особая значимость придается экономике знаний. Знания, навыки, умения людей, способность и желание применять их в практической деятельности определяют качественную составляющую важнейшего элемента национального богатства страны – человеческого капитала. Именно человеческий капитал во многом определяет экономический потенциал государства. В современном мире ежегодно собираются и анализируются сведения о составляющих национального богатства стран мира. Результаты исследований ученых-экономистов свидетельствуют о тесной взаимосвязи и взаимозависимости величин категорий «инновации», «инвестиции», «человеческий капитал». Так, процесс создания инновации в первую очередь обеспечивается на основе накопленного запаса навыков, знаний, способностей создателей инновации. Причем формирование человеческого капитала сопровождает все стадии процесса формирования инновации. В связи с чем особое внимание должно уделяться повышению качественного уровня человеческого капитала и эффективности его использования в обеспечении инновационного развития. Поэтому увеличение затрат на проводимые научно-исследовательские работы, которые осуществляют высококачественный человеческий капитал, должно стать одним из значимых направлений социально-экономического развития Республики Узбекистан.

Сравнительный анализ стран по уровню развития инноваций, экономики знаний, человеческого потенциала, выявление на его основе страновых конкурентных преимуществ играет в этой связи существенную роль для определения приоритетных направлений их инновационного развития посредством формирования и эффективного использования человеческого капитала.

Глобальный индекс инноваций рассчитывается ежегодно по методике международной французской бизнес-школы INSEAD. Итоговый индекс – это соотношение затрат и эффекта, что позволяет объективно оценить эффективность усилий по развитию инноваций в той или иной стране. На основании полученных данных формируется информация о позиции страны в общем рейтинге по индексу инноваций. Нами проанализирована информация в отношении десяти стран (таблица 1).

Таблица 1.

Рейтинг стран по индексу инноваций в 2012–2016 годах [1]

Страна	Позиция				
	в 2012г.	в 2013г.	в 2014г.	в 2015г.	в 2016г.

Швеция	2	2	3	3	2
США	10	5	6	5	4
Израиль	17	14	15	22	21
Эстония	19	25	24	23	24
Латвия	30	33	34	33	34
Литва	38	40	39	38	36
Польша	44	49	45	46	39
Россия	51	62	49	48	43
Беларусь	78	77	58	53	79
Украина	63	71	63	64	56
Казахстан	83	87	79	82	75
Узбекистан	отсут.	133	128	122	отсут.

К числу заметных субиндексов у Узбекистана в этом рейтинге по итогам 2015 года относятся: субиндекс по критерию «Образование», равный 55,2 (29 место). Россия с баллом 58,5 занимает 28 место, Казахстан с баллом 43,0 - 79;

субиндекс по критерию «Легкость открытия бизнеса» (89,0 балла и 55 место).

У России – 92,4 балла и 36 место, у Казахстана – 94,4 балла и 21 место;

субиндекс по критерию «Освоение знаний» (Knowledge absorption) (44,9 балла и 27 место).

Слабые стороны Узбекистана:

субиндекс по критерию «Научные работники» (12,6 балла и 124 место);

субиндекс по критерию «Кредитование бизнеса» (16,0 баллов и 116 место);

субиндекс по критерию «Высшее образование» (22,61 балла и 95 место).

У России – 47,7 баллов и 23 место, у Казахстана – 39,4 балла и 47 место.

Уровень инновационности в стране и уровень развития экономики знаний оценивают и эксперты Всемирного банка (The World Bank), используя для этих целей Индекс экономики знаний (The Knowledge Economy Index) - комплексный показатель, характеризующий уровень развития экономики, основанной на знаниях, в странах и регионах мира. В основе расчета Индекса лежит предложенная Всемирным банком «Методология оценки знаний» (The Knowledge Assessment Methodology - KAM), которая включает комплекс из 109 структурных и качественных показателей. Методология оценки знаний предлагает также два сводных индекса - вышеупомянутый Индекс экономики знаний (The Knowledge Economy Index - KEI) и Индекс знаний (The Knowledge Index - KI).

Индекс экономики знаний - комплексный показатель для оценки эффективности использования страной знаний в целях ее экономического и общественного развития.

Индекс знаний – комплексный экономический показатель для оценки способности страны создавать, принимать и распространять знания.

Таким образом, индекс знаний отражает потенциал страны в области развития знаний, а Индекс экономики знаний показывает, способствует ли созданная в стране макроэкономическая среда эффективному использованию знания для экономического развития.

Согласно отчету за 2012 г., Республика Узбекистан занимает 105 место в рейтинге из 146 государств (индексы KEI и KI составляют 3,14 и 6,62 соответственно). По сравнению с 2000 г. ее рейтинг в индексе KEI вырос на 4 позиций (в основном, за счет Индекса экономического и институционального режима, а также Индекса ИКТ) [6].

Наименее успешным субиндексом Узбекистана продолжает оставаться Индекс экономического и институционального режима, наиболее успешным – Индекс образования (таблица 2).

Наиболее высокий рейтинг получила система образования Республики Узбекистан (7,37 по сравнению с 9,10 по первым 10-ти странам), что позволяет рассматривать ее как наиболее устойчивый элемент национального хозяйства, обеспечивающий воспроизводство интеллектуальных ресурсов даже в условиях неблагоприятной среды. Достаточно высок в Узбекистане и индекс ИКТ. Значения всех субиндексов, за исключением индекса образования, демонстрируют рост.

Таблица 2.

Рейтинг и показатели Узбекистана по KEI и KI [6]

Год	Рейтинг	KEI	KI	Индекс экономического и институционального режима
2012	105	3,14	6,62	2,50
2000	101	3,25	6,05	1,39

Очевидна тесная взаимосвязь инноваций и человеческого капитала, которую можно характеризовать следующим образом.

Человеческий капитал опосредован важнейшим ресурсом предприятия – человеческим, который участвует в увеличении доходов организации от использования навыков и профессионализма работников.

Доходность человеческого капитала определяется способностью отдельного работника приносить доход организации путем увеличения производительности труда, разработки инноваций, улучшения качества обслуживания клиентов.

Чем выше стоимостная оценка человеческого капитала, тем выше качество и эффективность разработанных инноваций.

Степень эффективности инновации и величина ожидаемого прироста экономических выгод от ее использования зависят от качества управления человеческого капитала, его способности создавать добавочную стоимость, а значит – от доходности данного капитала. Сказанное наглядно проиллюстрировано на рис. 2.




Рис. 2. Отражение взаимосвязи и взаимозависимости между затратами по формированию человеческого капитала и затратами на создание инновационного продукта. Источник: собственная разработка.

Надо отметить, что человеческий капитал формируется только при наличии развитой системы образования страны. В этом процессе главенствующий роль играют не только ресурсы и инвестиции, а первый очередь какие кадры обучают нашу молодежь. Поэтому воспитание и формирование совершенного нового поколения преподавателей, и достойно вознаграждать их труд является приоритетом государственной политики Узбекистана.

ВЫВОД. Одним из необходимых условий определения достоверной стоимости инновации (результата инновационной экономики) является осуществление объективной стоимостной оценки человеческого капитала. Особый интерес вызывает тот факт, что человеческий капитал на мировом уровне признан важнейшим элементом национального богатства и фактором экономического роста. Так, в конце XX в. Всемирный банк предложил новую концепцию измерения национального богатства (капитала) страны, включающего человеческий, природный и воспроизводимый капитал.

На основании анализа динамики индексов экономики знаний, инновационного и человеческого развития можно сделать вывод о существовании определенной закономерности: для стран, имеющих высокий рейтинг инновационного развития, характерны очень высокий уровень человеческого развития и более значительная доля расходов на НИОКР и инновации в ВВП. Другими словами, инвестирование средств в научно-исследовательский сектор экономики и инновации во многом предопределяет повышение уровня человеческого развития государства, что в совокупности ведет к росту его (государства) инновационного развития.

Авторы благодарить Фонда академических инноваций (АИФ-2/13) в рамках которого выполнена настоящая работа.

Литература

1. Innovation for Sustainable development. Review of Kyrgyzstan, UN. Geneva, 2019.
2. Муродхужаев Х.А. Инновационное развитие – это основа будущего <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-komiteta/3597-innovatsionnoe-razvitiye-eto-osnova-budushchego>.
3. Scimago Journal & Country Rank. www.scimagojr.com/countryrank.php?region=Asiatic%20Region&year=2015
4. О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организаций, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности. Постановление Президента РУ от 17 февраля 2017 г. № ПП-2789.
5. Воронин С. Стимулирование инновационного развития в Республике Узбекистан. <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/2851-sergej-voronin-stimulirovaniye-innovatsionnogo-razvitiya-v-respublike-uzbekistan>
6. The Global Innovation Index / Cornell INSEAD WIPO // Johnson Cornell University [Electronic resource]. 2012. Mode of access: <http://www.globalinnovationindex.org/content>. – Date of access: 26.06.2019.

UDK: 372

**TALABALARGA LOYIHALASH ELIMENTLARINI O'RGATISH ORQALI ULARNING
IJODKORLIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Sh.U.Jumayev

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada chizmachilik fanidan talabalarning ijodkorlik qobilyatlarini rivojlanirishda loyihalash elementlaridan foydalanish usullari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: loyihalash, element, ijodkorlik, shakl, konstruksiya, obraz, detal, ortogonal proyeksiya, nuqta, tekislik.

Развивайте творческих способностей студентов элементами проектирования.

Аннотация. В данной статье представлена методика использования элементов проектирования в развитии творческих способностей студентов по предмету черчения.

Ключевые слова: дизайн, элемент, креативность, форма, конструкция, изображение, деталь, ортогональная проекция, точка, плоскость.

Develop students' creative abilities by teaching them design elements

Abstract. This article presents a methodology for using design elements in the development of students' creative abilities in the subject of drawing.

Keywords: design, element, creativity, shape, design, image, detail, orthogonal projection, point, plane.

Ta'lim tizimining islohi qilinishi tufayli, uning mazmunini tubdan yangilashga, ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil qilishga va ta'limdagi sifat samaradorligini oshirishga zarurat tug'uldi.

Texnika taraqqiyotining hozirgi zamon talablariga mos keladigan shaxsni kamol toptirish, ularda «grafik savodxonlik» ni va ijodkorlikni tarbiyalash hamda yaxshilash bugungi va ertangi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi.

Loyihalash bilan bog'liq bo'lган har qanday jarayon ijodiy fikrlash ya'ni yangilik yaratish bilan bog'liq bo'ladi. Ijod deganda ma'lum vaqtida va vaziyatda zarur va foydali yangilik yaratish tushuniladi. Umuman olganda ma'lum narsani ijod mahsuli deyish mumkin, o'z navbatida yangilik deyilganda, ilgari shunday shaklda bo'lмаган, ayni vaqtida tarkibida ilgari ma'lum bo'lмаган element kiritilgan texnik fikrlash mahsuloti tushuniladi.

Yangiliklar ob'ektiv va su'bektiv bo'lishi mumkin. Ob'ektiv yangilik shu paytgacha o'ziga o'xshashi mavjud bo'lмаган yangilikdir. Sub'ektiv yangilik esa bu aslida mavjud, lekin ayni vaqtida u yaratuvchi uchungina yangilik hisoblangan yangilikdir.

Loyihalash ishlari deyilganda u yoki bu detal yoki moslamaning, mashina hamda inshooatlarning shaklan va mazmunan o'zgarishi nazarda tutiladi. Bu o'zgarishda detallar, mexanizmlar, moslama va mashinalar tarkibiga yangi konstruktiv elementlar kiritish; qismlarini rekonstruktsiya qilish talab qilinadi.


Bu o'z-o'zidan ma'lumki, yangi loyihalangan moslamalar bir xil emas, aksincha turli xil bo'lishi mumkin. Loyihalash amalda grafik savodxonlik, texnologik bilimlar, konstruktсиyalash malakalariga tayanadi. Yangi loyiha dastlab fikran yaratilib, uning chizmasi konstruktorning g'oyasini ifodalovchi vosita bo'lib hizmat qiladi. Yangi buyumning obrazini fikran miyada yaratib, uni ong orqali grafik tasvirlash usuli bilan aks ettirishdir.

Bugungi rivojlangan bir davrda yoshlarning bunyodkorlik va ijodkorlik ishlariiga jalg qilish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Yoshlarni ijodkorlik ishlariiga jalg qilish uchun muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda bilim zahiralarini yaratish va o'qitishning zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish muhum ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida talabalarning kasbiy tayyorgarligini orttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish lozimligini ko'rsatadi.

Barchamizga ma'lumki, biror yangi buyumni yasashdan oldin birinchi navbatta uning loyihasi dastlab fikran miyada yaratilib, uni ong orqali grafik tasvirlash usuli bilan aks ettiriladi. Bu loyiha ishlini bajarish esa loyihachidan zukkolik, rivojlangan fazoviy tasavvur va grafik bilimlarning ma'lum bir zaxirasini talab qiladi.

Talabalarga loyihalash ishlariga mos keladigan birorta detal yoki moslama loyihalashni vazifa qilib beradigan bo'lsak, ular bu detal yoki moslamani shaklan va mazmunan o'zgarishiga astoydil harakat qiladilar. Bu jarayonda detal va moslama tarkibiga yangi konstruktiv elementlar kiritish, ayrim elementlarni surush, burish, fikran kesib va o'yib olish talab qilinadi. Talabalar bu loyiha ishi ustida ishlaydilar va o'zlarining dunyoqarashidan kelib chiqib, yangi loyihasini yaratadilar. Bu jarayon esa talabalarning fazoviy tasavvurini oshishiga va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishiga olib keladi.

Loyiha ishlarini bosqichma bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Loyihalanishi lozim bo'lган buyumni fazoviy xolati variant sifatida talabalarga beriladi. Talabalar o'zlarining fikrlash doirasidan kelib chiqib bu detalni loyihalashga harakat qiladilar. Loyihalash jarayonida osondan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiq.



1-Loyiha ishi:

- Birinchi loyiha ishi soddarоq bo'lib, detalning nuqtali chiziq bilan ko'rsatilgan rejulashtirish chizig'i to'laligicha olib tashlanadi va hosil bo'lган detalning ortogonal proyeksiyalari chizilib, kerakli o'lchamlar qo'yiladi. (1-rasm).

2-Loyiha ishi:


- Ikkinci loyiha ishi esa ozroq murakkabroq bo'lib, nuqtali chiziq bilan ko'rsatilgan rejulashtirish chizig'i to'laligicha olib tashlanadi va hosil bo'lган detalning ortogonal proyeksiyalari chizilib, kerakli o'lchamlar qo'yiladi. Bundan tashqari, detalning (A,B,D,E,F,J) nuqtalar bilan chegaralangan qirralarini proyeksiya tekisliklariga nisbattan vaziyatlari aniqlanadi va chizma simvollaridan (||, ⊥, /) foydalaniб, berilgan 1-jadval to'ldiriladi. 2-rasm (1-jadval)

1-jadval

Vazifa

Tekisliklar	K e s m a l a r				
	AB	BD	DE	AF	FJ
V					
H					
W					


Javobi Tekisliklar	K e s m a l a r				
	AB	BD	DE	AF	FJ
V					—
H	—	—	—	—	
W		—		—	

**3-rasm****3-Loyiha ishi:**

- uchinchi loyiha birinchi va ikkinchi loyiha ishidan farq qiladi chunki, bu loyiha ishida talabalar detalning 1-elementini o'rniga ikkinchi elementni qo'yadilar. Xosil bo'lgan detalni bo'yalgan qismini gorizontal proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lginchay xayolan aylantirib, so'ngra ortogonal proyeksiyalarini bajaradilar. Bu loyihalash ishini bajarish talabalardan ijodkorlikni, zukkolikni, rivojlangan fazoviy tasavvur va grafik bilimlarning ma'lum bir zaxirasini talab qiladi.

4-Loyiha ishi:

- To'rtinchi loyiha ishi oldingi loyiha ishlaridan farq qiladi chunki, bu loyiha ishida talabalar;
- a. ikkinchi detaldagi nuqtali chiziq bilan ko'rsatilgan rejalashtirish chizig'i to'laligicha olib tashlaydilar,
- b. detalning 1-elementini o'rniga hosil bo'lgan ikkinchi elementni qo'yadilar va detalning ortogonal proyeksiyalari chizilib, kerakli o'lchamlar qo'yiladi.

**4-rasm**

Yoshlarning bunyodkorlik va ijodkorlik ishlariga jalg qilish ustuvor vazifa hisoblanayotgan bir davrda ularning ijodkorlik qobiliyatlarini va fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda muhum ahamiyatga ega. Buning uchun ularga loyihalash elementlarini tushuntirib borish o'rini. Bunda masalalarni yechishga o'quv mashg'ulotlarining ko'p qismini sarflamasdan talabalar bilan hamkorlikda biror masala yechimi tahlil qilinib, boshqa variantlarni mustaqil bajarish uchun topshirilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. E.I Ro'ziev., A.Ashirboev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi, "Yangi asr avlod" T.: 2010. 71-74.
2. Yodgorov J va boshqalar "Geometrik va proyekcion chizmachilik" T. "O'qituvchi" 2008 y 11-13.
3. Yu.Qirg'izboyev va boshqalar. Mashinasozlik chizmachilik kursi. T., «O'qituvchi», 1989. 38-42
4. S.K.Bogolyubov, A.I.Voinov. Texnikaviy chizmachilik kursi Toshkent, «O'qituvchi», 1976. 74-78

УДК: 51

**ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА К МАТЕМАТИЧЕСКОМУ
ОБРАЗОВАНИЮ СТУДЕНТОВ ГУМАНИТАРНЫХ ФАКУЛЬТЕТОВ**

Н. Х. Эризарова

*Джизакский государственный педагогический институт
nazira_ermazarova@inbox.ru*

Аннотация. Данная статья посвящена улучшению обучения математике студентов гуманитарных факультетов в педагогическом вузе, рассмотрены некоторые проблемы, связанные с этим процессом.

Ключевые слова: математическое образование, познавательный интерес, профессиональное образование, математический аппарат.

Gumanitar fakultetlari talabalarining matematik ta'limga bilish qiziqishini shakllantirish

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik oliv o'quv yurtlari gumanitar fakultetlari talabalariga matematika o'qitishni yaxshilashga bag'ishlangan, shu jarayon bilan bog'liq ayrim muammolar qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: matematik ta'lim, bilsih qiziqishi, kasbiy ta'lim, matematik apparat

Formation of cognitive interest in the mathematical education of students of humanitarian faculties

Abstract. This article is devoted to improving the teaching of mathematics to students of humanities at a pedagogical university, and some problems associated with this process are considered.

Keywords: mathematical education, cognitive process, professional education, mathematical apparatus.

Анализ развития высшего образования свидетельствует о том, что для современного профессионального образования все более характерной является тенденция социализации личности. В деятельности вузов на первый план выходят человекоцентристские позиции, гуманизация отношений, развитие умственных и творческих способностей личности. Новые проблемы стоят и перед профессиональной педагогической школой. В нашем обществе усилилась потребность в педагогах, способных:

- к проектированию развивающей социально-культурной среды;
- к внедрению в практику педагогической деятельности современных форм, методов и средств обучения (оптимизационные методы дидактики, средства дистанционного обучения, технологии открытого образования и др.);
- к построению систем обучения открытого типа, оптимизирующих и ускоряющих темпы развития человека;
- к постоянному творческому профессиональноличностному самовоспитанию.

Становится понятным, что дальнейшее совершенствование учебного процесса в педагогическом вузе, который все более рассматривается не как передача информации, а как специфическая форма человеческой деятельности и среда социальной практики, требует изменения целевой направленности, структуры, содержания организации обучения. Собственно соответствующая организация обучения и должна обеспечивать как личностное, так и профессиональное развитие специалиста, быть ориентированной на создание творческой индивидуальности учителя.

Совершенствование профессиональной подготовки учителя гуманитарных дисциплин требует внимательного отношения к структуре и содержанию математического образования студентов в вузе. Математическая подготовка гуманитариев предполагает, с одной стороны, передачу математических методов описания действительности, развитие способности проводить дедуктивные рассуждения, давать полные и обоснованные доказательства, строить формальные модели; с другой стороны, актуальным является развитие сообразительности, интуиции, умения применять наглядные представления, контролировать и сопоставлять полученные результаты.

Переход к ценностно-ориентированной практике образования делает необходимым выработку новых подходов к отбору его содержания, преобразования в технологии обучения. Мы выделяем следующие компоненты содержания математического образования: типовые структуры математического знания, умения, навыки и опыт творческой деятельности.

При определении компонент математического образования применительно к целям подготовки учителя гуманитарного профиля были использованы исследования В.В. Краевского. Он считает, что если процессуальная и содержательная стороны обучения рассматриваются порознь, то они не составляют единого структурного целого.

В совокупности дисциплин, которые изучает будущий гуманитарий-исследователь, математический курс занимает довольно специфическое место. По мнению Д. Пояя, прекрасные возможности предоставлены студенту любого учебного заведения, где учебные программы включают математические дисциплины. «Эти возможности, конечно, будут потеряны, если он должен получить столько-то зачетов и затем постарается забыть как можно быстрее после последнего экзамена».

Отдельные вопросы обучения математике студентов гуманитарных факультетов изложены в работах Бордаченко С.И.[1], Васекина С.В.[2], Воронова М.В., Мещеряковой[3] Г.П. Гаваза Т.А.[4], Дмитриевой М.Н. [5] и др.

Анализ литературы и опыта преподавания свидетельствует, что студенты гуманитарных специальностей имеют разные по уровню знания по математике; у них, как правило, отсутствует интерес к ее изучению. В то же время для многих гуманитарных специальностей ряд математических знаний и способов деятельности носит профессионально значимый характер. Например, знание основ математической логики, теории вероятностей, математической статистики, способов решения задач из этих разделов математики крайне важно для будущих филологов. Несмотря на различие специальностей, для всех гуманитариев необходимо умение анализировать информацию, выделять суть вопроса, владеть логикой рассуждений, обобщать статистический материал, правильно интерпретировать ситуацию. Все эти качества развиваются в процессе изучения математики, на который, не уделяется соответствующее внимание.

Мы считаем, что освоение студентами гуманитарных факультетов математических знаний на уровне применения в будущей профессиональной деятельности может быть обеспечено лишь при сформированности у них познавательного интереса, который является чрезвычайно значимым для учебной деятельности. Очевидно, что в современных условиях формирование познавательного интереса к математическому образованию становится важной задачей обучения, необходимым условием всестороннего развития творческой личности будущего учителя.

В современных условиях интенсивного применения математических методов в гуманитарных науках, курс математики на гуманитарных факультетах имеет свои особенности. Он призван:

- внести свой вклад в развитие мышления, творческих способностей, самостоятельной деятельности студентов;
- дать представление о возрастающей роли математического моделирования и вероятностно-статистических методов в развитии гуманитарных наук и практической деятельности;
- сформировать методологически правильные взгляды на природу и общество, отвечающие современной научной картине мира. Отметим, что курс математики позволит создать у студентов гуманитарных специальностей представление о роли математического образования в системе знаний и вооружить их минимальными навыками, необходимыми для овладения базовых гуманитарных дисциплин, освоения практики первоначальных научных изысканий, опытов, наблюдений, экспериментов. Для подготовки учителей гуманитарных дисциплин представляется необходимым их ознакомление с математическими методами исследования, с основными математическими понятиями, с математическим языком.

Существует несколько точек зрения на то, как преподавать математику студентам-гуманитариям. Шикин Е.В. предлагает свою концепцию преподавания математики. Он считает, что студентов следует обзорно познакомить с основными математическими понятиями, сделав упор на мировоззренческий аспект. «Одним из возможных путей разрешения рассматриваемой проблемы является взвешенное включение математического цикла в университетский образовательный процесс». «Преподавание разумно ориентировать, прежде всего, на достижение понимания концептуальных моментов в соцветии математических наук». Но, вместе с тем, он подчеркивает необходимость «снабдить студента-гуманитария определенным математическим аппаратом, который позволил бы ему осуществлять простейший количественный анализ информации».

Важным является вопрос и о содержании курса. Совершенно ясно, что традиционный для технических факультетов курс высшей математики не может служить основой математического образования гуманитариев, если его не подвергнуть коренной переработке. Сложность вопроса

состоит и в отсутствии требований к уровню знаний по математике для студентов гуманитарных специальностей.

Учитывая тот математический аппарат, который в рабочем порядке используется в научной литературе гуманитарного профиля, то, вполне обосновано, можно сделать вывод о том, что базой математического образования студентов гуманитарного направления должны служить булевы алгебры логики, множеств, случайных событий. Указанные разделы закладывают прочный фундамент под практически все без исключения математические методы, актуальные для гуманитариев.

Действительно, алгебра логики, будучи основой современного формализованного построения самой математики, аксиоматического метода, математических рассуждений и доказательств, является в тоже время базой для формальной и общей логики, широко применяющейся в теоретических и прикладных вопросах психологии, социологии, при формировании социально значимых документов, формулировании законов и положений, построении логических цепочек обоснований и пр.

На основе изученного была проведена экспериментальная работа с участием студентов первого курса (в количестве 120 человек) образовательного направления Родной язык и литература Джизакского педагогического института на тему «Трудности, которые мешают мне понимать математику». В ходе данной работы студентам было дано задание написать пять причин, которые им мешают осваивать предмет математики. Почти 60 % студентов указали на трудности, которые образовались еще с начальной школы, часть студентов указали на некачественное преподавание математики в старших классах, из – за недостатка преподавателей, владеющих русским языком. Кроме того были указаны такие причины, как отсутствие интереса к предмету, трудности при решении задач, уравнений, составления графика функции, т.е. работа с координатами точек и тому подобное. Целью проведения данной экспериментальной работы было установить преемственную связь в математическом образовании и создания условий адаптации студентов первокурсников, учитывая уровень их знаний и математическое мышление.

Литература

1. Бордаченко С.И. Профессиональная подготовка студентов гуманитарного вуза в области математики. Дис. канд. пед. наук. Сходня, 2003.
2. Васекин С.В. Технологические процедуры оптимизации при проектировании учебного процесса по математике. Дис. канд. пед. наук. М., 2000.
3. Воронов М.В., Мещерякова Г.П. Математика для студентов гуманитарных факультетов / Серия «Учебники, учебные пособия» Ростов н/Д: Феникс, 2002.
4. Гаваза Т.А. Профессионально-педагогическая направленность курса математики для гуманитарных факультетов педвуза: Дис. канд. пед. наук. Орел, 2003.
5. Гусев В.А. Психолого-педагогические основы обучения математике. М.: ООО «Изд-во «Вербум-М», ООО «Издательский центр «Академия», 2003
6. Дмитриева М.Н. Проблемы мотивации при интенсивном обучении математике студентов-гуманитариев // Материалы межрегион, науч. практич. конференции "Проблемы развития личности", Рязань, 2001г.
7. Дмитриева А.Б. Самостоятельная работа по решению прикладных задач в курсе математики как условие повышения качества профессиональной подготовки обучаемых в вузе. Дис. канд. пед. наук. М, 2004.

UDK: 371.3:377:687.05

**MAXSUS FANLARDAN MASHG'ULOTLARNI MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI
ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

L.P.Uzoqova, M.J.Turdieva

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
E-mail: laylo.uzakova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mutaxassislik fanlaridan mashg'ulotlarni muammoli o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etishning ilmiy, amaliy asoslari hamda mohiyati va mazmuni taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: muammoli vaziyat, muammoli metodlar, tadqiqot usullari, gipoteza, ijodiy fikrlash, motivatsiya.

Научно-практическая основа организации обучения специальных дисциплин на основе проблемной технологии обучения

Аннотация. В данной статье представлены научные, практические основы, а также сущность и содержание организации занятий по специальным дисциплинам на основе проблемной технологии обучения.

Ключевые слова: проблемная ситуация, проблемные методы, методы исследования, гипотеза, креативное мышление, мотивация.

Scientific and practical basis for the organization of training of special disciplines on the basis of problem-based learning technology

Annotation. This article presents the scientific, practical foundations, as well as the nature and content of the organization of classes in special disciplines based on the problematic teaching technology.

Keywords: problematic situation, problematic methods, research methods, hypothesis, creative thinking, motivation.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining o'sish sur'atlari dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. Bu ayni paytda ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar samarasidir. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida innovatsiya va integratsiyaga asoslangan rivojlanish yo'liga o'tish ishlari jadal ravishda olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlanterish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida oliy ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlanterish chora-tadbirlarini amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan [1].

Zamonaviy ta'lim - yuksak malakali mutaxassis kadrlarni iste'molchilar talablariga qarab tayyorlash, talabalarning tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatishni ta'minlashi kerak.

SHuning uchun ham, tadqiqotchilar va ilg'or o'qituvchilar talabalarda o'quv faoliyatiga ijodiy yondashishni rivojlanterish yo'llari, texnologiyalari va usullarini qidirib topmoqdalar. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ijobiy samara berayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri muammoli o'qitishdir [2].

Muammoli o'qitish maxsus ko'rinishdagi motivatsiya – muammoni yaratishga asoslangan, shuning uchun, muammoli vaziyatlarni zanjir kabi taqdim etadigan materialni didaktik mazmunini adekvat tuzishni talab etadi [3].

Muammoli o'qitish texnologiyasining asosiy vazifasi – talabalarning mutaxassislik faniga oid bilimlar tizimini va aqliy faoliyat usullarini samarali o'zlashtirishlariga yordam berish, ularda olgan bilimlarni kasbiy faoliyatlarida paydo bo'ladigan yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llay olish, o'quv muammolarini yechish ko'nikmalarini hosil qilish, mustaqil bilim orttirish qobiliyatlarini singdirishdan iborat.

Fan o'qituvchisi tomonidan qo'yilgan muammoni hal etish jarayonida talaba ma'lumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni o'zlashtiradi va o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etadi. Muammoli o'qitishning asosiy mohiyati va afzalligi shundaki, o'qituvchi ta'lim usullari (muammoli savollar qo'yish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, talabalarga «yordam so'rabb» murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrslashga va munozaraga chorlaydi.

Muammoli ta'lim texnologiyalarida muammoli vaziyat yaratish, savollarni to'g'ri qo'ya bilish va ularning yechimini guruh bilan birga va yakka holda izlash katta ahamiyat kasb etadi [4].

Muammoli o'qitishning mohiyati shundaki, talabalarni o'zlarini muammoni mustaqil yechishlari kerak. SHu sababli ham, o'quv materiallari va topshiriqlar tizimi shunday tuzilishi kerakki, ular asosan mustaqil fikr yuritishga va o'rganishga qaratilishi lozim.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli vaziyatni o'rganish fan mavzusiga oid materialni tahlil qilishda talaba shu vaziyatga o'zi kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Ushbu holatda talaba qanday muammo borligi va qo'yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak. Mutaxassislik fanlardan muammoli vaziyatni qo'yish: tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish kabi bosqichlarga bo'linadi [5].

Tayyorlov bosqichida o'qituvchi maqsadni belgilab, kerakli vaziyatni rejasini ishlab chiqadi, ya'ni:

a) beriladigan vazifalar mutaxassislik fani nazariy kursining mantiqan davom ettirishi va talabalarning kelgusidagi kasbiy ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi kerak;


b) qo'yilayotgan muammo murakkabligi talabalarning imkoniyatlari darajasida bo'lishini hisobga olishi kerak, ya'ni talaba bir tomondan qo'yilgan vazifani bajara oladigan bo'lsin, ikkinchi tomondan uni bajarish ishtiyoqi hamda muvaffaqiyat hissi paydo bo'lsin;

v) talabalarga mutaxassislik fanidan qo'yilgan muammolar ustida ishlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilishi kerak.

Tanishuv bosqichida talabalar muammoni haqiqiy, ya'ni jonli muhokama qilishga jalb etiladi. Mutaxassislik fan o'qituvchisi talabalarning ma'lum sohadagi bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda bajariladigan ishning umumiy izohini belgilaydi. YAkka tartibda yoki butun guruhni qo'yilayotgan mutaxassislik faniga oid muammoning mazmuni bilan tanishtiradi.

Tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichida muammoli vaziyatni tahlil qilish guruhiy ish bo'lgani uchun, muammo ochiq bahs-munozara shaklida hal etilgani ma'qul. Muhibi, talabalardagi faollikni rivojlantirish va muammoni hal etish bo'yicha boshqalarning bergan taklifiga xolisona baho berishdan iborat. Bu esa, bo'lajak mutaxassis kadrga ishlab chiqarishda yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmasining takomillashuviga va o'z faoliyatida mustaqil ravishda qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Barcha tahlillardan so'ng yakuniy xulosa chiqariladi. Mutaxassislik fanidan o'quv jarayonini bunday tashkil etish, talabalarda reproduktiv fikrlashni emas, balki ularning ijodiy va mustaqil fikrlashini shakllantiradi. Ana shunday mashg'ulot o'tkazish ta'lim jarayonida juda muhim hisoblanadi.

Mutaxassislik fanini muammoli o'qitish texnologiyasining blok-sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin (1- rasm):



1-rasm. Mutaxassislik fanini muammoli o'qitish texnologiyasining blok-sxemasi

Keltirilgan blok-sxemaga muvofiq, mutaxassislik fanini muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi, avvalo mutaxassislik fan bo'yicha muammoli vaziyat yaratadi, mavzu muammosiga oid savollar qo'yadi, muammoli vaziyatni tashkil etadigan masalalar va topshiriqlarni taklif etadi, kichik guruhlarda muammoli

vaziyatni ijodiy yechishga qaratilgan muhokamani uyuşdırıldı, xulosalarining to‘g‘riligini tasdiqlaydı. Talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo‘llari to‘g‘risida o‘ylaydilar va takliflar kiritadilar. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini aniqlaydilar, ularning kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng optimal variantini tanlaydilar. Bu esa, talabalarning bilim olish qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ularda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilim olish faolligini orttiradi.

Mutaxassislik fanini ta’limdagи muammolilikni talabalarning o‘quv muammosini anglashlari va hal qilishlari sifatida tushunamiz. Buning muhim xususiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish hisoblanadi. Avvalambor, mutaxassislik fanidan muammoli vaziyat hayotiy dalillar va voqealar asosida tarkib toptiriladi. CHunki bu vaziyat tabiiy shaklga qancha mos bo‘lsa, talabalarni faollashtirish va muammoni hal qilishga jalb etish imkoniyati shuncha katta bo‘ladi. Mutaxassislik fan ta’limida tashkil etilgan muammolilik, an‘anaviy didaktikaning tamoyillari va qoidalarni inkor qilmaydi, balki ularga tayangan holda ularni takomillashtiradi. Mutaxassislik fanlar ta’limiga muammoli yondashishni joriy etishdan maqsad, uni o‘qitish jarayoniga talabalarning ijodiy fikrlashini, mustaqil ishlashini bilim olishini faol rivojlantiradigan metodlar va usullar bilan to‘ldirishdir.

Mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasiga doir o‘tkazilgan izlanishlar, talabalarda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakkantirishda, ularning bilim imkoniyatlari, ijodiy qibiliyatlar va amaliy o‘rganish darajalarini rivojlantirishda muammoli o‘qitish texnologiyasi yaxshi natija, ya’ni ijobiy samara berishini ko‘rsatdi.

Muammoli vaziyat o‘z mohiyati va mazmuni jihatdan mutaxassislik fanlarini o‘qitishdagi mantiqiy ketma-ketlikka o‘xshaydi. Ketma-ketlik prinsipi shundan iboratki, bunda ta’limning darajasi jihatdan yuqori har bir bosqichda o‘qitish mazmunini aniqlashda avvalgi bosqichlarda o‘zlashtirilgan bilimlar, ya’ni ta’lim hisobga olinadi.

Guruhda ishlashda monelik (to‘sinqilik, qarshilik qilish, yo‘l qo‘ymaslik) va tobeklik (o‘qituvchining fikriga qaramlik, itoatkorlik)dan ozod bo‘lish va vaziyatli topshiriqni yechishdagi imkoniyatlarini mutaxassislik psixologik asoslash orqali har bir talabaning fikrlashini rag‘batlantirish kerak. To‘g‘ri yechim taklif etilishi bilan muhokama tugallanadi, degan fikr noto‘g‘ri bo‘lib, guruhda bildirilgan ijodiy fikr muloqot tarzda tadqiq etilishi lozim.

Yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlovchi asosiy sabablarning birinchisi, talabalarning ijodiy guruhiga nisbatan faolroq shaxslar qo‘shiladi va ularning muammoli masalani yechishda qatnashishi katta samara keltiradi.

Ijodiy fikrlashni tashkil etishning yuqorida tavsiya etilgan tizimda talabalar fikrlash va ijodiy qibiliyatni rivojlantirish va namoyon etish, guruhda muvaffaqiyatli ishlash kabilardan unumli foydalanadilar.

Muammoli o‘qitishda mutaxassislik fani o‘qituvchisining faoliyati quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- talabalar e’tiboriga mavzu bo‘yicha muammoli savollar havola etadi;
- ushbu savollarni yechimini topishga yo‘nalish beradi;
- talabalar tomonidan berilgan yechimlarning to‘g‘riligini isbotlashni taklif etadi;
- agar talabalar tomonidan berilgan yechimlar to‘g‘ri bo‘lsa, maxsus fan mavzusi yuzasidan olingan bilimlar bo‘yicha xulosa qilishlarini tavsiya qiladi;
- talabalar tomonidan berilgan farazlar noaniq bo‘lsa, u holda yechimga yaqinlashtiruvchi savol qo‘yadi;
- javoblar va yechimlar bo‘yicha talabalarini rag‘batlantiradi yoki ba’zi noaniqliklarni ko‘rsatadi;
- mutaxassislik fanidan olingan yangi bilimlarni mustahkamlovchi savollarni qo‘yadi;
- mutaxassislik fanidan olingan nazariy bilimlarini amaliyatda qo‘llash uchun mashq yoki topshiriq beradi.

Talabaning faoliyati quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ✓ mavzu muammosining savollarini qabul qiladi va uni yechim yo‘llarini izlay boshlaydi;
- ✓ berilgan savol bo‘yicha yechimning har xil variantlarini taklif qiladi;
- ✓ bergen farazlaridan birining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qila-di;
- ✓ yangi egallangan bilimlari to‘g‘risida xulosa va fikrlar bildiradi;
- ✓ to‘g‘ri yechimni izlaydi;
- ✓ mavzu bo‘yicha ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi;
- ✓ berilgan taklif, yechimlar hamda xulosalarini takrorlash orqali bilimlarini mustahkamlaydi;
- ✓ mutaxassislik fanining nazariy bilimlarini amaliyatda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajaradi.

Mutaxassislik fanlaridan o'tkazilayotgan muammoli o'qitish samaradorligi o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Muammoli o'qitish talabalarning ilmiy-izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi, ularning bilim olish faolligini oshiradi.

Muammoli o'qitishni mutaxassislik fani o'qituvchisi shunday tashkil etishi talab etiladiki, bunda talaba notanish bilimni o'zlashtirishi uchun nima qilishi kerakligi haqida mulohaza yuritadi va o'ziga bir necha savollar bilan murojaat etadi. Masalan, dastlab u «Muammoni hal etish va u bilan bog'liq bilimni o'zlashtirish uchun nima qilishim kerak?», «Masala yechimining tamoyili qanday?» kabi savollarga javob topishga urinadi.

Mutaxassislik fanlarini muammoli o'qitish - ta'lum berishning shunday metodiki, bunda haqiqiy ijodiy jarayon modellashtiriladi. Boshqacha aytganda, muammoli vaziyat yaratilib, talabalarning muammoni yechish borasidagi izlanishlari boshqariladi. Talabalar yangi bilimlarni o'qituvchilar yordamida o'zlashtiradilar. Buning uchun ikki omil muhim hisoblanadi:

1. Talabalarda ma'lum mutaxassislik fan o'quv materialini bilishga ehtiyojning yuzaga kelishi.
2. Ma'lum mutaxassislik fani masalalarini bajarish uchun, talabalar tomonidan zarur bo'lgan umumlashgan yangi bilimlarni egallash.

O'qituvchi savollarni o'quv muammosi sifatida qo'yadi. Savollar zamirida ma'lum muammoni aks ettiruvchi ta'limi masala yotadi.

O'qituvchi muammoli savollar qo'yib, talabalarning muhokamada faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Talabalarning muammoni yechish jarayonida qatnashish imkoniga qarab, muammoli o'qitishni turli darajada tashkil etishi mumkin [6].

Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uning yechimini topib beradi; qarshi savollar yordamida talabalarni fikrlashga majbur etadi.

Ikkinci bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin talabalarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. Talabalar mustaqil fikrlab, muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topadilar.

To'rtinchi bosqich. Bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga «yaqinlashib boradi», lekin uning mazmuni va yechimini ko'rsatmaydi, talabalarni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Mutaxassislik fani o'qituvchisi muammoli o'qitish sharoitlarida mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda talabalarga tayyor haqiqat va yechimlarni bermasligi lozim.

O'qituvchi:

- talabalarning izlash faoliyatini kerakli yo'nalishda rivojlantirishi lozim;
- talabalarga ham darslarda, ham kundalik amaliyotida oladigan ma'lumotlarini, uchratadigan voqealar, faktlar va hodisalarini o'z ongida qayta idrok etishiga yordam beradi.

O'qituvchi muammoli o'qitishda talabalarning bilim orttirish faoliyatini shunday tashkil etishi lozimki, talabalar dalillarni tizimli tahlil etish asosida intellektual qiyinchiliklarni mustaqil hal eta olsin, xulosa chiqarish va umumlashtirishni bajarsin, qonuniyatlarni ifodalasin, olgan bilimlarni kasbiy faoliyatining yangi vaziyatlarida qo'llay olsin. Bunday o'qitishda talabalarda bilimlarni mustaqil olish, farazlarni oldinga surish va ularni isbotlash yo'li bilan aqliy faoliyatning yangi usullarini topish, bilimlarni qo'llanish ko'nikmalarini yaratish, diqqat va tasavvurni rivojlantirish qobiliyatları shakllantiriladi. Pirovardida bularning barchasi bilim orttirish faolligini rivojlantirishga ko'maklashadi [7].

Mutaxassislik fanlaridan o'quv muammolarini qo'yish jarayonini engillashtirish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

- muammoni yechish yo'li bilan o'zlashtiriladigan yangi bilimlar bevosita bog'liq bo'lgan, ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni yuzaga chiqarmasdan turib, muammoni qo'yish mumkin emas;
- muammoli topshiriqlarni tashkil etishdan avval talabalarning sabab-oqibat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash usullarini bilishlariga ishonch hosil qilish kerak;
- o'qituvchi talabalar tushuna oladigan muammolarnigina qo'yishi kerak;
- muammoni samarali yechish uni to'g'ri ifodalab qo'yishdan boshlanadi.

Bu qoidalarni bajarish o'quv materiali mazmunining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq o'quv materialining tarkibi va mantiqiy tuzilishiga qator talablarni qo'yadi. Mutaxassislik fani o'quv materialida quyidagilar bo'lishi lozim:

- ✓ yangilik elementlari (yangi tushunchalar, belgilar, xossalari, bog'lanishlar, harakat, ish usullari va h. k.);
- ✓ ma'lum va yangi bilimlar o'rtasida qarama-qarshiliklar (biri boshqasini inkor qiladigan, ziddiyatli dalillar, savollar);

✓ o‘quv materiali pedagogik nazariyaga mos holda mantiqiy adekvat (bir ma’noda) bayon etilgan bo‘lishi lozim.

O‘quv materialini muammoli uslub yordamida o‘tish muammoli tuzilgan ma’ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, dalillarni tahlil qilish, talaba fikrini o‘z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Mutaxassislik fanini muammoli ta’limida qisman izlanma va evristik qidiruv metodlarini qo‘llash mumkin. Bunda mutaxassislik fani o‘qituvchisi talabalar oldiga qator izchil va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan savollar majmuini qo‘yadi. Talabalar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytganlari to‘g‘ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. SHu bilan birga mutaxassislik fanining yangi bilimlarini o‘zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljishni amalga oshiradilar. Agar evristik suhbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo‘lsa, muammoli-qidiruv suhbatda talabalar muammoli vaziyatning butun bir tizimini hal qiladilar. Ta’limning muammoli-izlash uslublarida ko‘rgazmali qo‘llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan eksperimental masalalarni qo‘yish uchun ishlatalidi. Bu usulda talabalarning mustaqil fikrlashining ustuvor sabablarini aniqlash oson ko‘chadi.

Qisman izlash metodi talabalarni izlanishning turli bosqichlarida tadqiqot faoliyatiga jalg qilishni, muammolarni topish, gipotezani ta’riflash, isbot usullarini topish, xulosalarini ta’riflashga jalg qilishni taqozo etadi.

Talabalarni izlanish faoliyatiga jalg qilishning yana bir usuli-umumiyo vazifani bir qator kichik vazifalarga bo‘lish va ularning ayrimlarini talabalar hal etishidir.

Qisman izlash metodi – muammoli bayondan muammoli o‘qishga, vazifalarni mustaqil qo‘yishga va ularni mustaqil hal etishga o‘tishning o‘ziga xos ko‘pligidir.

Yuqorida keltirilgan izlanish ishlarimiz natijalaridan kelib chiqib mutaxassislik fanini muammoli o‘qitish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

❖ muammoli o‘qitishning uchta imkoniyati mavjud: muammoli vaziyatni yaratish, keltiruvchi muloqot, mutaxassislik fani o‘qituvchisi tomonidan, motivatsiyadan foydalanib dars mavzusini tayyor holda ma’lum qilish;

❖ mutaxassislik fanni muammoli o‘qitishda darsni tashkil etishning: frontal, guruhiy va yakkama-yakka ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin;

❖ muammoli o‘qitishning to‘liqlik darajasini: muammoni o‘qituvchi tomonidan qo‘yilishi va talabalar tomonidan hal qilinishi; talabalar tomonidan muammo mustaqil holda yoki o‘qituvchi bilan birga hal qilinishi; muammoli vaziyatni o‘qituvchi ifodalashi, muammoni yechishning keyingi bosqichlari talabalar bilan amalga oshirilishi; muammoni yechishning barcha bosqichlari talabalar tomonidan bajarilishi, bunda mustaqil ishslash va aqliy faollik yuqori bo‘lislari tashkil etadi;

Muammoli o‘qitish samaradorligining asosiy sharti:

1. O‘qitish jarayonida muammoni yechishga talabalarning qiziqishini uyg‘otadigan etarli motivatsiyasini ta’minlash.

2. Talabalarga tavsiya qilinayotgan muammoli vaziyatlarni murakkablik darajasini ta’minlash.

3. Muammoli vaziyatlarni yechish mobaynida olinadigan axborotlarni talabalar uchun zarurligi.

4. Pedagogning talabalar aytgan fikrlarga, farazlarga e’tibor qilingan va ularni rag‘batlantirishga qaratilgan samimiy muloqotlari hisoblanadi;

Muammoli o‘qitishda o‘qituvchining roli: muammoga oid axborotli ta’minot, muammoni yechimi bo‘yicha taddiqot yo‘nalishini tanlash, muammo mazmunini yoki tuzilishini o‘zgartirish, o‘quvchining bilish faolligini rag‘batlantirishdan iborat;

- maxsus fanni muammoli o‘qitishda darsni borishi: muammoli vaziyatni yaratish, aqliy masalani qo‘yish, qo‘ylgan masalani xarakterlaydigan turli sharoitlarni o‘rganish, uning sharoitlarini modellashtirish imkoniyatlarini muhokama qilish yoki soddarroq, ko‘rgazmaliroqlariga almashtirish, qo‘ylgan masalani yechish jarayoni, olinadigan masala yechimini taddiq etish, uning natijalarini muhokama qilish, yangi bilimlarni hosil qilish, o‘zlashtirishda maxsus tanlangan o‘quv masalalarini yechish orqali yangi bilimlarni qo‘llash, qo‘ylgan dastlabki muammoli vaziyat doirasida masala yechimlarini imkonli bor umumlashtirishlarini muhokama etish, olingan masala yechimlarini o‘rganish va boshqa yechish usullarini izlash, yakuniy bosqichda o‘quv materiali mazmunida, muammoni yechish usullarida, natijada ahamiyatlilarini aniqlash, yangi bilimlarni va tajribalarni kelajakda qo‘llash imkoniyatlarini muhokama qilish kabi algoritmda bo‘lishi mumkin [8].

Bular maxsus fanlardan muammoli darslarni tashkil etish sxematik rejasi bo‘lib, ba’zi hollarda maxsus fanning xususiyatlariga bog‘liq ravishda, uning bandlari qo‘silishi yoki ba’zilari bajarilmasligi ham mumkin.

Maxsus fanlarda muammoli o'qitish texnologiyasini:

1. O'quv materialining mazmuni sabab-oqibatli aloqa va bog'liqlikni o'ziga olgan, tushuncha, qonun, nazariyalarni shakllantirishga yo'naltirilganda;
2. O'quvchilarini mavzuni muammoli o'rganish uchun dastlabki tayyorgarliklari bo'lganda;
3. O'quvchilarini mustaqil fikrashga, tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashishni rivojlantiruvchi masalalarni yechishga yo'naltirilganda;
4. O'qituvchi muammoli o'qitishda metodlarni yaxshi bilganda va amalda qo'llay olgan hollarda qo'llagan maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
2. Ходиев Б.Ю., Гимранова О.Б. Современные образовательные технологии.- Т.: 2007.- 319 с.
3. Кудрявцев Т. В. Проблемное обучение истоки, сущность, перспективы. Серия «Педагогика и психология» // Знание.-Москва, 1991. - №4. - 89 с.
4. Лернер И.Я. Внимание о технологии обучения // Сov. Педагогика.-Москва, 1990.-№3.- 139 с.
5. Q. T. Olimov, B. M. Mirzaxmedov A. X. G'afforov, H.H. Saidova Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. T. «Fan», 2006. – 150 b.
6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии.- М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
7. Uzoqova L.P. Maxsus fanlarni o'qitishda muammoli ta'lif texnologiyasidan foydalanish // Uzluksiz ta'lim.-Toshkent, 2006.- №6.- B.66-69.
8. Uzoqova L.P. Muammoli o'qitishni tashkil etish bosqichlari // Kasb-hunar ta'limi.-Toshkent, 2007.- №3.- 8 b.

UDK: 373

O'QITISH JARAYONIDA INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIYANI QO'LLASH

G. So'fiboeva

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiyaviy ishlarining mazmunini zamonaliv talablar darajasida takomillashtirish to'g'risida bo'lib, unda o'quvchilarini o'quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradigan, o'quv vaqtini oqilonla ishlatalishga hissa qo'shadigan va, eng muhimi, o'quvchilarning bilimini chuqurlashtiradigan, o'quv materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishni ta'minlaydigan, ta'lif mazmunini yaxshilash uchun qulay shart-sharoit yaratadigan integratsiyalashgan ta'lif texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lif texnologiyalari; o'quv texnologiyalari, pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashuvi; texnologik xarita; dars loyihasi

Использование интеграционных технологий в учебном процессе

Аннотация. Статья о совершенствовании содержания учебно-воспитательной работы в начальных классах на уровне современных требований. В ней раскрыты особенности использования интеграционных образовательных технологий, создающих благоприятные условия для совершенствования содержания образования, обеспечивающих высокую степень усвоения учебного материала, который превращает учащихся в активных участников образовательного процесса, способствует рациональному использованию учебного времени и самое главное, гарантирует расширение кругозора учащихся.

Ключевые слова: инновационные образовательные технологии; интеграционные образовательные технологии, педагогическая технология; технологическая карта; проект урока.

Use of integration technologies in the educational process

Abstract. This article is about modernization of content of educational works in elementary classes in the level of modern requirements. It exposes the use of integrational educational technologies serving for modernization of content of educational works, supporting the high level of learning educational material which makes learners be active participants of educational process. These methods support rational use of educational time and widen people's world views.

Keywords: innovative educational technologies, integrational educational technologies, pedagogical technologies, technologic scheme, project of lesson.

Keyingi paytda maktab ta'lmini integratsiyalash haqida ko'p so'z yuritilmoxda. Olimlar va amliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni mujassamlashtirish uchun dastur tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etishga harakat qilinmoqda. Masalan, matematika va chizmachilik (konstruksiyalash) tasviriy san'at va badiiy mehnatfanlari tadqiqotlari samaradorligini horijlik pedagoglarning ko'p yillik tadqiqotlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero integratsiyalashgan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Integratsiyalashgan kurslarni takomillashtirish borasida ishlar davom etmoqda.

Jumladan, 2019 yilning 23 avgustda bo'lib o'tgan "Maktab ta'lmini rivojlantirish umumxalq xarakatiga aylanishi zarur" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida maktablardagi ma'naviyatbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, ""Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi [1].

"Odobnoma" darsligida berilgan mavzular o'qish darsligidagi mavzular bilan mos kelish holatlari mavjud bo'lganligi uchun bu predmetlarning mavzulari bilan xam integratsiyalashirilishi mumkin bo'ladi.

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib, ikkinchisida barcha darajada o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishdir. Masalaning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga egaligidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq [2].

Integratsiyalashirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini, tabiatan anglab yetishiga o'rgatadi. O'qitish jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differensiya bilan uzviy bog'liqdir. Bu uzviylik o'quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo'lgan intilishlari sistemasini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Integratsiya jarayonini boshlang'ich ta'linda joriy etish turli murakkabliklarga ega. Chunki integratsiyalash yuqori sinflarda ancha qulay kechadi. Lekin boshlang'ich sinflarda qo'llashning o'ziga xos murakkabliklari mavjud. Ayniqsa, boshlang'ich maktabda fanlararo integratsiyaning psixologik asoslari muhim o'rinn tutadi.

O'quv materialining ma'naviy yig'indisini tuzish usullari eslab qolish qobiliyatining muhim xususiyatlaridan biridir va ma'noli tayanch nuqtalarini ajratib, asosiy ma'noni nisbatan bilgan narsalariga asosan o'zlashtiradi. Bundan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin. Bir fanga oid bilimlarni o'rganish usullarini egallash ikkinchi fanni o'zlashtirganda o'quvchining analitik-sintetik faoliyatini katta maqsadga yo'naltirilgan masalalarni echim xususiyatlariga qaratiladi va nihoyat umumiylar hamda alohida turgan masalalarni amalga oshirish, o'qitishning hamma murakkab masalalarni echishga imkon bermaydi. Shuning uchun har bir o'qituvchining faol ishi fanlararo aloqalarni kuchaytirish, kengaytirish va chuqurlashtirishdan, o'quvchilarni o'qitish va tarbiya qilishni uyg'unlashtirishning yechimini topish muhim yo'nalishlardan biri bo'ladi va ulardan dialektik shakldagi fikrlashni shakllantirishga erishish lozim. Fanlararo integratsiya masalasi kam e'tiborga olinganligini hisobga olib, shuni aytish mumkinki, integratsiya bu fanlar uyg'unligini ko'rsatuvchi yuqori bosqichdir. Bu yo'nalishda pedagoglar, psixologlar va uslubchilar ayrim kuzatishlarni olib borishgan. Fanlararo bog'liqlikning psixologik asoslariga tayangan holda biz integratsiyani quyi sinflarda o'zlashtirishni faollashtirish vositasi deya olamiz [5,12].

Mamlakatimizda ta'limgarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi, mashg'ulotlarning rang-barang qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan birga o'quv materialining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Sir emaski, ayni vaqtida maktablarimizda an'anaviy o'qitish usuli keng tarqalgan. Biroq ta'limgarayonida islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'lanning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiymuammolar o'z echimini topayotganligini, qator pedagogik tajribalar ommalashayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bilan rivojlangan davlatlar miqiyosiga ta'limgarayonini etkazish, kelgusida yoshlarni chet davlatlarda ta'limgarayon olishga hamda tajriba almashuvchi shaxslar qilib voyaga etkazishga erishishni ko'zda tutadi. Buning uchun yoshlarni boshlang'ich sinfdanoq tayyorlashimiz, mukammal bilim egasi etib tarbiyalashimiz lozim. Darhaqiqat yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning roli beqiyosdir. Ta'limgarayonida egallangan bilim ko'nikma va malakalar jahon ta'limi andozalari talablariga javob berishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib

hisoblanadi. Bunda yoshlarni Vatan va milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ta'lismi va tarbiya sohasida rejalashtirilgan va kutilgan natijalarga erishishni kafolatlash o'ta muhimdir.

Pedagogik texnologiya – bu o'qitish va uni takomillashtirish vazifasini o'z oldiga qo'yuvchi tashkiliy – texnikaviy tadbirlar, shaxs, ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda yaratish va joriy etish tizimidir. Bundan ko'rindaniki, pedagogik texnologiya o'ziga xos «tizimli yondashuv» ga qurilgan tadqiqot usulidir. Aynan «tizimli yondashuv» ta'linda pedagogik texnologiyani boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Shunga ko'ra ta'lum maqsadlari, uming mazmuni, nazorat va uning natijalarini o'zaro aloqada, bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash dolzarb muammodir.

Loyihalash – ta'limming mazmun qismini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, o'qitishning umumiy va aniq maqsadlari, o'tiladigan fanlar majmuasini aniqlash, har bir fanning mazmuni, soatlar hajmi va boshqalarni rejalashtirishdir. Ta'lum beruvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkilot boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda o'qituvchining ish usullari va shakllari chegaralanmaydi, ayni paytda davlat ta'lum standartlari talablari orqali o'qituvchining ta'lum jarayonini tashxis qilishga va umuman o'qitish jarayonini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyati jadallahadi.

Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalash o'qituvchi oldiga ta'lum-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda quydagi vazifalarni qo'yadi:

- ta'lum maqsadini aniqlash;
- ta'lum vazifasini aniqlash;
- ta'lum berish predmetini ishlab chiqish;
- ta'lum mazmunini aniqlash;
- o'quv yo'qlamasi orqali uning, ta'lum oluvchining itellektual salohiyatiga, yoshiga moslik darajasini va o'zlashtirish shaklini loyihalash;
- ta'lum-tarbiyaning samarali shakllari va vositalari (o'quv qo'llanmalar, ta'limming texnologik vositalari-axborot texnikalari)ni tayyorlab olish;
- o'quv jarayonining moslashuv omillarini joriy etishda o'rganilayotgan fanning mazmuniga qo'shimcha ravishda kiritish mo'ljallangan vaziyatli matnlar, fan-texnika yutuqlari hamda o'rganilayotgan fanga tegishli zamonaviy ishlab chiqarishdagi ma'lumotlar va testlar tayyorlash;
- shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy xislatlar va ma'naviy – axloqiy fazilatlarni egallash sari yo'naltirilgan tavsiyalar va mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- ta'lum berish natijasi va uning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- ta'lum oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonlariga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakalarini egallash sifatini xolisona baholash uchun test vazifalarini tayyorlar;
- darsda va darsdan tashqari vaqtarda beriladigan mustaqil ta'lum, mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, ularning tizimi va mazmunini ishlab chiqish;
- o'rganiladigan fan bo'yicha ma'lumotlarni modulli bloklarga ajratish;
- o'rganiladigan fan mavzusi, maqsadi, predmeti va modulli bloklarini e'tiborga olgan holda o'qitishning boshqarish algoritmini ishlab chiqish;
- o'qitishni takomillashtirishga olib keladigan ta'limming faol usullarini tanlash;
- muammoli va axborotli ta'lum elementlaridan foydalanish va hokazo [4,6].

Ma'lumki, darsni o'tishda, ayniqa, unga ijodiy yondashishda ta'limiy, tarbiyaviy axborotli rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi dars mashg'ulotlarini olib borishda o'z faoliyatini tahvil qila bilish va shu asosida tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o'qituvchi o'zi o'tkazayotgan mashg'ulotlarning samaradorligini baholay olmasa, u holda yo'l qo'ygan kamchiliklarini ham sezmaydi va uning faoliyatida ijodiy yondashuv amalga oshmaydi. Zamonaviy o'qituvchi uchun yangi texnologiyaga asoslangan integratsion dars o'tish, ijodiy faoliyat sari qadam qo'yilganligini ifoda etadi.

Dars – bevosita o'qituvchining rahbarligida o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lum-tarbiya jarayoni bo'lib, ayniqa boshlang'ich sinflarda o'quv ishining asosini tashkil etadi. O'qituvchi integratsiyalashgan ya'ni uyg'unlashgan mashg'ulotlarni o'tishda quydagilarni e'tiborga olishi lozim:

1. Har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilishi va puxta rejalashtirilishi zarur.
2. Predmetlararo aloqaga oid tanlangan qo'shimcha materiallar o'tiladigan mavzu bilan mantiqiy bog'lanishi shart.
3. O'tiladigan mavzu bo'yicha tanlangan o'quv materiallari harakteriga ko'ra dars turi, o'qitish usullariga muvofiq kelishi zarur.
4. Sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishslash yo'llarini aniqlash muhim.

5. Dars, faqatgina ta'limiy bo'lib qolmasdan, uni o'quvchilarning insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur.

6. Mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar o'quvchida respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi darkor.

7. Darsning mazmuni o'quvchilarda estetik va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga va umuminsoniy ahlojni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi muhimdir.

Yuqorida ko'rsatilgan ishlarni amalga oshirish, o'z navbatida, bir qator tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirilishini taqozo etadi. Buning uchun:

- o'qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi bilan birlashtirishda, uni amalga oshirish uchun qanday dars turi va uslublardan foydalanishini aniq bilish lozim;

- dars jarayonida ishlash uchun ko'rgazmali qurollarni, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash va undan samarali foydalana olish kerak;

- sindi jamoasi va har bir o'quvchiga uning o'ziga xos harakter xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashish darkor;

- sindi o'quvchilarining faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni to'g'ri belgilash, ayniqsa ularning mustaqil fikr yuritishlari uchun sharoit yaratish lozim.

2-sinf uchun integratsiyalashgan dars ishlanma (o'qish, matematika, tasviriy san'at)

Darsning mavzusi:

O'qish: "Mukofot" (ertak)

Matematika: " 100 ichida sonlarni xonadan o'tib qo'shish usullari"

Tasviriy san'at: "Hayvonlar rasmini chizish".

Darsning maqsadi:

- a) **Ta'limiy:** o'quvchilarni " Mukofot" ertagi bilan tanishtirish, quyoncha rasmini chizishga o'rgatish, 100 ichida sonlarni xonadan o'tib qo'shish usullarini o'rgatish.
- b) **Tarbiyaviy:** kitobni asrabavaylashga o'rgatish, jonivorlarga nisbatan g'amxo'rlik hissini uyg'otish.
- c) **Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, so'zlash, tez o'qish, rasm chizish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: o'yla izla top o'yini, zig-zag, aqliy hujum, test, suhbat metodi.

Dars jihizi: darsliklar, ko'rgazmalar, tarqatmalar, multimedya vositasi rag'bat kartochkalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomat
- c) navbatchi axboroti
- d) nutq o'stirish daqiqasi

II. Asosiy qism:

a) uyg'a vaziifani tekshirish:

o'qituvchi o'quvchilardan "Uyg'on" she'rini zig-zag usulida so'raydi.

b) yangi mavzu bayoni:

o'qituvchi o'quvchilarga "Mukofot" hikoyasini multimedia vositasi orqali eshitiradi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, kattakon o'rmonda qayrag'ochalar ostida bir maktab bor ekan.

Unda Moshvoy ismli mushukcha, Qag'-qag' ismli qarg'acha, Dik-dik ismli quyoncha, ismi CHi-chi sichqoncha, Pi-pi ismli maymuncha, Xir-xir ismli choo'chqacha va boshqalar o'qishar ekan.

O'qish boshlangan kuni Tovusxon ismli juda xushfe'l , muloyim bir o'qituvchi ularga kitob va daftarlari ulashibdi.

- Kitoblariningni yirtmasdan, yaxshi saqlanglar....



1-rasm. "Mukofot" hikoya qahramonlari

(Multimedia o'quvchilarga eshittirilgach, hikoya qahramonlari bilan tanishtiriladi (1-rasm), hikoya ichidan notanish so'zlar aniqlanadi.

mukofot - sovg'a

muqova - kitobning ustki qismi

ta'kidlamoq - alohida tayinlash,uqtirish

surat - chizilgan rasm, tasvir

xushfe'l - yoqimli, muloyim

o'qituvchi "Aqliy hujum" metodi orqali savol - javob o'tkazadi.)

Savol: hikoya qahramonlari nomlarini sanang

Javob: Moshvoy, , Qag'-qag' qarg'acha, Dik-dik quyoncha, CHi-chi sichqoncha, Pi-pi.

Savol: kimlar noto'g'ri ish qilishdi.

Javob: Qag'-qag', CHi-chi, Pi-pi.


Savol: tovusxon: qaysi qahramonlarga mukofot beradi.

Javob: Moshvoy, Dik-dik

Savol: nima uchun Moshvoy va Dik-dikni o'qituvchi mukofotladi

Javob: chunki ular kitoblarini yirtmay, kir qilmay, ozoda va toza saqlashgan ekan.

O'qituvchi: bizning odobli, bilimdon qahramonlarimizdan biri quyoncha rasmini chizishni o'rganamiz(2-rasm). (Doskada quyoncha rasmini chizilish texnikasi ko'rsatiladi).



2-rasm. Quyoncha

O'quvchilarni 3 guruhga bo'lib oladi va o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi. Bizning sinfimizda 21 ta qiz bolalar va 13 ta o'g'il bolalar o'qiydi. Hozir darsimizda 1 ta o'quvchi sababli darsga qatnasha olmayotgan bo'lsa, sind xonasida jami nechta quyonchaning rasmi chizilgan.

Yechish: 1) $21+13=20+1+10+3=30+4=34$

$$2) 34-1=33$$

$$3) 33+1=34$$

Javob: 34 ta quyon rasmi chizilgan

Ba'zi shoshqaloq o'quvchilar sinf xonasida jami o'quvchilar sonidan 1 ni ayirib nechta quyon rasmi chizilgan ekanligini osongina topa olishadi. Lekin buni mantiqan fikrlaydigan bo'lsak yana 1 ta chizilgan quyon rasmi bor edi, o'qituvchi doskaga chizib ko'rsatgan quyon rasmi. To'g'ri va aniq fikrlay olgan guruhlar rag'batlantiriladi.


O'qituvchi guruh sardorlari o'rtasida tez aytish musobaqasini o'tkazadi. Eng ko'p aytgan guruh sardori rag'batlantiriladi.

Sardor sabzini savatga soldimi,

Sardor sabzini savatdan oldimi?

c) yangi mavzuni mustahkamalsh.

Darsni va lug'at so'zlarni "o'yla izla top" o'yini orqali mustahkamlanadi. O'yin sharti: 1-quti ichida hikoya qaxramonlarini 2-quti ichida lug'at so'zlardan birini olib, ikkala so'zdan hikoya mazmuniga mos gap tuziladi(3-rasm). Masalan, quyoncha Dik-dik va muqova so'zlari tanlandi. Quyoncha Dik-dik hamma kitoblarining ustki qismini toza saqlar edi(bu erda lug'at so'zining ma'nodoshidan foydalaniladi)



3-rasm. O'yin uchun qutilar

2. "Test" metodi orqali o'quvchilar bilimini tekshiriladi.

1. Kim kitobni asrab avaylaydi?
 - a) Xir-xir
 - b) CHi-chi
 - c) Mushukvoy, Dik-dik
2. Kitobdag'i gilos, olmalarini cho'qib ko'rgan qahramon?
 - a) CHi-chi
 - b) Qag'-qag'
 - c) Dek-dik

(To'g'ri yechgan o'quvchilar rag'batlantiriladi)

III. Yakuniy qism:

- a) rag'batlantirish
- b) kundalik bilan ishlash
- c) Uyga vazifa berish

Albatta o'qituvchi dars o'tishda turli xil shakl va uslublardan foydalanadi, ularni to'g'ri qo'llash esa darsning sifatini oshiradi. Har bir fanlararo aloqador dars o'quvchilarga ma'lum miqdorda bilim-tasavvur va tushunchalar beradi [3,12].

Demak, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'ra turib, avvalo maqsadni aniq belgilab olish, shunga ko'ra darsning mazmunini belgilab asosiy savollarni ajratib olish kerak bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflardagi o'qish, tabiat, odobnama va boshqa fanlarning matnlari mazmunini gapirib berish bilan chegaralanmaslik talab etiladi. O'qituvchi har bir darsning mazmunini aniqlashda fanning o'zi. Fanlararo aloqalar hisobga olinishi darkor. O'qituvchi darsning maqsadini aniqlagach unda qanday tasavvurlar va tushunchalar o'z aksini topishini, o'quvchilar ushbu darsda qanday malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini belgilab olishi zarur. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki ta'limg-tarbiya jarayoniga integratsiyalashgan texnologiyalarni qo'llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni qo'llashni talab etadi. Chunki o'quv jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib, qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samara bermaydi. O'quv jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi integratsiyalashgan texnologiya, o'quv jarayonda hamkorlik qilish va e'zozlash orqali o'quvchining taqsil olishi, ijod qilishi va o'z-o'zini rivojlanirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ehti sanaladi va o'qituvchi bilan hamkorlikda yagona ta'limg jarayonini 2 ta sub'ehti o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

O'qituvchining o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urish, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'aro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, tahsil olish jarayonida o'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobji rivojlantirishning ustunligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lishi, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining demokratizatsiyalash o'qituvchi va o'quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarga tanlash, o'z fikri va nuqtai nazarini erkin bayon etish huquqini berilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar huquqlari konvensiyasiga amal qilinishini taqozo qiladi.

Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos jihatni ham aynan shu ikki jarayonni uyg'un holda olib borishni talab etadi. Yangi qo'llaniladigan ta'lim an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchilarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish orqali o'quvchilarida fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini ortirish o'quvchining ehtiyoji, qiziqish imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi. Ta'lim – tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangiliklar talablar, mazkur jarayonda texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi. Bu texnologiyalar juda ham xilma-xil bo'lib o'quv jarayonida tanlangan mashg'ul turiga qarab tanlab olinadi.

Adabiyotlar

1. Maktab ta'limini rivojlantirish umuxalq harakatiga aylanishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish... masalalariga bag'ishlangan videoselektor. Xalq so'zi. №174. 2019y.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, 2009
3. Umarova X. Fanlararo integratsiya. «Boshlang'ich ta'lim» jurnali. 3-soni. 2000 y. 12-bet.
4. Choriyev R. Kichik mutaxassislarini tayyorlashda integratsiyalashning ba'zi muammolari. «Maktab va hayot» jurnali T.2003 y. 8-soni. 6-bet.
5. Abdullaeva B.E. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida «Uzluksiz ta'lim» jurnali. 2005 y. 1-soni 12-b.
6. T.G'afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova "O'qish kitobi" 2-sinf uchun darslik. "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.2018 y. 36-38-b.
7. N.Abdurahmonova, L.O'rinoiboeva "Matematika" 2-sinf uchun darslik. Toshkent "Yangi yo'l Poligraf Servis"2018 y. 20-21-b.

UDK: 373.167

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLIKALARIDA MAQOLLARNING BERILISHI VA O'QITILISHI

M.Vafoyeva, U.Shodiyorova
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi o'quvchilar o'rganadigan she'riy hamda nasriy asarlarning mavzusida, matn ichida va xulosada, shuningdek, mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol, topshiriqlarda ham xalq maqollarining uchrashi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga maqollarni savol-javob, rebus, boshqotirma kabi turli xil topshiriqlar yordamida o'rgatilishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: maqol, hikmatli so'z, matal, she'rlar, masal, ertak, hikoya, afsona, topishmoq, ilmiy-ommabop asar, pedagogik texnologiya.

Обучение и применение пословиц в начальном образовании

Аннотация. В данной статье даётся информация о выявлении народных пословиц в составе темы, содержании текста и в его конце в качестве вывода произведений поэзии и прозы в учебниках начального образования которые учат ученики а также в составе вопросов и заданий данных для укрепления темы. Анализируется обучение пословиц ученикам начальных классов при помощи разных заданий как вопросы-ответы, ребусы, головоломки.

Ключевые слова: пословица, афоризм, притча, стихотворение, басня, сказка, рассказ, легенда, загадка, научно-публицистические произведение, педагогические технологии.

The ways of expressing and teaching proverbs at primary schools textbooks

Abstract. This article deals with the information about the occurrence of folk sayings in the themes, texts and at the end of them as a conclusion and in questions given for theme enhancement the contents of poetry and prose learned by pupils from the textbooks of elementary education. Teaching sayings to the pupils of elementary classes with the help of different tasks like question-answer, rebuses, puzzles is analyzed.

Keywords: proverb, aphorism, parable, poem, fable, fairy tale, story, legend, riddle, science fiction, pedagogical technology

Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shakl, ammo chuqur mazmunli janri hisoblanadi. Unda tugal xulosa, ravon ifoda, ibratl fiqr mujassam bo'ladi. Maqollarning har biri aql-tafakkur mahsuli bo'lib, tilimiz boyligini, ko'r kamligini o'zida namoyish etgan, ota-bobolarimizning uzoq yillik tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalarini hisoblanadi.

Maqollarning mavzu doirasi keng bo'lib, hayotning turli jabhalarini qamrab oladi, shuningdek, unda xalqning urf-odati, ruhiyati, butun borlig'i aks etadi.

Fikrni tushunarli, ta'sirchan qiluvchi ibratl so'z – maqollar asosan, so'zlashuv uslubida, shuningdek, badiiy adabiyotning turli janrlarida keng qo'llaniladi.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarida ona tabiat va uni ko'z qorachig'idek asrash, Vatanimiz tarixi, buguni, kelajagi, turfa insonlar hayoti, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik-totuvlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

"O'qish kitobi"dagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki hamda yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga qaratiladi. Buni har bir mavzudan so'ng berilgan savol va topshiriqlar, maqol va hikmatli so'zlar, tez aytish va topishmoqlar asoslaydi.

Boshlang'ich ta'limda maqollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mavjud vaziyatlardan to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qish kitoblarida hikmatli so'zlar alohida "Maqollar"(5.80-b) mavzusi ostida ham, o'quvchilar o'rganadigan asarlarning sarlavhasida, matn ichida va oxirida berilgan. Bundan tashqari, mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar ichida ham maqollarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, 3-sinf "O'qish kitobi"da "Vaqtning ketdi – naqding ketdi"[4.54-55-b]; "Tilga ixtiyorsiz – Elga e'tiborsiz" [4.127-129-b]; 4-sinf "O'qish kitobi"da "Istiqlolim - istiqbolim" bo'limi yuzasidan takrorlash savollarining ichida "Bulbul chamanin sevar, odam – vatanin" [5.19-b]; Xalq ertagida "So'nggi pushaymon o'zingga dushman"[5.44-48-b]; "Nima yaxshi-yu, nima yomon?" [5.146-b] bo'limining oxirida nutqingizni boyitingda inshoni "Yalqovlik – yomon odat" deya nomlang kabi topshiriqlar keltirilgan.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, 2-sinf "O'qish kitobi"da Ollobergan Po'latning "Hunar – bebaboylik" [3.63-b] she'rida, Shorasul Zunnunning "Nima eksang, shuni o'rasan" [3.93-94-b] hikoyasida, "Tan sihatlik – tuman boylik" [3.132-133-b] o'zbek xalq ertagida, Nurmat Maqsudiyning "Ilmli ming yashar"[4.58-59-b] hikoyasida, Hakim Nazirning "Yaxshilik yerda qolmas"[4.188-190-b] hikoyasida maqollar asarning mavzusi sifatida; "Uch o'rtoq" [3.128-129-b] o'zbek xalq ertagida asarning xulosasi sifatida "Nodon do'stdan ziyrak dushman yaxshi" maqoli keltiriladi, "Tansihatlik – tuman boylik" [3.132-133-b] o'zbek xalq ertagida esa ham mavzu nomi, ham asarning xulosasi sifatida "Sog' tanda sog'lom aql"; 3-sinf "O'qish dars"ligida Malik Murodovning "Yersevarni – el sevar" [4.156-b] hikoyasida asar mavzusi sifatida; "Ahillik – ulug baxt" [4.30-31-b] nomli qirg'iz xalq ertagida ham asar nomi, ham asar xulosasi sifatida shu maqoldan foydalilanilganligining guvohi bo'ldik.

Abdusodiq Irisovning "Arpa-bug'doy osh bo'lur" [2.117-118-b] ertagida uch kishining safarga otlangani, ulardan ikkitasi belbog'iga oltin-kumushlarini, qimmatbaho narsalarini tugib jo'nashi, uchinchi kishi bir xalta non-u tolqon, bir ko'za suv ko'tarib chiqishimi ko'rib, haligi ikki kishining kulib uchinchi kishini mazax qilishi, oxir-oqibatda cho'l-u biyobonda ochlik va tashnalikdan tolqoni va suvi bor kishi qutqargani hikoya qilingan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa "Arpa-bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan" maqoli bilan ifodalangan bo'lsa, Munavvarqori Abdurashidxonovning "Har kim ekkanin o'rар" [5.31-32-b] she'riy ertagida o'g'il va nevaraning otaga bo'lган munosabati aks etgan. Bir o'rinda otaning o'z otasiga qilgan munosabati o'g'ilga eslatiladi, shuningdek, otaning o'z qilmishiga, o'z xatosiga iqror bo'lishi haqida so'z yuritilgan va asar so'ngida ertak g'oyasiga mos xulosa sifatida "Har kim ekkanin o'rар"

maqoli qo'llanilgan: Menga yarar shul o'rinni, Bir kun senga ham yarar. El aro bor bir matal: "Har kim ekkani o'rari".

Bu kabi maqollarning berilishi asar mazmunining mag'zini ochib beradi. O'quvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilan berilgan topshiriqlarni jon-dildan bajaradilar. O'qituvchi shularni hisobga olib, maqollar bilan xilma-xil mashqlar ishlatalish orqali o'quvchilarga so'zlarning majoziy ma'nosini, ko'p ma'no ifodalashini amaliy singdirib boradi.

Maqollarni o'rganish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: 1 – 2-sinflar maqollarni o'rganishning birinchi bosqichi; savod o'rgatish davri maqollarni o'qish va o'rganishning tayyorlov bosqichidir. Maqollarni o'rganishda ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyat bilan bog'liqligi, ta'lif-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi. Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim.

1-sinfda maqollarni asosan ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. Bundan tashqari, maqol matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi va takrorlanib keluvchi so'zlar ma'nosini ustida alohida ish olib borishkerak [1.139 -140].

Maqol tili ustidagi 1-sinfda uyushtirilgan ishlar 2-sinfda ham davom ettiriladi. Maqol ustida ishlash orqali o'quvchilar uning yaratilish sababini, oddiy gapdan farqini bilib oladilar. Bundan tashqari, 2-sinfda o'quvchilardan matn mazmuniga mos maqollar aytishni talab qilish mumkin va bu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiriladi. 2-sinf "O'qish kitobi"da "Maqol nima?" degan savolga quyidagicha javob berilgan: "*Maqollar xalq og'zaki ijodiga kiradi. Odamlar hayotda ko'rgan-kechirganlari asosida maqollarni yaratadilar. Maqollar kichik hajmda bo'lib, pand-nashhat mazmunini ifodalaydi*" [3.5-b].

3–4-sinflarda esa maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur.

Biz quyida boshlang'ich sinf o'quvchilariga maqollarni savol-javob, rebus, boshqotirma kabi turli har xil topshiriqlar yordamida tushuntirmoqchimiz:

I. Berilgan maqollardagi tushib qolgan so'zlarni toping.

1. Hunar – bebaho ... (aziz, qadriyat, boylik);
2. Nima eksang, shuni ... (ko'rasan, o'rasan yeysan);
3. Ilmli ming ... (yashar, sanar, so'zlar);
4. Yersevarni – el ... (qadrlar, sevar, kuylar);
5. Yaxshilik yerda ... (bo'lmas, emas, qolmas);
6. Hunarsiz kishi o'limga ... (yaqin, teng, loyiq).

II. "Hunar – bebaho boylik", "Nima eksang, shuni o'rasan", "Ilmli ming yashar", "Yersevarni – el sevar", "Yaxshilik yerda qolmas", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" maqollari mazmunini aytинг.

III. Hunar haqidagi maqollarni Sinkveyn metodi yordamida quyidagicha ifodalash mumkin.



IV. Berilgan savollarning javobini toping.

1. "Tansihatlik – tuman boylik" [3. 132-133-b] ertagida qaysi maqol keltirilgan?


A) Sog' tanda sog'lom aql B) Tansihatlik – tuman boylik

D) Yaxshidan bog' qoladi E) Nima eksang, shuni o'rasan

2. "Yaxshidan bog' qoladi" [5.161-162-b] maqoli qaysi rivoyatda keltirilgan?

A) Yaxshilik yerda qolmas B) Yaxshidan bog' qoladi

- D) Hunarsiz kishi o'limga yaqin E) Bo'linganni bo'ri yer
 3. "Ahillik – ulug' baxt"[4.30-31-b]qirg'iz xalq ertagining oxirida qaysi maqol keltirilgan.
 A) Tansihatlik – tuman boylik B) Ilmli ming yashar
D) Ahillik – ulug' baxt E) Hunar – bebaho boylik
 4. "Har kim ekkanin o'rар" [5.31-32-b] maqoli qaysi asar xulosasi sifatida keltirilgan.
 A) Bulbuljonim kuylasini B) Non qayerdan keladi?
 D) Bahor E) Har kim ekkanin o'rар
 V. Berilgan so'zlarga harflarni to'g'ri qo'shib-ayirsangiz, maqol hosil bo'ladi.
 1. Hunar+li=Hunarli; erta-ta=er; komil-omil+amma-ma=kam; bo'l+olma-ol+s=bo'lmas.[Hunarli er kam bo'lmas 4.181-b]
 2. Olima – a=Olim; oq – q+dam=odam xola – la+r = xor; bo'l+may+dim-m=bo'lmaydi. [Olim odam xor bo'lmaydi 5.101-106-b]
 3. Bayram; ega; taqib; yeng. [Bayroqning egilgani – raqibning yengilgani 5.175-177-b]
 4. Tola; tish; buyruq; ketmon; o'zak; yuk. [Bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur 5.153-155-b]
- VI.** Soat yo'nalishi bo'yicha bir xil bo'g'inlarni o'chirib, yashirilgan maqolni o'qing va ma'nosini tushuntiring. [Javob: "Odobni odobsizdan o'rgandim"2.72-b]



VII. "Bir haqiqat uch yolg'on" ta'limiyo'yini orqali hikoyada keltirilgan to'rt maqol orasidan faqat bittasini tanlang

3-sinf O'qish kitobida "Bebaho boylik"[4.54-b] hikoyasi qahramoni "Vaqting ketdi – naqting ketdi" maqolining mazmunini buvasidan so'raydi. Buvasi bu maqol mazmunini tushuntirishdan oldin unga bir savol beradi, so'ngra hayotiy voqeani aytib beradi. Voqea ishtirokchisi o'zi tengi maktab o'quvchisi bo'lganligi va shuning bilan birga uning bebaho boylik hisoblanuvchi vaqt dan unumli foydalanganligini bilib, hikoya boshida bergen savoliga javob topadi. O'quvchilar ham "Vaqting ketdi – naqting ketdi" maqoli mazmunini tushunib oladilar.

O'qituvchi shu maqol mazmuniga yaqin yana qanday maqollarni bilasiz deya o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi. O'quvchilar: *Vaqting bor – naqding bor. Vaqting ketdi – baxting ketdi. Vaqtdan yutding – baxtdan yutding.*

"Bir haqiqat uch yolg'on" ta'limiyo'yini yordamida mavzu mustahkamlanadi. Bu o'yinda o'quvchilarga maqollar beriladi. Berilgan maqollar orasidan hikoyada keltirilgan maqolni topish kerak. To'rt maqol orasidan faqat bittasini tanlash talab qilinadi. Maqollar: 1. Vaqting ketdi-naqting ketdi. 2. Bahorning bir kuni qishni boqar. 3.Dardingning vaqt o'tsa, Tabibdan o'pkalamada. 4. Temirni qizig'ida bos.

Matematik amallarni bajarib, maqolni to'ldiring.

Vaqting ketdi – ... ketdi.


	64:8	49:9
8 ^N	3 ^I	9 ^T
5 ^Q	4 ^A	2 ^{Ng}
100:25	36:12	125:25
22:11		

VIII.Jumboqdagi maqollarni toping va ularning ma'nosini tushuntiring.

A	A	N	N	I	L	R	L	I	Y
L	G	D	H	U	N	A	L	A	E
I	N	U	SH	M	K	I	SH	I	R
N	I	U	N	A	A	Q	L	L	I
O	L	L	A	N	B	O'	R	I	A
D	O'	I	D	G	X	Y	B	O'	L
O	B	L	T	U	O	A	S	A	M
N	D	O'	S	D	R	X	SH	I	I

Nodon do'stdan ziyrak dushman yaxshi [3.128-129-b]. Bo'linganni bo'ri yer [4.38-39-b]. Hunarli kishi xor bo'lmas [5.61-b].

IX. Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz, ajoyib maqolni bilib olasiz [Bola boshidan 4.123-124]



X. “Test topshiriqlarini bajaring:

Tinchlik haqidagi maqollarni mazmunan mosini tanlab, davom ettiring va daftaringizga yozing.

- | | |
|---------------------|--------------------|
| 1) Tinchlik — baxt, | a) bog'i gullar. |
| 2) Yurting tinch — | b) sog'lik — taxt. |
| 3) Olam tinch — | d) xonam tinch |
| 4) Tinch elning | e) sen tinch. |

Xulosa qilib aytganda, maqollar o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o'qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatic tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Xalq maqollaridan muayyan maqsadda foydalanishga odatlanishimiz kerak. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo'ladi. Har bir gapirligan gapning salmog'i oshib, ta'sirchan va keskir bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: “Noshir”, 2009.
2. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. “O'qish kitobi”: 1-sinf uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2017.
3. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. “O'qish kitobi”: 2-sinf uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2016.
4. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. “O'qish kitobi”: 3-sinf uchun darslik. –T.: “O'zbekiston”, 2016.
5. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. “O'qish kitobi”: 4-sinf uchun darslik. –T.: “Yangiyo'l poligraf servis”, 2017.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzARB mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiyl qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas’ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X. Sh. Tashpulatov
O. Ro’ziboyev
A. I. Inatov

Muharrirlar:

I.Sulaymonov
E.Arziqulov
O.Yusupova
A.R.Safarov

- f.f.d., dotsent
- f.-m.f.n., dotsent
- fil.f.n., dotsent
- PhD., dotsent

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.046.2020 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 60.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.